

ONA TILI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING
6- SINFI UCHUN DARSLIK

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan*

Qayta ishlangan va to'ldirilgan to'rtinchi nashri

«TASVIR» NASHRIYOT UYI
TOSHKENT — 2017

UO‘K: 811.512.133(075)
KBK 81.2O‘zb-922
O-58

Mualliflar guruhi:

N. MAHMUDOV, A. NURMONOV
A. SOBIROV, D. NABIYEVA

SHARTLI BELGILAR:



— iqtidorli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mashqlar



— savol va topshiriqlar

**Respublika maqsadli kitob jang‘armasi mablag‘lari hisobidan
ijara uchun chop etildi.**

**Ushbu nashrga doir barcha huquqlar muhofaza qilinadi va
nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot
roziligisiz to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosish taqiqlanadi.**

ISBN 978-9943-4003-0-6

© «TASVIR» NASHRIYOT UYI, 2005
© «TASVIR» NASHRIYOT UYI, 2009, 2013, 2017

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT TILI VA BOSHQA TILLARNING RIVOJI

1-mashq. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunidan olingan bandlarni o‘qib, ular haqida suhbatlashing.

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

24-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi.

2-mashq. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» kitobidan olingan parchani o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu — millatning ruhidir.

...Nihoyat, 1989-yilning 19-oktabr kuni bu o‘ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo‘yildi. Va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so‘ng mamlakatimizda o‘zbek tili davlat tili deb e‘lon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lmish ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma’nodagi buyuk voqea edi.

...1992-yil 7-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo‘yildi. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilindigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.


3-mashq. Quyida berilgan soʻzlarni ikki guruhga ajratib yozing. Birinchi guruhga oʻzbek tiliga qarindosh boʻlgan, ikkinchi guruhga esa qarindosh boʻlmagan tillarni joylashtiring.

Rus, ingliz, qozoq, fransuz, tojik, qirgʻiz, uygʻur, qoraqalpoq, xitoy, tatar, hind, arab, koreys, ukrain.

4-mashq. Maqollarni koʻchiring. Ularda ilgari surilgan gʻoya toʻgʻrisida soʻzlab bering.

1. Ovqatni tuz mazali qiladi, odamni — soʻz. 2. Til — aql oʻlchovi. 3. Yaxshi soʻz — yurakka malham, yomon soʻz — yurakka gʻam. 4. Tilingda boʻlsa boling, kulib turar iqboling.

5-mashq. Uyga vazifa. Boshqotirmada yashiringan xalqlarning nomlarini toping. Ular haqida bilganlaringizni oʻrtoqlaringizga soʻzlab bering.



1. Oʻzbekiston Respublikasi tarkibiga respublika sifatida kirgan xalq nomi.

2. Volga daryosi boʻylarida yashovchi turkiy xalq nomi.

3. Oʻzbekiston Respublikasining shimolidagi davlatda yashovchi xalq nomi.

4. Issiqkoʻl boʻylarida yashovchi turkiy xalq nomi.

5. Hozirda Xitoy Xalq Respublikasida yashovchi turkiy xalq nomi.

5-SINFDA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

UNLI TOVUSHLAR



1. Unli tovushlar deb qanday tovushlarga aytiladi?
2. O‘zbek tilidagi unli tovushlarni ayting va ularga tavsif bering.
3. *Bilim, tuzish, o‘lka, odam* so‘zlari tarkibida kelgan unli tovushlarni aniqlab, izohlang.

6-mashq. Matnni o‘qing. Tushirib qoldirilgan unli tovushlarni o‘rniga qo‘ying. Onalar haqida fikrlashing.

M...na, q...yosh k...tarildi. Ona haykal... yog‘d...lar ich...da oft...bday porl...b tur...bdi. Yurtimizda faqat bizning zamonamizdagina ayolga, onaga h...ykal qo‘yildi. Unga, on...ga, but...n dunyo ta‘zim qilsa arz...ydi. (*E. Oxunova*)

7-mashq. Maqollarni ko‘chiring. So‘zlar tarkibida kelgan unli tovushlarga tavsif bering. Ulardagi g‘oya haqida bahslashing.

1. Aql ko‘pga yetkazadi, hunar — ko‘kka. 2. O‘qish yaxshi, uqish undan ham yaxshi. 3. Yomonlikning oxiri — voy. 4. Mehnatda sinalgan — elda aziz. 5. So‘z doriga o‘xshaydi — ortiqchasi zarar keltiradi.

8-mashq. Nuqtalar o‘rniga unli tovushlarni qo‘yib, turli xil so‘zlarni hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Z...r, q...l, t...p, b...l, t...z, m...l, k...r, q...y, d...l, t...r.



9-mashq. Unli tovushlari tushirib qoldirilgan hikmatli so‘zni o‘qing va undagi unli larni izohlang.

t	l	sh	r	n	n	ng	d	s	t	k	p
---	---	----	---	---	---	----	---	---	---	---	---

10-mashq. *Uyga vazifa.* Yodlagan she‘ringizdan bir misra yozing. Unli tovushlarga izoh bering.

UNDOSH TOVUSHLAR



1. Undosh tovushlarning hosil bo'lishini tushuntirib bering.
2. Lab undoshlari qaysilar?
3. Til undoshlari deb qanday undoshlarga aytiladi?
4. «B», «p», «d», «t» undoshlari ishtirokida so'zlar tuzing.
5. Jarangli undoshlarga tavsif bering.
6. Jarangsiz undoshlarni izohlang.
7. Undoshlar imlosi haqida so'zlab bering.

11-mashq. Matnni o'qing. Undoshlarni lab undoshlari, til undoshlari va bo'g'iz undoshiga ajrating. Matndan olgan taassurotingiz haqida gapirib bering.

Yarim soatlardan keyin ona ayiq inidan chiqdi...

Shunda Islom rejissorning miltiqqa qo'l cho'zayotganini ko'rdi.

— Nima qilmoqchisiz?! — dedi.

— Menga qarang, shuni siz otib bering menga, — dedi u. — Terisi juda kerak.

— Mehmon, siz meni bilmaysiz... Mening otam ham, onam ham, do'stim ham mana shu tabiat. Meni tog' shaydosi, dey-dilar. Bu xayolni boshingizdan chiqaring! (*Sh. Xolmirzayev*)

12-mashq. Hikmatli so'zlarni o'qing. Ulardagi g'oya haqida bahslashing. Undosh tovushlarni jadvalga joylashtiring.

1. Yer — dehqonning joni, suv — qoni. 2. Yerni siylaganni el siylaydi. 3. Yer — xazina, suv — oltin. 4. Yer egasi bo'lma, mehnat egasi bo'l. 5. Yer ochganning baxti ochilar. 6. Mehnat — rohat va farog'atning kaliti.

Til oldi undoshi	Til o'rta undoshi	Til orqa undoshi	Chuqur til orqa undoshi

13-mashq. *v, g, n, r, t, f, ch* undoshlari ishtirokida so'zlar hosil qiling.

N a m u n a : Vatan, gul, non, archa, baxt, fikr, chiroyli.

◆ **14-mashq.** Xato berilgan soʻzlarni aniqlang, ularni imlo qoidalariga mos ravishda koʻchiring, undosh tovushlarga eʼtibor bering. Ona tilining inson hayotidagi oʻrni haqida fikrlashing.

Jahonda nimaiki oq boʻlsa, unga ona suti timsol; nimaiki joʻshqin boʻlsa, unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli boʻsa, ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat, mehri daryolik daʼvo qisa, onaning pok qalbi timsol. Shu bois biz har vaqt onaga nisbat berip «ona yurtim», «ona tilim» deymiz. (*O. Alimardonova, Q. Nazarov*)

15-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida «Mustaqillik bayramida» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan undoshlarni izohlang.



OʻZBEK ALIFBOSI VA IMLO QOIDALARI



1. «Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?
2. Oʻzbek alifbosini yoddan aytib bering.
3. Imlo qoidalari deganda nimani tushunasiz?

16-mashq. Matnni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning talaffuzi va imlosidagi farqlarni tushuntiring. Yurtimizdagi ulkan bunyodkorlik ishlari haqida soʻzlab bering.

— Yonboshingizdagi ulugʻvor togʻlar, jonning huzuri, gʻir-gʻir shabada... Sut, qimiz **serob**, — hazillashdi Komila.

— Jannat-ku bu hayot, o‘zim cho‘pon bo‘lar edim, iloji bo‘lsa, **rost** aytyapman. Cho‘ponlar **gurullab** xoxoladilar.

Syrak **soqol**, **burushgan** yuzli, qotma gavdali cho‘pon chol e’tiroz qildi:

— Ehe Komilaxon, yoshsiz, bilmaysiz, bu **hunarning** ham **mashaqqati** zo‘r, og‘ir mehnat. Qo‘ylar misli **chaqaloq**, parvarishning **talabgori** ular. Tog‘da bo‘ronlar, sellar, toshqinlar, **shamollar**... Oho, ofat **behad** ko‘p. Hamisha ziyraklik lozim. (*Oybek*)

 **17-mashq.** Quyida berilgan so‘zlarning imlosiga diqqat qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Uzum, darvozabon, jahongashta, jigarband, donishmand, xushomadgo‘y, serdaromad, shod-xurram, hukumat, madaniyat, qahqaha, hasharot, muddao, olimpiada.

18-mashq. So‘zlarni alifbo tartibida daftaringizga yozing.

Sabzavot, poytaxt, zangori, jonajon, bosmaxona, manzil, do‘stlarcha, xavf-xatar, ilhom, g‘uborsiz, inoq, albatta.

19-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing, ularning talaffuzi va yozilishidagi farqlarni toping.

San‘at, hujum, ma‘rifat, shogird, mehmondo‘st, botanika.

Namuna: *O‘zbek san‘atining dovrug‘i butun dunyoga yoyilmoqda.*

BO‘G‘IN VA URG‘U



1. Bo‘g‘in deb nimaga aytiladi?
2. Ochiq va yopiq bo‘g‘in haqida so‘zlab bering.
3. Urg‘u va uning turlari haqida gapiring.

20-mashq. Matnni o‘qing. Undagi go‘ya haqida bahslashing. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating va ularni quyida berilgan jadvalga joylashtiring.

Vatan tuyg‘usi — bu ozod xalqning munosib farzandi, mustaqil mamlakatning fidoyi fuqarosi bo‘lmoqqa intilish tuyg‘usidir. («*Vatan tuyg‘usi*»)

21-mashq. Gaplarni o‘qing, ularda ilgari surilgan g‘oya haqida so‘zlab bering. Ochiq va yopiq bo‘g‘inlarni aniqlab, ularga izoh bering.

1. Go‘zallik tuyg‘usini singdirmay turib, barkamol insonni voyaga yetkazish mumkin emas. (*R. Tagor*) 2. Insonning bittagina zolimi bor, u ham bo‘lsa, jaholat. (*V. Gyugo*). 3. Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi. (*Tog‘ay Murod*) 4. Inson qanchalik ma‘rifatli bo‘lsa, el-yurtga shunchalik ko‘p foydasi tegadi. (*A. S. Griboyedov*) 5. Ilmdan bir shu‘la dilga tushgan on, Aniq bilursankim, ilm bepoyon. (*Abulqosim Firdavsiy*)

22-mashq. *Ko‘zlar, yangi, bog‘lar, hozir, gullar* so‘zlarida urg‘uning ko‘chishi bilan so‘z ma‘nosining o‘zgarishiga diqqat qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: *Bog‘dagi gullar anvoyi hidlar taratadi. Balki, bu olma ham erta-indin gullar.*

23-mashq. «Ilm — hayot chirog‘i» mavzusida matn tuzing, birinchi va ikkinchi gaplardagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating.

LEKSIKOLOGIYA VA LUG‘ATSHUNOSLIK



1. Bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytiladi?
2. So‘z ma‘nosi qanday ko‘chiriladi?
3. Shakldosh so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytiladi?
4. Ma‘nodosh so‘zlar deganda nimani tushunasiz?
5. Zid ma‘noli va uyadosh so‘zlarga misollar keltiring.
6. Eskirgan so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytiladi?
7. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlarga misollar keltiring.
8. Atamalar deb nimaga aytiladi?
9. Shevaga xos so‘zlarga misollar ayting.
10. Iboralar haqida so‘zlab bering.
11. Lug‘atshunoslikda nimalar o‘rganiladi?

24-mashq. Gaplarni ko‘chirib, ko‘p ma‘noli so‘zlarning ostiga chizing, so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolarini izohlang.

1. Omonlik tilasang o‘zingga o‘zing, tilingdan chiqarma yaroqsiz so‘zing. (*Yusuf Xos Hojib*) 2. Odob va fazilatlarining boshi tilni tiyib turishdir. (*Mahmud Koshg‘ariy*) 3. Haqiqat yo‘lini ochinglar, to‘g‘ri yo‘ldan yuringlar (*Abu Ali ibn Sino*) 4. Yolg‘on doim rostdan yengiladi. U suv yuzasidagi ko‘pikdek yo‘q bo‘lib ketadi. (*Abu Rayhon Beruniy*)

◆ **25-mashq.** *Chaqmoq* soʻzi ishtirokida gaplar tuzing va ularning maʼnolarini izohlang.

26-mashq. Maqollarni oʻqib, yod oling. Zid maʼnoli soʻzlarni izohlang. Ulardan nutqingizda foydalanganmisiz? Shu haqda gapirib bering.

1. Kattaga salom ber, kichikka – kalom. 2. Yaxshilik nur keltirur, yomonlik – zulmat. 3. Yomonni tanqid qil, yaxshiga taqlid qil! 4. Koʻp bilgan oz soʻzlar, oz soʻzlasa ham, soz soʻzlar.

27-mashq. Shevaga xos soʻzlarni toping, ularga izoh bering. Matnda ilgari surilgan gʻoya haqida bahslashing.

«Qaysi sheva adabiy
Tilimizga mos kelar,
Xalq tilida qaysi biri
Juda-juda oz kelar?!»
«Qoʻqonda «aqa-baqa»,
Toshkentda «votti-votti».
Bu qanaqa til oʻzi?» —
Deb oʻshqirardi Sotti.
— Hoy Eshniyoz, ne uchun
«Pichoq»ni «pakki» deysan?

— Sen oʻzing-chi, Mirgulshan,
«Tomchi»ni «chakki» deysan.
«Valish»ni «soʻri» desa,
Qurbonali baqrayib
«Qashqir»ni «boʻri» desa,
Tosh oʻrtaga qoʻyib der:
— Mana shu oddiy paqir.
Agar shu chelak boʻlsa,
Guvohlaringni chaqir.
(*Qodir Dehqon*)

28-mashq. Iboralar izohidagi xatoliklarni toʻgʻrilab, daftaringizga koʻchiring. Ular ishtirokida ogʻzaki gaplar tuzing.

Kavushini toʻgʻrilab qoʻymoq (*qoʻrqmoq*), kapalagi uchib ketmoq (*boplamoq*), ogʻzi qulogʻida (*maqamoq*), koʻklarga koʻtarmoq (*xursand*), qovogʻidan qor yogʻmoq (*oson*), xamirdan qil sugʻurganday (*xafa*).

29-mashq. *Uyga vazifa.* Rasm asosida «Maktabimiz bogʻida» mavzusida matn tuzing, unda koʻchma maʼnoli soʻzlardan foydalaning.



MATN

MATN VA MAVZU

1-topshiriq. Berilgan matnni o‘qing. Undagi gaplarning bir-biri bilan bog‘lanishiga e‘tibor bering, gaplar orasidagi mazmuniy aloqadorlikni izohlashga harakat qiling. *«Ustoz otangdan ulug‘» deganlari bejiz emas. Ota hayot beradi. Ustoz esa yashashga o‘rgatadi. Tug‘ilishdan ko‘ra yashash qiyinroq.* (O‘. Hoshimov)

2-topshiriq. Berilgan matndagi gaplarning bir-biri bilan bog‘lanishiga diqqat qiling. Gaplarning bog‘lanishiga xizmat qilayotgan grammatik va leksik vositalarni aniqlab, ular haqidagi o‘z fikrlaringizni bayon qiling. *Boychechak birinchi bo‘lib ochilgani bois ko‘pincha sovuq shamollarga qurbon bo‘ladi. Ammo u bahorni boshlab kelgani uchun odamlar bu gulni ko‘ziga surtib, e‘zozlaydilar.* (O‘. Hoshimov)

BILIB OLING. Ma‘lum bir fikrni batafsil ifodalash uchun gaplarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bog‘lab, matn tuzamiz. Mazmun va grammatik jihatdan bog‘langan, bir mavzuni ifodalovchi gaplar matnni hosil qiladi.

ESDA SAQLANG. Mavzu matndagi asosiy fikrning nima haqida ekanligidir. Shundan kelib chiqqan holda matnning sarlavhasi ham bo‘lishi mumkin.

30-mashq. Matndagi gaplarning o‘zaro mazmuniy va grammatik bog‘lanishiga e‘tibor bering. Unda aks ettirilgan voqeaning mazmunini qayta hikoya qiling.

Rustamjon orziqib kutgan kun keldi. O‘sha kuni u sinfdan chiqdi-yu, to‘g‘ri maktab gulzoriga o‘tdi. Maktab bog‘boni Rasul buvani izlab topdi-da, unga sekin pul uzatdi.

– Buva, shunga ozroq gul bering, kerak bo‘lib qoldi.

Bog‘bon ajablanib Rustamdan so‘radi:

– Nega kerak bo‘lib qoldi?

– Bugun oyimlarning tug‘ilgan kunlari, shunga...

– Juda yaxshi o‘ylabsan. Pulingni cho‘ntagingga solib qo‘y, hozir chiroyli guldasta yasab beraman.

Rustamjon bir dasta xushbo‘y va chiroyli gullarni quchoqlab, uyga chopdi. (N.Najmiddinov)

31-mashq. Matnni o'qing. Uning mavzusiga muvofiq sarlavha topishga harakat qiling. Non qadri haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.

Bolalar bog'ida hayajonli manzaraning guvohi bo'ldik: besh-olti yoshlar chamasidagi qizchanning onasi beriroqda turib chaqirardi:

– Muqaddas, tursang-chi o'rningdan, uyga ketamiz.

Qizcha: «Hozir, hozir», – deydi-yu, yerdan nimanidir shoshilib teradi. U terayotgan narsa non ushog'i ekan.

– Muqaddas, bularni boshqa odam to'kib ketgan-ku!

Qiz ajablanib qaradi:

– Non yerga tushsa, uvol bo'ladi. Katta buvim aytganlar.

(M. Ulug'ova)

32-mashq. Gaplarni ko'chiring. Ularning qanday mavzuga oid ekanligini aniqlang. Vatan mavzusidagi fikrlaringizni bayon qiling.

1. Ayrilmagin elingdan, quvvat ketar belingdan. 2. Baliq suv bilan tirik, odam – el bilan. 3. Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas. 4. Vatansiz inson – kuysiz bulbul. 5. Dushmanga nafrati bo'lmaganing Vatanga muhabbati bo'lmas.



1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Mavzu deganda nimani tushunasiz?
3. Matndagi gaplarning mazmuniy bog'lanishi qanday bo'ladi?
4. Matndagi gaplar grammatik jihatdan o'zaro qanday bog'lanadi?

33-mashq. Uyga vazifa. Esingizda qolgan biron-bir voqea haqida hikoya matni tuzing.

MATN TURLARI. HIKOYA MATNI

1-topshiriq. Matnni ko'chiring. Unda aks ettirilgan voqealarni qayta gapirib bering. Gaplarning mazmunan bog'lanishiga diqqat qiling. *Bu davralarda G'afur G'ulom to'lib-toshib she'rlar o'qirdi. Nimaiki bisotida bo'lsa, barini dasturxonga to'kardi. Hovlisida pishib yotgan giloslarni savat-savat qilib o'rtaga qo'yardi. Shoirlarning yelkasiga to'n tashlab, boshiga do'ppi kiydirardi. O'g'il-qizlari odob bilan xizmat qilishardi.* (Said Ahmad)

2-topshiriq. Matnni o‘qing. Bu matnni tuzishdan ko‘zlangan maqsadni aniqlashga harakat qiling. *Biz borgan joy, haqiqatan ham, go‘zal edi. Bir tomoni – tog‘, bir tomoni – ko‘m-ko‘k dala. Olsida kumushdek toylanib daryo oqmoqda. Lolazor esa xuddi mohir to‘quvchi qo‘lida to‘qilgan qizil gilamga o‘xshardi.* (O‘. Umarbekov)

BILIB OLING. Matn turli maqsadlar bilan tuziladi.

Masalan: muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar berish, hikoya qilish, ularning ta‘rif-tavsifini berish, ya‘ni tasvirlash, ularni muhokama qilish, ya‘ni mulohaza yuritish. Ana shunga ko‘ra, matnlarning quyidagi turlari farqlanadi: 1. Hikoya matni. 2. Tasviriy matn. 3. Muhokama matni.

ESDA SAQLANG. Hikoya matnida muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar beriladi, hikoya qilinadi.

34-mashq. Berilgan matnni o‘qing, uning maqsadini aniqlashga harakat qiling. Ona yurt iftixori haqida fikrlaringizni bayon eting.

IFTIXOR

Nihoyat, Londondan Toshkentga uchadigan bo‘ldik. Havo kemasiga chiqishimiz bilan osoyishta va yoqimli ovoz yangradi: «Assalomu alaykum, xonimlar va janoblar! Sizlarni «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi nomidan muborakbod etamiz!» Rostini aytsam, ko‘zimdan yosh chiqib ketdi. Bu so‘zlar mening tilimda, ona tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, tag‘in yuzlab xorijiy yo‘lovchilar o‘tirgan kemada!..

Aqalli mana shu holatning o‘zi uchun Istiqlolga ming bora ta‘zim qilishga tayyorman! (O‘. Hoshimov)

35-mashq. Matnni ko‘chiring. Matn mavzusiga mos keladigan sarlavha qo‘ying. G‘afur G‘ulom haqida bilganlaringizni gaping.

G‘afur akaning o‘zi o‘sha buyuk ustozlar izidan borishga intilardi. Shuning uchun ham u tariximizni mukammal bilar, rasmlar chizar edi. U raqs tushganda, zo‘r raqqosalar ham davradan chiqib, tomosha qilardi. Qo‘liga taqsimcha olib, xalq termalarini aytganda, hamma jimib qolardi. Dutor chertganda, tinglovchilar bosh egib tebranishardi. G‘afur

aka Yusuf qiziqalar bilan teng kelib askiya aytishardi. Latifa aytishda unga hech kim teng kelolmasdi. Xalq dostonlarini baxshidek ohangi, ifodasi bilan boshdan-oyoq ayta olardi. (*Said Ahmad*)

36-mashq. Ertak matnining boshlanishini o‘qing. Uning davomini so‘zlab bering. Yaxshilik va yomonlik haqida bahslashing.

ZUMRAD VA QIMMAT (ertak)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir chol bor ekan. Uning Zumrad ismli qizi bor ekan. Chol bir qizi bor ayolga uylanibdi. Qizining ismi Qimmat ekan. O‘gay ona Zumradni yoqtirmas ekan. Eng og‘ir ishlarni unga buyurar, qarq‘ab, urarkan. O‘zining qizini juda yaxshi ko‘rarkan, doim uni maqtagini maqtagan ekan. Zumrad aqlli, chiroyli va muloyim qiz ekan. Qimmat esa unga hech ham o‘xshamas ekan. U tantiq, qo‘pol va dangasa ekan. Kun bo‘yi ovqat yer, bo‘lar-bo‘lmasga urisharkan...

37-mashq. Matnni o‘qing. Matnning maqsadini belgilang. Tabiatni asrash haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.

Orolchada ishlar qizib ketdi: har kim har xil gullar, o‘simliklar keltirib ekdi. Qushlarga inlar qurildi. «Kuzatuv daftari»ga orolchada yuzdan ziyod giyoh, o‘simlik va jonivorlar borligi qayd etildi. Qushlar bu hisobga kirmasdi. (*A. Ko‘chimov*)



1. Matn tuzishda qanday maqsadlar ko‘zda tutiladi?
2. Matnning qanday turlari mavjud?
3. Qanday matn hikoya matni deyiladi?

38-mashq. *Uyga vazifa.* O‘zingiz yoqtirgan rasm asosida matn tuzing.

TASVIRIY MATN

1-topshiriq. Berilgan matnning nima maqsadda tuzilganligini aniqlashga harakat qiling.

Dam olish kunlaridan biri edi. Ko'chaga chiqdim. Kech kuz bo'lsa ham, havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hamma yoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar... Go'yo ko'chaga chiqishingizni kimdir bilgan-u yo'lingizga gilam to'shab qo'ygan. (O'. Umarbekov)

2-topshiriq. Hamid Olimjonning «O'zbekiston» she'ridan olingan parchani o'qing. O'zbekistonning go'zal tasviriga alohida diqqat qiling.

*Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida...*

BILIB OLING. Muayyan predmet yoki voqea-hodisalar ta'riflangan, tavsiflangan matn tasviriy matn hisoblanadi.

ESDA SAQLANG. Tasviriy matn badiiy adabiyotda ko'proq qo'llanadi.

39-mashq. Berilgan matnni ko'chiring, bu matnni tuzishdan ko'zlangan maqsadni aniqlashga harakat qiling. Unga sarlavha toping.

Orol o'sha-o'sha. Uzoqdan turib qarasang, ko'z to'ymaydi. Ilon kabi buralib oquvchi daryo shu yerga kelganda, ikkiga ajralgan, uch chaqirimdan so'ng yana birlashadi. Qo'sh kokil yanglig' irmoq orasidagi orol esa yashnab turadi. Na'matak, yovvoyi jiyda, baqaterak joy talashgandek ayqash-uyqash bo'lib ketgan. Suvga egilib turgan jiyda barglari kumush kabi tovlanadi. Atrof sokinlik hukmida. Daryoning oqishi ham, oroldagi qalin daraxtzorning epkinda tebranishi ham ulug'vor. (*Tohir Malik*).

40-mashq. Matnni o'qing. Undagi gaplarning mazmunan va grammatik bog'lanishiga diqqat qiling. O'zingizning uyingizni tavsiflab, matn tuzing.

YANGI HOVLI

Bizning yangi hovlimiz Abdulla Qahhor ko'chasida joylashgan. Hovliga chiroyli eshik orqali kiriladi. Eshik yonida mashina kirishi uchun katta darvoza ham bor. Hovliga kirishingiz bilan besh xonali uyga ko'zingiz tushadi. Uyning tomi to'q qizil rangga bo'yalgan. Oppoq rangdagi derazalarning yaltirashi ko'zingizni oladi. Uyning yerto'lasi ham bo'lib, u yerda sabzavot va boshqa mahsulotlar saqlanadi.

Xonalarning birida ukam ikkalamiz yashaymiz. Bizning xonamizga guldor gilam to'shalgan. Ikkita karavot qo'yilgan. Karavotlarda chiroyli ko'rpa va yostiqlar bor.

Hovlidagi gulzor va mevali daraxtlar ko'zingizni quvnatadi. Daraxtlar tagiga qo'yilgan kattagina so'rida yoz oylarida miriqib dam olish mumkin. (*«O'zbek tilini o'rganamiz» kitobidan*)

41-mashq. Qish manzarasi aks etgan she'rni o'qing. Bu manzarani tasvirlab, nasriy matn tuzing, unda gaplarning bog'lanishiga diqqat qiling.

Kechki osmon ohista
Qorni elay boshlaydi.
Tunning qora sochiga
Oq oralay boshlaydi (*Dilshod Rajab*)

42-mashq. Tabiat tasviri berilgan quyidagi matnni o'qing. Muallifning mazkur matnni tuzishdan ko'zlagan maqsadini aniqlang.

Quyosh chiqib turgan bo'lsa ham, nuri ojiz edi. Yelkamizni isitmas, lekin yoqimli edi. O'rmon ichidan ketgan yo'ldan boryapmiz. Bu — aralash o'rmon, ya'ni turli-tuman mevali-mevasiz daraxtlari ko'p bo'lgan o'rmon. Archa ham serob. Qarang, haqiqatan ham, kuz tushib qolgan. O'riklarning yaprog'i qizil, qontalash. Xuddi birov ular shoxiga bir chelak qizil bo'yoqni sepib tashlaganday. Pastga egilgan yaproqlari sariq ipakday mayin. (*Sh. Xolmirzayev*)

43-mashq. Erta tong manzarasini tavsiflab, tasviriy matn tuzing, undagi gaplarning bog'lanishiga diqqat qiling.



1. Qanday matn tasviriy matn sanaladi?
2. Tasviriy matn ko‘proq qayerda qo‘llanadi?
3. Tasviriy matn boshqa matn turidan nimasi bilan farq qiladi?

44-mashq. Uyga vazifa. O‘zingiz o‘qiyotgan badiiy asardan tasviriy matnga misol topib, daftaringizga ko‘chirib yozing.

MUHOKAMA MATNI

1-topshiriq. Berilgan matndagi fikrlarning bir-biri bilan bog‘lanishiga e‘tibor bering. Undagi asosiy mulohaza haqidagi fikringizni bayon qiling. *Ish ko‘pligi-yu, vaqt yo‘qligidan nolimang. Vaqt ko‘pligi-yu, ish yo‘qligidan qo‘rqing. Chunki odamni abgor qiladigan narsa – bekorchilik.* (O‘. Hoshimov)

2-topshiriq. Berilgan matnda ifodalangan fikr-mulohazaga munosabatingizni bildiring. O‘z ismingiz ma‘nosini izohlashga harakat qiling. *Hech bir ism shunchaki tanlanib, bolaga qo‘yilmaydi. Har qanday ismning berilishi zamirida ota-onaning biror maqsadi, orzu-umidlari, farzandining sog‘ligi, kelajagi, istiqbolini ko‘zlagan ezgu niyatlari yotadi. Mana shu niyatlarda bolaga ism tanlash va berish uchun asos bo‘ladi.* (E.Begmatov)

BILIB OLING. Muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan matn muhokama matni hisoblanadi.

ESDA SAQLANG. Muhokama matni darsliklar va ilmiy kitoblarda ko‘proq qo‘llanadi.

45-mashq. Matnni o‘qing. Kompyuter haqidagi mulohazalardan xulosa chiqarishga harakat qiling. Ana shu mulohaza-xulosalar atrofida bahslashing.

KOMPYUTER

Olimlar kompyuterni inson miyasidan andaza olib yaratgan. O‘ylaydi. Hisob-kitob qiladi. Muammoni yechadi. Xulosa chiqaradi. Eslab qoladi... Faqat kompyuterning insondan bitta

ustunligi bor: keraksiz axborotni xohlagan paytda xotirasidan o‘chirib tashlashi mumkin... Odam esa yomon xotiralarni miyasidan o‘chirib tashlolmay aziyat chekadi... (O‘. Hoshimov)

46-mashq. Matnni o‘qing. Navro‘z bayrami haqida muhokama-munozara qiling.

Navro‘z o‘zbek xalqining shunday bir qadriyatiki, u millatning borligini, ulug‘ligini namoyon etadi. Navro‘z, hech bir shubhasiz, xalqimiz bilan birga yashab, birga ulg‘ayib, taraqqiy topgan bayramdir. Xalq tarixi va madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan Navro‘z qanchalik ko‘hna ildizlarga ega bo‘lsa, ayni paytda shunchalik har yili biz bilan yonma-yon yangilanib, qayta quvvatga kiradi. Ushbu bayramga munosabat xalqimizning o‘tmishi, buguni va kelajagiga munosabatning ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi (*Sh. Turdimov. «Hikmatlar xazinasini» kitobidan*)

47-mashq. Matnni ko‘chiring, gaplarning bog‘lanishiga e‘tibor bering. Boshqa bir o‘simlik haqida muhokama matni tuzing.

QIRQBO‘G‘IM

Dala qirqbo‘g‘imi ildizpoyali ko‘p yillik o‘t bo‘lib, daryo, kanal va ariqlar bo‘yidagi sernam yerlarda, zovurlar yoqasida, buloqlar atrofida, marzalarda o‘sadi. Uning poyasi, shoxlari serqirra va bo‘g‘imlarga bo‘lingan. Shuning uchun ham unga qirqbo‘g‘im deb nom berilgan. Bo‘g‘im oraliqlarining ichi kovak. Uning shoxlari faqat poya bo‘g‘imlaridan chiqadi va bo‘g‘imlarda halqa hosil qilib joylashadi. Barglari mayda bo‘lib, poya va shoxlardagi bo‘g‘imlarda halqa hosil qilib o‘rnashgan. (*6-sinf «Botanika» darsligi*)

48-mashq. Matnni o‘qing, undagi gaplarning mazmunan va grammatik bog‘lanishiga diqqat qiling.

NINACHI

Dunyoda eng ko‘p ovqat yeydigan jonivor qaysi ekanligini bilasizmi? Siz, ehtimol, sher yoki yo‘lbars deb o‘ylarsiz. Boshqa birovlar ayiq yoki bo‘ri deb hisoblar. Ba‘zilar bunday jonivorlar qatoriga filni ham qo‘shishar. Ammo bularning birortasi ham to‘g‘ri emas.

Dunyoda eng ko‘p ovqat yeydigan jonivor ninachidir. U ikki soat ichida qirqta pashsha va chivinni tutib yeydi. Agar uning gavdasi sher yoki fil kabi katta bo‘lganida edi, birdaniga bitta sigirni yeb qo‘ygan bo‘lar edi. Bitta ninachi shuncha zararli hasharotni yo‘q qilsa, o‘nlab, yuzlab ninachilarning tabiatga, odamlarga qanchalik foyda keltirishini tasavvur qilish mumkin. Bu bilan ninachi tabiat qo‘riqchisi vazifasini bajaradi. Tabiatda ninachiga o‘xshagan foydali jonivorlar ko‘p. Ularni asrash hammamizning vazifamizdir. («*O‘zbek tilini o‘rganamiz*» kitobidan)

49-mashq. Matnni o‘qib, uning mazmunini qayta hikoya qiling. Sabzavotlar haqidagi fikrlaringiz asosida muhokama matni tuzing.

SABZAVOT

Odamlar sabzavotni ovqatga juda qadimdan ishlatib keladilar. O‘rta Osiyoda piyoz, sabzi, qalampir, turp va boshqa sabzavot ekinlari ikki ming yil ilgari ham ekilgani ma‘lum. Sabzavot o‘tsimon o‘simlik bo‘lib, uning biror sersuv qismi, chunonchi, sabzi, turp, sholg‘omning etli ildiz mevasi; karam va salatning barglari; gulkaramning g‘unchasi; rovochning barg bandi; pomidor, bodring, baqlajonning mevasi ovqatga ishlatiladi. Sabzavotlar mazali bo‘lishi bilan birga juda foydali hamdir. («*U kim. Bu nima*» kitobidan)



1. Qanday matn muhokama matni hisoblanadi?
2. Muhokama matni ko‘proq qayerda qo‘llanadi?
3. Muhokama matnining boshqa matn turlaridan farqi nimada?

MORFOLOGIYA

MORFOLOGIYAGA KIRISH

Topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Siz 5-sinfda so‘zning ma’no tomoni bilan tanishdingiz. So‘zlarning atash ma’nosi, bir ma’noliligi va ko‘p ma’noliligi, shakldoshligi, ma’nodoshligi, zid ma’noliligi kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo‘ldingiz.

So‘zlarning borliqdagi ma’lum narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni bildirishi ularning atash ma’nolari yoki lug‘aviy ma’nolari deyilishidan, tilshunoslikning atash ma’nolarni o‘rganuvchi bo‘limi esa leksikologiya hisoblanishidan xabardorsiz.

So‘zlar atash ma’nosi bilan birga ma’lum grammatik ma’no va uni ifodalovchi shaklga ham ega bo‘ladi. Masalan, *olmalarni* so‘zi «mevali daraxt» va «olma daraxti mevasi» ma’nolari bilan birga «ko‘plik», «kelishik» ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi ko‘plik shakli (*-lar*) hamda kelishik shakli (*-ni*) ga ham ega. «Mevali daraxt» va «olma daraxti mevasi» ma’nolari bu so‘zning atash ma’nosi, qolgan ma’nolar esa grammatik ma’nolari sanaladi.

Har qanday grammatik ma’no ma’lum grammatik shakl orqali ifodalanadi. Grammatik ma’nolarni ifodalovchi vositalar grammatik shakl hisoblanadi.

So‘zlarning grammatik ma’nolari va ularni ifodalovchi grammatik shakllarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi **morfologiya** sanaladi. Morfologiya yunoncha *morphe* — «shakl», *logos* — «so‘z», «ta’limot» so‘zlaridan olingan bo‘lib, so‘z shakllari haqidagi ta’limot demakdir.

Ko‘rinadiki, leksikologiya bilan morfologiya o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. Har ikkisida so‘z o‘rganiladi. Ular so‘zning qaysi tomonini o‘rganish bilan farqlanadi. Leksikologiya so‘zning atash ma’nosini, morfologiya esa uning grammatik ma’nosini va bu ma’nolarni ifodalovchi vositalarni o‘rganadi.



1. Leksikologiyada soʻz qaysi tomondan oʻrganiladi?
2. Soʻzning atash maʼnosi deganda nimani tushunasiz?
3. *Qaramoq, boqmoq, koʻrmoq* soʻzlarining atash maʼnosini ayting.
4. *Chaqqon, nur* soʻzlarining maʼnolarini ayting.
5. *Tut* soʻzining shakldoshlarini ayting.
6. Morfologiya soʻzning qaysi tomonini oʻrganadi?
7. *Yoʻl* soʻzining atash va grammatik maʼnolarini ayting.

51-mashq. Matnni oʻqing, ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning atash va grammatik maʼnolarini aytib bering. Oʻz bobolaringiz haqida oʻrtoqlaringizga soʻzlab bering.

Biz, pokiza **zotlarning** naslidanmiz. **Ota-bobolarimiz**, mo-molarimiz **mehnatkash, toza qalbli, imonli, odobli, eʼtiqodli, vijdonli, bir-biriga oqibatli, mehr-muhabbatli, saxovatli** insonlar boʻlishgan. Bizning tomirlarimizda ularning pok qoni bor. **Ularning** yuksak **maʼnaviyati** bizni hech qachon tark etgani yoʻq va tark etmaydi ham. (*D. Mahmudova*)

52-mashq. Gaplarni oʻqing. Nuqtalar oʻrniga berilgan qoʻshimchalardan mosini qoʻyib, koʻchiring. Qoʻshimchalarning soʻzga qanday maʼno qoʻshayotganini ayting. Ulardagi gʻoya haqida bahslashing.

1. Toʻgʻri... bilan xiyonat, yolgʻon... bilan diyonat chiqisha olmay... 2. Baxt...lik... belgisi nodonlik... . 3. Qoʻrq... doʻst yovuz dushman... yomon. 4. Yalqovlik muhtojlik eshig...dir.

(-lik, -di, -chilik, -oq, -dan, -siz, -ning, -i, -dir)

53-mashq. *Uyga vazifa.* «Oʻzbekiston tabiati» mavzusida matn tuzing. Birinchi va ikkinchi gaplarda ishlatilgan soʻzlarning atash va grammatik maʼnolarini izohlang.

SOʻZ TARKIBI

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajrating. Bu soʻzlar uchun umumiy boʻlgan qismni ayting.

Ishni, ishchi, ishla, ishsiz, ishga.

2-topshiriq. Berilgan soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajrating. Bu soʻzlar uchun umumiy boʻlgan qismni ayting.

Suvchi, ishchi, omborchi, traktorchi, kombaynchi.

BILIB OLING. Soʻz tarkibi asos va qoʻshimchalardan iborat.

54-mashq. Soʻzlarning tarkibini aniqlang. Bir necha soʻzda takrorlanib kelayotgan qismlarni toping.

Xabardor, ilimli, ilmsiz, xabarsiz, ilmiy, ulugʻvor, bexabar, beilm, ulugʻlamoq, ilmparvar, ulugʻvorlik.

55-mashq. Nuqtalar oʻrniga kerakli qoʻshimchalarni qoʻying, soʻzlarning maʼnosida boʻlayotgan oʻzgarishlarni izohlang. Oʻzbek tilining jahondagi oʻrni haqida fikrlashing.

Yaponiyalik Komatsu til... olim sanaladi. U Osaka chet til... institutining fors til... boʻlimini bitirgan. Oʻzbek tili... mustaqil oʻrgangan. Oʻzbek tilini chuqur oʻrganish maqsadida 1976 —1981-yillar mobayni... Oʻzbek...ga toʻrt marta safar qilgan. Oʻzbek tili boʻyicha «Oson oʻzbek tili» asarini va «Oʻzbek...-yaponcha lugʻat»ini nashr qil...gan.

Komatsu oʻzbek tilini Yaponiyada targʻib qilayot... fidoyi olimlar... biridir. (*E. Umarov*)

56-mashq. Ikki guruhga boʻling. Birinchi guruh *gap*, ikkinchi guruh *suv* soʻzini asos qilib olsin va «Kim eng koʻp soʻz topa oladi?» musobaqasini oʻtkazing.

Namuna: *yogʻ, yogʻli, yogʻsiz, yogʻla, seryogʻ...*



1. Soʻz tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. *Doʻstlarimizni* soʻzining tarkibini aniqlang.
3. *-jon, -xon, -chi, -dor* qoʻshimchalarini soʻzlarga qoʻshing va ularning maʼnolarida sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarni tushuntiring.

57-mashq. Uyga vazifa. *-lik, -zor, -iston, -la, -siz* qoʻshimchalari yordamida soʻzlar yasang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

ASOS VA QO'SHIMCHALAR

Topshiriq. Berilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ularning qaysilarini mustaqil qo'llash mumkin, qaysilarini esa mustaqil qo'llash mumkin emasligini aniqlang.

Mevazor, mevali, mevaning, mevalarni.

BILIB OLING. So'zning asosiy ma'nosini ifodalab, mustaqil qo'llana oladigan qismi *asos* deyiladi.

Mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shib, unga yangi yoki qo'shimcha ma'no yuklaydigan, shuningdek, so'zlarni bog'lashga xizmat qiladigan qismga *qo'shimcha* deyiladi.

58-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ularning qaysi biri asos, qaysinisi qo'shimcha ekani-ni ayting. Undagi g'oya haqida bahslashing.

Mehnat, **halollik** haqida **ibratli** rivoyat bor: Bir bola ulg'aygach, otasi unga ishlab pul topib **keltirishni** buyuradi. Lekin **ko'ngilchan** ona: «O'g'lim qo'lini qavartirib, qiynalib yurmasin», deya, eridan **o'g'rincha** unga pul beradi. **Sezgir** ota o'g'li keltirgan pulni **o'tga** tashlaydi. Bola **beparvo**, loqayd turaveradi. Bu hol yana takrorlanadi. **O'g'lining** uchinchi marta olib kelgan **pulini** otmoqchi bo'lganida, bola uning **qo'lga yopishib**, yondirmasligini so'raydi. Ota shundagina bu safar o'g'lining haqiqiy peshona teri bilan pul topganiga ishonadi.

Mehnat bilan **topilgan** pul qadri mashaqqat bilan qo'lga kiritilgan barcha **narsalar** singari azizdir. («*Saodat*»dan)

59-mashq. So'zlarni ikki guruhga ajrating. Birinchi guruhga yangi ma'no beruvchi, ikkinchi guruhga qo'shimcha ma'no yuklovchi qo'shimchali so'zlarni yozing.

Giyohlarni, adolatli, bog'bon, ajratildi, mevazor, birinchi, kuzda, dorishunos, sayohatchi, topilgan, sezgir, ikkita, mehnat-kash, bag'riga, mehnatdan.

60-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi mos qo'shimchani qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Mard...(-chi, -lik, -kor) — bu ezgu tuyg'u, muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mard bo'lgan kishi...(-lar, -cha, -da)

haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insof, (be-, -ba-, no-)...mardlarda yolg'izlik, yomonlik, ojjizlik, makkorlik, hasad, adovat, tubanlik, noinsoflik kabi sifatlar... (-da, -chi, -ni) uchratish mumkin. («*Axloq, odob saboqlari*» kitobidan)



1. Soʻzning qanday qismi asos deyiladi?
2. Qoʻshimcha nima?
3. Asos va qoʻshimchanning farqi nimada?

61-mashq. Uyga vazifa. «Keksalarni ardoqlang!» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan soʻzlarni asos va qoʻshimchalarga ajrating.

QOʻSHIMCHALAR TASNIFI

Topshiriq. Berilgan soʻzlarning asos va qoʻshimchalarini aniqlang. Qoʻshimchalarning asos maʼnosidan yangi maʼno hosil qilayotgan yoki qilmayotganini ayting.

Oqla, gulchi, xizmatchi, gulni, gullar.

BILIB OLING. Qoʻshimchalar vazifasiga koʻra ikki turli boʻladi: a) soʻz yasovchi qoʻshimchalar, masalan, *oq* asosiga *-la* qoʻshimchasining qoʻshilishidan «*oq* rangga kiritish» maʼnoli yangi soʻz yasalgan; b) shakl yasovchi qoʻshimchalar, masalan, *-lar* qoʻshimchasi *gul* asosiga qoʻshilib, uning maʼnosidan boshqa yangi maʼno yasamaydi, gulning birdan ortiq ekanligini bildiradi.

62-mashq. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlardagi qoʻshimchalarning turini aniqlang. Alisher Navoiyning fikri haqida mulohaza bildiring.

Biroz **yurishgandan** soʻng mulozimlar **shoirning qabris-tonga yaqinlashganda**, otdan **tushishi** sababini soʻrabdilar. Alisher Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin **mulozimlaridan norozi** ohangda shunday deb javob beribdi:

— Bu yerda **xalqimizning jigargoʻshalari**, tabarruk padari buzrukvorlari mangu **uyquga** ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, **changitib** oʻtish insonlik shaʼniga isnoddir, nahotki, shuni ham bilmasalaring? («*El desa Navoiyni*» kitobidan)

63-mashq. Qavs ichidagi soʻzlarga kerakli qoʻshimchalarni qoʻshib, koʻchiring. Shakl yasovchi qoʻshimchalarning tagiga chizing.

Xalq (tabobat) qulupnay (meva) terlatuvchi, bezgak (xuruj) qarshi omil sifatida tavsiya etiladi.

Shuningdek, buyrak (kasallik), oʻt (yoʻl) yalligʻlanishi bilan bogʻliq (kasallik) isteʼmol qilish lozim koʻriladi.

Olimlarning (fikir) qaraganda, qulupnay buyrakdagi (tosh) yemirish (xususiyat) ega boʻlishi bilan birga (unda) tosh hosil (boʻlish) yoʻl qoʻymaydigan tabiiy omillardan hisoblanadi. (M. Nabiyev)



1. Qanday qoʻshimchalar soʻz yasovchi qoʻshimchalar deyiladi?
2. Shakl yasovchi qoʻshimchalarning soʻz yasovchi qoʻshimchalardan farqi nimada?
3. *Suv, aql* soʻzlariga avval soʻz yasovchi qoʻshimchalar, keyin shakl yasovchi qoʻshimchalar qoʻshing. Ularning farqini tushuntiring.

64-mashq. Uyga vazifa. Qoʻshimchalarni turiga qarab jadvalga joylashtiring. Ular ishtirokida soʻzlar hosil qiling va shu soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

-bon, -shunos, -gi, -lar, -imiz, be-, -ib, -li, -ona, -guncha, -soz, -paz, -ga, -siz.

Soʻz yasovchi qoʻshimcha	Shakl yasovchi qoʻshimcha

SOʻZ YASOVCHI QOʻSHIMCHALAR

Topshiriq. -zor, -iston, -li qoʻshimchalari yordamida *olcha, oʻzbek, iroda* asoslaridan yangi soʻzlar yasang. Asosdan anglashilgan maʼno bilan yangi yasalgan soʻz maʼnosi oʻrtasidagi farqni ayting.

BILIB OLING. Asosga qoʻshilib, yangi maʼno hosil qiluvchi qoʻshimchalar *soʻz yasovchi qoʻshimchalar* deyiladi. Masalan: *doʻppi + doʻz, ser + qatnov, foyda + li, taqsim + la.*

65-mashq. Gaplarni ko‘chiring, so‘z yasovchi qo‘shimchalarning tagiga chizing.

1. Boboxon goh o‘chirg‘ichga, goh bug‘doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolasiga, goh Tal‘atga qarab hang-mang bo‘lib qolgan edi. (*O‘. Usmonov*) 2. Bolalarning beg‘ubor qalbi to‘lib-toshib oqayotgan daryoday jo‘shqin. (*J. Razzoqov*) 3. Ipakday mayin, buloq suviday tiniq xayollaringizga hech kim xalal bermaydi. (*Murod Xidir*) 4. Shu-shu quyvon changalzorga yolg‘iz bormaydigan bo‘libdi. (*Ertakdan*)

66-mashq. *-li, -siz, -dosh, -chi, -illa, -la* qo‘shimchalari yordamida so‘zlar yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

67-mashq. Matnni ko‘chiring, so‘z yasovchi qo‘shimchalarning tagiga chizing va izohlang. Matndagi fikrga qo‘shilasizmi?

Zamonaviy bilimga ega, odobli, ilmli, barkamol va shijoatli farzandlar bizning kelajagimizdir. Iste‘dodli, bilimdon yoshlar o‘qish uchun chet ellarga yuborilmoqda. Ularda shijoat, yangilikka intilish bor. Jismoniy va ma‘naviy jihatdan yoshlarimizni yetuk qilib tarbiyalash shu kunning bosh vazifasidir. (*Gazetadan*)

68-mashq. Topishmoqlarni o‘qib, javobini toping. Yasama so‘zlarni aniqlang va ulardagi so‘z yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

1. Qorday oppoq, parday yumshoq. 2. Qat-qat quloq, dum-dumaloq. 3. Qush emas, qanoti bor, chiroyli savlati bor. Unga lochin yetolmas, yengilmas quvvati bor. 4. G‘it-g‘it deydi, ishlaydi, yerga kukun tashlaydi. 5. Kelib og‘zin ochar, tishlab qochar.



1. Qanday qo‘shimchalar so‘z yasovchi qo‘shimchalar deyiladi?
2. So‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida yangi so‘zlar hosil qiling.

69-mashq. *Uyga vazifa.* «Aqli bola — elga manzur» mavzusida matn tuzing. Unda ishtirok etgan qo‘shimchalarni ajrating va turini ayting.

TUB VA YASAMA SO‘ZLAR

1-topshiriq. *Boshliq, boshla, bebosh, boshsiz* so‘zlarini bir-biriga taqqoslang. Ularning *bosh* so‘zidan farqini ayting.

2-topshiriq. *-boz, -chan, -la* qo‘shimchalari yordamida yangi so‘zlar yasang.


BILIB OLING. Tarkibi asos va yasovchi qo‘shimchalarga bo‘linmaydigan so‘zlarga *tub so‘zlar* deyiladi. Masalan: *tosh, temirga, quyoshimiz.*

Asosga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali hosil qilingan yangi asos *sodda yasama so‘zlar* deyiladi. Masalan: *toshloq, temirchi, temirchilik, serquyosh.*

ESDA TUTING. So‘zning qo‘shimchalarsiz qismi asos sanaladi. Bir umumiy asosga ega bo‘lgan so‘zlar *asosdosh so‘zlar* sanaladi: *tashvishli, sertashvish, tashvishlanmoq* kabi.

70-mashq. Matnni o‘qing. Tub va yasama so‘zlarga izoh bering. Siz ham dor o‘yinini ko‘rganmisiz? U sizda qanday taassurot qoldirgan?

Dor qurilgan maydonda bolalar arqonlarga osilib o‘ynamoqda. O‘ktam ham yo‘g‘on arqonni siltab-siltab ko‘rdi, dor atrofida aylanib, uning uskunasini qiziqib ko‘zdan kechirdi. U bolalikdan bu o‘yinni sevar edi. Bir necha yildan buyon ko‘rmagani uchun tomosha qilgisi keldi. Qani, dorboz qo‘liga langarni olib «baka-baka-bang» maqomi ostida ohangdor, yengil odimlar bilan arqondan yura qolsa hozir. (*Oybek*)

 **71-mashq.** Gapnlarni ko‘chiring, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga izoh bering.

Bozorchilar qatorida xaltani ochib, mayzimni maqtab-maqtab o‘tirdim. **Bozor** oralab **bozorlik** qildim. Ko‘chaning narigi yuzidagi **baliqxonaga** o‘tdik. Navbatga turib, bir kilo **baliq** olib keldim. Ostonada **choyxonachi** bilan **baliqpaz** ko‘rindi. **Choyxonaga** bordim. **Choy**, kulcha olib keldim. (*Tog‘ay Murod*)

72-mashq. Soʻzlarni tub va yasama soʻzlarga ajratib, jadvalga joylashtiring.

Ixtirochi, guldon, suhbatlashmoq, ixtiro, tinim, qisqich, toʻgʻri, gul, ixtirochilik, tinmoq, qisilmoq, tindirmoq, notoʻgʻri, toʻgʻrilanmoq, tinimsiz, guldor, gulchilik.

Tub soʻzlar	Yasama soʻzlar

73-mashq. Gaplarni oʻqing. Tushirib qoldirilgan qoʻshimchalarni oʻrniga qoʻyib, izohlang.

1. Ha, bu yerlar chiroy..., hamma yoq daraxt, buta... boʻlgani bilan sovuq. (*A. Yunusov*) 2. Mehmon jiddiy...di, ni-manidir isbot...moqchiday bir kes... gap...di. (*M. Tursunov*) 3. Semiz...ni qoʻy koʻtarar deganlaridek, Omonga ...davlatlik yoqmas edi. (*Gʻafur Gʻulom*)



1. Tub soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?
2. Yasama soʻzlar qanday hosil qilinadi?
3. *-li, -chilik, -lik* qoʻshimchalari yordamida yasama soʻzlar hosil qiling.
4. Asosdosh soʻzlar deb nimaga aytiladi?

74-mashq. Uygʻa vazifa. «Oʻqituvchilar va murabbiylar kuni» mavzusida matn tuzing. Unda tub va yasama soʻzlardan foydalaning.

SHAKL YASOVCHI QOʻSHIMCHALAR VA ULARNING TASNIFI

1-topshiriq. Soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajrating. Qoʻshimchalarning asos maʼnosiga taʼsir qilayotgani yoki qilmayotganini ayting.

Tohirjon, Halimjon, qalamim, daftarlar, rasmga, kitobcha.

2-topshiriq. *Suvchi* va *suvga* soʻzlaridagi qoʻshimchalarning vazifalaridagi farqni izohlang.

BILIB OLING. Asosga qo‘shilib, uning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklash yoki o‘zi qo‘shilayotgan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘shimchalarga *shakl yasovchi qo‘shimchalar* deyiladi.

75-mashq. Berilgan matndan shakl yasovchi qo‘shimchalarni toping.

Bugungi kunda madaniy turmushimizni qog‘ozsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uzoq o‘tmishda esa qog‘oz bo‘lmagan. Uning o‘rniga o‘simlik poyalaridan, hayvon terilaridan foydalanilgan. («*Vatan tuyg‘usi*»)

ESDA TUTING. Shakl yasovchi qo‘shimchalar vazifasiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: a) lug‘aviy shakl yasovchilar; b) sintaktik shakl yasovchilar.

BILIB OLING. Asosga qo‘shilib, uning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklovchi qo‘shimchalar *lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar* deyiladi. Ularga ko‘plik, kichraytirish-erkalash, qarashlilik, o‘rin-joyga xoslik; sonning ma’noviy guruhlarini, sifat va ravish darajalarini; fe‘lning bo‘lishsizlik, nisbat, vazifa shakllarini yasovchi qo‘shimchalar kiradi.

O‘zi qo‘shilayotgan so‘zni boshqasiga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘shimchalar *sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar* yoki *munosabat shakllari* deyiladi. Ularga egalik, kelishik, shaxs-son, zamon, mayl va boshqa qo‘shimchalar kiradi.


76-mashq. Berilgan gaplarda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarni ajratib, ularning qanday ma’nodagi shakl yasayotganligini tushuntiring.

1. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroyli. (*Maqol*) 2. Jannat onalar oyog‘i ostidadir. (*Hadisdan*) 3. Kunlar isib, daraxtlar kurtak yozib, qushlar, qurt-qumursqalar harakatga kelib qoldi. (*Abdulla Qodiriy*) 4. Mashina yigitcha turgan yerga kelib to‘xtadi. (*Tohir Malik*)

77-mashq. Berilgan gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajrating. Qo‘shimchalarning turlarini tepasiga yozing.

1. **Tepaliklarda** qor ostidan **zanglagan** tunuka va temir, qora va sariq g‘isht, beton **parchalari** chiqib turar edi. (*Abdulla*)

Qahhor) 2. Nuri **giloslar** ostiga qo'yilgan panjaralari ko'k bo'yoq bilan **sirlangan** katta yog'och karavotga qalin ko'rpacha yoyib, **yostiqqa yonboshlab** o'tirar edi. (*Oybek*) 3. **Beshikdan qabrigacha** ilm izla. (*Hadisdan*)

 **78-mashq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Yigitlar tinmay sayrayotgan bulbul... (-da, -ga, -dan, -ni, -ning) quloq solayotgandek, jim qolishdi. (*P. Qodirov*)
 2. Mehnat, mehnat... (-ni, -da, -ning, -ga) tagi — rohat. (*Maqol*)
 3. Dunyo... (-ni, -dan, -ga, -ning) ishlari... (-ni, -ga, -da) hayron qolmay ilojing yo'q. (*Tohir Malik*)

79-mashq. *-choq, -loq, -ingiz, -dan, -ning, -gani (-kani, -qani)* qo'shimchalarini lug'aviy hamda sintaktik shakl yasovchilarga ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzing.



1. Shakl yasovchi qo'shimchalar deb qanday qo'shimchalarga aytiladi?
2. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarga misollar ayting.
3. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalardan oldin kelishi mumkinmi?

80-mashq. *Uyga vazifa.* *-(i)mtir, -tadan, -guncha, -lar* qo'shimchalari yordamida so'z shakllari yasang va ularni gap ichida keltiring. Shakl yasovchi qo'shimchalarga tavsif bering.

Namuna: *Tong otguncha kitob o'qib chiqdim.*

SO'Z TARKIBIDA TARTIB

Topshiriq. Berilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ularni asos, so'z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi turlarga bo'ling.

Yigitcha, siyohdoni, qalamcha, mashinasozlik, ipakchilikdan, bilimdonlar, zakovatli, kitobim.

BILIB OLING. Soʻzning maʼnoli qismlari maʼlum tartibga ega. Ularning joylashuvi quyidagicha boʻladi: asos + soʻz yasovchi + lugʻaviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi. Ularni shartli belgilar orqali shunday koʻrsatish mumkin:

$\overbrace{\text{asos}} + \text{soʻz } \overbrace{\text{yasovchi}} + \text{lugʻaviy shakl yasovchi} +$
 $+ \text{sintaktik shakl yasovchi.}$

81-mashq. Nuqtalar oʻrniga berilgan qoʻshimchalardan mosini tartib bilan joylashtiring.

paxta... (-chilik, -la, -lar, -ga, -ka), terim... (-chi, -lar, -ga, -don, -paz), doʻst... (-lik, -lar, -larcha), bogʻ... (-don, -bon, -paz, -ga, -da)

82-mashq. Berilgan gaplardagi ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni asos va qoʻshimchalarga ajrating.

1. **Boyliging** koʻp boʻlmasa ham, **biliming** koʻp boʻlsin. (*Maqol*) 2. Koʻp **oʻqigan** koʻp **biladi**. (*Maqol*) 3. **Yaxshilik insonning umrini** ziyoda qiladi. (*Hadisdan*) 4. Sizni eshitsak, aqlimizga aql qoʻshiladi, otaxon, **soʻylayvering**. (*Said Ahmad*)

83-mashq. Berilgan soʻzlarning tarkibini aniqlang.

Namuna: *ish + chi + lar + imiz.*

Oshpazlarga, oʻquvchilarning, maktabning, sinfimizni, kitobxonlardan, kutubxonaga.



1. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar asos qismning qaysi tomoniga qoʻshiladi?
2. Qoʻshimchalarning qaysi turi asosga birinchi boʻlib qoʻshiladi?
3. Sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchadan oldin kelishi mumkinmi?

84-mashq. Uyga vazifa. «Konstitutsiya — baxtimiz qomusi» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan soʻzlarning tarkibidagi qoʻshimchalar tartibiga eʼtibor bering.

MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Morfologiyada nimalar o'rganiladi?
2. So'z tarkibi haqida nimalarni bilasiz?
3. Qo'shimchalar deb nimaga aytiladi?
4. Asosga qanday ta'rif bera olasiz?
5. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar qaysilar?
6. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar qaysilar?

2-topshiriq. Quyidagi so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrating.

Tarbiyachi, ozchilik, ovoragarchilik, zargar, fidokorlik, to'kin-sochinlik, quvonchlarimizni, bayramlarga.

3-topshiriq. *-don, -chi, -iy, -aki, -illa, -ona* qo'shimchalari yordamida so'zlar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

4-topshiriq. Matnni o'qing, undagi qo'shimchalarni so'z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarga ajrating. Matn oxirida keltirilgan gapga munosabat-ingizni bildiring.

Bir bog'bonning uch o'g'li bor edi. Uchalasi ham yalqov va dangasa edilar. Bog'bon bir kuni kasal bo'lib yotib qoldi. O'g'illarini chaqirib: «Tokzorning ichiga bir ko'za oltin ko'mib qo'yganman. Mendan keyin o'zingiz kovlab topib, bo'lishib olarsizlar», — dedi va bir necha kundan so'ng vafot etdi. O'g'illari oltin izlab, bog'ni ag'dar-to'ntar qilib chiqdilar, lekin hech narsa topa olmadilar. Biroq shu yili mevalari shu darajada ser-hosil bo'ldiki, cho'ntaklari pulga to'ldi. So'ngra o'g'lonlar angladilarki, oltin yerda emas, mehnatda ekan. (*Rivoyat*)

5-topshiriq. Quyidagi qo'shimchalarni jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

-ni, -roq, -lab, -in, -(i)miz, -dan, -k, -lan, -dor, -i(ng), -gan, -r, -sira, -(a)y

So'z yasovchi	Lug'aviy shakl yasovchi	Sintaktik shakl yasovchi


6-topshiriq. *Uyga vazifa.* O'zingiz o'qiyotgan badiiy asardan parcha ko'chiring. Unda ishlatilgan so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrating.

SO‘Z TURKUMLARI

TO‘PLAM VA TASNIF



1-topshiriq. Rasmlardagi narsalarni guruhlarga ajrating. Guruhlarga ajratishda narsalarning qanday o‘xshash tomonlariga asoslanganingizni ayting.



2-topshiriq. Rasmlardagi daraxtlarni guruhlarga ajrating. Guruhlarga ajratishga asos bo‘lgan o‘xshash va farqli tomonlarni ayting.

BILIB OLING. O‘rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig‘indisi *to‘plam* deyiladi. To‘plamni o‘xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlarga bo‘lish *tasnif* hisoblanadi.

85-mashq. Matnni o‘qing. Meva nomi ostida birlashadigan so‘zlarni ko‘chirib yozing. Ularning farqli belgilariga diqqat qiling. Shunday bog‘da bo‘lganmisiz? Taassurotlaringiz haqida gapirib bering.

Havo issiq va shabadasiz edi. O‘riklar g‘arq pishgan. Yo‘llarga to‘kilib, oftobda oltinlanib yotadi. Oldinpishar jonoqi olmalar olovday yonadi. Hali ... shaftolilarning shoxlari yerda. Qizilsultonlar yoqutday chaqnaydi. O‘ktam mevalarni saralaydi, hidlaydi, biroq yegisi kelmaydi, ko‘zi to‘q. (*Oybek*)

86-mashq. Matnni ko‘chirib yozing. Yana qanday bolalarning o‘yinlarini bilasiz? Ularning o‘xshash va farqli tomonlari haqida bahs yuriting. O‘z mahallangiz haqida so‘zlab bering.

Mahallamizning bir tomoni Tikonlimozor, bir tomoni Qo‘rg‘ontagi. Uzun ko‘chaning o‘ng, chap tomonidagi pastqam, tor ko‘chalarda o‘g‘il va qiz bolalar to‘planib, har xil o‘yinlar o‘ynaymiz. «Kurash», «Botmon-botmon», «Oq terakmi, ko‘k terak?», «Qushim boshi», «Mindi-mindi», «Bekinmachoq» degan o‘yinlarimiz bor. (*G‘afur G‘ulom*)

87-mashq. Matnni o‘qing. Qovun nomi ostida birlashadigan so‘zlarga diqqat qiling. Ularning o‘xshash va farqli jihatlarini toping.

Qovun navlarining atalish usullari xilma-xil. Qovun navlariga nom berishda tashqi ko‘rinishi, rangi, ta‘mi, to‘rlarining tuzilishi, pishish muddati kabi belgilarga alohida e‘tibor beriladi. Gulobi, obinovvot, shakarpalak, asadi, bo‘rikalla, ko‘kcha, qirqma, amiri, umrboqi kabi qovun nomlari til boyligimizning bir qismi sanaladi. Xullas, har bir qovun nomining o‘z tarixi va ma‘nosi bor. (*M. Safarov*)

88-mashq. Quyidagi so‘zlarni guruhlarga ajrating. Ularni guruhlash imkonini beradigan belgilarni aniqlang. Har bir guruhga umumiy nom bering.

Tepalik, chumchuq, bug‘doy, arpa, tog‘, qir, musicha, qaldirg‘och, jarlik, adir, olaqanot, cho‘qqi, g‘or, tosh, zag‘izg‘on, sholi, makkajo‘xori.



1. To‘plam nima?
2. Tasnif nima?

3. Tasnifda qanday belgilarga tayaniladi?
4. O'quv qurollarini sanang. Ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni ayting.

89-mashq. *Uyga vazifa.* «O'zbekistonning qazilma boyliklari» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan so'zlarning guruhlanishiga e'tibor qiling.

SO'Z TURKUMLARI

1-topshiriq. So'zlarga so'roq bering va ma'nosini aniqlang.

Daftar, bola, Ahmad, o'qi, chiroyli, oq, o'nta, ikkinchi, men, siz.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarni qaysi so'roqqa javob bo'lishiga ko'ra jadvalga joylashtiring.

Oltin, gilos, moviy, yashil, ishlamoq, o'n, ming, o'sha, bu, Salim, tog'a, opa, bormoq.

Kim?	Nima?	Qanday?	Necha? Qancha?	Qaysi?	Nima qilmoq?

BILIB OLING. So'zlarning so'rog'i va qanday umumlashgan ma'no ifodalashiga ko'ra guruhlarga bo'linishi *so'z turkumlari* hisoblanadi.

So'z turkumlari ma'no va vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: **1. Mustaqil so'zlar (fe'l, ot, sifat, son, olmosh, ravish).** **2. Yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama).** **3. Alohida olingan so'zlar (undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar).**

90-mashq. Matnni o'qing, undagi so'zlarga so'roq berib, ma'nosini aniqlang, mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajrating. Kenja botirning gaplariga qo'shilasizmi?

U akalari bilan ariq qazib, suvsiz cho'lga suv chiqaribdi. Yer ochib urug' sepibdi. Ko'chat ekibdi. Hamma yoq ekinzor, bog'-rog'ga aylanibdi. Shunda qayoqdandir son-sanoqsiz yov bostirib kelibdi. Ekinzorlarni payhon qilishibdi, daraxtlarni qir-

qib yoqishibdi. Dehqonobodliklar yovga qarshi bosh ko‘tarishibdi. Kenja botir jangda akalaridan ayrilibdi. Boshqa sheriklari ham jangda halok bo‘lishibdi. Yov: «Bizga bo‘yin eg!» — debdi. Kenja botir: «Dushmanga tiz cho‘kib yashagandan tik turib o‘lganim yaxshi!» — debdi. (*S. Anorboyev*)

BILIB OLING. Ma‘lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, biror gap bo‘lagi vazifasida keladigan so‘zlar *mustaqil so‘zlar* sanaladi: fe‘l, ot, sifat, son, olmosh va ravishlar *mustaqil so‘zlardir*.

91-mashq. So‘zlarga so‘roq berib, guruhlariga ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Maroqli, tabiat, iroda, shubhalanmoq, shu, minglarcha, hatto, harakatchan, ehtirom, ta‘sir, ko‘rsatmoq, bo‘ysundirmoq, qo‘llab-quvvatlamoq, va, haqiqat, unutmok, biroq, agar, oliyanob, million, ertalab, tez, ular, yaratmoq, yuzlab, keskin, oddiy, biz, har qaysi, albatta, voy, oh.

92-mashq. Hikmatli so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring. So‘zlarga so‘roq berib, ularning qaysi so‘z turkumiga kirishini aniqlang.

1. Olimlarning xizmati mangu qoladi. (*Ulug‘bek*) 2. Haqiqatni ochinglar, to‘g‘ri yo‘ldan yuringlar. Bir-biringizdan bilim o‘rganinglar. (*Abu Ali ibn Sino*) 3. O‘qib-o‘rganmasdan ham foyda-zararning farqiga yeta olaman, degan odamni tentak deb bilmok kerak. (*Sugrot*) 4. Ilm urug‘lari sochilsa, elga baraka beradi. (*D. Mendelejev*)



1. So‘z turkumlari deb nimaga aytiladi?
2. Mustaqil so‘z turkumlari qaysilar?
3. Yordamchi so‘z turkumlari haqida gapiring.

93-mashq. *Uyga vazifa.* «Ilm — tunganmas xazina» mavzusida matn tuzing. Undagi so‘zlarning so‘rog‘ini va qaysi so‘z turkumiga kirishini aniqlang.

FE'L

1-topshiriq. Berilgan so'zlarga *-ma* qo'shimchasini qo'shing. So'zlarning qanday so'roqqa javob bo'lishi va *-ma* qo'shimchasining ma'nosini aniqlang.

O'qi, keldi, qiziqadi.

2-topshiriq. *Nima qildi?* so'rog'iga javob bo'luvchi to'rtta so'z toping. Ularni tarkibiy qismlarga ajrating.

BILIB OLING. *Nima qilmoq?, nima bo'lmoq?* so'roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakat, holatini ifodalagan so'z turkumi *fe'l* deyiladi.

ESDA SAQLANG. Fe'llardan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi.

94-mashq. Berilgan fe'llarni harakat yoki holatni bildirishiga ko'ra ikki guruhga: harakat fe'llariga va holat fe'llariga ajrating.

Qizardi, ulg'aydi, chopdi, sug'ordi, gapirdi, qichqirdi, to'xtadi, tashladi, yugurdi, qimirladi, topdi.

95-mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'ying, fe'llarning ma'nosiga va grammatik shakliga e'tibor bering.

— Yigitcha, familiyangiz nima?

— «Iskandarov» deb yoz..., aka.

Javlonbek uni yoz... qo'yish uchun so'ramagandi, faqat familiyasini atab gaplashish uchun so'ragan... U bo'lsa, «Iskandarov deb yozing, aka», deydi-ya.

— Iskandarov, siz, axir, traktorning tilini bilmay...-ku? Hatto uning qanday mashina ekanini ham ko'rmagan bo'lsangiz!..

— Bugun bilma..., ko'rmagan bo'lsam, endi bila..., ko'ra..., o'rgana..., — dedi yigit qat'iy. — Hali o'zingiz aytdingiz-ku, avvalo, shogird tusha..., keyin o'rgana..., deb. (*N. Fozilov*)

96-mashq. Gapni ko'chiring. Undagi mazmun haqida fikrlashing. Fe'llarni topib, izohlang.

Kishi aslini bilmoqni istasang, uning fe'l-atvoriga nazar sol, ma'lum bo'ladi-qoladi. (*Yusub Xos Hojib*)



1. Fe'l deb nimaga aytiladi?
2. Fe'llar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Harakat va holatni bildiruvchi fe'llarga misollar keltiring.

97-mashq. Uyg'a vazifa. Uy hayvonlarining harakatlarini ifodalovchi fe'llarga misollar toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

HARAKAT VA HOLAT FE'LLARI

1-topshiriq. *Daraxtlarning yaproqlari oltinday sarg' aydi* gapidagi fe'lning harakat yoki holatga oid ekanligini aniqlang. Uni *bo'yamoq* fe'lga solishtiring.

2-topshiriq. *Silkinmoq, qimirlamoq, to'planmoq* fe'llarining harakat yoki holatni ifodalashini ayting.

BILIB OLING. Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi.

Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar *harakat fe'llari* hisoblanadi. Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar esa *holat fe'llari* sanaladi.

98-mashq. Matnni o'qing, fe'llarni harakat va holat fe'llariga ajratib ko'chiring. Musiqaning inson hayotidagi o'rni haqida bahslashing.

U choyxona yonidan o'tib borarkan, ichkaridan taralayotgan kuy tovushlarini eshitib, to'xtab qoldi.

Bolaning yuragi hapriqib ketdi. Uyi tarafga yugurdi. Bir bo'lak yog'och parchasini topib, uni pichoq bilan yo'ndi, tekisladi... Nihoyat, shakli dutorga o'xshagan bir nima yasadi.

Keyin unga ot qilidan tor tortdi va barmoqlari bilan asta chertib ko‘rdi. Ojizgina vizillagan tovush eshitildi. Yana chertdi... Yana... Shu kuni ohang tug‘ildi. Bola uchun yangi, ohangli bir olam paydo bo‘ldi. (*E. Usmonov*)

99-mashq. Ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruhdagilar harakat, ikkinchi guruhdagilar holat fe‘llarini yozsin.

Tasvirlamoq, kuylamoq, taralmoq, qotmoq, o‘ylamoq, eshitilmoq, porlamoq, yiqilmoq, jimirlamoq, unmoq, o‘smoq, fikrlamoq, ikkilanmoq, qaytarmoq.

100-mashq. Matnni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan fe‘llarning ma‘nosiga diqqat qiling, ularning ma‘nodoshlarini topib, gaplar tuzing.

Hosildan **bo‘shab** ko‘kragiga shamol **tekkan** kuzgi dalalarda ajoyib fayz bor. Dov-daraxt, o‘t-o‘lan xuddi yer kabi **oltin tus oladi**. Kanallar, ariqlarda hayqirib oqayotgan suvlar kumushdek toza, tiniq. Yoz **kirguncha** endi ularga hech kim **tegmaydi**, yo‘lini **to‘smaydi**. (*O‘. Hoshimov*)

101-mashq. Yusuf Xos Hojibning quyidagi baytiga diqqat qiling. Unda ilgari surilgan g‘oya bo‘yicha bahs uyushtiring. Bahs davomida ishlatilgan fe‘llarning ma‘nosiga diqqat qiling.

Omonlik tilasang, agar sen o‘zing,
Tilingdan chiqarma yaroqsiz so‘zing.



1. Harakat fe‘llari deb qanday fe‘llarga aytiladi?
2. Holat fe‘llariga misollar keltiring.
3. *Qoraymoq, ko‘karmoq, qizarmoq* fe‘llarining nima sababdan holat fe‘llari sanalishini ayting.

102-mashq. Uyg‘a vazifa. «Mehnat baxt keltiradi» mavzusida matn tuzing va unda ishlatilgan fe‘llarni izohlang.

O‘TIMLI VA O‘TIMSIZ FE‘LLAR

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarni tushum kelishigidagi so‘zlar bilan bog‘lab ko‘ring. Ulardan qay biri bunday so‘zlar bilan bog‘lana olmasligini aniqlang.


O‘qidi, yozdi, ishladi, ko‘rdi, qaradi, uxladi.

2-topshiriq. Tushum kelishigidagi so‘zlar bilan bog‘lana oladigan fe‘llarni shu kelishikdagi so‘z bilan birgalikda ko‘chiring.

BILIB OLING. Tushum kelishigidagi so‘zlar bilan bog‘lanadigan fe‘llar *o‘timli fe‘llar*, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan fe‘llar *o‘timsiz fe‘llar* sanaladi.

103-mashq. Matnni o‘qing, o‘timli va o‘timsiz fe‘llarni aniqlang va ajrating. Sinfdoshlaringizdan kimlar sizga yoqadi va nima uchun?

Sinfdoshlarim biram yaxshi, biram sodda, biram dilkash. Qizlar ham, bolalar ham — hammasi meni yaxshi ko‘rishadi. Faqat bitta bola bor. Suyun. Laqabi «Burgut». Hamma uni «Suyun burgut» deydi. O‘ziyam juda g‘alati. Bitta ko‘k qashqa oti bor... Maktabgayam o‘sha duldulini o‘ynatib, xurjuniga do‘mbirasini solib keladi. Tanaffus bo‘ldi deguncha do‘mbirasini chalib, hammani og‘ziga qaratadi, goh kuldiradi, goh (lof emas, momojon) yig‘latadi. (*O. Yoqubov*)

 **104-mashq.** Quyidagi fe‘llarni o‘timli va o‘timsizga ajratib, jadvalga joylashtiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Almashmoq, jiringlamoq, o‘xshamoq, jilmaymoq, yuzlanmoq, kiyinmoq, kiymoq, so‘roqlamoq, so‘ramoq, so‘rattirmoq, quvonmoq, quvontirmoq, joylashmoq, joylashtirmoq.

O‘timli fe‘llar	O‘timsiz fe‘llar

105-mashq. Topishmoqning javobini toping. Shu so‘z ishtirokida kichik matn tuzing. Undagi fe‘llarni izohlang.

Qo‘l bilan ekiladi, ko‘z bilan teriladi, og‘iz bilan o‘qiladi.



1. O‘timli fe‘llar deb nimaga aytiladi?
2. O‘timsiz fe‘llar qanday so‘zlarga bog‘lanib keladi?
3. O‘timli fe‘llarni o‘timsiz fe‘llarga aylantiruvchi vositalar qaysilar?
4. O‘timsiz fe‘llar qanday qo‘shimchalar orqali o‘timliga aylantiriladi?

106-mashq. Uyga vazifa. «Vatanni mardlar qo‘riqlaydi» mavzusida matn tuzing. Matnda ishlatilgan o‘timli va o‘timsiz fe‘llarni izohlang.

FE‘L NISBATLARI

1-topshiriq. *O‘qidi — o‘qitdi, keldi — keltirdi* fe‘llari o‘rtasidagi ma‘no farqlarini aniqlang.

2-topshiriq. *Bajardi — bajarildi, bajarishadi — bajartirdi* fe‘llari o‘rtasidagi ma‘no farqlarini izohlang.

BILIB OLING. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe‘l shakllari *nisbat shakllari* sanaladi. Masalan, *supurdi* fe‘lida supurish harakatini bajaruvchi shaxs aniq, *supurildi* fe‘lida noaniq, *supurishdi* fe‘lida birdan ortiq, *supurtirdi* fe‘lida esa harakat boshqa shaxs vositasida bajarilgani ifodalangan.

ESDA SAQLANG. Nisbat shakllari fe‘lning asos qismidan keyin qo‘shiladi. Fe‘l 5 ta nisbat shakliga ega: 1) aniq nisbat; 2) o‘zlik nisbati; 3) orttirma nisbat; 4) majhul nisbat; 5) birgalik nisbati.

107-mashq. Matnni o‘qing. Ajratilgan fe‘llarni yozing. Harakat va bajaruvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tushuntiring.

Bir yigit ko‘zlari xiralashgan, ovqat yeganda qaltiraydigan qari otasining izzat-hurmatini bajo keltirmasdi.

Bir kuni chol bechora qo‘li titrab, osh suzib berilgan kosasini tushirib **sindirdi**, buni ko‘rgan kelini nordon so‘zlar aytib, uning ko‘nglini **vayron qildi**. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga **ko‘chirdi**. Kelin esa eri keltirib bergan yog‘och kosada qaynotasiga ovqat bera boshladi.

O'g'li va kelinining bu kabi yaramas muomalalaridan ko'ngli ozor topgan ota vafot etgan kampirini eslab, ba'zan o'ksib **yg'lardi**. Besh-olti yoshli nevarasi bilangina tasalli topar edi. Bola bobosining yoniga kelib **o'tirardi**, ma'sum so'zlari, yoqimli qiliqlari bilan bobosini **kuldirib**, uning qayg'u-alamlarini **yengillashtirardi**. (*Ertakdan*)

 **108-mashq.** Matnni yozing. Fe'llarni aniqlab, ularning nisbat shakllarini ayting.

Yer yuzida qancha millat, xalq, elat bo'lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo'q. Xalqsiz til ham bo'lmaydi. Bular egizak tushunchalardir. Birini biridan ayirib bo'lmas. Ular ayirib qo'yilsa, ikkisi ham o'zligini yo'qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo'shilib ketadi. («*Vatan tuyg'usi*»)

109-mashq. *Yurmoq, o'qimoq, o'ynamoq, quvonmoq, rivojlanmoq, gapirmoq* fe'llariga nisbat shakllarini qo'shib o'zgartiring va ular ish-tirokida gaplar tuzing.



1. Fe'lining qanday shakllari nisbat shakllari deyiladi?
2. Fe'l necha nisbat shakliga ega?
3. Xohlagan ikkita fe'lni nisbat shakllari bilan o'zgartiring va ma'nosini tushuntiring.

110-mashq. Uyga vazifa. Matnni yozing. Fe'llarni ajrating. Ularning nisbatini aniqlab, ma'nosini tushuntiring. .

Nonning nomi ulug', nomidan ham o'zi ulug'. Bolaga insjins ziyon yetkazmasin deb, ona o'z go'dagi yostig'i ostiga non qo'ygan. Ota o'g'lini o'zga yurtga safarga otlantirib, oq fotiha berarkan, «balo-qazolardan saqlaydi» degan ma'noda farzandining qo'liga non tutqazgan.

Yo'lga chiqqan bahodirga ota-onasi yoki suyuklisi non tishlatgan. Toki non nasiba tortib, u uyga sog'-salomat, beshikast qaytsin.

Xastani, keksalarni ko'rish, ustozni ziyorat qilish, holahvol so'rash uyiga non tugib borishdan boshlangan. («*Oltin sandiq ochildi*» kitobidan)

ANIQ NISBAT

1-topshiriq. *O'qidi, o'qitdi, o'qishdi, o'qildi* fe'llarini bir-biriga qiyoslang. Ulardagi bir xil va farqli qismlarni toping.

2-topshiriq. *Ishla* fe'lga *-t, -sh* qo'shimchalarini qo'shing. Ma'noda qanday o'zgarish bo'lganini ayting.

BILIB OLING. Bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli *aniq nisbat* deyiladi.

111-mashq. Matnni o'qing. Aniq nisbatdagi fe'l ishtirok etgan gaplarni ko'chiring. Siz qanday gazeta va jurnallarni o'qiyasiz? Shu haqda gapirib bering.

Rahimberdi va Qudratilla amakilarim yashaydigan hovlining ko'chadan kiraverishida, ariq bo'yida kattagina bo'sh bir o'tinxona bo'lar edi. Shu xonani dadam ko'chamiz bolalari ixtiyoriga berdilar. Bolalar ishga kirishib ketdilar. Dadam bos-maxonadanmi, magazindanmi, juda ko'p har xil afishalar, «Mushtum» keltirib berdilar... So'ng dadam o'z kutubxonalaridan va yana allaqayerlardan ancha kitob keltirib berdilar. Shu bilan, qarabsizki, shinamgina kutubxona paydo bo'ldi. Bolalar kitob, jurnal, gazetalar o'qigani tez-tez keladigan bo'ldilar. (*H. Qodiriy*)

112-mashq. Berilgan fe'llarni aniq nisbatga qo'yib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

O'ylamoq, pishmoq, gullamoq, kulmoq, chanqamoq, o'qimoq, otmoq, turmoq, varaqlamoq, uzmoq.

113-mashq. Gaplarni yozing. Fe'llarni topib, nisbatini aniqlang.

1. Shamol toy ekan, Kuchga boy ekan, Yengil ko'charkan, Ko'kka ucharkan. (*Po'lat Mo'min*) 2. Kampir tong qorong'usida xamir qilgani turib, ho'kizidan xabar oldi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Ra'no javob berish o'rniga birdan yig'ladi, ancha vaqt ko'z yosh to'kib turdi. (*Abdulla Qodiriy*) 4. Qobil yugurib borib do'konxona eshigidan ko'chaga qaradi. (*Abdulla Qodiriy*) 5. Ko'zim tikdim, parqu bulutlar Ko'char edi zilol va toza. Lochin kabi samolyot uchar, Uchar edi solib ovoza. (*Hamid Olimjon*)



1. Qanday fe'llar aniq nisbatdagi fe'l deyiladi?
2. Xohlagan to'rtta fe'lni aniq nisbat shakliga keltirib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

114-mashq. Uyg'a vazifa. «Mening kutubxonam» mavzusida matn tuzing. Aniq nisbatdagi fe'llarning tagiga chizing.

O'ZLIK NISBATI

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi fe'llarni toping va ularni tarkibiy qismlarga ajrating.

1. Halima juda ozoda kiyinadi. 2. Sobir masalani yechishga qiynaldi.

2-topshiriq. Yuqoridagi fe'llarning qo'shimcha qismi qanday ma'no ifodalayotganini aniqlang.

BILIB OLING. Bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli *o'zlik nisbati* deyiladi. O'zlik nisbati shakli fe'l asosiga *-(i)n*, *-(i)l* qo'shimchalarining qo'shilishi bilan hosil bo'ladi.

115-mashq. Fe'llarning qaysi nisbatda ekanligini ayting. Ular ishtirokida gap tuzing va ma'nosini tushuntiring.

Taradi — tarandi, yuvdi — yuvindi, maqtadi — maqtandi.

ESDA SAQLANG. Unli bilan tugagan fe'l asosiga o'zlik nisbatining *-n* yoki *-l* undosh bilan tugagan fe'l asosiga esa *-in* yoki *-il* qo'shimchalari qo'shiladi.


116-mashq. Matnni o'qing. Fe'llarni ajratib, nisbatini aniqlang va yasalishini tushuntiring.

O'zbekiston xalq shoiri Habibiy domla aruzni chuqur o'rganib va unda ijod qilib, mumtoz adabiyotimiz an'analarini baholi qudrat davom ettirgan. Shu boisdan u o'ttizinchi yillarning boshida adabiyotdan chetlatilgan, uning uchun nashriyot eshiklari yopib qo'yilgan. O'sha kezlari domla tirikchilik vajidan

Andijonning chekka bir qishlog'idagi magazinda ishlashga majbur bo'lgan. («*Vatan tuyg'usi*»)

117-mashq. Berilgan qo'shimchalardan nisbat qo'shimchalarini ajrating. Ularni fe'l asoslariga qo'shib, gaplar tuzing.

-gach, -t, -uv, -ir, -n, -guncha, -la, -in, -il, -tir, -giz, -l, -gan, -chi, -li, -iz.

 **118-mashq.** Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Ilm zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qiladi, savobni gunohdan, halolni haromdan, pokni nopokdan ajra... (-t, -l, -sh)ib beradi. (*A. Avloniy*) 2. Ammo kampirning dodiga odam tez to'pla... (-l, -n, -t)di. (*Abdulla Qahhor*) 3. Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yog'... (-in, -l, -il)di qorong'i jarga. (*Hamid Olimjon*) 4. Yaltiraydi, doim tovla... (-t, -n, -l)ar, Oy nuriga cho'miluvchi tosh. (*Hamid Olimjon*)



1. O'zlik nisbati shakli qanday ma'noni bildiradi?
2. O'zlik nisbati qo'shimchalarini ayting va ularni fe'l asosiga qo'shing.
3. Hosil bo'lgan fe'llar ishtirokida gaplar tuzing.

119-mashq. Uyga vazifa. «Ozodalik — salomatlik garovi» mavzusida matn tuzing. Unda qo'llangan fe'llarni topib, tahlil qiling.

MAJHUL NISBAT

1-topshiriq. Quyidagi gaplarni solishtirib, nimasi bilan farqlanayotganini ayting.

Sharifa xat yozdi. Xat Sharifa tomonidan yozildi.

2-topshiriq. Yuqoridagi gaplarning egalarini aniqlang.

BILIB OLING. Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe'l shakli *majhul nisbat* deyiladi. Majhul nisbat shakli unli bilan tugagan fe'l asosiga *-n, -l;* undosh bilan tugagan fe'l asosiga esa *-in, -il* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

O'zlik va majhul nisbat shakllari aynan bir xil, lekin ular harakat yoki holatning bajaruvchisi nuqtayi nazari-dan farq qiladi. O'zlik nisbatida harakat-holat bajaruv-chining o'zi ustida amalga oshadi, majhul nisbatda esa bajaruvchi noma'lum bo'ladi. Solishtiring: *tarandi — taral-di, kiyindi —kiyildi.*

120-mashq. Fe'llarni toping, nisbatini aniqlang.

Qor yog'ib turibdi. Yo'lning o'n besh chaqirimchasi huvullagan dalalardan o'tadi. Qor siyrak yog'ayotgani uchun uzoq-uzoqlar ko'rinadi, lekin bora-borguncha bironta tirik jon ko'zga tashlanmaydi. Shamol yo'q, jimlik, «tiq» etgan tovush eshitilmaydi. Qo'limda bir metr keladigan irg'ay tayoq. Belbog'imga bitta kulcha tugilgan. Egnimda otamning uzun chakmoni. Zerikkanimda qorga tayoq bilan chiziq chizib o'taman. (P. Qodirov)

121-mashq. Avval o'zlik nisbatidagi fe'lli gaplarni, keyin majhul nisbatdagi fe'lli gaplarni yozing.

1. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy 1441-yilda tug'ilgan.
2. U yuziga belbog'ini tashlab, ko'rpachaga cho'zildi. (H. Badalov)
3. Hozirgi kunda milliy xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berilmoqda. («*Odobnoma*»dan)
4. Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dunyoda hamma narsa yaratilgan ekan-u, ammo xushnavo bulbul yaratilmagan ekan. (Z. Ibrohimova)
5. Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi. (Abdulla Qahhor)



1. Majhul nisbat shakli qanday hosil qilinadi?
2. O'zlik va majhul nisbat shakllari qanday farqlanadi?
3. Bir fe'l asosiga ham o'zlik, ham majhul nisbat qo'shimchasini qo'shish mumkin bo'lganda, qaysi qo'shimcha majhul nisbat shaklini hosil qiladi? Mi-sollar bilan tushuntiring.

122-mashq. *Ko'rmoq, taramoq, yuvmoq, kiymoq* fe'llaridan o'zlik va majhul nisbatlarini yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

123-mashq. *Uyga vazifa.* «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli» mavzusida matn yozing. Fe'llarni ajratib, nisbatini aniqlang.

ORTTIRMA NISBAT

1-topshiriq. Quyidagi fe'l asoslariga *-t, -dir(-tir), -giz(-kiz)* qo'shimchalaridan mosini qo'ying.

O's, yoz, ket, qol.

2-topshiriq. Bu qo'shimchalarning talaffuzi va imlosiga e'tibor bering.

BILIB OLING. Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakllari *orttirma nisbat shakli* deyiladi. Orttirma nisbat shakllari *-t, -dir (-tir), -giz(-kiz), -qiz, (-g'iz), -gaz (-kaz, -qaz), -ir, -ar, -iz* kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi.

124-mashq. Berilgan fe'llardan *-tir* qo'shimchasi yordamida orttirma nisbat shaklini hosil qiling.

Yarash, kelish, o'ylan, quvon, suyun.

125-mashq. Berilgan fe'llarni jadvalga joylashtiring.

Bitirmoq, aytmoq, tomchilamoq, to'ydirmoq, chaqirmoq, tushuntirmoq, anglamoq, yotqizmoq, asramoq, o'tkazmoq, topmoq, keltirmoq, qaramoq, tasvirlamoq, tushirmoq, ko'rmoq, ko'rsatmoq, ishlatmoq.

Aniq nisbat	Orttirma nisbat

126-mashq. Qavs ichidagi fe'llarga tegishli nisbat qo'shimchalarini qo'shing. Avval orttirma nisbatdagi fe'lli, keyin aniq nisbatdagi fe'lli gaplarni yozing.

Suv qahr bilan uning biqiniga urilib shovullar, boshidan oshib o'tguday bo'lar, lekin tog'day gavdasini (qimirlamoq)

olmas edi. U soydan o'ta olmay qaytganlarning hammasini birma-bir qo'ldan ushlab (o'tmoq) qo'ydi.

Rota yana bir qator bo'lib yo'lida (davom etmoq). Bular shag'al to'kilgan katta yo'lni kesib o'tib, adirga tomon chiqib ketayotganda botayotgan quyoshning horg'in nuri ro'paradagi qorli tog' cho'qqisini, uning tepasida uvadaday osilib turgan qora bulutni bir lahza (qizarmoq)-da, so'ndi. Shu bilan uzoqdagi tog' oraliqlaridan boshlangan qorong'ilik asta-sekin hamma yoqqa (tarala boshlamoq). (*Abdulla Qahhor*)



1. Fe'llarning orttirma nisbat shakli qanday hosil qilindi?
2. Aniq va orttirma nisbat shakllarining farqini ayting.
3. Aniq va orttirma nisbatdagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing.

127-mashq. Uyga vazifa. O'zingiz yashayotgan joyning tabiati haqida matn tuzing. Unda qo'llangan fe'llarning qaysi nisbatda ekanligini aniqlang.

ORTTIRMA NISBAT QO'SHIMCHALARINING ISHLATILISHI

1-topshiriq. Berilgan fe'llarga qavs ichidagi orttirma nisbat shakllaridan mosini qo'yib ko'chiring.

O'qi (-t, -tir), o't (-dir, -kiz), ich (-ir, -kiz, -tir, -iz), yoz (-t, -tir, -dir, -g'iz, -qiz)

2-topshiriq. Orttirma nisbat qo'shimchalarining qanday tovush bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilayotganini ayting.

BILIB OLING. Orttirma nisbatning **-t** qo'shimchasi unli tovush bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi. Masalan, *to'qit, ishlat*.

Jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'l asoslariga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, *z* undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin **-dir**, jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga esa **-tir** qo'shimchasi qo'shiladi.

-ir, -ar, -iz qo'shimchalari undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi. Masalan: *shoshir, chiqar, oqiz*.

-giz, -g'iz qo'shimchalari jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga, **-kiz, -qiz** qo'shimchalari esa jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi. Masalan: *yutqiz, ketkiz, yurgiz, turg'iz*.

ESDA SAQLANG. Ba'zan fe'l asosiga orttirma nisbat hosil qiluvchi birdan ortiq qo'shimchalar qo'shilishi mumkin. Masalan, *o'qit — o'qittir, to'ldir — to'ldirg'iz, yozdir — yozdirtir*. Bunday holatda orttirma nisbat ma'nosi kuchayadi.


128-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur nisbat qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Nima uchun ushbu qo'shimchalarni qo'yaningizni tushuntiring.

1. Tushga yaqin dadam bizga ovqat kel...ib berdi. (*Abdulla Qahhor*) 2. U eng avval malikalar-u nabiralarini Samarqandga jo'na...di. (*Xurshid Davron*) 3. Ko'z ochgani qo'ymaydi alam, Boshim qo'ysam kuy...ar bolish. Yupatolmas kitob va qalam, Misralarim ko'tarar nolish. (*Zulfiya*) 4. Xos chodir eshigiga osilgan kimxob parda Humoyunning qo'liga mayin va salqin tegdi. Uni bir tomonga surib, tashqariga ko'z yugur...di. (*P. Qodirov*) 5. Shayxzoda jurnalistika sohasida ham qalam tebra...ardi. (*M. Zokirov*)

129-mashq. Matnni o'qing. Abdulla Avloniy haqida yana nimalarni bilasiz? Shu haqda gapirib bering. Fe'llarni toping va nisbatni aniqlang.

Abdulla Avloniy o'z ishini maktab ochishdan boshladi. Gazeta chiqardi, darsliklar yozdi. Kitoblar bostirdi. Teatr ishlarini yo'lga qo'ydi. O'zi pyesalar yozdi. Havaskorlarni yig'ib, tomoshalar ko'rsatdi.

Abdulla Avloniy o'z xizmatlari bilan o'zbek ma'rifatchiligiga juda katta hissa qo'shdi. Yangi zamonaviy o'qitishni ilmiy-amaliy asoslab berdi. («*Gulxan*»dan)

 **130- mashq.** Berilgan fe'llarga orttirma nisbat qo'shimchalarini qo'shing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Aytmoq, davom etmoq, tirishmoq, intilmoq, tayyorlamoq, yuvmoq, quvonmoq, bilmoq, o'ylamoq.



1. Orttirma nisbat shakllarini ayting.
2. Orttirma nisbat shakllarining fe'l asoslariga qo'shilishini tushuntiring.



131-mashq. *Uyga vazifa.* *Solmoq, bo'zlamog, qaytmoq, o'smog* fe'llarini orttirma nisbat shaklida qo'llab, «Qo'shiq sehri» mavzusida bog'lanishli matn tuzing.

BIRGALIK NISBATI

1-topshiriq. Berilgan gaplarni solishtiring. Qaysisida harakatni bajaruvchi shaxs birdan ortiq ekanligini ayting.

1. Mehmonlar ko'prikdan o'tishdi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Sobir she'r yozdi.

2-topshiriq. Yuqoridagi gaplar tarkibidagi fe'llarni qismlarga ajrating. Nisbat shakllarini aniqlang.

BILIB OLING. Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli *birgalik nisbati* deyiladi.

Birgalik nisbat shakli unli bilan tugagan fe'l asosiga *-sh*, undosh bilan tugagan fe'l asosiga esa *-ish* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: *ishlashdi, kelishdi.*

132-mashq. Berilgan fe'llarga birgalik nisbati qo'shimchalarini qo'shib, ular ishtirokida gaplar tuzing.


Ulamoq, yuvmoq, qurmoq, ishlatmoq, o'rganmoq, chiqarmoq, sanamoq, saylamoq, kuylamoq.

133-mashq. Gaplarni o'qing. Birgalik nisbatidagi fe'llar qatnashgan gaplarni ko'chirib yozing.

1. Yaxshini badnom qilib bo'lmaydi. (*F. Volter*) 2. Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash. (*Sa'diy*) 3. Allaqayda bulbul to'lib-toshib kuylaydi. (*Said Ahmad*) 4. Mehmonlar qorovulning qistashiga qaramasdan ichkariga kirishmadi. (*Abdulla Qahhor*) 5. Qushlar uni yaxshi ko'rishib, Mayna deb ism qo'yishibdi. (*Ertakdan*)

134-mashq. Gaplarni o‘qing. Birgalik nisbati shaklidagi fe’llarni toping. Ularning yasalişhini, fe’lning boshqa nisbatlaridan farqini tushuntiring.

Vodil qishlog‘ining choyxonasi yo‘l boshidagi ikkita katta keksa chinorning soyasida joylashgan. O‘tgan yili qishloq jamoasi choyxonani ta‘mirlashdi, obod qilishdi. Bir burchakda katta stol atrofida yoshlar o‘tirib gazeta, jurnal va kitob o‘qishadi, bir burchakda radiodan so‘nggi xabar eshitishadi. Past-baland chorpoyalarda qip-qizil, ozoda gilamlar ustida odamlar guruh-guruh bo‘lib choy ichishadi, chaqchaqlashadi, ish yuzasidan maslahat qilishadi. O‘ng tomondagi chorpoitada to‘rt-besh kishi o‘tirib, qah-qah urib kulishadi. (*Gazetadan*)

 **135-mashq.** Berilgan aniq nisbatdagi fe’llardan birgalik nisbati shaklini yasang, ular ishtirokida gap tuzing.

Bordi, gapirdi, o‘qidi, bajardi, uxladi, sakradi.



1. Birgalik nisbati deb nimaga aytiladi?
2. Birgalik nisbati qanday qo‘shimchalar yordamida yasaldi?
3. *ekmoq*, *ketmoq* fe’llaridan birgalik nisbati shaklini yasang.

136-mashq. *Uyga vazifa.* «Mardlik — manguilik» mavzusida bog‘lanishli matn tuzing. Matndagi fe’llarning qanday nisbatdaligini aniqlang.

MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering:

1. Fe’l deb nimaga aytiladi?
2. Harakat fe’llariga misollar keltiring.
3. Holat fe’llariga misollar keltiring.
4. Fe’l nisbatlari deb nimaga aytiladi?
5. Aniq nisbat deb nimaga aytiladi?
6. Orttirma nisbat qanday qo‘shimchalar yordamida yasaldi?

7. O'zlik nisbati qo'shimchalarini ayting.
8. Majhul nisbat qo'shimchalari qaysilar?
9. Birgalik nisbatidagi fe'llarga misol keltiring.

2-topshiriq. Quyidagi fe'llarni harakat va holat fe'llariga ajratib ko'chiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ayirmoq, aniqlamoq, qizimoq, fikrlamoq, qazimoq, yangilash-tirmoq, o'lchamoq, harakatlantirmoq, buramoq, anqaymoq, hayron bo'lmoq.

3-topshiriq. Boshqotirmaning yeching. Unda yashiringan maqol tarkibidagi fe'l ishtirokida gaplar tuzing.

- | | | | | | | | | | |
|----|----|----|----|----|----|----|----|---|----|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
| 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | | |

- | | |
|---------------|--------------------------------------|
| 1, 2, 3, 4, 5 | — tabiatda ko'p uchraydigan metall. |
| 6, 7 | — tushum kelishigi qo'shimchasi. |
| 8, 9, 10, 11 | — <i>isi</i> so'zning ma'nodoshi. |
| 12 | — «g'» undoshi. |
| 13 | — egalik qo'shimchasi. |
| 14, 15 | — o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi. |
| 16, 17, 18 | — alifbodagi 2-, 14-, 18-harflar. |

4-topshiriq. Nisbat shakliga ko'ra quyidagi fe'llarni jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Kuzatmoq, sarflamoq, ta'mirlamoq, atamoq, to'plamoq, yangilamoq, kuchaymoq, ilinmoq, kuzatishmoq, sarflashmoq, ta'mirlatmoq, kuchaytirmoq, chizishmoq, sarflattirmoq, atalmoq, to'plashmoq, yangilashmoq, yangilattirmoq.

Aniq nisbat	O'zlik nisbati	Majhul nisbat	Orttirma nisbat	Birgalik nisbati

5-topshiriq. «Biz yosh quruvchimiz» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan fe'llarning nisbatini aniqlang.

6-topshiriq. Uyga vazifa. *Yurmoq, o'chirmoq, to'xtatmoq, yetmoq* fe'llarining nisbat shakllarini aniqlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

FE'LLARNING VAZIFA SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan fe'llar shakllarini tarkibiy qismlarga ajrating.

Kelgach, kelguncha, o'qib, o'qish, o'tirgan, qo'rqmas.

2- topshiriq. Yuqoridagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing. Fe'llarning gap tarkibida qanday bo'lak vazifasida kelayotganligini ayting.

BILIB OLING. Fe'llar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe'l maxsus shakllarga ega bo'ladi. Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari *fe'lning vazifa shakllari* sanaladi.

Fe'llarning to'rt vazifa shakli mavjud: 1) sof fe'l shakli (*o'qidi*); 2) harakat nomi shakli (*o'qimoq, o'qish*); 3) sifatdosh shakli (*o'qigan, oqar*); 4) ravishdosh shakli (*o'qib, kelgach*).

 **137-mashq.** Berilgan gaplardagi fe'llarning vazifa shaklini aniqlang va tushuntiring.

1. Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim bo'lishdi. (*Oybek*) 2. Azizim, qizingizning baxtini birovlarning ostonasidan qidirmang. (*Abdulla Qahhor*) 3. Suv kelguncha, podani tepaga haydab chiqdi. Misoli suvga kalla qilganday o'zini soyga otdi. (*Tog'ay Murod*) 4. Tursunboy tizzasini ushlab zo'rg'a qadam bosardi. (*Abdulla Qahhor*) 5. Siddiqjon borishni ham, qaytishni ham bilmay qoldi. (*Abdulla Qahhor*)

138-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarning vazifa shakllarini toping, tahlil qiling.

Alisher Navoiy o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri bo'lib, u o'zbek adabiyotini, ayni zamonda, jahon adabiyotini ajoyib durdonalar, o'lmas badiiy obrazlar bilan boyitdi. Shoir o'z ijodiy faoliyati bilan XV asr o'zbek adabiyotini mislsiz taraqqiyot cho'qqilariga ko'tarib, uyg'onish davri deb

atalayotgan bu davr madaniy va adabiy hayotida burilish yasadi. Zo‘r jur‘at va mahorat bilan insonparvarlik, xalqparvarlik, taraqqiyparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, xalqimizning nomini jahonga yoydi. Oradan qancha zamonlar o‘tsa-da, uning nomini faxr bilan tilga olyapmiz. («Adabiyot» *darsligidan*)



1. Fe‘lning vazifa shakllari deb nimaga aytiladi?
2. Fe‘lning vazifa shakllari qaysilar?
3. Fe‘lning vazifa shakllariga misollar ayting.

139-mashq. Uyga vazifa. «Sen» ham, «siz» ham bir og‘izdan chiqadi» mavzusida bog‘lanishli matn tuzing. Unda ishtirok etgan fe‘llarning qaysi shaklda ekanligini ayting.

HARAKAT NOMI

1-topshiriq. Berilgan fe‘llarni tarkibiy qismlarga ajrating, qo‘shimchalar ma‘nosini aniqlang.

Yozmoq, yozish, yozuv; o‘qimoq, o‘qish, o‘quv; olmoq, olish, oluv.

2-topshiriq. Yuqoridagi fe‘llarni gap ichida keltiring va qanday gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini ayting.

BILIB OLING. Fe‘lning otga xoslangan shakli *harakat nomi* deyiladi va fe‘l asoslariga *-(i)sh, -(u)v, -moq* qo‘shimchalarini qo‘shish yo‘li bilan yasaladi.

140-mashq. Hikmatli so‘zlarni o‘qing va yod oling. Nuqtalar o‘rniga *-(i)sh, -moq (-mak), -(u)v* qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, harakat nomi yasang.

Bilim o‘qi... va takrorla... mevasidir. O‘qi... — koni foyda. Vatanni sev... imondandir. Ertalab tur..., bet-qo‘lni yuv..., boshqalarga salom ber... insoniylik belgisidir. Birovni birovga chaq... — eng yomon illat.

141-mashq. Berilgan so‘zlardagi harakat nomi yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.

Sanash, chiqmoq, chizuv, aytish, chaqirish, to‘plash, foydalanish, quymoq, sindirmoq, yopish, quyuv, ho‘plamoq, yuguruv, tanishuv, qarov, ishlov, haydov.



1. Harakat nomi deb nimaga aytiladi?
2. *-(i)sh*, *-(u)v*, *-moq* qo'shimchalari yordamida harakat nomlari yasang.

142-mashq. Gaplarni ko'chiring, harakat nomi yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizing.

1. Boshida tashvishi bo'lishiga qaramay, bolani erkalashga, tarbiyalashga vaqt topdi. (*Oybek*) 2. Xalqning o'zingga xayrixoh bo'lishini istasang, avval o'zing xalqqa xayrixoh bo'l. (*Fitrat*) 3. Biror xalqning axloqini bilmoq uchun uning adabiyoti bilan tanish. (*G'afur G'ulom*) 4. Qo'ziboy ishga aralashuvini ham, chiqib ketishini ham bilmay qoldi. (*Hakim Nazir*)

143-mashq. *Uyga vazifa.* Gaplarni o'qing, harakat nomlarini o'zi bog'langan so'zlar bilan birgalikda ko'chirib yozing.

1. Yozuvchi turmushni har taraflama o'rganishi, buning uchun uning hamma sohalaridan xabardor bo'lishi kerak. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Xalqning sha'niga, ming yillar davomida to'plagan obro'-e'tiboriga dog' tushirishga hech kimning haqqi yo'q. (*O'. Sulaymonov*) 3. Vaqtni samarasiz tortishuvlarga sarflamaylik. Har bir voqea va hodisaga katta mas'uliyat, xalqimizga xos donolik va aql-zakovat bilan yondashishimiz kerak. (*N. Muhiddinov*)

HARAKAT NOMINING YASALISHI

Topshiriq. *Tashish*, *tashishmoq*, *tashuv* so'zlaridagi asos va qo'shimchalarga diqqat qiling, ulardagi tovush o'zgarishlarini aniqlang.

BILIB OLING. Harakat nomi fe'l asoslariga *-(i)sh*, *-(u)v*, *-moq* qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: *yasha+sh*, *kel+ish*, *ayt+uv*, *bil+moq*.

a yoki *i* unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga *-v* qo'shimchasi qo'shilganda, *a* unlisi *o* ga, *i* unlisi *u* ga aylanadi va shunday yoziladi. Masalan, *ishla* – *ishlov*, *tani* – *tanuv*.

ESDA SAQLANG. Harakat nomi otlar kabi egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ular bajaradigan gap bo'laklari vazifasida keladi. Masalan: *Chiroyli yozishni o'rgan!* *Yozuving yomon emas.*

144-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan harakat nomlaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Vatanni ..., uning kelajagi uchun ... barchamizning burchimizdir. 2. Birovlarning gapini zimdan ... odobdan emas. (*S. Anorboyev*) 3. Erta bahorda daraxt ..., yerlarni ... bizning eng yaxshi odatimizdir. 4. Bu Vatanni jon bilan ...ga, Cho‘lpon, hozir o‘l. Kimki qasd qilsa anga, kiysin pushaymondin kafan! (*Cho‘lpon*)

Qo‘yish uchun so‘zlar: *saqlash, sevmok, qayg‘urmoq, tinglash, ekish, yumshatish.*

145-mashq. Uch guruhga bo‘lining. Birinchi guruh *-(i)sh*, ikkinchi guruh *-(u)v*, uchinchi guruh *-moq* qo‘shimchalari yordamida harakat nomlari yasasin va ular ishtirokida gaplar tuzib, ko‘chirsin. Besh daqiqa ichida eng ko‘p gap tuzgan guruh g‘olib sanaladi.

146-mashq. Harakat nomlariga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring, harakat nomlarini izohlang.

1. Jo‘yakda cho‘zilib, soya-salqinda dam olish... (-ni, -ning, -ga) nima yetsin? (*S. Barnoyev*) 2. Aql odamga o‘ylash... (haqida, uchun, to‘g‘risida) berilgan. (*O‘. Hoshimov*) 3. Nasiba ertalab barvaqt kelish sharti bilan dugonasiga ketish... (-dan, -ga, -ni) ijozat berdi. (*O. Yoqubov*) 4. Uning bu boqishi... (-ida, -ining, -iga) Sobirning bilag‘onligiga qoyil bo‘lish... (-ga, -dan, -qa) tashqari ajablanish ham bor edi. (*Hakim Nazir*)



1. Harakat nomi qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
2. Harakat nomlariga egalik va kelishik qo‘shimchalari qay tarzda qo‘shiladi?

147-mashq. Uyg‘a vazifa. «Mening do‘stim» mavzusida matn tuzing. Unda harakat nomidan foydalaning.

SIFATDOSH

1-topshiriq. Chap va o'ng qatorlarda berilgan gaplar tarkibidagi ajratilgan so'zlarning qaysi so'zlarga bog'langanini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlang.

Navoiy ixchamgina xonada tanho ishlar edi. (<i>Oybek</i>)	Ishlayotgan xonamiz keng va shinam edi.
--	--

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar narsalarning qanday belgisini ifodalayotgani haqida fikr yuringing.

BILIB OLING. Fe'ning sifatga xoslangan shakli *sifatdosh* deyiladi. Sifatdoshlar fe'l asoslariga *-gan (-kan, -qan), -ydigan (-adigan), -(a)yotgan, -(a)r* qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi bilan sifatga o'xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg'un, barqaror belgisini ifodalasa, sifatdoshlar o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydi. Solishtiring: *katta* (sifat) *daryo, oqar* (sifatdosh) *daryo*.

148-mashq. Berilgan fe'llarni tarkibiy qismlarga ajrating. Qachon sifatdoshning *-gan, -kan, -qan* shakllari qo'shilishiga e'tibor bering.

Chiqqan, kelgan, tikkan, olgan, uqqan, chekkan, yurgan, oqqan, kechikkan, taqqan.

149-mashq. Berilgan sifatdoshlarning aytilishi va yozilishiga e'tibor bering.

Eshit — eshitgan, ayt — aytgan, o's — o'sgan, ek — ekkan, buk — bukkan, qayt — qaytgan, to's — to'sgan.

150-mashq. Nuqtalar o'rniga sifatdosh yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring. Sifatdoshlarning yasalishiga diqqat qiling.

1. Bilmaslik ayb emas, bilma...ini bo'yniga olmaslik ayb.
2. O'z o'rnida aytilma... so'z hech kim yo'q yerda chalin... kuyga

o'xshaydi. 3. Arslondan qo'rq...dan ko'ra o'z nafsidan qo'rq... foydaliroq. 4. Ilm insonni izzat va sharafga yetkaz... vositadir. 5. Boshqalar qalbiga yaxshilik urug'ini ek... odam chinakam insondir.

151-mashq. Sifatdoshlarni toping. Ulardagi yasovchi qo'shimchalarni sifatdosh yasovchi boshqa qo'shimchalarga almashtirish mumkinmi? Shu haqda bahs uyushtiring. Yozuvchining fikriga qo'shilasizmi?

Men go'yo tabiat bilan qo'shilib ketgandekman. Uning bir qismi mana shu daryo, qush, o'tloq, qamishzor, chirillayotgan chigirtka. Anovi vaqillayotgan qurbaqa, huv narigi yoqda hurayotgan it, shamolda shildirayotgan qamish yaproqlari. O'tloqdagi chirsillayotgan olov, chaylaga to'shalgan o't-o'lanlarning shirin, yoqimli, toza isi bilan aralash-quralash bo'lib ketgandekman. (*Olmos*)



1. Sifatdosh deb nimaga aytiladi?
2. Sifatdosh yasovchi qo'shimchalarni sanang.
3. **-gan, -kan, -qan** qo'shimchalarining qanday fe'l asoslaridan so'ng qo'llanishini izohlang.

152-mashq. *Uyga vazifa.* «Mehr-muruvvat — inson bezagi» mavzusida matn tuzing, unda sifatdoshlardan foydalaning.

SIFATDOSHLARNING ZAMON SHAKLLARI. O'TGAN ZAMON SIFATDOSHI

1-topshiriq. Berilgan sifatdoshlarda ifodalangan harakat-holatning qaysi zamonga mansubligini ayting.

Ishlagan (kishi), kelayotgan (mashina), o'sadigan (nihol), tiktirgan (ko'ylak), o'rilgan (soch).

2-topshiriq. Yuqoridagi bo'lishli shakldagi sifatdoshlarni bo'lishsiz shaklga aylantiring. Qaysi nisbat shaklida ekanligini ayting.

BILIB OLING. Sifatdoshlar fe'l shakli bo'lganligi uchun fe'lga xos bo'lgan zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat ma'nolarini ifodalaydi.

3-topshiriq. Quyida berilgan sifatdoshlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Sifatdosh shakllarining qaysi zamonga oidligini ayting.

Ko'pni ko'rgan (kishi), to'kilgan (paxta), ko'chgan (muz), gullagan (o'lka), uqqan (bola).

4-topshiriq. Sifatdosh shakllarining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

BILIB OLING. Sifatdoshning *-gan (-kan, -qan)* qo'shimchasi shaxs-narsalarning o'tgan zamonga xos harakat belgisini ifodalaydi.

Bu qo'shimcha unli bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, *-gan* holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi (*o'qigan, yashagan kabi*).

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, *-kan* holida talaffuz qilinsa ham, *-gan* yoziladi (*ko'chgan, o'sgan kabi*).

Jarangsiz *q* undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda, *-qan, k* undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda, *-kan* holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi (*tiq — tiqqan, tik — tikkan*).

Jarangli *g'* undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda, *-qan* holida talaffuz qilinsa ham *-gan* yoziladi (*tug' — tug'gan*).

153-mashq. Gaplarni ko'chiring. Shu kabi maqollarga misollar keltiring. Sifatdoshlarning ishlatilish o'rinlariga diqqat qiling.

1. Aytilgan so'z — otilgan o'q. 2. Og'izdan chiqqan so'z qaytmas. 3. Kishining o'zi yetmagan yerga so'zi yetar. 4. Egilgan boshni qilich kesmas.

5. Duo olgan omondir,
Qarg'ish olgan yomondir.

154-mashq. Gaplarni ko'chiring. O'tgan zamon sifatdoshlarining hosil bo'lishiga diqqat qiling.

1. Vahobjon boyagi qiz ko'rsatgan uy eshigining tugmasini bosdi. (*Said Ahmad*) 2. O'z ko'zim bilan ko'rganlarimni, kechir-

ganlarimni, o'tmish hayot lavhalaridan esimda qolganlarini qalamga olgim kelib qoldi. (*Abdulla Qahhor*) 3. O'z nafsiga asir bo'lgan odam insoniylikni qo'ldan boy beradi. («*Donolor o'giti*»dan) 4. Mustafó Galatepaning chekkarog'ida, Ubaydullo Maxsumning hovuzi tarafga turtib chiqqan qir tumshug'ida yashaydi. (*Murod Muhammad Do'st*)



1. Sifatdoshning o'tgan zamon shakli qanday yasaladi?
2. *-gan (-qan, -kan)* qo'shimchasi yordamida o'tgan zamon sifatdoshlarini yasang.

155-mashq. *Uyga vazifa.* «Men yoqtirgan adib» mavzusida matn tuzing. Unda o'tgan zamon sifatdoshlaridan foydalaning.

HOZIRGI VA KELASI ZAMON SIFATDOSHLARI

1-topshiriq. Quyida berilgan sifatdoshlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Sifatdosh shakli qaysi zamonnı ifodalashini ayting.

Yurayotgan (mashina), boradigan (joy), o'qiydigan (kitob), kuylayotgan (bola).

2-topshiriq. Qaysi vaqtda **-(a)yotgan, -ydigan, -adigan** shakllari qo'llanilishini aniqlashga harakat qiling.

3-topshiriq. Yuqoridagi sifatdoshlarning bo'lishsiz shaklini yasang.

BILIB OLING. Hozirgi zamon sifatdoshi fe'l asoslariga **-(a)yotgan** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

Kelasi zamon sifatdoshi fe'l asoslariga **-ydigan, -adigan, -(a)r** qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi.

156-mashq. Gaplarni ko'chiring. Sifatdoshlarni topib, yasalishini tushuntiring.

1. Endigina ko'tarilib kelayotgan oy sarg'ish nurlar sochib, tun qo'ynida mudrayotgan pastqam uylarning tomlarini, daraxtlarning yalang'och novdalarini yoritib turardi. (*X. To'xtaboyev*)
2. Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotganimda bir to'da

uloqchi-chavandozlar uchrab qoldilar. (*A. Qodiriy*) 3. ...Jimirlab oqayotgan daryo bo‘yiga borib, yuz-qo‘llarini yuvib, birikki qultum suv ichishdi. (*Mirmuhsin*) 4. Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko‘tarib kelayotgan yosh nihollarni tebratar edi. (*O‘. Hoshimov*)

157-mashq. Kelasi zamon sifatdoshlarini topib, hosil bo‘lishini tushuntiring.

1. Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, opa,— dedi Kamol astoydil kuyunib, — sha‘ningizga dog‘ tushiradigan bunaqa ishlarga izn bermang. (*E. Usmonov*) 2. Shanbada to‘y keladigan, el-yurtga osh beriladigan bo‘lgani uchun erta tongdanoq hovli gavjum edi. (*O. Yoqubov*) 3. Eshon otasining vasiyatiga amal qilib, to‘rdan joy tegmaydigan, poygakda choy tegmaydigan bir odam bo‘lib yetishibdi. (*Abdulla Qahhor*) 4. Bo‘ladigan savdoning tezroq bo‘lgani yaxshi. (*N. Normatov*) 5. Mana endi, Sobirjon o‘g‘lim, ishlab, ro‘zg‘orga qarashadigan vaqtingiz bo‘ldi. (*Hakim Nazir*)

158-mashq. So‘z birikmalari tarkibidagi kelasi zamon sifatdoshlarini o‘tgan va hozirgi zamon sifatdoshlariga aylantiring, so‘ng ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ichiladigan suv, tug‘adigan sigir, bajariladigan ish, olinadigan ko‘ylak, haydaladigan yer, miniladigan ot, yoziladigan bayon, chaqiriladigan mehmon, qilinadigan to‘y, ijro etiladigan raqs, pishiriladigan ovqat.

1. Hozirgi zamon sifatdoshi qanday yasaladi?
2. Kelasi zamon sifatdoshiga misollar ayting.
3. *Qurmoq, boqmoq, tikmoq* fe‘llaridan hozirgi va kelasi zamon sifatdoshlarini yasang.

159-mashq. *Uyga vazifa.* *Qaytmoq, keltirmoq, ikkilanmoq, ang-lamoq, yanglishmoq* fe‘llaridan o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon sifatdoshlarini yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

SIFATDOSHNING BO‘LISHLI VA BO‘LISHSIZ SHAKLLARI

Topshiriq. Berilgan bo‘lishli shakldagi sifatdoshlardan *-ma* yordamida bo‘lishsiz sifatdoshlar hosil qiling.

Eshitgan, ko‘rayotgan, kuylaydigan, oqar.

BILIB OLING. Sifatdoshning bo‘lishsiz shakli sifatdosh hosil qiluvch qo‘shimchalardan oldin *-ma* qo‘shimchasini keltirish orqali yasaladi. Masalan: aytgan — aytmagan, oqayotgan — oqmayotgan, o‘qiydigan — o‘qimaydigan. *-(a)r* qo‘shimchasi yordamida yasalgan shakllarning bo‘lishsiz shakli *-mas* qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi.

160-mashq. *O‘tirmoq, chizmoq, yangilamoq, tozalamoq, sug‘ormoq, suhbatlashmoq* fe‘llaridan sifatdoshlarning uch zamondagi bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarini hosil qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

161-mashq. Gaplarni o‘qing, sifatdoshlarning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarini topib, ko‘chiring.

1. Bu ovoz hali mag‘zi ilimagan dalalarga, osmondagi oqimtir yulduzlarga tegib aks-sado berayotgandek tuyulardi. (*A. Ko‘chimov*) 2. Bola boshini qo‘llari orqasiga qo‘yib, Boysun tog‘i uzra charx urayotgan bulutlarga qarab jim qoldi. (*S. Mengnorov*) 3. Oqqan daryo oqaveradi. 4. Or — bu o‘ziga nomunosib yoki ep ko‘rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg‘usidir. («*Vatan tuyg‘usi*») 5. Keng fe‘l, ketmas davlat bersin.



1. Sifatdoshlarning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Sifatdoshlarning bo‘lishsiz shakliga misollar keltiring.

162-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida «Qor zavqi» mavzusida matn tuzing. Unda bo‘lishli va bo‘lishsiz sifatdoshlardan foydalaning.



RAVISHDOSH

1-topshiriq. Quyidagi gaplar tarkibidagi ajratib ko‘rsatilgan fe’llarni tarkibiy qismlarga ajrating.

1. Sochlarimni **silab-siypalab**,
Baxting bor deb esadi yellar. (*Hamid Olimjon*)
2. Bolta **tushguncha**, to‘nka dam olar. (*Maqol*)
3. Tong **otgach**, yo‘lga tushdik.


2-topshiriq. Ajratib ko‘rsatilgan fe’llarning qaysi so‘zlar bilan bog‘lanib kelayotganini va qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlang.

BILIB OLING. Fe’ning ravishga xoslangan shakli *ravishdosh* deyiladi.

Ravishdoshlar harakatning belgisini bildirishi bilan ravishga o‘xshaydi. Ravishdosh ham ravish kabi fe’lga bog‘lanib, uning belgisini bildiradi. Solishtiring: *piyoda* (ravish) *keldi*, *shoshilib* (ravishdosh) *keldi*.

163-mashq. Matn tarkibidagi ravishdoshlarni aniqlab, qanday so‘roqqa javob bo‘layotgani va qaysi so‘zga bog‘lanayotganini ayting.

... Boysariboy o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli bilan ko‘chib borgach, Ko‘qamish ko‘li atrofida mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotadi. O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining boyvachchalari bilan yig‘ilib, bir yerga jam bo‘lib, bir baxmal o‘tovni tikib, shu o‘tovning ichida hamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, o‘z kayf-u safosi bilan o‘tirar edi. («*Alpomish*»dan)

 **164-mashq.** Quyida berilgan gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday so‘roqqa javob bo‘layotgani va qaysi so‘z turkumiga mansubligini ayting. Imlosini tushuntiring.

Shohjahon hazin kayfiyatga **berilgach**, ko‘ngli qorong‘uligini na o‘yin-kulgu, na sayr-sayohat yorita olardi. Malika Mumtoz-mahal shohning ma’yusligini **sezgach**, uni xushnud etish uchun g‘azallar **o‘qib**, xayollarini yaxshilikka, ezgu ishlarga undardi. Malika dunyodan **o‘tgach**, unga **bag‘ishlab** shoh «Tojmahal»ni qurdirdi. Ammo Shohjahonni xavotirga solgan hodisalar **ro‘y berib**, o‘z o‘g‘li Avrangzeb otaga qarshi isyon ko‘tardi. Taxtni **egallagach**, otasini umrbod qamoqqa, erksizlikka mahkum etdi. («*Adabiyot*» *darsligidan*)



1. Ravishdosh deb nimaga aytiladi?
2. Ravishdosh qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
3. Ravishdosh gapda qanday gap bo‘lagi vazifalarida keladi?

165-mashq. Uyga vazifa. «Mening orzum» mavzusida bog‘lanishli matn tuzing. Unda ishtirok etgan fe’llarning qanday shaklda ekanligini ayting.

RAVISHDOSHLARNING MA’NO TURLARI

1-topshiriq. Berilgan birikmalardagi ravishdoshning so‘rog‘ini aniqlang va so‘rog‘iga qarab, ma’nolarini izohlang.


Musiqaning tingach, qorong‘i tushguncha, ko‘rgani bormoq, yugurib kelmoq, o‘ylay-o‘ylay topmoq, qo‘rqib kirmadi, qay-

nayvermagach olovni kuchaytirdi, suvga tikilgancha o'ylanib qoldi.

2-topshiriq. Yuqoridagi ravishdoshlarni qanday so'roqqa javob bo'lishiga qarab, quyidagi ma'no guruhlariga joylashtiring:

Holat (<i>qanday, qanday qilib?</i>)	Payt (<i>qachon, qachongacha?</i>)	Maqsad (<i>nima maqsadda?</i>)	Sabab (<i>nima sababli?</i>)

BILIB OLING. Ravishdoshning **-(i)b, -a//-y** shakllari ko'proq harakatning holatini, ba'zan payt, sababini, **-gancha (-kancha, -qancha)** shakli holatini, **-gach, (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha)** shakllari paytini, **-gani (-kani, -qani, -gali)** shakli maqsadini anglatadi.

 **166-mashq.** Quyida berilgan fe'l asoslariga **-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha), -gani (-kani, -qani)** qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring. Talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Ko'r, bor, ket, yig', chaq, taq, tik.

N a m u n a : ko'rgach, ko'rguncha, ko'rgani.

167-mashq. Biror badiiy matndan ravishdosh shakllarini topib, ularning talaffuzi va imlosini tushuntiring.

168-mashq. Berilgan gaplardagi ravishdoshlarning ma'no turlarini aniqlang.

1. Aslida, qosh qorayguncha yetib olish kerak. (*Omon Muxtor*) 2. Tog'ga yetgach, qo'ylarni o'z holiga tashlab qo'ydi. (*Tog'ay Murod*) 2. Gapni bilib-bilmay gapirmaslik kerak. (*U. Hamdamov*) 2. Yodgor kelib-kelmay hasharni adog'iga yetkazdi. (*G'afur Gulom*) 3. Doirani olgach, chalgani odam izlab ketdi. (*N. Aminov*) 4. Tog'ga chiqqach, osmonning pastligini his qildi. (*Tog'ay Murod*) 5. Kechga yaqinlashgach, havo aynib, shamol turdi. (*Oybek*)

169-mashq. Berilgan fe'l asoslariga ravishdoshning *-(i)b, -a/-y, -gach, -guncha, -gani, -gancha* qo'shimchalarini qo'shing va qanday ma'no o'zgarishi bo'layotganini aytg.

O'tir, yoz, ter, yur, gapir, boq, yog', buk.

Namuna: *o'tirib, o'tira-o'tira, o'tirgach, o'tirguncha, o'tirgani, o'tirgancha.*



1. Payt ma'nosini bildiruvchi ravishdoshlarga misollar aytg.
2. Holat ma'nosini bildiruvchi ravishdoshlarga izoh bering.
3. Maqsad ma'nosini bildiruvchi ravishdoshlarni tavsiflang.
4. Sabab ma'nosini bildiruvchi ravishdoshlar qaysi qo'shimchalar bilan yasaladi?

170-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida ravishdoshlardan foydalanib, «Bugungi hayotimiz» mavzusida bog'lanishli matn tuzing. Qanday ravishdoshlardan foydalanganingizni aytg.



RAVISHDOSH YASOVCHI QO'SHIMCHALAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Topshiriq. Berilgan fe'llardagi ravishdosh qo'shimchalarini aniqlang. Ularning talaffuzi va imlosiga e'tibor bering.

Chiqqach, kelgach, ekkach, aytgach, chiqquncha, kelguncha, ekkuncha, aytguncha, sig'gancha, kelgancha, ekkancha, aytgancha, chiqqani, kelgani, ekkani, aytgani.

BILIB OLING. Unli va jarangli undoshlar bilan tugagan fe'l asoslariga ravishdoshning *-gach, -guncha, -gancha, -gani* qo'shimchalari qo'shiladi.

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga bu qo'shimchalar qo'shilganda, *-kach, -kuncha, -kancha, -kani* shaklida talaffuz qilinsa ham, *-gach, -guncha, -gancha, -gani* tarzida yoziladi.

Bu qo'shimchalar faqat *k* undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shib, *-kach, -kuncha, -kancha, -kani* holda; *q* undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shib, *-qach, -quncha, -qanचा, -qani* shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

171-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni toping, ravishdosh shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalarning yozilishi va talaffuzini tushuntiring.

1. Ona kelar yo'lda yugurib, Ko'ringandan qizini so'rab. (*Hamid Olimjon*) 2. Orqa tomonda o'tirgan Dilbar o'zini tutolmay qiqirladi. (*N. Aminov*) 3. Bobur gulni yana bir hidlab, boshidagi sallasining qatiga qistirib qo'ydi. (*P. Qodirov*) 4. Taxtga chiqqach, adolat bilan ish tutibdi. (*Ertakdan*) 5. Shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni qoldirdi. (*Tog'ay Murod*)

172-mashq. Berilgan gaplardan fe'lning ravishdosh shaklini toping va talaffuzi hamda imlosiga e'tibor bering.

1. O'sha kuni kechasiyoq qahramonliklar ko'rsatib, shon-u shuhrat taratib, o'qituvchilarimni hayratda qoldirdim. (*X. To'xtaboyev*) 2. Men bobomning maqtovini eshitib, kekkayib bormoqdaman. (*A. Qodiriy*) 3. Tepalikdan o'tgach, chavandozlar birin-ketin orqada qola boshladi. (*B. Murodaliyev*) 4. Akauka maslahatlashib, tong otguncha shu yerda qolishga qaror qilishdi. (*X. To'xtaboyev*) 5. Xola, ukam qani, olib ketgani keldim. (*H. Badalov*)



1. Ravishdoshlar qaysi qo'shimchalar yordamida yasaladi?
2. Ularning imlosi haqida gapiring.
3. Qanday asoslarga *-qach, -quncha, -qani* qo'shimchalari qo'shiladi?

173-mashq. Uyga vazifa. «Bizning qishloq yoki shahar» mavzusida bog‘lanishli matn tuzing. Matnda ravishdoshlardan foydalaning. Ularni tahlil qiling.

MUSTAHKAMLASH



1. Fe‘llarning vazifa shakllari deb nimaga aytiladi?
2. Harakat nomi qanday hosil qilinadi?
3. Sifatdosh yasovchi qo‘shimchalar qaysilar?
4. Ravishdosh yasovchi qo‘shimchalarni ayting.
5. Fe‘lning vazifa shakllariga xos belgilar qaysilar?

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, fe‘lning vazifa shakllarini hosil qiling.

Bir bog‘bon birovning bog‘ini parvarish qilar edi. Bog‘da bir olma daraxti bo‘l... (-gani, -yotgan, -ib), mevasi juda shirin edi. Bog‘bon bu daraxtni sevar, mevasi pish... (-ib, -ish, -qani)i bilan bog‘ egasining oldiga olib borardi. Bu gal ham bog‘ egasi keltiril... (-kan, -qan, -gan) olmadan g‘oyat xursand bo‘ldi va uni o‘z hovlisiga keltir... (-ay, -gun cha, -ib) o‘tqaz... (-gani, -ish, -quncha)ni buyurdi. Ko‘chiril... (-ib, -y, -gan) olma daraxti qurib qoldi.

Ochko‘z bog‘ egasi olmaning boridan ham ajralib qoldi. (*Rivoyat*)

2-topshiriq. *Yoz, keltir, sot, qur, o‘qi* asoslaridan fe‘l shakllarini hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

3-topshiriq. Matnni ko‘chiring. Undagi mazmun sizga qanday ta‘sir qildi? Ajratib ko‘rsatilgan fe‘l shakllariga diqqat qiling, so‘rog‘ini, bog‘langan so‘zini aniqlang.

Asal yiliga ikki marta: bahorda va kuzda yig‘ilar edi. Dadam tayyor hosilni sirli tog‘oralarga **solib**, oftobda **eritib**, mumlarini ajratardilar.

«O‘g‘lim, asal shirin, xizmati qiyin», — deb qo‘yar edilar dadam har zamonda. Dadam birinchi hosilni qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘larga: «Og‘zi tegsin» deb, tarqatar edilar.

Shunda men: «Nega qo‘shnilarga qiyin mehnatingiz evaziga yuzaga kelgan bolni tarqatamiz?» — derdim. Dadam **kulib**: «Hosil mo‘l, qolaversa, qo‘shnilarning ham haqi bor, chunki arilar ularning bog‘idagi gullardan ham bol **so‘rib** olganlar», — derdilar. (*Habibullo Qodiriy*)

4-topshiriq. Uygʻa vazifa. «Qanotli do‘stlar» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan fe‘lning vazifa shakllarini aniqlang.

KO‘MAKCHI FE‘LLAR

1-topshiriq. Berilgan fe‘llarni bir-biriga solishtiring, ma‘no farqini ayting.

O‘qimoq — o‘qiy boshlamoq, o‘qiy olmoq, o‘qib chiqmoq, o‘qib tugatmoq, o‘qib yurmoq, o‘qib turmoq, o‘qib yubormoq, o‘qib tashlamoq.

2-topshiriq. *Boshlamoq, olmoq, chiqmoq, tugatmoq, yurmoq, turmoq, tashlamoq* fe‘llarini *ishlamoq, yozmoq* fe‘llariga qo‘shib, ma‘nolarini izohlang.

BILIB OLING. Ravishdoshning *-a// -y, -(i)b* shakllariga qo‘shilib, o‘z mustaqil ma‘nolarini yo‘qotgan, asosdan anglashilgan harakatning bosqichlari (boshlanishi, davom etishi, tugallanishi) va tarzi (tezligi, imkoniyati)ni bildiruvchi *boshlamoq, olmoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq* singari fe‘llar *ko‘makchi fe‘llar* hisoblanadi.

ESDA SAQLANG. Ko‘makchi fe‘lni qabul qiluvchi ravishdosh yetakchi fe‘l hisoblanadi. Ko‘makchi fe‘l faqat yetakchi fe‘l bilan birgalikda qo‘llanadi. Ana shu xususiyati bilan mustaqil qo‘llanuvchi *olmoq (xatni olmoq), tugatmoq (o‘qishni tugatmoq), turmoq (o‘rnidan turmoq), tashlamoq (qog‘oz tashlamoq)* fe‘llaridan farq qiladi.

174-mashq. Matnni o'qing. Ko'makchi fe'llarni topib, ular bildirgan ma'nolarni aniqlang. Ko'makchi fe'llar ishtirokida yangi so'z qo'shilmalarini hosil qiling.

Chor atrofi baland devor bilan o'ralgan tor joyda uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to'lib-toshib yotibdi. Eng qizig'i, devor boshida o'qtin-o'qtin ko'rinish beradigan babaq xo'roz. U o'ziga hayratomuz tikilib turgan Oqbo'yinga boshini u yon-bu yon burib qarab qo'yadi-da, qanotlarini tap-tap qoqqanicha, birdan qichqirib qoladiki, sho'rlik Oqto'sh qochaman deb umbaloq oshib tushadi.

Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rtancha o'g'li Rasul kelib qoladi... Rasul uni yerdan ko'tarib bag'riga bosadi, silab-siypaydi. (*N. Norqobilov*)

175-mashq. Gaplar tarkibidagi fe'llarni ikki guruhga bo'lib ko'chiring. Birinchi guruhga mustaqil fe'llarni, ikkinchi guruhga ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarini kiriting.

1. Men bu yerga qalamcha suqqanimda, «Nimaga boshqalar bosh qo'shmaydi?» deb o'ylamaganman. Ekkim kelgan, ekkaman. (*N. Norqobilov*) 2. Ertasi kun bo'yi Esonboyni xavotir aralash kutdim. Daragi bo'lmadi. Ishdan kelgach, nari-beri tamaddi qilib, uyiga o'tib bordim. (*X. Sultonov*) 3. Savri xola indamadi. Bitta-bitta qadam bosib, uyi tomon yurib ketdi. (*O' Umarbekov*) 4. Qo'qonga nonushta mahalida kirib keldik. (*Abdulla Qahhor*)

176-mashq. Quyidagi fe'llar ishtirokida ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari tuzing, ular ishtirokida gaplar hosil qiling va yozing.

Ko'rmoq, solmoq, qaramoq, qo'ymoq, kelmoq, yubormoq, tashlamoq.

177-mashq. *Qo'ymoq, qirqmoq, gapirmoq, yemoq, ichmoq, chopmoq, yozmoq* fe'llarini yetakchi fe'l qilib, ularga har xil ko'makchi fe'llarni qo'shib ko'ring, so'z ma'nosining o'zgarishiga diqqat qiling.

N a m u n a : *qo'yib yubormoq, qo'yib qo'ymoq, qo'yib turmoq.*



1. Ko'makchi fe'llar deb nimaga aytiladi?
2. Qanday fe'llar yetakchi fe'l sanaladi?
3. Ko'makchi fe'l qanday shakldagi yetakchi fe'llarga qo'shiladi?

178-mashq. *Uyga vazifa.* «Erta turish — salomatlik garovi» mavzusida matn tuzing va unda ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalaridan foydalaning.

KO‘MAKCHI FE‘LNING MA‘NOLARI

1-topshiriq. *Yubormoq, boshlamoq, tashlamoq, tugatmoq* ko‘makchi fe‘llarini ravishdosh shaklidagi *chopmoq* yetakchi fe‘li bilan birga keltiring. Ularning ma‘no farqini ayting.

2-topshiriq. *Hayday boshlamoq, haydab yubormoq, haydab bo‘lmoq* fe‘llarining ma‘nolarini izohlang.

BILIB OLING. Ravishdoshning *-a//*-y shakliga qo‘shiluvchi *boshlamoq* ko‘makchi fe‘li harakatning boshlanishi, *olmoq* ko‘makchi fe‘li esa harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma‘nosini ifodalaydi.


Yotmoq, yurmoq, turmoq ko‘makchi fe‘llari ravishdoshning *-(i)b* shakliga qo‘shilib, harakatning davomiyligini bildiradi.

Yubormoq, tashlamoq, qo‘ymoq ko‘makchi fe‘llari harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi.

Chiqmoq ko‘makchi fe‘li harakatning to‘la yakunlanganini bildiradi.

179-mashq. O‘. Umarbekovning «Hayot qo‘shig‘i» hikoyasidan olingan quyidagi gaplarni o‘qing. *Ketmoq* fe‘lining ishlatilish o‘rinlariga va ma‘nolariga diqqat qiling.

1. O‘yin-kulgu, askiya yarim kechagacha cho‘zilib ketdi.
 2. Mo‘ysafid gullarni shiyponga qo‘yib, mehmonlar bilan ko‘rishga ketdi.
 3. Bu nima degan gap o‘zi, juda jim bo‘lib ketdingiz!
 4. Sahnaga ko‘zi tushdi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi.
 5. Do‘simboy ota uyga kirib ketganda hech nimaga tushunolmay o‘tirgan Mirsaid so‘radi: — Hotamjonga nima qilgan?
 6. Mirsodiq eshikni sekin ochdi-yu, sevinib ketdi.

 **180-mashq.** *Yozib bormoq, aytib bormoq, kuchayib bormoq, ortib bormoq, o‘tib bormoq* shakllari tarkibida kelayotgan *bormoq* fe‘lining ma‘nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

181-mashq. Ikki guruhga bo'ling. Birinchi guruh o'z ma'nosida ishlatgan fe'lni, ikkinchi guruh ko'makchi fe'l ma'nosida qo'llab gap tuzsin.

182-mashq. Gaplarni ko'chiring, ko'makchi fe'llarning ma'nolarini izohlang, ularni harakatning boshlanishini, davomiyligini va yakunlanishini bildiruvchi fe'llarga ajrating.

1. Hozircha muvaqqat sim tortib turaylik, doimiy simni Farhodan elektr olganimizda tortamiz. (*Abdulla Qahhor*)
2. Hozir men Toshkentdaman. Yodgor o'z yonimda. Ba'zan Mehrixonlar oilasiga ham borib-kelib turadi. (*G'afur G'ulom*)
3. Ukam orqasiga qayrilib ham qaramadi. Dadasining qo'lidan ushlab dikir-dikir sakrab, o'ynoqlab keta berdi. (*S. Anorboyev*)
4. Indamay g'ishtlarni ustma-ust taxlay boshladi. (*M. Mansurov*)

5. Men gilosman, quloq sol,
Rangim ol-u, totim bol.
Topsang qo'shalog'imni
Qulog'ingga taqib ol. (*E. Vohidov*)



1. Harakatning boshlanishini bildiradigan ko'makchi fe'llar qaysilar?
2. Harakatning davomiyligini anglatuvchi ko'makchi fe'llarni aytib bering.
3. Harakatning yakunlanganligi qaysi ko'makchi fe'llar yordamida ifodalanadi?

183-mashq. Uyga vazifa. *Boshlamoq, yotmoq, chiqmoq* ko'makchi fe'llari ishtirokida so'z qo'shilmalari tuzing va ularni gap ichida keltiring.

Namuna: *Kechga borib laylakqor yog'a boshladi* (harakatning boshlanishini bildiradi).

BILIB OLING. Nisbat va bo'lishsizlik shakllari yetakchi fe'l tarkibida ham, ko'makchi fe'l tarkibida ham kelishi mumkin. Zamon, shaxs-son qo'shimchalari faqat ko'makchi fe'llarga qo'shiladi.

184-mashq. Gaplarni ko‘chiring, ajratib ko‘rsatilgan ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalaridagi ko‘makchi fe‘llar bildirgan ma‘nolarni aniqlang.

1. Unsin ostonadan hatlashi bilan paranjisini **yig‘ishtirib oldi**, qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib **ko‘risha ketishdi**. 2. Birpasgina bo‘lsa ham... ko‘rinish berib, notavon ko‘nglimni **tinchitib ketsang, bo‘lgani**. 3. Sovuq bo‘shashgan hamon, ko‘klam daragi kelmasdan, tag‘in ayvonga **ko‘chib olar edi**. 4. Umarali o‘rnidan turdi-da, tashqariga **chiqib ketdi**. (*Oybek*)

185-mashq. Gaplarni ko‘chiring, ajratib ko‘rsatilgan fe‘llarni bir-biriga solishtirib, farqlarini ayting, asosga fe‘l shakllarining qo‘shilishiga diqqat qiling.

1. Otamiz aravaga qo‘shilgan otni **yetaklab borardi**, xullas, Zovboshiga borishimni **taqiqlab qo‘yishgandi** uydagilar. 2. Tog‘dan bizga qishning yaqinlashganidan xabar beruvchi shamollar **esa boshladi**. 3. Keyin ularning ham chandilgan iplarini yechib, **ayirib ola boshladik**. 4. Yo‘l nishab edi. **Tushib ketyapmiz**. Goho otning tuyog‘i silliq toshda **sirg‘alib ketadi**. 5. Bir mahal yo‘l **kengayib ketdi**. (*Sh. Xolmirzayev*)

186-mashq. *Silab qo‘ydi — silamay qo‘ydi — silab qo‘ymadi; yashirib qo‘ydi — yashirmay qo‘ydi — yashirib qo‘ymadi, yashirmay qo‘ymadi; o‘tib qoladi — o‘tmay qoladi — o‘tib qolmaydi* ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalari ishtirokida gaplar tuzing, fe‘l shakllari o‘zgarishining gap ma‘nosiga qanday ta‘sir qilayotganini toping.



1. *-ma* qo‘shimchasi yetakchi va ko‘makchi fe‘lga qanday qo‘shiladi?
2. Yetakchi va ko‘makchi fe‘llarga nisbat qo‘shimchalarining qo‘shilish tartibi haqida so‘zlab bering.
3. Yetakchi va ko‘makchi fe‘llarga zamon qo‘shimchalari qanday qo‘shiladi?

187-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida «Konstitutsiya bayramida» mavzusida matn tuzing, unda ko‘makchi fe‘llardan foydalaning.



FE‘LLARNING YASALISHI

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Qo‘shimcha qismning vazifasini ayting.

Sana, boyi, oqar, qoray, suvsa, yaltira, yiltira, suhbatlash.

2-topshiriq. Berilgan yasama fe‘llar qatorini davom ettiring. Suvsira, tuzla, tuna, chirqilla, qisqar.

BILIB OLING. *-la, -a* qo‘shimchalari ot, sifat, undov so‘zlardan, *-(a)y, -i, -sira, -sa* qo‘shimchalari ot va sifatlardan, ba‘zan ravishlardan, *-(a)r* qo‘shimchasi sifatlardan, *-illa, -ira* qo‘shimchalari taqlid so‘zlardan fe‘l yasaydi.

-sira qo‘shimchasi *sen, siz* olmoshlaridan ham fe‘l yasaydi.

188-mashq. Gapnlarni ko‘chiring, nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, fe‘llar hosil qiling va ularning yasalishini izohlang.

1. Odobli va adolatli inson qo‘lidagi qalam baxt-saodat uchun xizmat qilib yurgan odamlarni zavq... (*-la, -ir, -lan*) ti-

radi, bir-biriga yaqin... (-sa, -lash, -man)tirib, do‘stlikni mustahkam... (-sira, -la, -y)di. (*H. Ziyoyev*) 2. Goho miriqib gap... (-cha,-ir,-la)shib, o‘y... (-in, -la, -choq)shib olish ham kerak-ku? Xotiralar odamning yuragini toza... (-lik, -gar, -la)ydi. (*Sh. Xolmirzayev*) 3. Yuzimga qarab turib «sen... (-la, -sira, -sa)mang» deydi-ya?! (*Abdulla Qahhor*) 4. U Marg‘ilonga yaqin... (-roq, -lash, -la)ib qolganda kun og‘ib qolgan edi. (*Tohir Malik*)

189-mashq. -la qo‘shimchasi yordamida yasalgan fe‘llarni jadvalga joylashtiring, ularning yasalishini izohlab, gaplar tuzing.

Tuzlamoq, dodlamoq, yangilamoq, tezlamok, voyvoylamoq, yaxshilamoq, varaqlamoq, to‘g‘rilamoq, sekinlamoq, ho‘plamoq, qishlamoq.

Otdan yasalgan fe‘llar	Sifatdan yasalgan fe‘llar	Ravishdan yasalgan fe‘llar	Undov va taqliq so‘zdan yasalgan fe‘llar

190-mashq. Quyidagi qo‘shimchalar yordamida fe‘llar yasang va ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing: -i, -y, -illa, -la, -lan, -lash, -sira.

N a m u n a : boy+i, tinch+i.

Maktabimiz muzeyi yangi eksponatlar bilan boyitildi.

191-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Fe‘l yasovchi qo‘shimchalarni aniqlab, ularga izoh bering.

1. Bularning ichida bitta kattasi bor ekan. Bizga yaqinlashmadi. (*Ertakdan*) 2. Shundan so‘ng To‘maris qo‘shin to‘plab, jangga otlandi. (*Mirkarim Osim*) 3. Gapirganda ovozi xuddi ichidan chiqqanday guldurab, jaranglab eshutiladi. (*X. To‘xtaboyev*) 4. Qizlar o‘zaro sekin suhbatlashib turishardi. (*Oybek*)



1. So‘z yasalishi deganda nimani tushunasiz?
2. Fe‘llar qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
3. Taqlid so‘zlardan qaysi qo‘shimchalar yordamida fe‘l yasaladi?

192-mashq. *Uyga vazifa.* Yiltiradi, keltiradi, suvsiradi, kulimsiradi, suvsa, borsa soʻzlarini qismlarga ajrating, feʼl yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalarni izohlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

AYRIM FEʼL YASOVCHI QOʻSHIMCHALAR IMLOSI

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarni tarkibiy qismlarga ajrating.

Oʻyna, qiyna, sana, yasha, ata, pasay, susay.

2-topshiriq. Yuqoridagi soʻzlarda yasovchi qoʻshimcha qoʻshilgandan soʻng asosda qanday oʻzgarish roʻy berganligini ayting.

3-topshiriq. Berilgan soʻzlarning qanday talaffuz qilinishi va imlosiga eʼtibor bering.

Gurulla, gʻuvulla, uvulla.

BILIB OLING. Feʼl yasovchi *-a* qoʻshimchasi *oʻyin*, *qiyin* kabi ikki boʻgʻinli soʻzlarga qoʻshilganda, bu soʻzlarning ikkinchi boʻgʻinidagi *i* unlisi talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi.

Feʼl yasovchi *-ay* qoʻshimchasi *past*, *sust* soʻzlariga qoʻshilganda, bu soʻzlar oxiridagi *t* talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi.

-illa qoʻshimchasi tarkibida *u* unlisi yo *v* undoshi boʻlgan bir boʻgʻinli soʻzlarga qoʻshilganda, *-ulla* tarzida aytiladi va shu holda yoziladi.

193-mashq. Gaplarni koʻchiring. *-illa* qoʻshimchasining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.


1. Yuragim hayajondan gupullab uradi. (*Said Ahmad*)
2. Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga bosh urib shovullab oqyapti. (*P. Qodirov*)
3. Hamma yoq jim. Faqat pashsha gʻingʻillaydi, bemor inqillaydi. (*Abdulla Qahhor*)
4. Mahallamizdagi oʻrtoqlarim ham otlarini loʻkillatib kelib qoldilar. (*Abdulla Qodiriy*)

194-mashq. Yasama fe'llarni toping, ularni asos va qo'shimchalarga ajrating. Asosda sodir bo'layotgan tovush o'zgarishlarini belgilang.

Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay push-talari orasida suv yaltiraydi...

Ichkarida chaqaloq yig'ladi. Beshikning g'ichirlagani eshiti-l-di. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar yig'lay boshladi...

Shoikrom uxladimi, yo'qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi aralash dahshat-li bir faryod qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi... (O': *Hoshimov*)

 **195-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan fe'llarni asos va qo'shimchalarga ajrating. Fe'l yasovchi qo'shimchalarning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.

Devor **bo'ylab** yuksalgan daraxtlarning tepasida yirik-yirik oshqovoqlar quyoshning so'nggi shu'lalari bilan **oltinlanardi**. Komila bir chekkada g'uj-g'uj ochilgan atirgulni **hidlab**, osh-xonaga qaytdi, chaqqonlik bilan sabzi to'g'rayotgan Sharofat-bibi yonida u-bu to'g'risida **gaplashdi**...

Dalada mashinalar **ko'paymoqda**. O'g'it solishni ham ma-shinaga **yukladik**. Dehqonchilik mashinalari yana-yana **yaxshi-lanaverdi**. (*Oybek*)



1. Qaysi qo'shimchalar qo'shilganda asosda tovush o'zgarishi yuz beradi?
2. *-illa* qo'shimchasining aytilishi va imlosi haqida gapirib bering.
3. *-ay* qo'shimchasi qaysi so'zlardan fe'l yasaydi?
4. *-a* qo'shimchasi qaysi so'zlarga qo'shilganda asosda to-vush o'zgarishi bo'ladi?

196-mashq. *Uyga vazifa.* Quyidagi fe'llarni ikki guruhga ajratib yozing. Birinchi guruhga *-la*, ikkinchi guruhga *-illa* qo'shimchasi yordamida yasalgan fe'llarni kiriting, ularning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.

Taraqlamoq, shovullamoq, qitirlamoq, sharaqlamoq, chiyil-lamoq, charaqlamoq, uvullamoq, qarsillamoq, chirsillamoq, hayhaylamoq.

FE'LLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI. SODDA FE'LLAR

1-topshiriq. Berilgan fe'llarni solishtiring, farqlarini ayting.

Topib olmoq, toshmoq, oqmoq, uxlab qolmoq, bayon qilmoq, yurmoq, sakramoq, tortib olmoq.

2-topshiriq. *Tasdiqlamoq — tasdiq etmoq, ko'maklashmoq — ko'mak bermoq* fe'llarini qiyoslab, farqli tomonlarini toping.

BILIB OLING. Fe'llar tuzilishiga ko'ra to'rt xil bo'ladi: a) sodda fe'llar; b) qo'shma fe'llar; d) juft fe'llar; e) takroriy fe'llar.

Sodda fe'llar bir asosdan tarkib topadi. Sodda tub fe'llar asos holatida ish-harakat va holatni anglatadi. Masalan: *qurmoq, yurmoq, ketmoq.*

Sodda yasama fe'llar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan yasaladi: *shod — shodlanmoq, yangi — yangilamoq, gap — gapirmoq, guv — guvullamoq, tez — tezlamoq.*

197-mashq. Gaplarni ko'chiring. Sodda fe'llarni tub va yasama fe'llarga ajrating. Durroj nima uchun tuzoqqa tushdi? Shu haqda fikrlashing.

Kunlardan bir kuni Durroj: «Men tuzoqqa tushdim!» — deb sherni aldadi. Sher o'zining aldanganini bilib: «Meni aldamagil, yolg'onchidan el nafratlanadi», — desa ham, Durroj quloq solmas, yolg'onchilikni, aldashni qo'ymas edi. Bir kuni Durroj tuzoqqa ilindi va: «Meni tutib oldilar!» — deb qattiq qichqirdi. Sher «Bu gal ham Durroj meni aldayapti» deb qutqarishga bormadi. (*Alisher Navoiy*)

Ko'rdingizmi, bolalar! Durroj yolg'on so'zlagani, noto'g'ri gapirgani uchun tuzoqqa tushdi.

198-mashq. Quyidagi fe'llarni ikki guruhga bo'lib, ko'chiring. Birinchi guruhga sodda tub, ikkinchi guruhga sodda yasama fe'llarni kiriting.

Bilmoq, eslamoq, qutlamoq, ta'sirlanmoq, qo'ymoq, yo'lamoq, suvsiramoq, tashlanmoq, g'ichirlamoq, achchiqlanmoq.

 **199-mashq.** Sodda yasama fe'llarni aniqlang, ularning yasalishini tushuntiring.

1. Ko'klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda. (*Mir-temir*) 2. Xadichaning uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi. (*O': Hoshimov*) 3. Usta temirni cho'g'ga solib bolg'alaydi, cho'zadi, yassilaydi, yana olovga soladi. (*Oybek*) 4. Bir-birimiz bilan tezda eski qadrdonlardek suhbatlashdik. (*G'afur G'ulom*) 5. Mirtursun Xalifaning terakzoriga yaqinlashgach, u qadamini sekinlatdi. (*X. Sultonov*)



1. Fe'llar tuzilishiga ko'ra necha xil bo'ladi?
2. Sodda tub fe'llarga ta'rif bering.
3. Sodda yasama fe'llarga misollar keltiring.

200-mashq. *Uyga vazifa.* Ko'chiring. Sodda fe'llarni topib, tagiga chizing.

1. Peshonangiz devorga qarsillab urilgandan keyin esingiz kiradi. Sizni ko'p laqillatishdi. (*Said Ahmad*) 2. Nihoyat, ko'prik ortda qoldi, guvullash tindi. (*P. Qodirov*) 3. Izg'iridan ko'zlar yoshlandi, oyoq ostidagi qor g'irchillaydi. (*O. Yoqubov*) 4. Chollar kulgudan qotib qoldilar, ularning burushgan yuzlari ruhlanib, ko'zlarini kulgu namladi. (*Oybek*) 5. Dunyoda pok odamlar qanchalik ko'paysa, nopok odamlar shunchalik kamayadi. (*X. Sultonov*)

QO'SHMA FE'LLAR

1-topshiriq. *Yangilamoq* va *yangi bo'lmoq* fe'llarini bir-biriga solishtiring, ular o'rtasidagi farqlarni ayting.

2-topshiriq. *Onam bilan miriqib suhbatlashdim* gapi tarkibidagi fe'lni *suhbat qurdim* shakliga o'zgartiring. Buning gap ma'nosiga ta'sir qilishi yoki qilmasligi to'g'risida o'ylab ko'ring.

BILIB OLING. Birdan ortiq asosdan tashkil topib, asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydigan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi fe'llar *qo'shma fe'llar* sanaladi. Masalan: *sayr etmoq, taq etmoq, olib kelmoq, bunyod qilmoq.*

ESDA SAQLANG. Qo'shma fe'llar ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va taqlid so'zlarga *qil, et, bo'l* singari so'zlarni, fe'l shakllariga *kelmoq, ketmoq* singari fe'llarni qo'shish bilan hosil bo'ladi. Masalan: *tarbiya qilmoq, eski bo'lmoq, bir bo'lmoq, yaxshi chiqmoq, kim bo'lmoq, dod solmoq, chirs etmoq* kabi.

Qo'shma fe'llarning har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi. Masalan: *borib keldi* (ham bordi, ham keldi), ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanilmaganda, ko'makchi fe'li so'z shakli hosil bo'ladi. Masalan: *o'qib chiqdi* (o'qidi, lekin chiqmadi, balki o'qishni tamamladi, tugatdi).

Qo'shma fe'l qismlari ajratib yoziladi.

201-mashq. Qo'shma fe'llarni topib, ularning yasalishini tushuntiring.

1. Xamir yaxshi qorilsa, barakasi ham yaxshi bo'ladi,— dedi Matqovul. (*Mirzakalon Ismoilii*)
2. Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi. (*Sh. Rashidov*)
3. Shunday o'ylasangiz, yanglishasiz,— deb e'tiroz bildirdi Abdukarim. (*I. Abdurahmonov*)
4. Chaqimchilikning oqibati yomom bo'ladi.

202-mashq. Qo'shma fe'llarni va ko'makchi fe'li so'z qo'shilmalarini topib, ularning yasalishini izohlang.

...Choyxonachi yoshi elliklardan oshib qolgan bo'lsa ham xuddi o'smirlarday yengil qadam tashlardi, yugurib-yelardi. So'ridagi eskiroq ko'rpachani darrov yig'ishtirib olib, supurib, ko'z ochib yumguncha yangi yakandoz to'shab, joy soldi. Choyxonachi patnisda non bilan qand-qurs, kabobpaz kabob olib keldi. (*Yo'ldosh Sulaymon*)



1. Qo'shma fe'llar deb nimaga aytiladi?
2. Qo'shma fe'llar qanday yasaladi?
3. Qo'shma fe'llarning imlosi haqida so'zlab bering.

203-mashq. *Uyga vazifa.* «O'zbekona urf-odatlar» mavzusida matn tuzing va unda qo'shma fe'llardan foydalaning.

JUFT FE'LLAR

Topshiriq. Berilgan fe'llarning sodda fe'llardan farqini aytin va imlosini tushuntiring.

Oldi-qo'ydi, ketdi-qoldi, yozdi-qo'ydi, sindi-qoldi.

BILIB OLING. Ikki fe'l juftligidan tashkil topgan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi va gapda bitta gap bo'lagi vazifasida keluvchi fe'llar *juft fe'llar* sanaladi.

Juft fe'llar ish-harakatning tez va kutilmaganda ro'y berishini ifodalaydi.

Juft fe'l qismlari doimo chiziqcha bilan yoziladi.

Oldi-berdi, bordi-keldi kabi juft so'zlar ot turkumiga o'tgan so'zlar hisoblanadi.

Asosni takrorlash bilan hosil bo'lgan juft fe'llar takroriy fe'llar ham deyiladi. Takroriy fe'l qismlari ham chiziqcha bilan yoziladi: *ishlay-ishlay, kuta-kuta, o'yladi-o'yladi* kabi.



204-mashq. Juft fe'llarni aniqlang, ularning ma'nosi va imlosini izohlang. Gaplarni ko'chirib yozing.

1. Qayerga qadami tegsa, u yerni birpasda saranjom qiladi-qo'yadi,— deb o'yladi ichida O'ktam. (*Oybek*) 2. U soy yoqalab yotqizilgan omonat toshlardan sakrab-hakkalab, ohista yurib kelardi. (*X. Sultonov*) 3. Ana, hech narsa bo'lmagandek, yayrab-quv nab, ochilib-sochilib yurishibdi. (*Erkin A'zam*) 4. Oyim to'yxonaga chiqdi-yu, yelib-yugurib xizmat qilib ketaverdi. (*O'. Hoshimov*) 5. O'qituvchilarimning oldiga shartta kiraman-da, konspekt daftarini olib, o'sha yerda ko'chiraman-qo'yaman. (*X. To'xtaboyev*)

205-mashq. Berilgan fe'llarni jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.

Urindi-turtindi, bahslashmoq, bahs yuritmoq, haydamoq, so'radi-qo'ydi, bordi-keldi, o'tdi-o'tdi, tozaladi, javob berdi,

gulladi, shitirlamoq, havas qilmoq, qochdi-ketdi, ishladi-qo‘ydi, yordam bermoq.

Sodda fe‘llar	Qo‘shma fe‘llar	Juft fe‘llar

206-mashq. Fe‘llarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang, juft fe‘llarni ajratib ko‘chiring, ularga izoh bering.

1. Yosh Hakima boshqa o‘rtoqlaridan qolmaslik uchun qizarib-bo‘zarib ishlaydi, yuzidan quyilgan terni artishga qizg‘anadi. (*Oybek*) 2. Men shu Vatan qo‘ynida undim-o‘sdim. 3. Kelganimga bir hafta bo‘ldimi-bo‘lmadimi, bilmadim, uning to‘g‘risidagi hamma gaplarni bilib oldim. (*O‘ Umarbekov*) 4. Bu niyatni Mohlaroyim ham qo‘llab-quvvatlar edi. (*Mirza Karim*) 5. Nabira ko‘rgach, omonatini osongina topshirdi-ketdi. (*E. Madrahimov*)



1. Juft fe‘llar deb nimaga aytiladi?
2. Juft fe‘llarning imlosi haqida so‘zlab bering.
3. Takroriy fe‘llarga misollar keltiring.

207-mashq. *Uyga vazifa.* «Kuch — birlikda» mavzusida matn tuzing. Unda juft fe‘llardan foydalaning.

MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Gaplarni ko‘chiring, sodda, qo‘shma va juft fe‘llarni aniqlang.

1. Xolasinikida qandaydir bir mehmondorchilik o‘tkaziladigan bo‘ldi-yu, hammamiz o‘sha yerga otlandik. (*E. Usmonov*) 2. Uning chehrasi ko‘zimga tanishdek ko‘rindi. Kimgadir o‘xshaydi, lekin kimga? Eslolmadim. (*S. Anorboyev*) 3. O‘yladi-o‘yladi, lekin o‘yining oxiriga yetolmadi. (*N. Fozilov*) 4. Chol unga yaqinlashib salom berdi. Qiz loqaydgina alik oldi. (*F. Musajonov*) 5. Nogoh entikdi-yu, egildi kamon. O‘q uchdi belgisiz yoqlarga tomon. Keksa otasining qaddin dol etib.

Ketib borar edi farzand shu zamon. (*A. Oripov*) 6. Yurib-yurib, oxiri yolg'iz bir uychaga duch keldi. (*Ertakdan*)

2-topshiriq. Gaplarni o'qib, ular tarkibidagi sodda fe'llardan qo'shma va juft fe'llar hosil qiling.

Namuna: *so'radi* — *so'rab-surishtirdi*.

1. Men ham qiziqib, bolaning yoniga bordim. Bolakay cho'chib tushdi. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Haydar ota yo'lakda kampiriga yo'liqdi. Kampir imo bilan Asrorqulni so'radi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Go'yo har bir shox, har bir yaproq tagiga yashirinib olgan bulbullar tobora avjga chiqar, boshqa hamma qushlar ovozi bosib, yayrab-yayrab, to'lib-toshib sayrashardi. (*O. Yoqubov*) 4. Boshqalar ham bosh tebratib, bu fikrga qo'shildilar. (*Cho'lpon*) 5. Omon dasturxonni yig'ishtirdi. (*G'afur G'ulom*)

3-topshiriq. Quyidagi sodda fe'llarni qo'shma fe'llarga aylantiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sergaklanmoq, rivojlanmoq, moylamoq, jimimoq, susaymoq, qo'llamoq, chirqillamoq, xavotirlanmoq.

Namuna: *sergaklanmoq* — *sergak bo'lmoq*. *Hamma narsadan ogoh va sergak bo'lishimiz kerak*.

4-topshiriq. Uyga vazifa. Quyidagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing.

Changimoq, changitib yubormoq; toshmoq, qaynamoq-toshmoq; imzolamoq, imzo qo'ymoq.

FE'LNING MA'NOVIY GURUHLARI

Topshiriq. Berilgan fe'llarni quyida ko'rsatilgan ma'no guruhlariga ajrating.


Gapirmoq, pichirlamoq, yozmoq, o'qimoq, ijod qilmoq, kesmoq, ekmoq, termiq, yurmoq, yugurmoq, qaramoq, nazar tashlamoq, boqmoq, isitmalamoq.

Nutqiy faoliyat fe'llari	Aqliy faoliyat fe'llari	Jismoniy faoliyat fe'llari	Holat fe'llari

BILIB OLING. Fe'llar qanday harakat-holatni ifodalashiga ko'ra nutqiy faoliyat fe'llari, aqliy faoliyat fe'llari, jismoniy faoliyat fe'llari, holat fe'llari kabi ma'no guruhlariga ajraladi.

208-mashq. Matnni o'qing, holat fe'llarini topib, ko'chiring va ularni izohlang.

Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqalaydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi. (*Abdulla Qahhor*)

 **209-mashq.** Quyidagi fe'llarni jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.

Chaqirmoq, qimirlatmoq, fahmlamoq, xo'rsinmoq, kiyintirmoq, o'rtoqlashmoq, sevinib ketmoq, tushuntirmoq, fikrlamoq, kutmoq, jilmaymoq, burilmoq, ko'tarmoq, ovqatlanmoq, g'izillamoq, tekislaroq, parvarishlaroq, duduqlanmoq.

Nutqiy faoliyat fe'llari	Aqliy faoliyat fe'llari	Jismoniy faoliyat fe'llari	Holat fe'llari

210-mashq. Matnni ko'chiring, fe'llarning ma'no guruhlarini aniqlang.

1. Otam so'zimni eshitdi: yelkasi osha qaradi-da: —Ha! — deb to'ng'illab qo'ydi. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Dadam har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytib kelib ham uni qo'liga olar, suyar, chug'urlatar, gaplariga, qiliqlariga zavq qilib kular edi.

(*Abdulla Qahhor*) 3. Men ular bilan to‘rt marta gaplashdim.
(*P. Qodirov*) 4. Mirhaydar ota, sizga bir arzim bor,— muro-
jaat etdi birdan jonlanib O‘ktam. (*Oybek*)



1. Jismoniy faoliyat fe‘llari deb nimaga aytiladi?
2. Aqliy faoliyat fe‘llariga misollar keltiring.
3. Nutqiy faoliyat fe‘llariga misollar ayting.
4. Holat fe‘llari deb nimaga aytiladi?

211-mashq. *Uyga vazifa.* «Uyimizga mehmon keldi» mavzusida matn tuzing, unda fe‘lning ma‘no guruhlaridan foydalaning.

FE‘LLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan fe‘llarni tarkibiy qismlarga ajrating.
O‘yladim, ko‘rding, yozdi, chiqsin.

2-topshiriq. Fe‘lning asos qismiga qo‘shilgan qo‘shimchalarning vazifalarini ayting.

BILIB OLING. Fe‘l asoslariga qo‘shilib, gapda kesim vazifasida qo‘llanilishiga xoslovchi shakllar *fe‘llarning munosabat shakllari* hisoblanadi.

Fe‘llarning zamon, mayl, shaxs-son qo‘shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo‘lgan har qanday fe‘l gapda kesim vazifasida keladi. Yuqoridagi ma‘no va shakllardan xoli bo‘lgan fe‘l asosi fe‘lning noaniq shakli hisoblanadi va bu shakl *-moq* qo‘shimchasi yordamida ifodalanadi.


212-mashq. Fe‘lning quyidagi noaniq shakllarini zamon bildiruvchi shakllariga aylantiring.

Eshitilmoq, o‘lchamoq, kesmoq, toshmoq.

213-mashq. Matnni o‘qing, fe‘llarni tarkibiy qismlarga ajrating. Asosga qo‘shilib kelayotgan munosabat shakllarini izohlang. Fe‘llarning noaniq shaklini belgilang.

Mirsodiq ko‘chaning ikki betidagi turnaqator fonarlar nurida eron gilamidek tovlanib yotgan bu gullarga suq bilan

tikilib borar ekan, bir shoxi singan na'matakka ko'zi tushib qoldi. Qaysi bag'ritosh sindirdi ekan? U yaqinroq kelib qaradi, yo'q, sinibdi-yu, uzilmabdi. Quyoshga tomon bo'y cho'zib qaddini rostlab boryapti. Mirsodiq jilmayib qo'ydi. U, albatta, o'sadi, ulg'ayadi. U ochgan gullarining muattar hidi kishilar chehrasiga tabassum, shodlik baxsh etadi, qalblarini ravshan qiladi. Hayot qonuni shunday! (O'. Umarbekov)

 **214-mashq.** *Ko'paydilar, qilmaslar, saqlaning, topdik, keltirishdi, ketishmoqda* fe'llarini tarkibiy qismlarga ajrating. Munosabat bildiruvchi qo'shimchalarni aniqlang va bu qo'shimchalarni olgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.



1. Fe'lining noaniq shakli deb nimaga aytiladi?
2. Fe'lining munosabat shakllari haqida so'zlab bering.
3. Fe'lining noaniq shakliga munosabat shakllari qanday qo'shiladi?

215-mashq. Uyg'a vazifa. *Urinmoq, isbotlanmoq, orzu qilmoq, ruhlانmoq, yurmoq* fe'llarining munosabat shakllarini yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

FE'LLARNING ZAMON SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Keldi, kelyapti, keladi.

2-topshiriq. Fe'l asoslariga qo'shilgan qo'shimchalarning ma'nolarini ayting.

BILIB OLING. Fe'l asosida ifodalangan harakat-holatning uch zamondan birida sodir bo'lishini bildiruvchi shakllar *zamon shakllari* sanaladi.

Fe'l uchta zamon shakllariga ega: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

216-mashq. Matnni o'qing, fe'llarning qaysi zamon shaklida kelayotganini aniqlang. Yurtimizda yetishtiriladigan uzum navlari haqida fikrlashing.

O'ktam supaga o'tirdi. Mevalari tim qora, olmaday oluhirot novdasi egilib, uning boshiga tegay-tegay deb turardi. Keng

hovlining yarmini qoplagan baland so‘rilardan husaynilar, dilkaptarlar va boshqa rang-barang uzumlar tovlanib, g‘uj-g‘uj osilgan.

— Tokni boplagan ekansiz, — dedi O‘ktam.

— Be!— qo‘lini siltab dedi Mirqodir, — O‘zbekistonda necha-necha yuz xil uzum bor. Yana tajriba yo‘li bilan har yili yangi navlarini yetishtiryaptilar... (*Oybek*)

217-mashq. Quyidagi fe‘llarni jadvalga joylashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Hayqirar edi, kuylamoqchi, yayradi, qo‘ndi, qichqirmoqda, to‘lib-toshdi, qoplagandi, yig‘lamoqchi, ichyapti, adashib qoldi, yozar edi, yurdik, qarayapmiz.

O‘tgan zamon fe‘llari	Hozirgi zamon fe‘llari	Kelasi zamon fe‘llari



1. Zamon shakllari deb nimaga aytiladi?
2. Fe‘l zamonlari necha xil bo‘ladi?
3. *-di, -yapti, -moqchi* qo‘shimchalari yordamida qaysi zamon shakllari yasaladi?

218-mashq. *Uyga vazifa.* «Mening bobom» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan fe‘llarning zamonini belgilang.

O‘TGAN ZAMON SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan fe‘llarni tarkibiy qismlarga ajrating.

Aytibdi, aytdi, aytgan, aytgan ekan, aytgan edi, aytgan emish.

2-topshiriq. Yuqoridagi fe‘l asoslariga qo‘shilgan qo‘shimchalarning nimasi bilan umumiyliigi va nimasi bilan farqlanishini ayting.

BILIB OLING. O‘tgan zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan oldin bo‘lganini bildiradi.

Bu zamon shakllari fe'l asoslariga *-di, -(i)b, -gan (-kan, -qan)* qo'shimchalarini va ulardan so'ng shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

219-mashq. Gaplarni ko'chiring. O'tgan zamon fe'llarini toping, ularni hozirgi zamon va kelasi zamon fe'llariga aylantirishga urinib ko'ring.

1. Qizlar to'da-to'da bo'lib lapar aytishdi. (*N. Safarov*)
 2. Sinf rahbarimiz Hasan aka menga bildirmay G'anini uyga yuboribdilar. (*M. A'zamov*)
 3. Aka-ukalar to'qayda bo'ri, to'ng'iz, tulkilar ko'p bo'lishini eshitishgan edi. (*X. To'xtaboyev*)
 4. Mana bu shotutni bobosi ekan ekan. (*Sh. Otaboyev*)
 5. Ho' so'ridagi cholni ko'rdinglarmi, yonidagi chollarga Navoiy g'azallarini o'qib berib o'tiribdi. (*S. Anorboyev*)

220-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga o'tgan zamon fe'llarini yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, ko'chiring.

1. Atrof ko'm-ko'k bo'lib, yo'l chetida qoqigullar, lolalar, chuchmomalar qiyg'os ochilib yotar... (*N. Fozilov*)
 2. Men juda quvondim: mana, endi o'sib ham qol...m, yoshim o'n to'rtga kir..., odamlar menga ishonadigan bo'lib qol..., deb ich-ichimdan sevin...m. (*G'afur G'ulom*)
 3. Men tez-tez Toshkentga kelib tur...man (*O' Umarbekov*)
 4. Bolakay tog'lar orasida yashovchi cho'pon tog'asini juda yaxshi ko'rar... (*A. Ko'chimov*)



1. O'tgan zamon fe'llari deb nimaga aytiladi?
2. O'tgan zamon fe'llari qanday qo'shimchalar yordamida yasaladi?
3. O'tgan zamon fe'llariga shaxs-son qo'shimchalari qay tarzda qo'shiladi?

221-mashq. Uyg'a vazifa. She'rni yod oling, unda ishlatilgan fe'llarni topib, o'tgan zamon shakliga aylantiring.

Tongda turib eng avval
 Oyijonim quchaman.
 So'ngra: «Salom, hayot!» — deb
 Derazamni ochaman.

Derazamni ochmasam,
 Quyosh xafa bo'ladi.
 «Uyquchi» deb men bilan
 O'rtoq bo'lmay qo'yadi.

(*A. Karimov*)

O'TGAN ZAMON SHAKLLARINING YASALISHI

BILIB OLING. *-di* qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli so'zlovchining bevosita o'zi ko'rgan harakat va holatni bildiradi. Bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining *-m, -k (goldim, goldik), -ng, -ngiz (golding, goldingiz)* shakllari qo'llaniladi.

-(i)b qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli ilgari ro'y bergan harakat va holatning so'zlovchi tomonidan eshitib bilinganini ifodalaydi va bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining *-man, -miz, -san, -siz, -di(-lar)* shakllari qo'shiladi.

-gan qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli harakat va holatning ilgariroq bajarilganini bildiradi va bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining *-man, -miz; -san, -siz* shakllari qo'shiladi.

222-mashq. Topishmoqlarning javoblarini toping. O'tgan zamon fe'llarining yasalishini izohlang.

1. Oq yer ochdim, qora bug'doy sochdim. 2. O'zi qator joylashgan, bir-biriga boylangan, bir-birini kuzatar, behisob nur uzatar. 3. Mixlangan qulog'idan, suv quyar oyog'idan. 4. Ko'k ko'ylakka g'o'za yoydim.

223-mashq. Ko'chiring. O'tgan zamoni hosil qiluvchi qo'shimchalarning tagiga chizing.

Men iljayib turaverdim. U ovutib turgan ukamni qo'ydi-da, qo'g'irchoqlarining oldiga yugurib ketdi. Men ham «lip» etib hujraga kirib, ho'qachadan yog' o'yib oldim. U yerdan chiqib o'tinxonaga kirdim. Kulrang tovug'im, qarasam, piyozdan qilingan moyak ustida tug'ib o'tirar edi. Sekin borib, qanotini ko'tarib boqsam, allaqachon tug'ib bo'lgan ekan, lekin onalik mehri bilan tuxumni bosib yotar ekan. U tuxumni oldim. Tovug qaqalab qochdi. (*G'afur G'ulom*)



1. *-di* qo'shimchasi yordamida o'tgan zamon fe'llarini yasang.
2. *-(i)b* qo'shimchasi yordamida o'tgan zamon fe'llarini hosil qiling.
3. *-gan, (-kan, -qan)* yordamida o'tgan zamon fe'llarini yasang.

224-mashq. Uyga vazifa. «Uy ishlarida onamga yordam berdim» mavzusida matn tuzing. Unda o'tgan zamon fe'llaridan foydalaning.

O'TGAN ZAMON SHAKLLARIDA TO'LIQSIZ FE'LNING ISHLATILISHI

1-topshiriq. Berilgan fe'llar tarkibidagi ajratilgan qismlarning fe'l asosida ifodalangan harakatga qanday ma'no yuklayotganiga e'tibor bering.

Tergan, tergan **ekan**, tergan **emish**, tergan **edi**, terayotgan **ekan**, terayotgan **emish**, terayotgan **edi**.

2-topshiriq. Ularning talaffuzi va imlosi haqida fikr yuriting.

BILIB OLING. *Edi, emish, ekan* fe'llari to'liqsiz fe'llar sanaladi. Bu fe'llar yetakchi fe'lning zamon shakllaridan so'ng keladi, shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'lga qo'shiladi: *kelgan ekansan (eding, emishsan), kelayotgan ekansan (eding, emishsan)*.

Edi, emish, ekan to'liqsiz fe'llari *-di, -mish, -kan* shaklida ham qo'llaniladi. Masalan: *borgandi, borgan-mish, kelarkan*.

225-mashq. Berilgan gaplardagi o'tgan zamon ma'nosini ifodalagan to'liqsiz fe'llarni toping.

1. O'sha kuni u rost gapirgan edi. (*Omon Muxtor*) 2. Gum-bazdagi chiroyli qandilda turli xil shamlar yonib turgan emish. 3. U kelinning og'zidan gapini uzib olganday tez-tez gapirar emish. (*Cho'lpon*) 4. Maxdum oilasini ham kiyim-kechak vajidan o'zi kabi tutar edi. (*Abdulla Qodiriy*)

226-mashq. Berilgan gaplarda o'tgan zamon ma'nosini ifodalayotgan to'liqsiz fe'llarni topib, tahlil qiling.

1. Shunaqa, singlim, odam yig'lab-yig'lab marza olsa, kulib-kulib sug'orar ekan. (*P. Qodirov*) 2. Qushlar hech nima ko'rma-ganday basma-bas sayrar edi. (*P. Qodirov*) 3. Agar u sal shad-dod, sal sho'xroq, sal quvnoqroq bo'lsa, Haydar qaytaga xur-sand bo'lar edi. (*O. Yoqubov*) 4. Ora-chora serkaning qo'ng'irog'i jiringlab qo'yar edi. (*Said Ahmad*) 5. Boshlangan ishni chala tashlab qo'yar emish. (*Omon Muxtor*)



1. *Edi, ekan, emish* to'liqsiz fe'llari ishtirokida gaplar tuzing va zamonini belgilang.
2. Bu to'liqsiz fe'llarning qanday so'zlarga qo'shilishini ayting.

227-mashq. Uyga vazifa. «Kiyinish madaniyati» mavzusida bog'lanishli matn tuzing. Unda to'liqsiz fe'llardan foydalaning. Ular qaysi zamon ma'nosini ifodalayotganligini ayting.

HOZIRGI ZAMON SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni tarkibiy qismlarga ajrating.

So'zlayapti, yotmoqda, kelayotir, borayotibman.

2-topshiriq. -yap, -moqda, -(a)yotir, -(a) yotib qo'shimchalari fe'lning asos qismidan anglashilgan harakatining qaysi zamonga mansubligini ifodalashini aniqlang.

BILIB OLING. Hozirgi zamon shakllari fe'l asosla-riga **-yap(ti), -moqda, -(a)yotir, -(a)yotib** qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi. Hozirgi zamon shakllari ha-rakat va holatning gap aytilayotgan vaqtda yuz berishini ifodalaydi. Shaxs-son qo'shimchalari zamon qo'shim-chalaridan so'ng qo'shiladi.

215-mashq. Berilgan gaplarda hozirgi zamon ma'nosini ifodalagan fe'llarni topib, tarkibiy qismlarga ajrating.

1. Sen ko'rmayapsan, oshna, oy botib, yulduzlar birin-ketin so'nib boryapti. (*O. Yoqubov*). 2. O'qishlar boshlanib,

o'quvchilar ham maktabga kelyapti. («*Gulxan*»dan) 3. Yo'llarning chekkasidagi gullar barchaga salom berayotir. («*G'uncha*»dan) 4. Ko'chadagi shamchiroqlar xira-xira shu'la sochmoqda. (*Tog'ay Murod*) 5. Hozir dolzarb payt, barcha yeng shimarib ishlamoqda. (*Tog'ay Murod*)

228-mashq. Gaplardagi hozirgi zamon fe'lini toping.

1. Juda chiroyli muomala qilyapsiz. (*P. Qodirov*) 2. Hozir yomg'ir yog'ayotir, shuning uchun yo'lga chiqish mumkin emas. (*Asqad Muxtor*) 3. Hozir ko'nglinga qil sig'mayapti, keyinroq gapirarsiz. (*Said Ahmad*) 4. Maktabda kulgi kechasi o'tkazilyapti. («*Gulxan*»dan) 5. Ko'chaga chiqayotib, orqasiga bir qarab qo'ydi. (*Omon Muxtor*)

1. Hozirgi zamon fe'llari deb qanday fe'llarga aytiladi?
2. Hozirgi zamon fe'llari qanday qo'shimchalar yordamida yasaladi?
3. *Turmoq*, *yugurmoq* fe'llarining hozirgi zamon shakllarini hosil qiling.

229-mashq. *Uyga vazifa.* -yap, -moqda, -(a)yotir, -(a)yotib qo'shimchalari yordamida hozirgi zamon shakllarini yasang.

HOZIRGI ZAMON SHAKLLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

1-topshiriq. Berilgan fe'llar qatoridan hozirgi zamon shakllarini ajrating.

Tinglagan, tinglayapti, tinglamoqda, tinglayotir, tinglayotibdi, yurgan, yuryapti, yurmoqda, yurayotir, yurayotibdi.

2-topshiriq. Yuqoridagi fe'llarda qaysi holatda -yotir, -yotibdi; qaysi holatda -ayotir, -ayotibdi shakllari qo'llanilishini ayting.

BILIB OLING. -yotir, -yotib shakllari unli bilan tugagan fe'l asoslariga, -ayotir, -ayotib shakllari esa undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi.

-yap shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib, -ayap holida talaffuz qilinsa ham, -yap yoziladi.

230-mashq. Matnni o‘qing. Fe’llarni aniqlab, ularni daftaringizga ko‘chiring, qaysi zamon shaklida ekanligini ayting.

Ra’no uyda biror ish qilishi kerak bo‘lsa, oyisining buyrug‘ini kutib turmay bajaraverar ekan. Bir kuni u ertalab turib, kechasi ko‘rgan tushini oyisiga aytibdi:

— Tushimda menga yo‘l-yo‘l chit ko‘ylak olib kelyapsiz.

— Yaxshi tush ko‘ribsan, — dedi oyisi. — Demak, uyga mehmon kelayotir.

Bu gapni eshitgan Ra’no darrov o‘rnidan turib eshikka chiqdi. Oyisi qarasa, u hovliga suv sepmoqda, hovli supurmoqda. (*Aziz Adburazzoq*)

231-mashq. Quyida berilgan fe’l asoslariga *-yapti, -yotir, -moqda* qo‘shimchalarini qo‘shing. Ularning talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Kel, uxla, o‘qi, tur, o‘tir, yoz, to‘xta, ishla, ye, qo‘y.

232-mashq. Berilgan gaplardagi fe’llarning yozilishi va aytilishini izohlang.

1. Yomg‘ir tobora kuchayib borayotir. (*Oybek*). 2. Majnuntol suvga egilib, salom berayotir. (*Oybek*) 3. Shamol kuchayib, daraxtlarning shoxlarini egib borayotir. (*Omon Muxtor*) 4. Barglar sarg‘ayib to‘kilmoqda.



1. Unli bilan tugagan fe’l asoslaridan hozirgi zamon shaklini yasang.
2. Undosh bilan tugagan fe’l asoslaridan hozirgi zamon shaklini hosil qiling.

233-mashq. Uyga vazifa. «Sport — sog‘lik garovi» mavzusida bog‘lanishli matn tuzing. Undagi fe’llarning yozilishi va talaffuzini tushuntiring.

KELASI ZAMON SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan fe’llardagi zamoni bildiruvchi qo‘shimchalarni aniqlang.

O‘tiranman, o‘tiryapsan, o‘tiradi; yashayman, yashayapman, yashayotir; izlarman, izlayapman, izlar; toparman, topyapsan, topar.

2-topshiriq. Kelasi zamon qo‘shimchalarini toping.

3-topshiriq. Kelasi zamoni bildiruvchi *-a*, *-y* qo‘shimchalarining qo‘llanilish o‘rinlarini ayting.

BILIB OLING. Kelasi zamon shakllari harakat yoki holatning gap aytilayotgan vaqtdan so‘ng yuz berishini bildiradi.

Bu zamon shakllari fe‘l asoslariga *-a*, *-y*, *-(a)r* qo‘shimchalarini va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi.

Bu shakllar ba‘zan harakatning doimiy, har uch zamonga oidligini ham ifodalaydi. Masalan: *Akam kollejdada o‘qiydi.*

ESDA SAQLANG. Undosh bilan tugagan fe‘l asoslariga kelasi zamonning *-a*, *-ar*, unli bilan tugagan fe‘l asoslariga *-y*, *-r*, bo‘lishsiz fe‘l shakllariga esa *-s* qo‘shimchasi qo‘shiladi. *-(a)r* shakli kelasi zamoni gumon, taxmin yo‘li bilan ifodalaydi.

234-mashq. Berilgan gaplardagi fe‘llarni toping. Kelasi zamon ma’nosini ifodalayotgan qo‘shimchalarni aniqlang.

1. Daryoning suvi ko‘paysa, baliqlarning chiqishi oson bo‘ladi. (*Said Ahmad*) 2. Kunlarning sanog‘in bilmay qolasan. (*Omon Muxtor*) 3. Maktabga boray, siz aytgan narsani topay, keyin aytaman. («*G‘uncha*»dan) 4. Dalaga suv chiqaraman, ekinlar gurkirab, yashnab ketadi. (*Said Ahmad*) 5. Ertaga mashina kelar, kelmasa, yo‘lga chiqmayman. (*Omon Muxtor*)

235-mashq. Berilgan gaplardan kelasi zamon ma’nosini bildirgan fe‘llarni topib, tahlil qiling.

1. Har holda, menga o‘xshagan o‘yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi. (*G‘afur G‘ulom*) 2. Sen choyni jindek qo‘yib turib, chala qoldirgan yerlaringni supuratur, kelib qolar. (*Cho‘lpon*) 3. Qushlar sovuq tushishi bilan issiq o‘lkalarga uchib ketadi. 4. Bahorning iliq kunlarida dam olishga boraman. (*U. Hamdam*) 6. Mix bolg‘adan qutulaman deb, taxtaga kirib ketdi. (*Asqad Muxtor*)

◆ **236-mashq.** Kelasi va hozirgi zamon shaklidagi fe'llar ishtirok etgan 3 ta gap tuzing. Ularning farqini tushuntiring. Qanday qo'shilmalar orqali hosil bo'lganligini yodda tuting.



1. Kelasi zamon deb nimaga aytiladi?
2. Kelasi zamon fe'llari qaysi qo'shimchalar yordamida yasaladi?
3. Kelasi zamon fe'l shakllarining hozirgi zamon ma'nosini ifodalashiga misollar keltiring.

237-mashq. Uyg'a vazifa. «Odob — oltindan qimmat» mavzusida matn tuzing. Unda ishtirok etgan fe'llarning qaysi zamondaligini tushuntiring.

MAYL SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan fe'llarni xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi guruhlarga ajrating.

O'ynadim, o'yna, o'ynayapman, o'ynaylik, o'ynagin, o'ynama, o'ynasam, o'ynasang, o'ynasa edi.

2-topshiriq. Berilgan fe'llarni tarkibiy qismlarga ajrating. Buyruq-istak va shart ma'nolarini bildiruvchi qo'shimchalarni aniqlang.

Aytdim, ayting, aytay, aytsin, aytsam, aytsang, aytsa.

BILIB OLING. Fe'l ifodalagan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari *mayl shakllari* sanaladi. Fe'llarning uchta mayl shakli mavjud: 1) xabar mayli; 2) buyruq-istak mayli; 3) shart mayli.

238-mashq. Fe'llarni toping, qaysi mayldaligini aniqlang.

1. Avvallari yashash uchun yozdim, endi yozish uchun yashayapman. 2. Inson qanchalik uzoq yashasa, yana shuncha ko'proq yashagisi keladi. 3. Qarilikdan qo'rqma, unga hali yetish kerak. 4. O'n olti asr oldin toshga o'yib bitilgan O'rxun bitiklarini o'qing. (*Asqad Muxtor*)

239-mashq. «Onalarni e'zozlang» mavzusida bog'lanishli matn tuzing. Unda ishtirok etgan fe'llarning qaysi mayldaligini ayting.

240-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni toping va qaysi mayldaligini aniqlang.

1. Zebi yuragida tugilib yotgan zo'r tugunni yechib yuborgan edi. (*Cho'lpon*) 2. Koyima, qizim, — dedi ona, — o'rtog'ingni quruq jo'natmaymiz. (*Cho'lpon*) 3. Puch yong'oq bilan qo'yin to'lg'azma. (*Maqol*) 4. To'qlikda ochlikni o'yla, boyiganda muhtojlikni. (*Maqol*) 5. Odamlar seni bilmasa ham, sen odamlarni bil. (*Asqad Muxtor*)

241-mashq. Uyga vazifa. «Tog'da» mavzusida bog'lanishli matn tuzing. Unda ishtirok etgan fe'llarning mayllarini aniqlang.

XABAR MAYLI

1-topshiriq. Berilgan fe'llarni tarkibiy qismlarga ajrating.


Gullagan, yashnamoqda, o'ylashdi, o'ynamayman.

2-topshiriq. Yuqoridagi fe'llar tarkibidagi nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon, shaxs-son qo'shimchalarini aniqlang.

BILIB OLING. Harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabar, darakni bildiruvchi fe'l shakli *xabar mayli shakli* hisoblanadi. Xabar mayli shakli maxsus qo'shimchaga ega emas. Zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qabul qilgan fe'llar xabar maylidagi fe'llar sanaladi.

242-mashq. O'qing. Xabar maylidagi fe'llarni aniqlab, daftaringizga ko'chiring. Ularning qanday zamon shaklida ekanligini ayting.

Nima deysan, ey g'ayur inson?
G'iybatlaring qildi meni qon.
Sen ham bir kun o'tarsan, inon,
Mehr qolur, muhabbat qolur. (*Muhammad Yusuf*)

 **243-mashq.** Berilgan gaplardagi fe'llarni tarkibiy qismlarga ajrating. Har bir qismni tahlil qiling.

1. Bola chaqqonlik bilan o'zini suvga otdi. (*S. Mengnorov*)
 2. Ishyoqmaslarning idorama-idora yurib arz qilishdan boshqa ishi yo'q. (*P. Qodirov*)
 3. Kabob uchun shahardan zira-piralarni ham olib chiqib qo'ydik. (*P. Qodirov*)
 4. Otasi Qo'qonning Madalixon madrasasida bir necha yillar mudarris bo'lib ishlagan. (*Abdulla Qodiriy*)
 5. Cho'pon gapiradi, xotini aytadi, o'g'li chaqiradi. (*Sh. Xolmirzayev*)
 5. Kunduzi bo'lishiga qaramay, birdan hamma yoq qop-qorong'i bo'lib ketdi. (*P. Qodirov*)

244-mashq. Berilgan gaplardagi xabar mayli shaklidagi fe'llarni tahlil qiling.

1. Nigoraning qop-qora ko'zlari doimo chaq nab turadi, lablaridan tabassum arimaydi. (*A. Azimova*)
 2. Mashina to'xtar-to'xtamas yerga sakradi. (*P. Qodirov*)
 3. Qurilish hovlisiga chang-to'zon ko'tarib «Zil» mashinasi kirib keldi. (*O'. Hoshimov*)
 4. Bu gapni eshitib, Bahromning ko'zi charaqlab ochilib ketdi. (*X. To'xtaboyev*)



1. Xabar mayli deb nimaga aytiladi?
2. Xabar maylidagi fe'llarga misollar keltiring.
3. *Ishlamoq, yopmoq, qurmoq* fe'llarining xabar maylidagi shakllarini yasang.

245-mashq. *Uyga vazifa.* «Ovqatlanish odobi» mavzusida matn tuzing. Unda xabar maylidagi fe'l shakllaridan foydalaning.

BUYRUQ-ISTAK MAYLI

1-topshiriq. Berilgan gap tarkibidagi fe'llarni aniqlang. Ularni tarkibiy qismlarga ajrating.

Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtog'lar. (*Muqimiy*)

2-topshiriq. Bu fe'llardagi buyruq-istak ma'nosi qaysi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan?

BILIB OLING. Harakat va holatni bajarish yoki bajarmaslik haqidagi buyruq, istak, iltimos, maslahat ma'nolarini bildirgan fe'l shakli *buyruq-istak mayli shakli* sanaladi.

Buyruq-istak mayli shakllari fe'l asoslariga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi: *-(a)y, -(a)yin, -gin (-kin, -qin), -(i)ng, -sin, -(a)ylik, -(i)nglar.*

246-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni topib, tarkibiy qismlarga ajrating. Qaysi mayl shaklida ekanligini va ularning qanday qo'shimchalar yordamida hosil bo'lganini ayting.

1. Ovqatni yedig-u, meni uyqu bosdi: — Dada, keling, uxlaylik. (*Olmos*) 2. Qani endi, hamma ham shunday g'alabalarga erishsa. (*Abdulla Qahhor*) 3. Koshki edi, o'sha tog'ga men ham borsam. (*Abdulla Qahhor*) 4. Kel, do'stim, yuragimni senga ochay. (*Said Ahmad*) 5. Hayot saboqlarini o'rgangin, chunki hayotni o'rganish zarur. (*Omon Muxtor*)

247-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarning qaysi mayl shaklida ekanligini va ularning qanday qo'shimchalar yordamida hosil bo'lganini ayting.

1. Ikkalang ham og'zingni ochmay, jim o'tirgin. (*Cho'lpon*) 2. Qani, qo'lni bering, bir tabriklab qo'yay,— dedi zavqi oshib. (*X. To'xtaboyev*) 3. Yaxshilik qilsang, oxirigacha yaxshilik qilgin, zinhor minnat qilma. (*Said Ahmad*) 4. Kun bo'yi g'aflat bosib uxlama, sergak bo'l. (*Omon Muxtor*) 5. Qo'lingni ochiq tutgin, boshingni g'oz tut. (*Said Ahmad*)

248-mashq. Buyruq-istak maylini hosil qilgan qo'shimchalarni toping. Qanday ma'noda qo'llanganligini tushuntiring.

1. Sinamagan otning sirtidan o'tma. (*Maqol*) 2. Akangni chaqir, bugungi faoliyati uchun javob bersin. (*Omon Muxtor*) 3. Odamlarni chaqiringlar, ekinzorlarni ko'rib qo'ysin. (*Said Ahmad*) 4. Lolazorga chiqaylik. (*I. To'lakov*)



1. Buyruq-istak mayli deb nimaga aytiladi?
2. Buyruq-istak mayli qaysi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi?
3. Buyruq-istak maylidagi fe‘llarga misollar keltiring.

249-mashq. Uygʻa vazifa. «Qishda» mavzusida bog‘lanishli matn tuzing. Unda buyruq-istak maylidagi fe‘llar ishtirok etsin. Ularning ma‘nolarini tushuntirib berishga harakat qiling.

II SHAXS BUYRUQ-ISTAK MAYLI QO‘SHIMCHALARINING QO‘LLANILISHI VA MA‘NOLARI

1-topshiriq. Buyruq-istak ma‘noli fe‘llarni ajratib yozing.

Pishdi, topshirmoqda, uch, uching, ko‘r, ko‘rgin, o‘tir, o‘tiring, o‘tiringlar.

2-topshiriq. *Ko‘r* bilan *ko‘rgin* o‘rtasidagi o‘xshashlikni izohlang.

BILIB OLING. Fe‘lning zamon, shaxs-son qo‘shimchalarisiz qismi II shaxs buyruq-istak maylini ifodalaydi. Bu qismga buyruq-istak ma‘nosini kuchaytirish uchun *-gin* qo‘shimchasini qo‘shish ham mumkin, shuning uchun bu ikki shakl ma‘nodosh sanaladi.

250-mashq. Berilgan uch qatordagi fe‘l shakllari o‘rtasidagi ma‘no farqini aniqlang.

Kel	keling	kelinglar
Ol	oling	olinglar
Ot	oting	otinglar

251-mashq. Berilgan gaplardagi fe‘llarni topib, tarkibiy qismlarga ajrating.

1. Hali dalada boshlangan gapni davom ettiraylik. (*Oybek*)
2. O‘rtoqjonlar, qani, tezlataylik. Shu bugundan qolmasin. (*Rahmat Fayziy*)
3. Ufqlarda sayr etgin mudom, Quyosh kelib suvga cho‘kkanda. (*Hamid Olimjon*)
4. Dasta-dasta gullar keltirsin, Sho‘x va quvnoq do‘stlarga buyur. (*Hamid Olimjon*)
5. Do‘stlar, ishonch bilan kutingiz bizni, hech qachon bizlardan umid uzmangiz. (*Uyg‘un*)

252-mashq. Buyruq-istak mayli shaklidagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzib, undagi fe'llarni tarkibiy qismlarga ajrating va qanday ma'nolarda qo'llanganini ayting.

253-mashq. Berilgan gaplarda buyruq-istak maylidagi fe'llarning qanday ma'noda qo'llanilganini tushuntiring.

1. Uyiga javob beraylik, o'n besh-yigirma kunga borib kelsin. (*Asqad Muxtor*) 2. Qog'ozlarga keraksiz narsalarni yozma, isrof qilsang, zor bo'lasan. (*Asqad Muxtor*) 3. Yozning issiq kunlari g'animat ekanligini esdan chiqarmanglar. (*Uyg'un*) 4. O'qiylik, do'stlar, o'qishning qadriga yetaylik, savodsizlik gumrohlik ekanligini tushunib yetaylik. (*Omon Muxtor*) 5. Sen ham sezgan-dirsan, tezroq gapir. (*Cho'lpon*)



1. *Boringiz*, *boring* fe'llari ishtirokida gaplar tuzing va ular o'rtasidagi farqlarni ayting.
2. II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llarga misollar keltiring.
3. Hurmat ma'nosini bildiruvchi II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing.

254-mashq. *Uyga vazifa.* «Suv — hayot manbayi» mavzusida bog'lanishli matn tuzing. Unda ishtirok etgan fe'llarning mayllarini aniqlang.

MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi zamon shaklida ekanini aniqlang.

Labihovuzning bahorini **ko'rganmisiz**? Yo'qsa, so'ylab **berayin**. Buxoroga bahor erta **keladi**. Ilk bahor kunlaridanoq quyosh kiftni **kuydiradi**, mitti yaproqlardagi bo'yoqlarni **shimiradi**, binolar devori kun-bakun **oqara boradi**. Shamol xuddi kuzdagidek chang-u g'uborni qo'zg'ab, telbalarcha har yon **yuguradi**. O'riklar oppoq **gullaydi**, akatsiyalar o'z shoxlarini **bezaydi**... (*Omon Muxtor*)

2-topshiriq. 1-topshiriqda berilgan fe'llarning asoslariga *-yapti*, *-yotir*, *-moqda* qo'shimchalarini qo'shing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

3-topshiriq. Berilgan soʻzlar ichidan oʻtgan zamon feʼllarini ajratib oling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Koʻrgan ekan, koʻribdi, koʻryapman, koʻrishmoqchi, koʻrmoqchi edim, koʻrar ekan, koʻrajakman, koʻryapmiz, koʻrmoqchiman, koʻrdik, koʻrdingmi, koʻryapsiz.

4-topshiriq. *Kirmoq, bermoq, kelmoq, oqarmoq, yetmoq, gullamoq, bezamoq, gapirmoq* feʼllarini har uchala zamon shaklida qoʻllang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

5-topshiriq. Uyga vazifa. 1-topshiriqdagi matn ichida berilgan feʼllarning kelasi zamon shakllarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

SHART MAYLI

1-topshiriq. Gaplardagi feʼllarni tarkibiy qismlarga ajrating.

Olim boʻlsang, olam seniki. (*Maqol*) Aytсам, tilim kuyadi, aytmasam, dilim.

2-topshiriq. Feʼl tarkibida kelgan *-sa* qoʻshimchasining qanday maʼno ifodalashini ayting.

BILIB OLING. Boshqa bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart boʻlgan harakat va holatni, shuningdek, istak-xohishni bildirgan feʼl shakli *shart mayli shakli* sanaladi, u *-sa* qoʻshimchasi yordamida yasaladi.

255-mashq. Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asaridan olingan oʻgʻitlarni koʻchiring. Shart maylidagi feʼllarning tagiga chizing.

1. Odam qahrlansa, bilimsiz boʻladi, jahl kelsa, aql ketadi.
2. Kimki farogʻatli kunni istasa, u feʼl-atvorini sozlashi, toʻgʻrilik va rostlikni tanlashi lozim.
3. Botirlar qoʻliga qilich tutgudek boʻlsa, yov titroqqa tushadi.
4. Tilak bilan yurilsa, yiroq yer ham yaqin boʻladi.

BILIB OLING. Shart mayli *edi, ekan* to‘liqsiz fe‘llari bilan kelganda, orzu-istak ma‘nosini bildiradi. *-sa edi* shakli ba‘zan *-saydi* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Shart mayli shakli *kerak* so‘zi bilan kelganda, taxmin-gumon ma‘nosini bildiradi.

256-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga shart mayli qo‘shimchasini qo‘ying, so‘ng unga shaxs-son qo‘shimchalaridan mosini qo‘shing.

1. Odam bo‘laman de..., kamtarlikni odat qil. 2. Agar kishi halol mehnat qil..., u shon-shuhrat qozonadi. (*Pol Lafarg*) 3. Agar do‘stim ko‘p bo‘lsin de..., hech kimga dushmanlik qilma. («*Hikmatnoma*»dan) 4. Ko‘z yoshi to‘kib ariq qazi..., kulib-kulib suv ichasan. (*Maqol*) 5. Yomg‘ir tezroq tin... edi, suvoqni yakunlar edik. (*Yo‘ldosh Sulaymon*)

257-mashq. Maqollarni o‘qing. Ulardagi mazmun haqida bahslash-ing. Shart maylidagi fe‘llarga izoh bering.

1. Yaxshi so‘z eshitmoqchi bo‘lsang, yomon gap aytma. (*Arman maqoli*) 2. Boshqalarga yordam bersang, kulfat seni chetlab o‘tadi. (*Ozarbayjon maqoli*) 3. Haqiqatni inkor etsang, o‘z umringni qisqartirasan. (*Gruzin maqoli*) 4. To‘g‘ri bo‘lsang, o‘sib borib gul bo‘lasan, egri bo‘lsang, o‘sib borib kul bo‘lasan. (*O‘zbek maqoli*) 5. To‘g‘ri turgan bo‘lsang, soyaning egriligidan qo‘rqma. (*Xitoy maqoli*) 6. Oz yesang, ko‘p yashaysan. (*Arab maqoli*)



1. Shart mayli deb nimaga aytiladi?
2. *-sam, -sak, -sangiz* qo‘shimchalarini fe‘llarga qo‘shing va ma‘nolarini tushuntiring.
3. *Termoq, gullamoq, parvarishlamoq* fe‘llarining shart mayli shaklini hosil qiling.

258-mashq. *Uyga vazifa.* «Tabiat qo‘ynida» mavzusida matn tuzing. Unda shart maylidagi fe‘llardan foydalaning.

SHAXS-SON SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan soʻz shakllarini tarkibiy qismlarga ajratib.

Uxladim, uxlabman, uxlayman, uxlaganman, uxlayapman, uxladim, uxlabsan, uxlaysan, uxlagansan, uxlayapsan, uxladim, uxlabdi, uxlaydi, uxlagan, uxlayapti, uxladik.

2-topshiriq. *-m, -ng, -ngiz; -man, -miz, -san, -siz, -k* qoʻshimchalarining qanday vazifa bajarishini aniqlang.


BILIB OLING. Feʼlda ifodalangan harakat yoki holatning bajaruvchi shaxsini, bu shaxsning bitta yoki koʻp ekanligini bildiruvchi shakllar *shaxs-son shakllari* sanaladi.

Feʼllarning I va II shaxsi maxsus shakllar orqali ifodalanadi. III shaxsda esa zamon qoʻshimchalari shaxs maʼnosini ham ifodalaydi.

ESDA SAQLANG. Oʻtgan zamonning *-di* hamda kelasi zamon shart mayli *-sa* shakllaridan soʻng *-m, -ng, -k, -ngiz* qoʻshimchalari; ravishdosh, sifatdosh shakllari hamda sof feʼlning hozirgi zamon shakllaridan soʻng *-man, -miz, -san, -siz* qoʻshimchalari qoʻllaniladi.

259-mashq. Berilgan feʼllarda qaysi vaqtda *-m, -ng* qoʻshimchalari, qaysi vaqtda *-man, -san* qoʻshimchalari qoʻllanilishini aniqlang.

Boraman, oʻqiyman, kelasan, ishladim, oʻynading, ket-sam, oʻylasang.

 **260-mashq.** Feʼl asoslariga qavs ichidagi shaxs-son qoʻshimchalaridan mosini qoʻyib, koʻchiring va ularni izohlang.

1. Zebi: Ana, soʻroq tamom boʻl... (-gan, -di, -ib). Endi uyimni qandoq qilib topib bora... (-di, -ib, -man), — deb oʻyladi. — Oʻtir... (-gan, -ing, -ib),— dedi sud raisi Zebiga. Zebi sekingina va ehtiyot bilan oʻtir... (-gan, -di, -ib). (*Choʻlpon*)
 2. Hazratim, hech boʻlmasa, Humoyunni Kobulda qoldir... (-ib, -ing, -gach). Axir, siz Hindga ketsa... (-ngiz, -gach, -ar),

kimdir Kobulni boshqarishi kerak-ku! (*P. Qodirov*) 3. Men bu yo‘ldan necha bor qishlog‘imga o‘tgan... (-man, -san, -miz), Lolazorning sayriga to‘ya olmay ketgan... (-man, -siz, -miz). (*Mirtemir*)

261-mashq. Fe‘llarni tarkibiy qismlarga ajrating. Shaxs-son qo‘shimchalarining asosga qo‘shilishiga diqqat qiling.

1. Yuringlar,— dedi kampir o‘rnidan turib. Keyin mening yelkamga qoqdi. — Sen ham yur, shirin bola. (*O‘. Hoshimov*)
 2. Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o‘tirib qolibman. (*X. To‘xtaboyev*) 3. O‘shanda yetti yoshlarda edim. Tog‘da yashardik. (*Sh. Xolmirzayev*) 4. To‘g‘ri gapirding. Yaxshi gap, diqqat-e’tibor har qanday doridan kuchli ekan. (*O‘. Umarbekov*) 5. Imtixon ro‘yxatida Odil bilan men ham bor ekanmiz. Sevindik... (*N. Safarov*)



1. Shaxs-son qo‘shimchalari deb nimaga aytiladi?
2. I va II shaxsni bildiruvchi shaxs-son qo‘shimchalari qaysilar?
3. III shaxsda shaxs-son ma’nosi qanday ifodalanadi?

262-mashq. Uyga vazifa. «Men kamtarman» degan odamni kamtar ekan deb o‘ylamang. (*Asqad Muxtor*) Shu mavzuda hikoya tuzing. Fe‘llardagi shaxs-son qo‘shimchalarini izohlang.

OT

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarni qanday so‘roqqa javob bo‘lishiga qarab jadvalga joylashtiring. O‘zingiz ham shunday so‘zlar toping.

Salima, Toshkent, chumoli, daftar.

Kim?	Nima?	Qayer?

BILIB OLING. Ot nom bildiruvchi so‘z turkumi bo‘lib, shaxs, narsa, joy ma’nolarini anglatadi va «kim?», «nima?», «qayer?» so‘roqlariga javob bo‘ladi.

«*Kim?*» so‘rog‘i shaxsni bildiruvchi so‘zlarga, «*nima?*» so‘rog‘i narsa, faoliyat-jarayonni bildiruvchi so‘zlarga, «*qayer?*» so‘rog‘i joy nomini bildiruvchi so‘zlarga beriladi. Shunga ko‘ra otlar shaxs otlari, narsa otlari, faoliyat-jarayon otlari, o‘rin-joy otlariga bo‘linadi.

263-mashq. Ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni aniqlang, ularga so‘roq berib ko‘ring, ma’nolarini izohlang.

O‘lmasning onasi uyda o‘tiradi, do‘ppi tikadi. Qizlari ham onasiga qarashadigan bo‘lib qolgan. Biri igna tortadi, biri piltakach uradi, bitgan do‘ppini taxtakachga bostiradi, yana biri ipak qaynatadi, quritadi, xullas, namozgarda boshlangan do‘ppiertasiga tayyor bo‘ladi. (*U. Nazarov*)

264-mashq. Matnni ko‘chiring, otlarni topib, so‘roqlarini aniqlang.

Bahor keladi. Gul mavsumi boshlanib ketadi. Daraxtlarda gul, bolalarning do‘ppilariga lolalar qistirilgan. Savatlarda uyum-uyum gunafshalar. Hamma yoq gul! Gul!.. Bahor faslining zavqi boshqacha.

Qo‘qqisdan osmonni bulut qoplaydi-da, chelak-chelak suv quyadi. Ko‘p yog‘adi... Lahza o‘tmasdan, erka quyosh jilmayib chiqib keladi. Hamma yoq yarqirab ketadi. Olmalar, gilolar, olchalar, shaftolilar — hammasi avji gulda. (*Oybek*)



1. Ot deb nimaga aytiladi?
2. Ot qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Ot qanday ma‘no guruhlariga ajratiladi?

265-mashq. *Uyga vazifa.* Gaplarni ko‘chiring, ulardagi otlarni aniqlang, ma’nolarini izohlang.

1. Boychechak Qo‘zivoyning qo‘liga tegishi bilan Ilontepa tomonga yugurdi. (*A. Ko‘chimov*) 2. Shirinoymi bu, eson-omonmisan?— xursand bo‘lib ancha naridan qichqirdi Anorxon. (*Oybek*) 3. To‘kib ko‘z yoshlarin armonda ketmish, Necha Furqatlar-u Bobur Vatan deb. (*Qodir Dehqon*)

OTLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI. SODDA OT

Topshiriq. So'zlarni tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takroriy otlarga ajrating.

Qo'ziqorin, achchiqtosh, uchburchak, dori-darmon, yoshqari, qo'ni-qo'shni, daraxt, yer, osmon, non-pon, choy-poy, belkurak, belbog', tustovuq, oy, quyosh, tasha, ota-ona, aka-uka, qarindosh-urug', osh-posh, ko'z-po'z.

Sodda otlar	Qo'shma otlar	Juft otlar	Takroriy otlar

BILIB OLING. Faqat bir asosdan tarkib topgan otlar *sodda ot* hisoblanadi. Masalan: *uy, yer, tosh, tuz, daraxt.*

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan otlar *qo'shma ot* sanaladi. Masalan: *qo'lqop, oltingugurt, beshiktervatar.*

Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli asoslardan tarkib topgan otlarga *juft otlar* deyiladi. Masalan: *o'g'il-qiz, idish-tovoq, ota-ona.*

Ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o'zgarishi asosidagi takroridan tarkib topgan otlar *takroriy otlar* sanaladi. Masalan: *tuz-puz, tovoq-povoq, uy-puy.*

266-mashq. Gaplarni o'qing, sodda, qo'shma, juft otlarni aniqlab, guruhlarga bo'lib ko'chiring.

1. Boychechakning tovlanib turgan gulbarglari hammaning ko'nglidagi gina-adovatga barham berdi. (*A. Ko'chimov*) 2. Oradan uch-to'rt kun o'tgach, dadam Qipchoqlardan hovli topib keldi. Ammam ko'rpa-yostiq, amakim qozon-tovoq, boshqa tanish-bilishlar choynak-piyola deganday, har kim baholi qudrat qarashib, o'sha hovliga ko'chdik. (*Abdulla Qahhor*) 3. Somonsuvoq qilingan tekis tomning ustiga o'rikning bir shoxi egilib turardi. (*P. Qodirov*) 4. Bahoroy juda go'zal, Hamma fasldan o'zar. Gulchechakdan libosi, Yoqimlidir havosi. (*M. Ibrohimova*)

267-mashq. Uch guruhga bo'lining. Birinchi guruh sodda, ikkinchi guruh qo'shma, uchinchi guruh juft otlarga o'ntadan misol yozsin.

268-mashq. Matnni ko'chiring, sodda, qo'shma va juft otlarning tagiga chizing.

Bog'da zotli, asil olmalar, xilma-xil gilos-olchalar, kursil-lama nashvati, yumshoq xushbo'y noklar, achchiq va chuchuk tuyatish anorlar va boshqa-boshqa meva daraxtlari ko'p. Tokzorga kelsak, husayni, yakdona, shivirg'oni, charosdan boshlab tanako'zi, qorajangal, bedona kishmishga qadar turli-tuman navlar bor. (*Oybek*)



1. Sodda otlar deb nimaga aytiladi?
2. Qo'shma otlarga misollar keltiring.
3. Juft otlar qanday hosil qilinadi?

269-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi otlarni sodda, qo'shma, juft otlarga ajratib, guruhlab yozing.

Buloq, tokzor, ekin-tikin, to'rtburchak, dunyoqarash, yor-birodar, do'stlik, o'y-xayol, gulchambar, kurash, aql-hush, merosxo'r, bilim, gulhamishabahor, ko'klam, savdo-sotiq, oy.

QO'SHMA OTLAR IMLOSI

Topshiriq. Berilgan qo'shma otlarning qanday yozilganini ayting.

Yeryong'oq, qo'larra, qulbeor, qo'yboqar, asalari, Mingtepa, Uchqo'rg'on, O'rta Chirchiq, Kichik Osiyo.

BILIB OLING. Quyidagi qo'shma otlar qo'shib yoziladi:

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar har doim qo'shib yoziladi: *qorbo'ron, qizilishton, ko'ksulton, kungaboqar, o'rinbosar.*

Ikkinchi qismi turdosh otdan iborat bo'lgan atoqli otlar qo'shib yoziladi: *Beshariq, Qorqiz, Qashqadaryo.*

Ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo'lgan qo'shma otlar esa ajratib yoziladi: *Markaziy Osiyo, Quyi Chirchiq.*

270-mashq. Matnni ko'chiring, qo'shma otlarning imlosiga diqqat qiling.

Farg'onada bizning Oltiariqdan tashqari Uchariq, Beshariq, Qo'shariq, Oqariq, Soyariq, Jinariq, Belariq singari joylar ko'p. Shu bois oltiariqliklar biron-bir musofirni ko'rishsa: «Keling, akaxon, marg'ilonlikmilar?» — deb so'rashadi. «Yo'q», — degan javobni eshitishsa, birdan hafsalalari pir bo'lib: «Unda qaysi ariqdansiz?» — deyishadi. (*Anvar Obidjon*)

271-mashq. Gaplarni o'qing, qo'shma otlarni topib, ularning yasallishini tushuntiring.

1. Qizlar tillaqosh, bargak, zebigardon, qo'ltiqtumor, marjon, uzuk, bilaguzuk taqib, shoyi ko'ylak, nimcha, kamzul kiyib yasanar edilar. (*N. Safarov*) 2. Laylakqor urib turgan bir kun edi. Birdan bozorboshida dod-faryod ko'tarilib qoldi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Elmurod so'rab-surishtirib, nihoyat, ko'pgina chiroqlar charaqlab turgan hovliga kirib keldi. (*Parda Tursun*) 4. Ariq bo'yida hamisha, har yoz ikkita jaydari atirgul, pastda namozshomgul, gultojixo'roz, sadarayhon o'sib yotadi. (*Oybek*)



1. Qo'shma otlar deb qanday otlarga aytiladi?
2. Qo'shma otlar qanday yoziladi?
3. Qanday qo'shma otlar ajratib yoziladi?

272-mashq. Uyga vazifa. *Gul* so'zi yordamida qo'shma otlar hosil qilib, gaplar tuzing. Ularning yozilishini tushuntiring.

JUFT VA TAKRORIY OTLAR IMLOSI

1-topshiriq. Berilgan otlarni juft va takroriy otlarga ajrating, imlosini tushuntiring.

Dori-darmon, orzu-armon, ko'rpa-to'shak, qovun-povun, uy-puy, bug'doy-mug'doy.

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlar qo‘yib, juft va takroriy so‘zlar hosil qiling, imlosini izohlang.

Ish..., ota..., aka..., opa..., ekin..., qo‘y..., oshna..., qand...

BILIB OLING. Juft va takroriy otlar qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

ESDA TUTING. *Es-es, chelak-chelak, qator-qator* kabi takror kelgan otlar ravish so‘z turkumiga o‘tadi.

273-mashq. Nuqtalar o‘rniga juft otlarning tegishli qismini topib qo‘ying va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Savdo-..., tevarak-..., o‘y-..., huzur-..., ...-qatiq, o‘t-..., ko‘z-..., gap-..., hol-..., yor-..., temir-..., rang-... .

274-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Juft va takroriy otlarning yasashiga e‘tibor qiling.

1. Arpa-bug‘doy osh bo‘ldi, oltin-kumush tosh bo‘ldi, bolam! 2. Ana-mana deguncha javzak o‘rik, gilos, olcha, bodring, orqama-orqa handalak, qovun-tarvuz pishib, ma‘murchilik boshlanib ketardi. 3. Karnay-surnay, childirma-nog‘ora sadolari yangraydi. 4. Barchaga barobar Navro‘z bayramiga yosh-qari, ayol-erkak — hamma qatnashardi. (*N. Safarov*)

275-mashq. Juft so‘zlarning imlosiga diqqat qiling va ular bildirgan ma‘nolarni izohlang.

1. O‘zbek oyimning orzu-havas, to‘y-tomoshalarni shartta kesib qo‘ygan bu uylanishga nima deyishi va qanday qarashi, albatta, ma‘lum edi. (*Abdulla Qodiriy*) 2. U hammaning kasb-korini, qandoq ishlashini, oilasini, fe‘l-atvorinigina emas, dard-hasratini, orzu-armonini, qobiliyatini, zaif tomonlarini juda ham yaxshi bilar edi. (*Abdulla Qahhor*). 3. Sigir-buzoqlar, ayniqsa, qo‘y-qo‘zi, echki-uloqlar ko‘p. (*Oybek*) 4. Adabiyot fan-texnika inqilobi davrida ham inson bilan ish ko‘rishi kerak. (*Asqad Muxtor*)



1. Juft so‘zlar deb nimaga aytiladi?
2. Takroriy so‘zlar qanday yasaladi?
3. Juft va takroriy so‘zlar qanday yoziladi?

276-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi soʻzlar ishtirokida juft va takroriy soʻzlar hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Uy, olma, bola, qozon, oy, yer, daryo.

Namuna: *uy-joy. Shahrimizda bir-biridan chiroyli yangi uy-joylar qad koʻtarmoqda.*

ATOQLI OTLARNING TURLARI VA IMLOSI

1-topshiriq. Shaxs, joyni bildiruvchi atoqli otlarga misollar keltiring.

2-topshiriq. Berilgan otlarni quyidagi guruhlarga boʻling.

Joʻra, Bekobod, Usmon Nosir, Boʻribosar.

Shaxs nomlari	Oʻrin-joy nomlari	Narsa nomlari

3-topshiriq. Soʻzlarni ism, ota ismi, familiya, taxallus bildirishiga koʻra guruhlang.

Toshev, Yoʻldosh oʻgʻli, Xorazmiy, Ibn Sino, Sanobar Akbar qizi, Navoiy, Choʻlpon.

BILIB OLING. Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qoʻyilgan nomlar *atoqli otlar* sanaladi. Atoqli otlar nimani atab kelishiga koʻra shaxs nomlari, joy nomlari va narsa nomlariga boʻlinadi.

Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi otlar *shaxs nomlari* sanaladi.

ESDA TUTING. Familiyalar shaxs ismidan soʻng otasining ismini qoldirish (*Usmon Nosir*), otasining ismiga *-ov(a)*, *-yev(a)* qoʻshimchasini qoʻshish (*Erkin Vohidov*) bilan ifodalanadi.

277-mashq. Shaxs nomlarini toping va ularni izohlang. Yana qanday mashhur allomalarni bilasiz? Shu haqda suhbatlashing.


Notiq dedi:
 «Taqdir shul,
 Bu jahoniy iroda.
 Tillar yo‘qolur butkul,
 Bir til qolur dunyoda».
 «Ey voiz, pastga tushgin,
 Bu gap chiqdi qayerdan?»
 Navoiy bilan Pushkin
 Turib keldi qabrdan.

Kim darg‘azab, kim hayron,
 Chiqib keldilar qator:
 Dante, Shiller va Bayron,
 Firdavsiy, Balzak, Tagor.
 «Va‘zingni qo‘y, birodar,
 Sen aytganing bo‘lmaydi!»
 Barcha dedi barobar:
 «Ona tilim o‘lmaydi».

(E. Vohidov)

278-mashq. Gapnlarni ko‘chiring. Atoqli otlarni shaxs nomlari va joy nomlariga ajrating.

1. Yana bir necha kun turib kelmoq uchun Otabek Marg‘ilonga, Hasanali ota Yusufbek hojini tinchlatisht uchun Toshkentga jo‘nadilar. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Chol ko‘zlarini qisib, kulib qo‘yadi: — Yaxshi. Ma‘nolik narsa. Muqimiyni ko‘rganman. Xushfe‘l, dono odam edi. Muqimiy — kattakon shoir. Qo‘qonda turadi u kishi. (*Oybek*)

 **279-mashq.** *Abdu-*, *-qul*, *-berdi*, *-xon*, *-jon*, *-boy*, *-oy*, *-bek*, *-xo‘ja*, *-bonu* singari kishi nomlari ko‘rsatkichlari ishtirok etgan ismlar qatorini tuzing. Ularning ismlarga qo‘shilish o‘rni va imlosini tushuntiring.



1. Shaxs nomlari deb qanday otlarga aytiladi?
2. Joy nomlariga misollar keltiring.

280-mashq. *Uyga vazifa.* Ota-onangiz, aka-ukalaringiz, opa-singillariningizning ismlarini yozing va ularga izoh bering.

JOY NOMLARI VA ULARNING IMLOSI

Topshiriq. Joy nomlariga misollar yozing.

BILIB OLING. Ma‘lum bir geografik hududga atab qo‘yilgan nomlar *joy nomlari* hisoblanadi. Mamlakat, o‘lka, nomlari qo‘shma so‘z shaklida bo‘lganda, tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan yoziladi.

ESDA TUTING. Tarkibida bo'yi, orti, oldi so'zlari ishtirok etgan joy nomlari qo'shib yoziladi.

281-mashq. Berilgan joy nomlarining tuzilishi va imlosini tushuntiring.

Surxondaryo, Buloqboshi, To'rtko'l, Qorovulbozor, Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Koreya, Marjonbuloq, Jarqo'rg'on Markaziy Osiyo, O'zbekiston Respublikasi.

282-mashq. Gaplarni ko'chiring, joy nomlarini topib, ularning hosil bo'lishini izohlang.

1. Jiydakapa do'ppidek keladigan pastak bir tepalik ekan. (*X. Sultonov*) 2. Zahro «Tuproqqo'rg'on» darvozasiga yetib bor-ganda, vaqt tushga yaqinlashib qolgan, kun iliq, havoda o'rik gullari chirpirar edi. (*U. Nazarov*) 3. Balandmachitdan o'tib, Beshyog'ochga chiqamiz. (*Oybek*) 4. Xatirchiga borish uchun poyezddan Zirabuloq bekatida tushiladi. (*G'. Salomov*) 5. Qani endi, Yaypanga borsak, Qudashga borsak, Buvaydaga borsak, Oqqo'rg'onga borsak, seni ham olib boraman. (*Abdulla Qahhor*)

283-mashq. Matnni o'qing, joy nomlarini aniqlang. Ularga o'xshash boshqa misollar toping.

U vaqtda Toshkent ikkita shahardan iborat bo'lib, birini Eski shahar, ikkinchisini Yangi shahar deyishardi. Ikkalasi o'z davrining o'zgacha ikki dunyosi hisoblanib, ularning muayyan chegarasi ham bor edi. Ko'p sirlarning guvohi bo'lgan sirli Anhor chegara edi. Uning o'ng qirg'og'i Qo'qon xoni qurgan O'rda choyxonasidan boshlansa, chap qirg'og'i Eski shaharga qaratilgan Tuproqqo'rg'on harbiy qal'asidan boshlanardi. (*Ibrohim Rahim*)

284-mashq. Joy nomlarini ma'no guruhlariga ajratib, jadvalga joylashtiring.

Cho'ponota, Amudaryo, Yevropa, Afrika, London, Qashqadaryo, Dashnobod, Koson, Osiyo, Ellikqal'a, Shirmonbuloq, G'ijduvon, Tomdi, Samarqand, Beshkent, Qamashi, Surxondaryo, Xorazm, Italiya, Uzunko'cha, Uchtepa, Naymancha,

Ispaniya, Gruziya, Chorsu, Jartepa, Sariosiyo, Yaponiya, Xovos, G‘azalkent, Mang‘it, Xonqa, Shirmonpazlik, Temirchilik, Avstraliya, Yangichek, O‘rtasaroy.

Qit‘a nomlari	Davlat nomlari	Shahar nomlari	Qishloq nomlari	Viloyat nomlari	Tuman nomlari	Mahalla nomlari

285-mashq. «Bilag‘onlar musobaqasi»ni o‘tkazing. Buning uchun ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruh aytgan joy nomining ikkinchi qismi keyingi guruh topadigan joy nomining birinchi qismi bo‘lsin.

N a m u n a : *Uchqo‘rg‘on — Qo‘rg‘ontepa.*



1. Joy nomlari deb nimaga aytiladi?
2. Joy nomlari qanday yoziladi?
3. Tarkibida *oq* va *qora* so‘zlari ishtirok etgan joy nomlariga misollar ayting.

286-mashq. *Uyga vazifa.* O‘zingiz yashayotgan yerdagi joy nomlarini yozing. Ularning tarixiy shakllari ustida ham o‘ylang.

TASHKILOT, KORXONA, MUASSASA NOMLARI


1-topshiriq. Berilgan otlarni jadvaldagi guruhlarga ajrating. Imlosini izohlang.

Sog‘liqni saqlash vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Oliy Majlisi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent traktor zavodi.

Xalqaro tashkilot nomlari	Davlat oliy tashkiloti nomlari	Korxonalar nomlari	Davlat muassasasi nomlari

BILIB OLING. Xalqaro tashkilot, oliy davlat tashkilotlari va mansablarining nomlari tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan yoziladi. Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan yoziladi.

Turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlar, transport vositalari kabilarga berilgan shartli nomlar qoʻshirnoq ichida bosh harf bilan (birikmali holatlarda faqat birinchi soʻz) yoziladi: «Turkiston» (saroy), «Sharq gullari» (firma).

 **287-mashq.** Tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarini jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing. Oʻzingiz yashayotgan yerdagi shunday nomlarga misollar keltiring.

Oʻzbekiston Oliy Majlisi, «Bahor» konsert zali, Xalqaro Olimpiya Qoʻmitasi, Oliy xoʻjalik sudi, Buxoro viloyati hokimligi, Osiyo Taraqqiyot Banki, «Oʻqituvchi» nashriyoti, «Umid» firmasi, «Istiqbol» fermer xoʻjaligi, Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasi, «Nuroni» jamgʻarmasi, Samarqand chinni zavodi, Quvasoy sement zavodi, «Turkiston» saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Guliston davlat universiteti.

Xalqaro tashkilot nomlari	Davlat oliy tashkiloti nomlari	Davlat muassasasi nomlari	Korxonalar nomlari

288-mashq. Quyidagi nomlarni guruhlarga ajrating va ular oʻrtasidagi farqlarni tushuntiring.

Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, «Qoʻshchinor» masʼuliyati cheklangan ishlab chiqarish birlashmasi, Bulungʻur tumani hokimligi, Urganch davlat universiteti, «Lazzat» oshxonasi, «Afrosiyob» mehmonxonasi, Toshkent davlat agrar universiteti.



1. Xalqaro tashkilot nomlariga misollar ayting.
2. Davlat tashkilotlarining nomlariga misollar keltiring.
3. Korxonalar nomlariga misollar keltiring.

289-mashq. *Uyga vazifa.* O‘zingiz yashayotgan joydagi muassasa, korxonalar, tashkilotlarning nomlarini yozing.

TARIXIY SANA VA BAYRAM NOMLARI

Topshiriq. Qanday tarixiy sana va bayramlarni bilasiz? Ularning nomini yozing va imlosini tushuntiring.

BILIB OLING. Tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi.

290-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Tarixiy sanalar va bayram nomlarini topib, ularga izoh bering.

1. Ramazon kirdi... Dadam meni bozorshabga olib bordi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Aytganingiz kelsin, — dedi onamning chehrasi ochilib,— hamal-amal, o‘lmagan qul bahorni ham ko‘radi. Navro‘z keladi... Navro‘z so‘zini eshitib, yuragim to‘lqinlanib ketdi. (*N. Safarov*) 3. Yangi yilda uyimizga, baxsh etib zavq-u safo. Kirib keldi hassasini do‘qillatib Qorbobo. (*H. Imonberdiyev*)

291-mashq. Bayram nomlarini o‘qing. Ularning mohiyatini tushuntirib bering.

O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi kunlar bayram (dam olish) kunlari deb belgilangan.

1-yanvar — Yangi yil; 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni; 21-mart — Navro‘z bayrami; 9-may — Xotira va qadrlash kuni; 1-sentabr — Mustaqillik kuni; 8-dekabr — Konstitutsiya kuni; 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni; Ro‘za hayiti; Qurbon hayiti (kunlari o‘zgarib turadi).

292-mashq. Matnni o‘qing. Mustaqillikning nima uchun bayram qilinishi haqida suhbatlashing.

Respublika Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e‘lon qilindi va 1-sentabr O‘zbekiston Respublika-

sining Mustaqillik kuni deb e’lon qilindi. 1991-yildan boshlab bu kun mamlakatimizning bosh bayrami sifatida katta tantanalar bilan nishonlanib kelinmoqda.



1. O‘zbekiston Respublikasida qanday kunlar bayram kunlari deb e’lon qilingan?
2. Qanday tarixiy sanalarni bilasiz?

293-mashq. Rasm asosida «Assalom, Navro‘z!» mavzusida matn tuzing. Navro‘zni sharq xalqlari qanday kutib olishi haqida so‘zlab bering.



SUV HAVZALARI VA INSHOOTLARI NOMLARI

Topshiriq. Qanday suv havzalari (okean, dengiz, ko‘l, daryo, soy, ariq, buloq) va suv inshootlari (kanal, suv omborlari, quduq) nomlarini bilasiz. Ularni daftaringizga yozing va imlosini tushuntiring.

BILIB OLING. Suv havzalari va inshootlari nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi.

294-mashq. Matnni o‘qing. Undagi suv bilan bog‘liq nomlarni topib, izohlang. O‘zingiz yashayotgan qishloq yoki shahardagi suv bilan bog‘liq nomlarga misollar keltiring.

Sirdaryo yoqasidagi tog‘oldi tekisliklarida bunyod bo‘lgan Toshkent shahri juda qulay tabiiy muhitga egadir. Shaharning

obodonchilik sharoiti ham yaxshi. Toshkent vohasini Chirchiq daryosi suv bilan ta'minlab turadi. Shahardan o'qib o'tuvchi ariq va kanallarning hammasi Chirchiq daryosidan boshlanadi. Qorasuv, Salor, Kaykovus, Qoraqamish, Shayxontohur, Rohat, Oqqo'rg'on, Anhor shaharning qon tomirlaridir. (*M. Ro'ziyeva*)

295-mashq. Gaplarni ko'chiring. Suv bilan bog'liq nomlarning tagiga chizing va izohlang.

1. Kampirning o'tovi Zolariqning chap qirg'og'ida edi. (*G'afur G'ulom*) 2. Qorasuv kunchiqar va kunbotar tomonlari qo'shni qishloqlar bilan, kun yurish tarafi qishloq ahli Qayir deb atovchi Qoradaryo o'zani bilan tutashib ketgan katta ariq edi. (*Qamchibek Kenja*) 3. Qoplonbopning qoq o'rtasidan Nuqrasoy shitob bilan oqib o'tadi. (*Said Ahmad*) 4. Bo'ron tezda o'tib ketadi, biz Jayhunning narigi tarafiga o'tganimizdan keyin bunaqangi yomon ofatlar bo'lmaydi. (*Mirmuhsin*)

296-mashq. Quyida berilgan so'zlarni jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.


Orol, Sangzor, Oqdaryo, Balxash, Issiqko'l, Chortoqsoy, Zarafshon, So'x, G'ovasoy, Katta Farg'ona kanali, Chordara, Chorvoq, Amu-Buxoro kanali, Qora dengiz, Tuyabo'g'iz, Shahrixonsoy.

Dengiz va ko'l	Daryo nomlari	Soy nomlari	Kanal nomlari

297-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar orqali qaysi daryolar haqida gap ketayotganini aniqlang.

1. Yoz boshlanib, **Yaksart** bo'yidagi o'tlar qovjiray boshladi. 2. O'sha yili Eron shohi Darayavush **O'kuzdan** kechib, Sug'diyani bosib oldi. (*Mirkarim Osim*) 3. Kir **Araks** daryosiga ko'prik qurishni buyurdi. (*Darslikdan*) 4. Bu jodudan ikki ko'zim: biri **Sayhun**, biri **Jayhun**. (*Erkin Vohidov*)

298-mashq. Boshqotirmaga yashiringan daryo nomlarini topib joylashtiring va ular haqida suhbat uyushtiring.



1. Birinchi qismi rangni bildiruvchi daryo nomi.
2. Orolga borib quyiluvchi daryo nomi.
3. Sirdaryoning chap irmog'i.
4. Qashqadaryo viloyati hududidan oqib o'tuvchi daryo nomi.
5. Ham daryo, ham viloyat nomini bildiruvchi so'z.



1. Daryo nomlariga misollar keltiring.
2. Buloq nomlariga misollar ayting.
3. Ko'l, okean, dengiz nomlariga misollar aytib, ularni izohlang.

299-mashq. Uyg'a vazifa. Quyidagi savollarga geografiya fanidan olgan bilimlaringiz asosida javoblar yozing va suv bilan bog'liq nomlarni izohlang.

1. Qaysi daryo o'tmishda Jayhun, O'kuz, Oks nomlari bilan atalgan?
2. Respublikamiz hududidagi dengiz nima deb ataladi?
3. Toshkent shahri ichidan oqib o'tuvchi kanal nomini ayting.
4. Qoradaryo va Norinning qo'shilishidan qaysi daryo hosil bo'ladi?

TURDOSH OTLAR

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni so'roqlariga ko'ra guruhlarga ajrating. Qanday so'roqqa javob bo'layotganligi va ma'nosini ayting.

Ota, uka, kishi, o'roq, ketmon, paxtazor, olmazor, choyxona, terim, o'rim, ko'rik, tinchlik.

Shaxs otlari	Narsa otlari	O‘rin-joy otlari	Faoliyat-jarayon otlari

2-topshiriq. Berilgan so‘zlarni atoqli va turdosh otlarga ajrating. Har ikki guruhdagi otlar bildirgan shaxs va o‘rin-joy ma’nosining bir-biridan farqini ayting.

Jo‘ravoy, tog‘a, xola, Salim, tikanzor, ko‘mirxona, Ter-miz, Nukus, Zomin.

ESDA TUTING. Bir turdagi shaxs, narsa, o‘rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar *turdosh otlar* sanaladi.

300-mashq. Matnni ko‘chiring. Turdosh otlarni aniqlab, ularga tavsif bering.

Nurali baxshi bu tomonlarda juda mashhur edi. Tog‘liklarning biron to‘yi, ma‘rakasi, gap-gashtagi usiz o‘tmaydi. Nurali baxshi biron sabab bilan qatnasha olmagan to‘ydan odamlar: «Bu to‘y to‘y bo‘lmadi», deb qaytishar edi.

Nurali baxshi etagi tizzadan yuqori olacha to‘n kiygan, boshida ko‘k salla, og‘zi to‘la tilla tish. Chap qo‘lida ushlab kelayotgan do‘mbirasining qoshiga har xil tumorlar, munchoqlar, ipak popuklar taqilgan. (*Said Ahmad*)

301-mashq. Gaplarni o‘qing. Turdosh otlarni topib, ularni ma’no guruhlariga ajrating.

1. Shamol qorni yuz-ko‘zlarga keltirib uradi. Sovuq suyak-suyaklargacha o‘tib ketayotgandek bo‘ladi. (*P. Qodirov*).
 2. Chumchuqlar, chittaklar, to‘rg‘aylar, sa‘valar o‘z to‘plari bilan vijir-vijir, chug‘ur-chug‘ur sayrab-kuladilar. (*Abdulla Qodiriy*)
 3. Tong endi-endi oqara boshladi, shekilli, bitta-yarimta odam ko‘rindi. (*Oybek*)
 4. Bu qo‘shiqda na nolish bor, na azob, unda yashash ishtiyoqi, pok muhabbat, bitmas-tuganmas orzu va qudrat bor edi. (*O‘. Umarbekov*)
 5. Sekin-sekin yurib, ichkari hovliga kiradigan eshikni ochdi. (*Yo‘ldosh Sulaymon*)

302-mashq. Uch guruhga bo'ling. Birinchi guruh shaxs, ikkinchi guruh narsa, uchinchi guruh o'rin-joy nomlariga o'ntadan misol yozsin. Qaysi guruh topshiriqni birinchi bo'lib bajarsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.



1. Shaxs otlari deb nimaga aytiladi?
2. Narsa otlariga misollar keltiring.
3. O'rin-joy otlariga misol ayting.

303-mashq. Uyga vazifa. «To'yda» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan turdosh otlarning ma'no guruhlarini izohlang.

SHAXS OTLARI

Topshiriq. Berilgan so'zlarning so'rog'ini aniqlang va qanday ma'no ifodalashini ayting.

Chol, yigit, kampir, qiz, shaharlik, suvchi, xola, amma, zargar.

BILIB OLING. Shaxs otlari «*kim?*» so'roq'iga javob bo'lib, shaxslarni yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko'ra nomlab keladi.

304-mashq. Gaplarni ko'chiring. Shaxs otlarini topib, ularni izohlang.

Bittasi toshkentlik Yusufbek hojining o'g'li Otabek! (*Abdulla Qodiriy*) 2. Bahor oxirlab qolayotgan kunlarda shahzoda Abusaid qirq yigiti bilan ovga chiqdi. (*P. Qodirov*) 3. Dehqonchilik sirini professorlar o'rgatgan emas bizga. Paxtakorning o'z kitobi bor. Bu kitob uning ko'kragida. (*Oybek*) 4. Shavkat eng oldin enasi bilan quchoqlashib, xayr-xo'shlashdi. (*Qamchibek Kenja*)

305-mashq. Matnni o'qing. Shaxs otlarini aniqlab, ularga izoh bering.

Kampir uning boshini silab, peshonasini yuziga bosib sekin dedi:

— Qayoqlarda yurgan eding, bolaginam? Ko‘zim ochiq paytlarida qayoqlarda eding, tentagim?

Tolibjonning ko‘zlaridan yosh quyilib kelaverdi, quyilib kelaverdi.

Kampir uni bag‘ridan bo‘shatib hovli tomonga qichqirdi:

— Nima qilib turibsanzlar, ayangni chaqirmaysanzlarmi? Dadalaringga xabar qilmaysanzlarmi? Yugur, pochchangga chop, tog‘am keldi, deb ayt.

Bir hovli bola dupur-dupur qilib to‘rt tarafga yugurib ketdi. (*Said Ahmad*)



1. Shaxs otlari deb nimaga aytiladi?
2. *-lik* qo‘shimchasi yordamida qanday shaxs otlari yasaladi?
3. Qarindoshchilikni va nasl-nasabni bildiruvchi shaxs otlariga misollar keltiring.

306-mashq. Uyga vazifa. Ko‘chiring. Shaxs otlarini topib, tagiga chizing. So‘ng ularning ma‘nolarini izohlang.

1. Uning yaxshi o‘quvchi bo‘lib, to‘rtinchi sinfni «to‘rt» baholarga yakunlayotganidan dadasi bilan onasi, buvisi ham xursand. (*O. Olimov*) 2. Men o‘qimay turib ham, boshimda shu qadrdon qalpoqcham bor ekan, albatta, agronom ham, injener ham, artist ham bo‘la olaman, deb qattiq ishonar edim. (*X. To‘xtaboyev*) 3. Hoji buvi qo‘lidan kelgancha dori-darmon qildi, keyin oyim tuzaldi. (*O‘. Hoshimov*)

SHAXS OTI YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR VA ULARNING IMLOSI

Topshiriq. Berilgan so‘zlarni tub va yasama otlarga ajrating. Yasama otlarning qanday yasovchi qo‘shimchalar yordamida yasalganini ayting.

Dada, saroy, ishchi, ijodkor, paxtakor, aravaso, yo‘lsoz, tilshunos, g‘azalxon, yurtdosh, quoldosh, kaptarvoz, majlisboz, o‘quvchi, boshlovchi, shaharlik, samarqandlik.

BILIB OLING. Shaxs otlarining bir guruhi asosga *-chi, -soz, -kor, -xon, -dosh, -boz (-voz), -vchi, -lik* qo‘shimchalarini qo‘shish yordamida yasaladi. *-vchi* qo‘shimchasi *i* unlisi bilan tugagan fe‘llarga qo‘shilganda, *i* unlisi *u* shaklida, *a* bilan tugagan fe‘llarga qo‘shilganda, *a* unlisi *o* shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Undosh bilan tugagan fe‘llarga *-uvchi* shaklida qo‘shiladi: *quruvchi, suzuvchi*.

ESDA TUTING. *-lik* qo‘shimchasi o‘rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo‘shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi. Atoqli otlarga qo‘shilgan *-lik* qo‘shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi: *samarqandlik, shaharlik*.

307-mashq. Shaxs otlarini toping, ularning yasalishi va imlosini tushuntiring.

1. Shayxontohurda baqqollar, sartaroshlar, zargarlar juda serob. 2. Aravakash mo‘mingina, muloyim, kamgap kishi. 3. Taqachilar tinmaydi. Ish ko‘p. 4. Uloqchilargina emas, hatto otlar ham bu tortishuvning zavqini anglagandek, shavq bilan chopadi. 5. Jazirama oftob. Baqqollar, nosvoychilar, samovarchilar issiqdan garang. (*Oybek*)

308-mashq. Shaxs otlarini aniqlab, ularni tub va yasama otlarga ajrating, imlosini tushuntiring.

1. Yo‘q, men zargar emasman. Zargarlik tarozisi ota meros aslida. 2. Qo‘shiq aytganim faqat otamga yoqqan emish: «Qo‘shiq aytolsa, demak, cho‘ponlikka yaraydi»,— debdi u cho‘lig‘iga. 3. Rashidboy ertasi kuni qassobning mashinasida tog‘ ortiga jo‘nadi. 4. Yaxshilikka yomonlik deganlari shu ekan,— bu gapini mirobga qarab aytdi. (*N. Normatov*)

309-mashq. Uch guruhga bo‘lining. Birinchi guruh *-chi*, ikkinchi guruh *-dosh*, uchinchi guruh *-shunos, -paz* qo‘shimchalari yordamida shaxs otlari yasasin.



1. Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar deb nimaga aytiladi?
2. *-kor, -gar, -paz* qo‘shimchalari yordamida shaxs otlari yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.
3. Eng faol shaxs oti yasovchi qo‘shimchalarni sanang.

310-mashq. Uygʻa vazifa. «Duradgorlik (chevarchilik) ustaxonasida» mavzusida matn tuzing. Unda shaxs otlaridan foydalaning.

NARSA OTLARI

Topshiriq. *Nima?* soʻrogʻiga javob boʻluvchi hayvon, oʻsimlik, mehnat qurollari, kiyim-kechak nomlarini ayting.

BILIB OLING. «*Nima?*» soʻrogʻiga javob boʻlib, jonli va jonsiz narsalarni bildirgan otlarga *narsa otlari* deyiladi.

311-mashq. Matnni oʻqing. Narsa otlarini aniqlab, ularga taʼrif bering.

Opasi savatda olma, behi, anor, nashvati olib kirib, dasturxon tuzashga tushdi. Ukasining soʻrogʻini kutmay, oiladagi yangiliklardan gapira boshladi...

«Hashtak-pashtak»ni eshitib, Oʻrinboyning esiga onasi tushdi. Bogʻlarida bir tup subhoni oʻrik boʻlardi. Shu oʻriklar burunning qoniday boʻlib qizarib pishganida onasi goʻshtini danagidan bitta-bitta ajratardi-da, keyin danagini chaqib, yana goʻshti orasiga tiqib juftlagach, oftobga yoyib quritardi. Qishda ogʻzingizga solsangiz, xuddi magʻizli holva yeganning savobini topardingiz... (*Turgʻun Poʻlat*)

312-mashq. Berilgan otlarni hayvon, oʻsimlik, oziq-ovqat, kiyim-kechak, idish-tovoq, ish qurollari, osmon jismlari kabi maʼno guruhlariga ajrating.

Arslon, boychechak, shoʻrva, koʻylak, doʻppi, boʻri, qozon, goʻsht, pichoq, qoshiq, tasha, palto, tulki, arra, bolta, chuchvara, ketmon, choynak, piyola, rayhon, yalpiz, oy, yulduz, quyosh, sher, ayiq, lola, palov, shim, choʻmich.



1. Narsa otlari deb nimaga aytiladi?
2. Ularni qanday guruhlariga ajratish mumkin?
3. Narsa otlari shaxs otlaridan nimasi bilan farq qiladi?

313-mashq. Uygʻa vazifa. Xonangizdagi narsalarning otlarini yozing.

NARSA OTLARINI YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR VA ULARNING IMLOSI

Topshiriq. Berilgan so‘zlarni tub va yasama otlar guruhlariga ajrating. Yasama otlar tarkibidagi yasovchi qo‘shimchalarni ajrating.

O‘roq, taroq, tugma, suzma, qirg‘ich, suzgich, guldon, elak, supurgi, achitqi, qurilma.

BILIB OLING. Narsa otlari *-gich (-qich, -kich, -g‘ich), -gi (-qi, -ki, -g‘i), -k, -q, -oq, -(i)ndi, -ma, -don* va boshqa qo‘shimchalar yordamida yasaladi. *-q* qo‘shimchasi *a* unlisi bilan tugagan fe‘llarga qo‘shilganda, *a* unlisi *o* shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *bo‘ya+q = bo‘yoq* kabi.

314-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Narsa oti yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang. Ular yordamida yana qanday narsa otlari yasash mumkin? Shu haqda o‘ylab ko‘ring.

1. Mundoq qarab razm solsam, ko‘pchilikning qo‘lida kovsov, bolta, o‘roq... (*Oybek*) 2. Mashinada kichkina sovutgich ham bor edi. (*Orif Farmon*) 3. Oqqirov kasalligini yuzaga keltiruvchi organizmlar g‘o‘za barglariga uya quradi, tuproqda, o‘simlik chirindilari orasida qishlaydi. Bahorda yana ekinlarni kasallantiradi. (*Gazetadan*) 4. Direktor o‘sha terilar uchun xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasining oltin medalini oldi. (*Said Ahmad*) 5. Eshikni ochishim bilan dadam qo‘lidagi gazetasini, oyim supurgini tashlab menga qaradi. (*O. Yoqubov*)

315-mashq. Quyidagi narsa otlarining yasalishiga diqqat qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ochqich, qo‘lyozma, quymoq, suvdon, kiyim, o‘chirg‘ich, yelpig‘ich, o‘roq, taroq, tutatqi, bezak, qisqich, to‘plam.

316-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga narsa otini yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1. Kissasida yarimta o‘chir... bilan kecha ochgan qalami bor ekan. (*M. Zayniddinova*) 2. Bu uchrashuv «Qizingiz yozdi»

she'riy to'pla...i bosilguncha bo'lib o'tgan edi. (*N. Fozilov*) 3. Qovur... antiqa bo'lgan ekan, ochig'ini aytsam, bunaqa shirin go'shtni umrimda yemagan edim. (*Said Ahmad*) 4. G'ildira...larning bir maromda taraqlab, tebranishidan ko'zim ilinibdi. (*P. Qodirov*) 5. Suz... va qatiqning inson salomatligi uchun foydasi ko'p. (*Gazetadan*)



1. Narsa oti yasovchi qo'shimchalar qaysilar?
2. Asosga qaysi narsa otini yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda tovush o'zgarishi sodir bo'ladi.

318-mashq. Uyga vazifa. -q, -gich, -gi, -ki, -qi, -ma, -k qo'shimchalari yordamida narsa otlari yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

O'RIN-JOY OTLARI

1-topshiriq. Berilgan o'rin-joy nomlarini turar-joy, o'simliklar o'sadigan joy, dunyo tomonlari, odamlar to'planadigan joy nomlari kabi ma'no guruhlariga ajrating.

Shahar, qishloq, guzar, mahalla, tuman, viloyat, ko'cha, gulzor, olmazor, saylgoh, sharq, g'arb.

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi mos so'zlarni qo'ying. Hosil bo'lgan yasama otlarning qanday ma'no ifodalashini ayting.

...zor, ...loq, ...iston, ...goh, ...xona
(uzum, o'rik, gul, o't, tosh, gul, osh, sartarosh).

BILIB OLING. «*Qayer?*» so'rog'iga javob bo'lib, o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi otlar *o'rin-joy otlari* sanaladi. Bunday otlar o'rin-joy ma'nosi bilan birga narsalik ma'nosini ham bildiradi, shuning uchun «*qayer?*» so'rog'i bilan birga «*nima?*» so'rog'ini olishi ham mumkin.

-zor, -loq, -iston, -goh qo'shimchalari o'rin-joy otlarini yasaydi.

318-mashq. Gaplarni ko'chiring. O'rin-joy otlarini topib, ularni guruhlang.

1. Har qalay, o'zi tug'ilib o'sgan qishloq. Bolaligini eslatadigan guvala devorlar bilan qurshalgan ko'chalar, suvga cho'milgan jimjit soylar, olisda sadafdek chaq nab turgan cho'qqilar, yam-yashil o'tloqlar ko'ngliga taskin berar-ku! (*Said Ahmad*) 2. Darvozadan chiqib, katta yo'ldan biroz yurilgach, chap tomondagi tolzor ko'chaga burilishdi. (*Abdulla Qahhor*) 3. O'ktam Komila orqasidan yurib, olchazor orqali keng, tekis, bahavo maydonga chiqdi... (*Oybek*) 4. Cho'pon otaning katta hovlisi, otlar bog'langan bostirmasi, sigirlar boqiladigan molxonasi va qo'ylar turadigan ikkita katta qo'rasi bor edi. (*P. Qodirov*)

319-mashq. Gaplarni o'qing. O'rin-joy otlarini topib, ularning qanday ma'no anglatayotganini izohlang.

1. Qutidor do'koniga jo'nagandan keyin Oftoboyim To'ybekani mehmonxonaga buyurdi va o'zi xamir qilishga o'tirdi. (*Abdulla Qodiriy*) 2. U shosha-pisha kiyinib, endi tashqariga chiqayotgan ham ediki, eshik ohista taqillab, ostonada Mehriniso ko'rindi. (*O. Yoqubov*) 3. Biz ko'chib kelgan hovli katta edi. Qator qilib solingan ikki uy, bir ayvon. (*O'. Hoshimov*) 4. Bu yerlarni qo'riqxonaga aylantirar emish, shuning uchun uy hayvonlarini boqish mumkin emas ekan. (*Tohir Malik*)



1. O'rin-joy otlari deb qanday otlarga aytiladi?
2. Ularni qanday ma'no turlariga ajratish mumkin?
3. Qaysi qo'shimchalar yordamida o'rin-joy otlari hosil qilinadi?

320-mashq. Uyga vazifa. -iston, -loq, -zor qo'shimchalari yordamida otlar yasang va ular ishtirokida gaplar tizing.

FAOLIYAT-JARAYON OTLARI

Topshiriq. Berilgan otlarni shaxs, narsa va o'rin-joy otlariga qiyoslang, ular o'rtasidagi farqlarni aniqlang.

Chorvachilik, chopiq, loygarchilik, terim, ko'rik.

BILIB OLING. Shaxs va narsalarning faoliyat jarayonini nomlovchi otlarga *faoliyat-jarayon otlari* deyiladi.

ESLAB QOLING. Faoliyat-jarayon otlari *-lik, -chilik, -garchilik, -(i)m, -(i)k (-q)* qo'shimchalari yordamida yasaladi: *ezmalik, g'allachilik, serobgarchilik, terim, unum* va *hokazo*.

321-mashq. Gaplarni ko'chiring, faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlarning tagiga chizing.

1. O'rindiqning bir chekkasida o'tirgan ayol unga mehribonlik bilan tikilib turardi. (*Yo'ldosh Sulaymon*) 2. Dadam kunduzi g'ozani chopiq qilib juda charchagan ekan, sira uyg'onmadi. (*Murod Xidir*) 3. Ta'tilda o'qituvchi opamiz sayohatga olib boradigan bo'ldi. (*Hakim Nazir*) 4. Shofyorlik kursini bitirib, konda ishlay boshladim. (*N. Normatov*) 5. Yoshlikdagi gunohlari uchun yangamdan kechirim so'ramoqchilar. (*O. Yoqubov*) 6. Otaqo'zi bo'lajak kuyovining bachkana qiliqlariga ichida bir g'ijinib qo'ydi. (*O. Yoqubov*)

322-mashq. Gaplarni o'qing, faoliyat-jarayonni bildiruvchi otlarni aniqlang, ma'nosini izohlang.

1. Bilim kishining ko'nglini yoritadi, unga ro'shnolik beradi. (*Yusuf Xos Hojib*) 2. Yoshlik qaytib kelmaydi. (*Asqad Muxtor*) 3. Bu dunyoda uning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q: duradgorlig-u suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik — hammasini eplaydi. (*X. Sultonov*). 4. Ancha ovoragarchilik bilan bir mashina paxta olib qaytdik. (*P. Qodirov*). 5. Huriniso ipakchilik zveno-sining boshlig'i bo'lgan ekan. (*Abdulla Qahhor*). 6. Shomurod asli yilqichining bolasi, dehqonchilikni xushlamaydi. (*Murod Muhammad Do'st*) 7. Yolqin akam traktor terimidan bo'shagandan keyin hovlining kamchiliklarini tuzatadi. (*P. Qodirov*)



1. Faoliyat-jarayon otlari deb nimaga aytiladi?
2. Shunday otlar ishtirokida gaplar tuzing.

323-mashq. Uyg'a vazifa. «Erta turishning fazilati» mavzusida matn tuzing. Unda faoliyat-jarayon otlaridan foydalaning.

ANIQ VA MAVHUM OTLAR

Topshiriq. Berilgan otlarni aniq va mavhum ma’nomalarni bildirishiga ko’ra guruhlariga ajrating.

Baxt, pari, farishta, uyqu, hayo, orzu, qalam, o’rik, o’t.


BILIB OLING. Sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo’lgan narsalarni bildirgan otlarga *aniq otlar* deyiladi: *kitob, mashina, uy, eshik, dutor* va hokazo.

Sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo’lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildirgan otlarga *mavhum otlar* deyiladi: *xayol, aql, o’y, go’zallik* va hokazo.

Aniq otlar birlik va ko’plik shaklida qo’llana oladi, ammo mavhum otlar ko’plik shaklida qo’llanganda, asosan, ko’plik ma’nosi emas, balki ta’kidlash, kuchaytirish ma’nolari ifodalanadi.

324-mashq. Aniq va mavhum otlarga qo’shilgan ko’plik, egalik va kelishik qo’shimchalariga e’tibor bering. Ko’plik qo’shimchasining qanday ma’no qo’shayotganini izohlang.

1. U o’z qalbida kechayotgan tuyg’ularning nomini bilmas, shu daqiqadagi holatini o’rtoqlariga ham izohlab berolmas edi. (*Qamchibek Kenja*) 2. Hunarlaringni, didlaringni rosa ishlatib, chiroyli bino solib bersalaring, bas. (*Oybek*) 3. Mening Jasur ismli ukam bor. U hayvonlarni, ayniqsa, itlarni yaxshi ko’radi. (*I. Xolliyeva*) 4. Ular qushchalarni tomosha qilishadi. (*A. Azimova*)

 **325-mashq.** Gapnlarni o’qib, aniq va mavhum otlarni toping, ularga izoh bering. Hikmatlarning mazmuni haqida suhbatlashing.

1. Hasad — yurakning zanglashi, qaysarlik mag’lubiyat sababchisidir. 2. Oyog’ingiz yugursa, maqsadingizga yetkazadi, tilingiz yugursa boshingizga falokat keltiradi. 3. Yalqovlik muhtojlik eshigidir. 4. Narsa deb odamlar e’tiboridan qolish yomon. 5. Hayo qalbning haqiqiy ko’zglasidir. («*Sharq hikmatlari*»dan)



1. Aniq otlar deb nimaga aytiladi?
2. Mavhum otlarga misollar keltiring.
3. Mavhum otlar nima sababdan ko'plik shaklida qo'llanmaydi?

326-mashq. Uyga vazifa. Aniq va mavhum otlarni ajrating. Ular o'rtasidagi farqlarni tushuntiring.

1. Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g'ayrat, ham dadillik baxsh etgandek bo'ldi. (*X. To'xtaboyev*) 2. Qirlarning g'ir-g'ir shamoli, o'pkalarga moydek tuyulgan totli havosi hammamizning ruhiyatimizni ko'tarib yubordi. (*Oybek*) 3. Osmon hadsiz, ufqlar, qirlar jimirlaydi zarrin yog'duda. Osmon kabi tiniq tuyg'ular mavj uradi bu yosh ko'nglimda. (*Z. Nazarova*)

MAVHUM OT YASOVCHI QO'SHIMCHALAR VA ULARNING IMLOSI

Topshiriq. Quyida berilgan so'zlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Ot yasovchi qo'shimchalarni aniqlang va qanday ot yasayotganini ayting.

Shodlik, quvonch, sevinch.

BILIB OLING. Mavhum otlar *-lik, -ch, -inch* qo'shimchalari yordamida yasaladi.

327-mashq. Mavhum otlarning yasalishiga diqqat qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ovunch, tinchlik, xurramlik, ahillik, ahmoqlik, yupanch, yaxshilik, qorqinch, yomonlik, o'kinch.

328-mashq. Gaplarni ko'chiring. Mavhum otlarni aniqlang, yasalihi va imlosiga diqqat qiling.

1. Vujudimga hokimlik qilayotgan o'sha tuyg'ular o'rnini shafqat, odamiylik, hamdardlik egallab oldi. (*Said Ahmad*)
 2. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. (*T. Mahmudov*)
 3. Mardlik — insonning husni. (*Maqol*)



1. Mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar qaysilar?
2. *-ch, -lik* qo‘shimchalari yordamida mavhum otlar hosil qiling.

329-mashq. Uyga vazifa. *To‘kin-sochinlik, ovunch, ahillik* so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing. Mavhum otlarning yasalishiga diqqat qiling.

OTLARNING LUG‘AVIY SHAKLLARI. SON SHAKLLARI

Topshiriq. Berilgan juftliklardagi so‘zlarning nima bilan farqlanayotganini ayting.

Olma — olmalar, qalam — qalamlar, maktab — maktablar, suv — suvlar, uy — uylar.

BILIB OLING. Otlarning *-lar* qo‘shimchasini olgan shakli ko‘plik shakli, *-lar* qo‘shimchasisiz shakli esa birlik shakli sanaladi.

Otlarning ko‘plik shakli ko‘plik ma’nosidan tashqari hurmat, umumlashtirish, kuchaytirish (*ko‘zim — ko‘zlarim, labi — lablari*) ma’nolarini ham ifodalashi mumkin.

330-mashq. Gaplarni o‘qing, birlik va ko‘plik sonda kelgan otlarni topib izohlang.

1. Nigora Saidlarnikiga kirganda uyning chiroqlari yoqilgan, Said bilan dadasi televizor ko‘rib o‘tirishar edi. (*A. Azimova*)
 2. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elchilardek guvullab Usmonlarnikiga jo‘nashdi. (*A. Ko‘chimov*).
 3. Ko‘zlarim hali harf tanimas edi, qalam ush-lolmasdi hali qo‘llarim. Kapalak izidan quvib tinmasdan, Yulduzlarni sanar edim tunlari. (*M. Boboyev*)
 4. Ey farzandlar — g‘unchalar! Sizga mehrim shunchalar. (*Quddus Muhammadiy*)

331-mashq. Gaplarni ko‘chiring. *-lar* qo‘shimchasi bilan kelgan otlarning qanday ma’no anglatayotganini ayting.

1. Shavkatlarning kattagina uzumzor bog‘i bor. (*Sh. Otaboyev*)
 2. Dadamlar: — Xo‘sh, qalay, bu yerlar yoqdi-

mi? Qara, hamma yoq sokin. Qushlar, baliqlar – bizniki, — dedilar. (*Olmos*) 3. Bahor keldi. Ariqlarda suvlar to‘lib, sharqirab oqa boshladi. (*D. Mahmudov*) 4. Hamma ishlarning boshi to‘g‘rilik va halollikdir.



1. Otlarning birlik shakli deb nimaga aytiladi?
2. Otlarning ko‘plik shakli qanday yasaladi?
3. *-lar* qo‘shimchasi qanday ma‘nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi?

332-mashq. *Uyga vazifa.* «Bizning oila» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan otlarni izohlang.

OTLARNING KICHRAYTIRISH VA ERKALASH SHAKLLARI

1-topshiriq. Berilgan so‘z juftliklari o‘rtasida qanday ma‘no farqlari borligini ayting.

Kitob — kitobcha, uy — uycha, baliq — baliqcha, daftar — daftarcha, ro‘mol — ro‘molcha, bolam — bolaginam, do‘ndig‘im — do‘ndiqcham, kelin — kelinchak, uka — ukajon, oyi — oyijon, Salima — Salimaxon, Turg‘un — Turg‘unoy.

BILIB OLING. Otlarning *-cha, -choq, -chak* kabi qo‘shimchalarni olgan shakli kichraytirish shakli; *-gina* (*-kina, -qina*) *-jon, -xon, -oy* kabi qo‘shimchalarni olgan shakli esa erkalash shakli hisoblanadi.

333-mashq. Gaplarni ko‘chiring, otlarning erkalash va kichraytirish shakllarini topib izohlang.

1. Yoyilib oqayotgan suvning u yer-bu yerida top-toza orolchalar ko‘rinib turardi. (*Olmos*) 2. Qishloqda Aykadan chiroyli kuchukcha yo‘q. Sobirjon zerikkan paytlarida quchoqlab o‘tirib u bilan gaplashadi. (*S. Mardiyev*) 3. Obbo, azamat-ey, Qo‘zivoymas, Qo‘chqorvoy bo‘lib ketibsan-ku!— deya tog‘asi girdikapalak bo‘layotgan bolakayni baland ko‘tardi. (*A. Ko‘chimov*) 4. Huriniso ketib, Saidaga qarashib turgani Kifoyatxonni yubordi... (*Abdulla Qahhor*)

334-mashq. *-xon, -jon, -oy, -choq, -loq, -cha* qo‘shimchalari yordamida erkalash va kichraytirish otlari yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

335-mashq. Gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, otlarning erkalash va kichraytirish shakllarini yasang.

1. Ertaga yaxshilab uy... (-choq, -cha, -voy) yasab berib ketaman. (*Said Ahmad*). 2. Voy, bo‘y... (-xon, -gina, -jon)ngdan aylanib ketay seni. Sog‘intirib qo‘yding-ku aya... (-niso, -xon, -jon)ingni! (*O.Yoqubov*) 3. Qo‘zi... (-loq, -choq, -kay)lar boshlarini xurjundan chiqarib jim yotishardi. (*P. Qodirov*) 4. O‘rmon... (-oy, -jon, -gina) Sidiq... (-xon, -toy, -jon)ning diliga yorug‘lik solib birinchi marta kuldi. (*Abdulla Qahhor*) 5. Bu Olim... (-toy, -loq, -xon) yaratgan robot. (*Sh. Boshbekov*)



1. Otlarning erkalash shakllari deb nimaga aytiladi?
2. Kichraytirish shakllari qanday qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
3. *-choq, -cha, -jon* qo‘shimchalari yordamida erkalash va kichraytirish shakllarini yasang.

336-mashq. «Bolaligim — poshsholigim» mavzusida matn tuzing. Unda erkalash va kichraytirish otlaridan foydalaning.

MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Uch guruhga bo‘lining. Birinchi guruh sodda, ikkinchi guruh qo‘shma, uchinchi guruh juft otlarga misollar yozsin. So‘ng ular ishtirokida gaplar tuzing.

N a m u n a : <i>bog‘</i>	<i>gulbog‘</i>	<i>bog‘-bo‘ston</i>
<i>adir</i>	<i>otashkurak</i>	<i>qir-adir</i>
<i>oshpaz</i>	<i>oshqozon</i>	<i>non-choy</i>

2-topshiriq. *Temirjon, Po‘latjon, Oltinoy, Kumushxon, Jasurbek, Nodirbek, Go‘zaloy, To‘xtasinbek, Turdixon, Charosxon* kabi atoqli otlarning qaysi so‘z turkumlaridan yasalganini aniqlang. Ularning tarkibida kelgan erkalash shakllarini yasovchi qo‘shimchalarni izohlang.

3-topshiriq. Quyida berilgan turdosh otlarni jadvalga joylashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Jarlik, bog‘bon, soylik, buloq, saylov, soat, dorboz, somsapaz, daryo, irmoq, darvozabon, uzumchilik, dehqonchilik, tintuv, o‘qituvchilik, qir, tepalik, jilg‘a.

Shaxs otlari	Narsa otlari	O‘rin-joy otlari	Faoliyat-jarayon otlari

4-topshiriq. Uyga vazifa. Biror badiiy asardan parcha ko‘chiring. Undagi otlarning lug‘aviy va munosabat shakllariga e‘tibor bering.

SIFAT

Topshiriq. Berilgan so‘z birikmalaridan «q a n d a y?», «q a n a q a?», «q a y s i?» so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarni aniqlang.

Chiroyli ko‘ylak, baland bino, devoriy gazeta, qiziq gap, kuzgi ekin.

BILIB OLING. Otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradigan va «qanday?», «qanaqa?» so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarga *sifat* deyiladi.

337-mashq. Matnni o‘qing, belgini bildirgan so‘zlarni aniqlang.

Baqqol amaki o‘zi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, yakkam-dukkam soqolli, burni puchuq, iyagi kalta odam. Qorni ham haddan tashqari katta bo‘lganligi uchun o‘tirganda xuddi bir qop go‘shidek bo‘lib qoladi. O‘ziyam juda g‘alati odam, sergapmi, kamgapmi, bilib bo‘lmaydi. Bir qarasangiz, qiziq-qiziq gaplarni aytib, odamlarni kuldirib o‘tiradi; bir qarasangiz, gung bo‘lib boshini egib oladi. (X. To‘xtaboyev)

338-mashq. Matnni ko‘chiring. Sifatlarni topib, ularning qanday so‘roqqa javob bo‘layotganini aniqlang.

Yo‘lga tushishdi. Kech kirib, ajib bir so‘lim payt boshlandi. Yonbag‘irlar ko‘m-ko‘k. Bu taraflarda mashinalar ko‘p qatnamaganidan chang-to‘zon bo‘lmas, tez-tez yomg‘ir quyib turganidan daraxtlarning shundog‘am beg‘ubor barglari yuvilib, xandon pista mag‘zidek och yashil tusda ko‘rinar edi. Yo‘lning bir tomoni azamat toshlar qalashgan yonbag‘irlik, bir tomoni — soy. Unda yuqoridan shitob bilan quyilib kelayotgan tiniq suv toshlarga urilib, qirg‘oqqa sapchib oqardi. (*Said Ahmad*)



1. Sifat deb nimaga aytiladi?
2. Sifatlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Rang-tusni bildiruvchi sifatlarga misollar keltiring.
4. Maza-ta‘mni bildiruvchi sifatlar ishtirokida gaplar tuzing.
5. Belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlar qaysilar?

339 -mashq. *Uyga vazifa.* Ertalab barvaqt turing. Tong tasvirini daftaringizga tushiring. Unda sifatlardan foydalaning.



SIFATLARNING YASALISHI

Topshiriq. Berilgan so‘zlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Sifatlarining qanday yasalganini ayting.

Shirin, oq, katta, shirali, mazmundor, serunum, kam-hosil, ko‘ylakbop, xushfe‘l.

BILIB OLING. Sifatlar tarkibiga ko‘ra tub va yasama sifatlarga bo‘linadi. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar bo‘lmagan sifatlar *tub sifatl*ar, asos va so‘z yasovchi qismdan iborat bo‘lgan sifatl *yasama sifatl*ar hisoblanadi. Yasama sifatl asosga qo‘shimchalar qo‘shish yoki so‘z qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi.

340-mashq. Oybekning «Bolalik» asaridan olingan gaplarni o‘qing. Qavs ichidagi sifat yasovchi qo‘shimchalardan mosini nuqtalar o‘rniga qo‘yib, ko‘chiring.

1. Otinbibi qari, jiddiy, (bo-, ser-, no-)... savlat xotin.
2. O‘yma... (-gar, -li, -kor) gullari bilinmaydigan darajada o‘chgan, qo‘sh tabaqa... (-siz, -li, -dor) eski eshikka kiramiz.
3. Pochcham ellikdan oshgan, novcha, kasal... (-chan, -kash, -mand), rangpar kishi.
4. Cho‘ponlar sez... (-qur, -gir, -kir), itlar ham ziyrak, bo‘ridan ayyor.
5. Do‘mbirachi qadim... (-iy, -gi, -dor) qozoq hayotidan dostonlar kuylamoqda.

341-mashq. Matnni o‘qing. Sifatlarni topib, izohlang.

1. Oldimizda mevali va mevasiz daraxtlari ko‘p bo‘lgan o‘rmon. Archa ham serob. O‘riklarning yaprog‘i qizil, qontalash. Xuddi birov ular shoxiga bir satil qizil bo‘yoqni sepib tashlaganday. Pastga egilgan yaproqlari sariq ipakday mayin. Ko‘zga shunday jozibali ko‘rinadiki, uzib-uzib g‘archg‘urch tishlaging keladi. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Hindubek turkiy, forsiy tillarni mukammal o‘rgangan ilmiy, ma‘rifatli, dilkash kishi bo‘lganligi uchun Boburning eng yaqin beklari qatoriga kirgan edi. (*P. Qodirov*) 3. Suv shishadek tiniq. (*S. Anorboyev*) 4. Hozir ular uchun eng bexatar yo‘l Toshkent edi. (*P. Qodirov*)



1. Tub sifatl deb qanday sifatlarga aytiladi?
2. Yasama sifatl qanday qismlarga ajratiladi?
3. *-li, -siz, -chan* qo‘shimchalari yordamida sifatl hosil qiling.
4. *ba-, be-, ser-* qo‘shimchalari yordamida sifatl yasang.

342-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Inson tabiatning eng ong... farzandi. (*Tohir Malik*) 2. Pastdagi bog‘dan yumsho..., namxush xazon hidi ko‘tarilib, uning xayollarini to‘l... oy sehrlagan tog‘ vodiy daralariga olib ketardi. (*Asqad Muxtor*) 3. Oybek domla nihoyatda tiyraklik bilan, ko‘pchilik nom... insonlarda juda kam uchraydigan samimiyat va bolalarcha beg‘uborlik bilan opaning gaplarini tasdiq etdi. (*A. Oripov*) 4. Bu o‘lkada iqlim o‘rtacha, suv mo‘l, yer unum..., quyosh nuri yetarli. (*G‘afur G‘ulom*) 5. Ariqlarda suv emas, o‘yno... nur oqadi. (*Abdulla Qahhor*)

Qo‘shimchalar: *-li, -in, -q, -dor, -qi.*

SIFAT YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR VA ULARNING IMLOSI

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Sifat yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.

Foydali, serharakat, go‘shtdor, tartibsiz, yasama, devoriy, noaniq, talabchan, odamsimon, bebaxt, yengilmas, basavlat.

2-topshiriq. Berilgan so‘zlarga *-li, ser-, -mand, -dor, bo-, -siz* qo‘shimchalarini qo‘shing. Ularning qanday ma‘no ifodalashini ayting.

Shira, go‘sh, savlat, davlat.

BILIB OLING. *-li, ser-, -dor, -siz, no-, -chan, -ma, -iy(-viy)* kabi qo‘shimchalar sifat yasovchi qo‘shimchalar hisoblanadi.

ESDA TUTING. *-li, -dor, ba-, ser-, -mand* qo‘shimchalari asosda ifodalangan belgiga egalikni bildiradi. Bu qo‘shimchalar (*-mand* qo‘shimchasidan tashqari) asosda ifodalangan belgiga ega emaslikni bildiruvchi *no-, -siz, be-* qo‘shimchalari bilan zid ma‘nolidir.

343-mashq. Gaplarni o‘qing. Sifat yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang, imlosini tushuntiring.

1. Yo‘ning ikki betidagi qoramtir, oq, qizil daraxtlarning tanga-tanga barglari iliq quyosh nuridan marvariddek tovlanadi. (*O‘ Umarbekov*) 2. Uning chaqnoq ko‘zlari, siyrak qoshi, o‘ychan turishi katta bardoshini, sadoqatini, aqlini aks ettirib turardi. (*Yo‘ldosh Sulaymon*) 3. G‘iyos aka yumshoq ajriq ustiga yonboshladi. (*N. Fozilov*) 4. Mehmon degan unaqa sergap bo‘lmaydi,— dedi u ayyorlarcha kulib. (*Said Ahmad*) 5. Bo‘m-bo‘sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi. (*O‘. Hoshimov*) 6. Avaz dahlizdan rangdor vassali, sertokcha uyga kirdi. (*P. Qodirov*)

344-mashq. «Hikmatnoma» asaridan olingan gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga sifat yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, ularning imlosini tushuntiring.

1. Yoqim... do‘st suhbatini olis yo‘lni yaqin qiladi. 2. Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunoh... esa g‘am va qayg‘u ostidadir. 3. ...hayo odamlar bilan suhbatdosh bo‘lgandan ko‘ra yolg‘iz o‘tirgan afzal. 4. Rostgo‘ylik adabning ustuni, inson...likning asosidir. 5. Do‘st... odamning meva... daraxtdan farqi yo‘q. 6. ...gaplik dushmaningdir, chunki u sening ayblaringni ochib tashlaydi.



1. *-iy, -viy* qo‘shimchalarining imlosi haqida so‘zlab bering.
2. *-q, -qi* qo‘shimchalari qo‘shilishi natijasida o‘zakda qanday tovush o‘zgarishlari ro‘y beradi?
3. *be-, no-, ser-, ba-* qo‘shimchalari ishtirokida so‘zlar yasang.

345-mashq. Uyga vazifa. Yaxshi ko‘rgan daraxtingizni tasvirlang. Unda yasama sifatlardan foydalaning.

3-topshiriq. Berilgan so‘zlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang va ularning ma‘nolarini ayting.

Kuzgi, gulsimon, devoriy, qishki, ilmiy.

BILIB OLING. *-gi (-ki, -qi)* qo‘shimchasi payt va o‘rin bildiruvchi otlarga qo‘shilib, payt va o‘ringa xos belgini, *-simon* qo‘shimchasi o‘xshashlik belgisini, *-(v)iy* qo‘shimchasi xoslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi.

346-mashq. Gaplarni o‘qing, sifatlarni toping, *-gi, -ki, -qi* qo‘shimchalarining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.

1. Kechki payt hujrada Boburning yolg‘iz o‘zi o‘tirar edi. (*P. Qodirov*) 2. Daryoga doimiy ravishda irmoqlar kelib qo‘shilib turmasa, uning oqimi jo‘shqin bo‘la olmaydi. (*I. Boltayeva*) 3. Shahzodaning dilini ma‘yus, ammo har kungi mudhish tuyg‘ularga o‘xshamagan, allaqanday pokiza hislar chulg‘ab oldi. (*O. Yoqubov*) 4. Dastlabki kunlar yo‘l unchalik mashaqqatli bo‘lmadi. (*Mirkarim Osim*) 5. Bu o‘rmonda odamsimon maymunlar yashaydi. (*Ertakdan*) 6. Tashqi ishlar vazirligi bayonot berdi. (*Gazetadan*)

347-mashq. Nuqtalar o‘rniga *-iy, -viy, -simon* qo‘shimchalaridan mosini qo‘ying, imlosini tushuntiring.

1. Mening tug‘ilib o‘sgan, bolaligim o‘tgan joylar Qarshi (qadim... Nasaf) shahridan besh-o‘n chaqirim shimolroq tomondagi Qo‘ng‘irtov etaklaridir. (*A. Oripov*) 2. Jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish uchun xalq mafkura... jihatdan qurolangan bo‘lmog‘i kerak. (*S. Olimov*) 3. Osmon tip-tiniq, oyning kumush... tumanli nuriga cho‘mgan, yulduzlar siyrak edi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Ayniqsa, Nasriddin Afandining quvnoq sarguzastlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajv... mayllarga turtki beradi. (*N. Karimov*)



1. *-iy, -viy* qo‘shimchalarining ishlatilish o‘rinlari haqida gapiring.
2. *-gi, -ki, -qi* qo‘shimchalari va ularning imlosi to‘g‘risida so‘zlab bering.
3. *-simon* qo‘shimchasi yordamida so‘zlar yasang.

348-mashq. *Uyga vazifa.* So‘zlarni qiyoslang. Yasama sifatlarni otlardan farqlab, daftaringizga ko‘chiring.

Sayroqi — tutatqi, oqshomgi — sezgi, kechki — tepki, erinchoq — o‘yinchoq, chizg‘ich — yulg‘ich, bolalik — bolali, unumdor — mulkdor, yashirin — bo‘g‘in, yasama — bostirma.

SIFATLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI. SODDA SIFAT

Topshiriq. Berilgan soʻzlarning tuzilishini aniqlang. Imlosiga eʼtibor bering.

Qizil, och pushti, toʻq qizil, egri-bugri, qingʻir-qiyshiq, tinchliksevar, erkparvar, qip-qizil.

BILIB OLING. Sifatlar tuzilishiga koʻra sodda, qoʻshma, juft va takroriy boʻladi. Bir asosdan iborat boʻlgan sifatlar *sodda sifatlar* sanaladi.

349-mashq. Gaplarni koʻchiring. Ajratib koʻrsatilgan sifatlarning tuzilishiga koʻra turini aniqlang.

1. Barcha ezguliklar zamirida **xosiyatli** orzular yotadi. (*A. Ibrohimov*) 2. Tuproq qatlami **qalin, sersuv** yerlarda oʻsgan archalar **yoʻgʻon** va **boʻydor** boʻladi. (*Y. Qarshiboyev*) 3. Atrof-dagi hovlilardan koʻtarilgan tutunlar **koʻkintir, mayin** mavj bilan **tinig, sovuq** havoda suzadi. (*Oybek*) 4. Qoʻlimda bitta sigir bor. Jonivor juda **sersut**, qaymogʻi suzsangiz bir enlik keladi. (*Oʻ. Umarbekov*) 5. Bu bogʻlar ichida **oq qizgʻish, nafis havorang** marmardan qurilgan koʻrkam binolar, koʻshklar, **kichik-kichik** saroylar koʻzga tashlanadi. (*Mirkarim Osim*)

350-mashq. «Biz tabiat farzandlarimiz» oʻyinini uyushtiring. Buning uchun ikki guruhga boʻlining. *Boychechak, chuchmoma, devpechak, chumchuqkoʻz, otquloq* kabi oʻsimliklarga xos boʻlgan belgilarni topish boʻyicha musobaqa oʻtkazing.

351-mashq. Matnni koʻchiring. Sodda sifatlarni aniqlab, ularga izoh bering.

Choʻl-u biyobon. Keng, ulugʻvor sahrolar ufqdan ufqqa tutashgan. Kuz fasli. Shamollar mayin, yoqimli esadi. Tiniq, koʻm-koʻk osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi. Yuksak togʻlar tumanda. Men tomosha qilib boraman, xayol qanotida goʻyo sahrolar, togʻlar kezaman. Bulutlar rang-barang, ranglar tinmay oʻzgaradi. «Tabiatning siri, maʼnosi chuqur», deyman ichimda. (*Oybek*)



1. Sifatlar tuzilishiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?
2. Sodda sifatlar deb nimaga aytiladi?
3. Sodda sifatlarga xos bo‘lgan belgilar haqida so‘zlab bering.

352-mashq. Uyga vazifa. «Sizni ulug‘laymiz, bobodehqon!» mavzusida matn tuzing. Unda sodda sifatlardan foydalaning.

QO‘SHMA SIFAT

Topshiriq. Berilgan so‘zlarning tarkibini aniqlang. Imlosiga e‘tibor bering.

Erksevar, ochko‘z, kulrang, mehmondo‘st, devqomat, sher-yurak.

BILIB OLING. Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan sifatlar *qo‘shma sifatlar* hisoblanadi. Qo‘shma sifatlar, asosan, qo‘shib yoziladi.

353-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Qo‘shma sifatlarni aniqlab, ularning qanday so‘z turkumlaridan yasalganini izohlang.

1. Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o‘ynaydi. (*P. Qodirov*) 2. Markaziy Osiyoning erksevar, mard va jasur xalqi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. (*B. Ahmedov*) 3. Milliy mafkuramizda milliylik umumbashariy g‘oyalar bilan uyg‘unlashib ketgan. (*S. Olimov*) 4. Orzu millatga hayotbaxsh ruh bag‘ishlaydi. (*Rahmon Qo‘chqor*) 5. Ona yerning xushbo‘y tafti mast qiladi kishini. (*E. Oxunova*) 6. U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi: dadasi yum-yumaloq, baqaloq bo‘lsa, bu xushqad, xushsurat. (*O. Yoqubov*)

354-mashq. Qo‘shma sifatlarni aniqlang. Ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

1. Samig‘ aka elliklardan oshgan, tarvuzdek yum-yumaloq, hazilkash, shirinso‘z odam. (*E. Usmonov*) 2. O‘zbek xalqi mehmondo‘st xalq. (*K. Xolmuhammedov*) 3. Ko‘z oldimdan ichakuzdi

qiliqlar qilayotgan qiziqchilar, toshlarni osmonga irg'itib o'ynayotgan polvonlar ketmasdi. (*Y. G'oziyev*) 4. Osmono'par koshonalar, yangi libos kiygan cho'l-u sahrolar tasviri qo'shiq parvozigacha esh bo'ladi. (*O'tayor*)



1. Qo'shma sifatlar deb nimaga aytiladi?
2. *Ot + ot* tipidagi qo'shma sifatlarga misollar ayting.
3. *Sifat + ot* tipidagi qo'shma sifatlarga misollar keltiring.

355-mashq. *Uyga vazifa.* Qo'shma sifatlarni topib, izohlang.

1. Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi: hamma ulardan bahra oladi. 2. Nodon, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi. 3. Mehnatsevar, zahmatkash insonlar odamlarning ko'rki, ishyoqmaslar esa ularning og'riq joyidir. 4. Toshbag'ir odamdan yaxshilik kutma. 5. Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir. 6. Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovunga o'xshaydi.

JUFT SIFATLAR VA ULARNING IMLOSI

Topshiriq. Berilgan sifatlarning tarkibiga ko'ra qanday sifat ekanligini aniqlang. Sodda sifat bilan juft sifatni solishtirib, juft sifat ma'nosida qanday o'zgarish bo'layotganini ayting. Imlosiga e'tibor bering.

Qing'ir-qiyshiq, g'adir-budur, egri-bugri, katta-kichik.

BILIB OLING. O'zaro yaqin yoki zid ma'noli ikki asosning juft kelishidan hosil bo'lgan sifat *juft sifat* hisoblanadi. Juft sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi.

ESDA TUTING. Juft sifat qismlari *-u, -yu* vositasida bog'lansa, ular ajratib yoziladi: *yakka-yu yagona*.

356-mashq. Gaplarni o'qing. Juft sifatlarni topib, ularni izohlang.

1. Kasbning katta-kichigi bo'lmaydi. (*M. Oripova*) 2. Shu payt toshdan tushib kelayotgan sarg'ish-qo'ng'ir ayiqning bahaybat gavdasi ko'rinib qoldi. (*P. Qodirov*) 3. G'ir-g'ir shabada

turli-tuman giyohlarning hidlarini olib keladi. (*Oybek*) 4. Baland-past devorlar orqasidagi mevalarning oq, pushti, qizil gullariga tabassum bilan qaraysan. (*O‘. Umarbekov*)

357-mashq. Gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘ying.

1. Shoshilish, yengil-... ishlarga havas, jahldorlik — nodonlar ishi. 2. Goho-goho keladigan uzuq-... xabarlardan boshqa aloqa yo‘q. (*O. Yoqubov*) 3. Sehrli qalpoq axtarib eski-... kiyim-boshlar tashlanadigan burchak-surchaklarni tintuv qilib yurgan edim. (*X. To‘xtaboyev*) 4. Mayda-... narsalar tugilgan ro‘molni ko‘tarib qorovulxonaga kirdi. (*N. Yoqubov*) 5. Mahallaning qora-... bolalari shoxdan shoxga tirmashadi. (*O‘. Hoshimov*)

So‘zlar: *chuyda, yuluq, yelpi, tuski, qura.*



1. Juft sifatlar deb nimaga aytiladi?
2. Juft sifatlar qanday yoziladi?
3. Juft sifatlar o‘rtasida *-u, -yu* vositalari ishlatilganda, ularning imlosida qanday o‘zgarish sodir bo‘ladi?

358-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga izoh bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. Menga o‘xshash **esli-hushli** yigitga zoriqib o‘tirgan ekan. (*X. To‘xtaboyev*) 2. Qo‘llari ketmon, o‘roq, ayri ushlayvergani-dan **g‘adir-budur**, haqiqiy dehqon edilar. (*S. Anorboyev*) 3. Ba‘zan plitka shokoladmi, **arzon-garov** qo‘g‘irchoqmi olib keladi. (*Shuhrat*) 4. Shag‘al to‘kilgan **o‘ydim-chuqur** yo‘ldan yurish it azobini bersa-da, Yigitali chidadi. (*Tohir Malik*) 5. **Alg‘ov-dalg‘ov** shamol esib turar edi. (*N. Arslonov*) 6. Shoxlar qurib, ularda **yakkam-dukkam** yaproqlargina qoladi. (*Omon Muxtor*)

TAKRORIY SIFATLAR VA ULARNING IMLOSI


Topshiriq. Berilgan so‘zlarning tuzilishini aniqlang. Ularni sodda sifatga aylantiring. Ma‘noda qanday o‘zgarish bo‘lganini ayting.

Katta-katta, yangi-yangi.

BILIB OLING. Bir asosning aynan takrorlanishidan hosil bo'lgan sifat *takroriy sifat* sanaladi. Takroriy sifatlar belgini ta'kidlab, kuchaytirib ifodalaydi. Takroriy sifat qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

359-mashq. O'qing. Takroriy sifatlarni topib, ularning ma'nolarini tushuntiring.

1. O'z onamni elas-elas xotirlayman. Ko'zlari qop-qora, chiroyli. Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi. (*O'. Hoshimov*)
 2. Qishloq obod bo'lsa, katta-katta ko'chalar tushsa, kim qarshilik qiladi. (*O'. Umarbekov*)
 3. Kimdir yelpib-yelpib barra-barra go'shtlardan kabob pishiryapti. (*X. To'xtaboyev*)
 4. Yangi-yangi ariqlar kavlab, qo'riqlar ochamiz. (*Asqad Muxtor*)

 **360-mashq.** Quyidagi takroriy sifatlar ishtirokida so'z birikmalari tuzing va ularni izohlang.

Mayda-mayda, qiziq-qiziq, lo'ppi-lo'ppi, lo'nda-lo'nda, oppoq-oppoq, yangi-yangi, shirin-shirin, achchiq-achchiq.

361-mashq. Gaplarni ko'chiring. Takroriy sifatlarni topib, ularga izoh bering.

1. Yirik-yirik tomchilar yer-u ko'kni savalay ketdi.
 2. To'p-to'p daraxtlar tag'in lipillab orqada qolib ketdi. (*O'. Hoshimov*)
 3. Ko'chani sho'x-sho'x bolalar to'ldirib o'tishdi. (*A. Qurbonov*)
 4. Sayyohlar chaqqon-chaqqon harakatlar bilan qirga ko'tarila boshlashdi. (*A. Abdusamatov*)



1. Takroriy sifatlar deb nimaga aytiladi?
2. *Oppoq, ko'm-ko'k, dum-dumaloq* kabi sifatlarning hosil bo'lishi haqida so'zlab bering.
3. Takroriy sifatlar qanday yoziladi?

362-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi sifatlarni takroriy sifatlarga aylantiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Go'zal, qalin, dag'al, uzun, yashil, dono, siyrak, g'amgin.

ASLIY VA NISBIY SIFATLAR

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarni *-roq* qoʻshimchasini oladigan, olmaydigan guruhlarga ajrating.

Mazali, goʻzal, chiroyli, roʻmolli, sermeva, erksevar, paxtali, tonggi, soʻnggi, kuzgi, chillaki, yuzaki.

2-topshiriq. Berilgan soʻzlarni *eng, juda, sal* soʻzlari bilan birika oladigan va birika olmaydigan guruhlarga ajrating.

Qora, qizil, qishki, soyaki, xushbichim, doʻppili, beor, sergʻalva, devsifat, devoriy.

BILIB OLING. Belgini toʻgʻridan toʻgʻri ifodalaydigan va uni darajalab koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻlgan sifatlار *asliy sifatlار* deyiladi: *goʻzal, chiroyli, shirin, oq, aqlli, yuzaki*. Bunday sifatlار *-roq* qoʻshimchasini qabul qiladi. Belgini toʻgʻridan toʻgʻri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlagan holda ifodalaydigan va daraja koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻlmagan sifatlار *nisbiy sifatlار* deyiladi: *qishki, koʻchma, derazali, devoriy*. Bunday sifatlار *-roq* qoʻshimchasini qabul qilmaydi.

363-mashq. Gaplarni koʻchiring. Asliy va nisbiy sifatlarning tagiga chizing, ularni izohlang.

1. Hovlimizda koʻcha eshikdan kiraverishda kichkina, gʻishtin uycha bor. (*N. Toshev*) 2. Temur yuksak insoniylik xususiyatlariga ega boʻlgan buyuk shaxs edi. (*A. Ahmedov*) 3. Uning jussasi kichkina boʻlsa ham yuzlari jiddiy, boqishlari oʻtkir, ovozi esa jarangdor. (*H. Akbarov*) 4. Yonbagʻirlarda rango-rang tovlanib, xushboʻy atrini taratayotgan gullarga nazar tashlayman. (*R. Musayev*) 5. U oltmishlarga borib qolgan boʻlsa-da, yoshlardek ikki beti qip-qizil, sergʻayrat va tavakkalchi odam edi. (*Mirkarim Osim*)

364-mashq. Sifatlarni oʻzi bogʻlangan soʻzlar bilan birga koʻchiring va ularning asliy yoki nisbiy sifat ekanligini tushuntiring.

Togʻ etaklarida koʻm-koʻk maysalar uzra nafis gullar, turli xushboʻy giyohlarning hidlari anqiydi. Daraxtlar siyrak, onda-

sonda pakana daraxtlar uchrab qoladi. Otlar balandlik, tepalikka intilib, oyoqlarini g'urur bilan chiroyli tashlaydi, boshlarini ko'rkam tutadi. Shu sayrdan, tabiatning go'zalligidan nash'a va safo tuygan bu aqlli jonivorlarning tiniq ko'zlarida xushnudlik ifodasini ko'raman. Naqadar go'zal jonivor bular.. Sevaman, ko'ngildan, chindan sevaman otlarni!.. (*Oybek*)

365-mashq. Matnni o'qing. Asliy va nisbiy sifatlarni toping. Ular nimasi bilan farqlanishini tushuntiring.

Dam olish kunlaridan biri edi. Ko'chaga chiqdim. Kech kuz bo'lsa ham, havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hamma yoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar... Go'yo ko'chaga chiqishingizni kimdir bilgan-u, yo'lingizga gilam to'shab qo'ygan.

Har yil kuzda, xazonrez paytida menga shunday tuyuladi, shuning uchun ham ko'chaga chiqaman, serdaraxt xiyobonlarni uzoq aylanaman. (*O'. Umarbekov*)



1. Asliy sifatlari deb nimaga aytiladi?
2. Nisbiy sifatlarga misollar keltiring.
3. Nisbiy sifatlarga *-roq* qo'shimchasini qo'shish mumkinmi?

366-mashq. *Uyga vazifa.* «O'zbek milliy liboslari» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan asliy va nisbiy sifatlarni izohlang.

SIFAT DARAJALARI

Topshiriq. Berilgan birikma tarkibidagi sifatlarni aniqlang. Sifatlariga *-roq* qo'shimchasi va *juda, eng* singari so'zlarni qo'shing. Ular o'rtasida qanday ma'no farqlanishi mavjudligini ayting.

Aqlli bola. Shirin ovqat. Mazali qovun.

BILIB OLING. Belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi *sifat darajalari*, ana shunday ma'no ifodalovchi shakllar esa *daraja shakllari* deyiladi.


ESDA SAQLANG. Sifatning quyidagi to'rt xil darajasi mavjud: 1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja; 4) ozaytirma daraja.

367-mashq. Sifatlarni toping, ularni asliy va nisbiy sifatlarga ajratib, darajalarini aniqlang.

1. Xalqimiz qadimdan shu zaminga kuchli mehr, yuksak madaniyat ila munosabatda bo‘lganlar. (*M. Badalov*) 2. Kampirning bu so‘zlarida cheksiz mehr, allaqanday nozik ichki bir dard bor edi. (*O. Yoqubov*) 3. Elchi o‘rnidan turib, yuzlari cho‘zinchoq, ko‘zlari katta, novchadan kelgan Siparganizga ta‘zim qildi. (*Mirkarim Osim*) 4. Kelinga ko‘zimiz tushadi: yumaloq qip-qizil loladay yuzli, ko‘zlari uchqunli, yaxshigina, go‘zalgina qiz. (*Oybek*) 5. Sadafbibi qoramag‘izdan kelgan, yuzlari yumaloq, qosh-ko‘zlari qop-qora. (*O. Yoqubov*)

368-mashq. Odil Yoqubovning «Ko‘hna dunyo» romanidan olingan parchani o‘qing, sifatlarni aniqlab, ularga izoh bering.

Beruniy uchlari jingalak, qalin moshguruch soqolini tutamlaganicha o‘yga toldi. Tokchadagi shamlar shu‘lasida uning bir-biriga tutashgan o‘siq qoshlari, cho‘zinchoq, qoramtir yuzi, chambarak qalpoqchasi tagidan bo‘rtib chiqqan do‘ng peshonasi, uzun qiyg‘ir burni — butun qiyofasi qandaydir juda shiddatli ko‘rinar, zotan, dong‘i ketgan allomalardan ko‘ra suronli janglarda toblangan lashkarboshiga o‘xshab ketardi. (*O. Yoqubov*)

 **369-mashq.** Sifatlarni aniqlab, ularga *-roq* qo‘shimchasini, *juda*, *eng*, *g‘oyatda* so‘zlarini qo‘shing, ularning gap ma‘nosiga qanday ta‘sir etayotganini aniqlang.

Bobur temuriylar sulolasining so‘nggi yirik vakili edi. U tadbirkor va jasur lashkarboshi, dono va adolatli hokim, fozil va o‘qimishli inson, ajoyib lirik shoir, ilmning turli sohalaridan yaxshigina xabardor bo‘lgan yetuk olim edi. Uning «Boburnoma» asari haligacha Sharqdagi voqeot janrining beqiyos namunasi bo‘lib kelmoqda. (*F. Sulaymonova*)



1. Oddiy darajadagi sifatlarga misollar ayting.
2. Qiyosiy darajadagi sifatlar qanday yasaladi?
3. O‘rtirma darajadagi sifatlarga misollar keltiring.

370-mashq. Uyga vazifa. O‘zbekiston Respublikasi madhiyasidagi sifatlarni daftaringizga yozing. Ularning turli darajalarini hosil qiling.

SIFATLARNING ODDIY DARAJA SHAKLI

Topshiriq. Birikmalar tarkibidagi sifatlarning qaysi daraja shaklida ekanini ayting.

Shirin olma, katta bino, toza suv.

BILIB OLING. Belgining odatdagi me'yorda ekanligini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sifat shakli *oddiy daraja shakli* deyiladi.

371-mashq. Matnni o'qing. Oddiy darajadagi sifatlarni aniqlab, ularga izoh bering.

1. Lola qizil, oq, sariq ranglarda tovlanib ochildi. (*Aziz Abdurazzoq*) 2. Maktabga qatnay boshlagandan keyin uning ko'z o'ngida yangi olam ochildi. (*O'. Hoshimov*) 3. Chakalakzor qorong'ulikda vahimali va sirli ko'rinardi. (*Yo'ldosh Sulaymon*) 4. Zamonamga sadoqatli, dili sof, toza imonman. (*Qodir Dehqon*)

372-mashq. Sifatlar qatoridan oddiy darajadagi sifatlarni toping, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sariq, yam-yashil, bahavo, ulkan, juda uzun, eng baland, jasur, dangasaroq, xayolchan.

373-mashq. Matnni ko'chiring. Oddiy darajadagi sifatlarning tagiga chizing va izohlang.

Behi atirguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi o'n ikki metrga boradigan sershox daraxt. Barglari tukli, tuxumsimon yoki keng ellipssimon, bandi kalta, shoxlarda ketma-ket joylashgan.

Mevasi tukli, sariq yoki tillarang, ko'rinishi yumaloq yoki bir oz cho'ziq bo'lishi mumkin. Mevasi yetilib pishganda sershira bo'ladi. (*A. Madrahimov*)



1. Rang-tus bildiruvchi sifatlarning oddiy daraja shakliga misollar keltiring.

2. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlarning oddiy darajadagi shakllari ishtirokida gaplar tuzing.
3. *Keng, uzun, ulkan* sifatlarining qiyosiy, orttirma, ozaytirma daraja shakllarini toping.

374-mashq. *Uyga vazifa.* Anor, olma, shaftoli, uzum singari mevalarga ta'rif bering. Unda ishlatilgan sifatlarning darajasini belgilang.

SIFATLARNING ORTTIRMA DARAJA SHAKLI

1- topshiriq. Berilgan sifatlardan oldidan *eng, juda, g'oyat* so'zlarini qo'shing. Ma'noda qanday o'zgarish hosil bo'lganini ayting.

Katta, keng, qiziq, yaxshi.

BILIB OLING. Belgining me'yordan ortiq ekanligini bildirgan sifatlarning shakli *orttirma daraja shakli* deyiladi.

ESDA SAQLANG. Sifatning orttirma daraja shakli quyidagi yo'llar bilan hosil bo'ladi:

1) oddiy daraja shaklidagi sifatlardan oldidan *eng, g'oyat, juda, nihoyatda, bag'oyat* so'zlari keltiriladi: *juda qizil, g'oyat shirin.*

2) oddiy daraja shaklidagi sifatlarning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarishi bilan takrorlanadi: *bus-butun, kap-katta, to'ppa-to'g'ri.*

375-mashq. Ko'chiring. Orttirma darajadagi sifatlarni topib, ularning hosil bo'lishini tushuntiring.

1. Hamma yoq top-toza. (*O' Umarbekov*) 2. Yomg'irda cho'milgan ko'z ilg'amas ulkan bog', qizil qum sepilgan xiyobonlar, hilol va yulduz shaklidagi gulzorlar yanada go'zalroq, yanada so'limroq ko'rinardi. (*O. Yoqubov*) 3. Dunyoda eng orzumand xalq o'zbek bo'lsa ajabmas. (*Rahmon Qo'chqor*) 4. Onamning ismi Enaxon, nihoyatda ko'ngilchan, zahmatkash ayol. (*Muhammad Yusuf*)

376-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan sifatlarni ko'chiring, ularning darajasini izohlang.

Kechqurun ishdan qaytayotganimda odam bo'yi keladigan Qorboboning **ko'm-ko'k** ko'zlariga, **rango-rang** lampochkalarga mahliyo bo'lib turgan bolalarni ko'raman... To'rt-besh yoshlar chamasidagi **qizil** qalpoq kiygan bir bolagina Qorboboning dam yonib, dam o'chib turgan ko'zlaridan ko'zini uzmasdi. **Dum-dumaloq lo'ppi** yuzi, kichkina burni yodimda qoldi. **Tim qora** ko'zlari Qorboboda, ammo nazarimda, u Qorboboni ko'rmas, nimanidir o'ylardi. (*O'. Umarbekov*)

377-mashq. Gaplarni o'qing. Sifatlarni aniqlang. Orttirma darajadagi sifatlarga izoh bering.

1. Qirg'ovullar O'rta Osiyodagi eng chiroyli qushlardan biridir. (*S. Jalilov*) 2. Olimlarning aniqlashicha, eng olis yulduzgacha bo'lgan masofa 160 ming yorug'lik yiliga teng ekan. (*Matbuotdan*) 3. Dunyoda eng bebaho, ammo benazir tarqatiladigan xazina bor. Bu ona mehri. (*O'. Hoshimov*) 4. Insonning hayot yo'li g'oyat murakkab va ko'p qirralidir. (*Z. Isamuhammedov*) 5. Salqin, juda mazali buloq suvini ichganingiz sari ichgingiz kelaveradi. (*N. Usmonova*)



1. Sifatlarning orttirma darajasi qanday hosil qilinadi?
2. *To'g'ri, a'lo, ulkan* so'zlariga *eng, juda, g'oyatda* so'zlarini qo'shing.

378-mashq. Uyg'a vazifa. Gaplarni ko'chiring. Orttirma darajadagi sifatlarning tagiga chizing.

1. Ish juda nozik, g'oyatda qo'rqinchli edi. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Hovli ham, uy ham bo'm-bo'sh, hamma yoq suv quygandek jimjit edi. (*O. Yoqubov*) 3. Bog' juda katta, bir gektarcha keladi. (*X. To'xtaboyev*) 4. To'rda o'tirgan oppoq soqolli, kulcha yuzi qip-qizil, o'tkir ko'zli bir chol tomog'ini qirib gap boshladi. (*Mirkarim Osim*) 5. O'ng tomonda, jar boshida pastakkina kichkina bir uydan shovqin eshitiladi. (*Oybek*) 6. Qor tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi. (*J. Razzoqov*)

SIFATLARNING QIYOSIY DARAJA SHAKLI

Topshiriq. Berilgan soʻzlarga *-roq* qoʻshimchasini qoʻshing. Maʼnoda qanday oʻzgarish boʻlganini ayting.

Mazali, hashamatli, kalta, baland, past.

BILIB OLING. Belgining meʼyordan biroz oz yoki koʻp ekanligini qiyosan ifodalaydigan sifat shakli *qiyosiy daraja shakli* deyiladi. Qiyosiy daraja shakli *-roq* qoʻshimchasi yordamida yasaladi.

379-mashq. Gaplarni oʻqing. Qiyosiy darajadagi sifatlarni aniqlang va izohlang.

1. Boʻyi mendan kattarogʻ-u, oʻzi sap-sariq. (*Oʻ. Hoshimov*)
 2. Aftidan, ovozim ham hozirgidan jarangdorrogʻ edi, shekilli, koʻpgina yigʻinlarda sheʼr oʻqish menga topshirilar edi. (*Turob Toʻla*)
 3. Bilmadim... oqshommi goʻzalrogʻ, tongmi?!. Bir-biridan goʻzal, bir-biridan fusunkor. (*Oybek*)
 4. Tilimiz dagʻalrogʻ, lekin juda boy, rangli, ohori toʻkilmagan ertak, doston va qoʻshiq koʻp. (*Mirtemir*)
 5. Uning nazarida bundan suyumlirogʻ, bundan ham zavqlirogʻ va shavqlirogʻ ish yoʻq edi. (*N. Fozilov*)

380-mashq. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga *-roq* qoʻshimchasini qoʻshing, soʻz maʼnosiga qanday taʼsir qilishini aniqlang.

1. Bizning Shahlo oʻzi kichkina boʻlsa ham, ancha **ziyrak** qiz. (*Mirmuhsin*)
 2. Xoltoy **yaxshi** bola chiqdi. Hatto uning qoʻni-qoʻshnilari ham bunga tan berishadi. (*R. Azizxoʻjayev*)
 3. Atrofda **goʻzal** va **ajoyib** gullar oʻsar edi. (*Ertakdan*)
 4. Baxtiyorning **shalpangquloq**, **jajji** kuchukchasi bor. (*A. Joʻrayev*)
 5. **Chuqur** va **xayolchan** koʻzlarida **sirli** va **sehrli** bir holat aks etadi. (*Omon Muxtor*)

381-mashq. Berilgan gaplardagi sifatlarning qaysi darajada ekanligini ayting.

1. Agar birorta kichikroq baliq suv yuziga suzib chiqsa, mushuk bir hamla bilan ushlab olar ekan. (*Aziz Abdurazzoq*)
 2. Dunyoda do'stlikdan afzalroq, yoqimliroq narsa yo'q. (*Sitse-ron*)
 3. Go'zallikdan ezgulik yaxshiroqdir. (*H. Hayne*)
 4. Dunyoda johillikdan dahshatliroq narsa yo'q. (*Hyote*)
 5. Insonning aqli mushtidan ko'ra kuchliroqdir. (*F. Rable*)
 6. Nomus jondan ham qimmatliroq. (*F. Shiller*)



1. Sifatlarning qiyosiy darajasi qanday hosil qilinadi?
2. *Kichkina, zangori, nordon* so'zlariga *-roq* qo'shimchasini qo'shing va ma'noda ro'y berayotgan o'zgarishni izohlang.

382-mashq. Uyga vazifa. «So'z ko'rki — maqol» mavzusida bog'lanishli matn tuzing. Unda ishlatilgan sifatlarni tahlil qiling.

SIFATLARNING OZAYTIRMA SHAKLI

1-topshiriq. Berilgan juftliklardagi *juda, sal* so'zlari qo'shilgan sifatlarning ma'no jihatidan qanday farqlanishini ayting.

1. Juda shirin — sal shirin.
2. Juda sovuq — sal sovuq.

2-topshiriq. Shunday juftliklar qatorini davom ettiring.

BILIB OLING. Belgining me'yordan kam ekanligini bildiruvchi shakl sifatning *ozaytirma daraja shakli* hisoblanadi. Ozaytirma shakl sifatning oddiy daraja shakli oldiga *sal, biroz, picha, xiyla, nim* so'zlarini qo'shish orqali hosil qilinadi.

Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlardan *-(i)mtir, -ish* qo'shimchalari yordamida ham ozaytirma daraja shakli yasaladi.

383-mashq. Gaplarni o'qing. Ozaytirma daraja shaklidagi sifatlarni topib, ularning yasalishini tushuntirib bering.

1. Gulzorga to'kilgan bulturgi xazon ilma-teshik bo'lib, jiggarrang tus olgan. (*O'. Hoshimov*)
 2. Shamning qizg'ish shu'lasini kulbaga fayz berib turar edi. (*G'afur G'ulom*)
 3. Maxsum kichki-

nagina, ozg'in, siyrak soqoli-yu qop-qora yuzidan yoshini chama-lab bo'lmaydigan bir odam edi. (*Abdulla Qahhor*) 4. Shunda ulg'aydi bo'yi, Ko'ring bo'ldi yigitcha. Vazmin, tiyrak, chaqnoq ko'z, Sarg'ish soch-u oppoq yuz. (*Po'lat Mo'min*)

384-mashq. Ko'chiring. Ozaytirma daraja shaklidagi sifatlarning tagiga chizing.

1. U duduq, xiylagina duduq bo'lishiga qaramay sho'x, xushchaqchaq, yaxshigina askiya ham qilar ekan. (*Abdulla Qahhor*) 2. Xira yorug' ichkariga to'kiladi, gugurtcho'p alanga olib Olim Qodirovning kulcha, oqish yuzlarini, quyuq kipriklari va bezovta chaqnayotgan ko'zlarini bir zum yoritib, asta-asta pasayib o'chadi. (*N. Tilabov*) 3. Kalishlarni kiyib olaman. – Sag'al katta-ku!— deyman sevinganimdan entikib. (*Oybek*) 4. Qoramtir osmon asta-sekin yorisha boshladi. (*Ertakdan*)



1. Sifatlarning ozaytirma daraja shakli deb nimaga aytiladi?
2. *-(i)mtir, -ish* qo'shimchalari yordamida ozaytirma sifatlarni yasang.

385-mashq. *Uyga vazifa.* «Gulzorda» mavzusida matn tuzing. Unda sifatlarning ozaytirma daraja shaklidan foydalaning.

SIFATLARNING MA'NO GURUHLARI

1-topshiriq. Berilgan sifatlarni ma'nolariga ko'ra quyidagi jadval bo'yicha guruhlang.

Shirin, qizil, katta, odobli, xushfe'l, behisob, tonggi, kuzgi, xushbo'y, muattar.

Xususiyat bildiruvchi sifatlarni	Rang-tus bildiruvchi sifatlarni	Maza-ta'm bildiruvchi sifatlarni	Hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlarni	Hid bildiruvchi sifatlarni	Makonzamon belgisini bildiruvchi sifatlarni

2-topshiriq. Yuqoridagi sifatlarning qanday so‘roqlarga javob bo‘lishini aniqlang.

BILIB OLING. Sifatlar qanday belgini ifodalashiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1) xususiyat sifatlari; 2) rang-tus sifatlari; 3) maza-ta‘m sifatlari; 4) hajm-o‘lchov sifatlari; 5) hid bildiruvchi sifatlari; 6) makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatlari.

386-mashq. Matnni o‘qing. Sifatlarni topib, ularning ma‘no guruhlarini aniqlang.

1. Qiz bo‘lgan voqeani to‘la aytib berdi. Ishonmay desalar, oldilarida bir talay xushbo‘y, ko‘m-ko‘k bo‘tako‘z gullar turibdi. Ulardan mart oyining isi kelardi.

— Baxting ochilib, o‘n ikki oyning hammasi bilan birvarakayiga uchrashibsan-u, guldand bo‘lak hech narsa so‘ramabsand. Men ... bittasidan oppoq qo‘ziqorin, yana bittasidan barra bodring so‘ragan bo‘lardim. (*Ertakdan*) 2. Bir kuni ninachilarning nafarmon, yashil, zangori, malla tuslarini uyga keltirib, otamga maqtandim. (*Murod Xidir*)

387-mashq. Matnni o‘qib, sifatlarni aniqlang. Ularni ma‘no guruhlariga ajrating.

Bir cholning to‘rtta navqiron o‘g‘li bor ekan. Bir kuni chol:

— Men qarib qoldim. Ichingizdan kim aqlli va davlatmand bo‘lsa, menga merosxo‘r bo‘ladi,— debdi.

Eng katta o‘g‘il qizil yoqut ko‘zli oltin uzugini, ikkinchi o‘g‘il zarbof choponini, uchinchisi bebaho kamarini ko‘rsatib maqtanibdi.

Chol indamay turgan kenja o‘g‘ilga qarabdi.

— Menda bunday boyliklar yo‘q, lekin mehnatkash qo‘lim, botir yuragim, aqlli boshim bor, — debdi u.

Uning javobi cholga yoqibdi. Kenja o‘g‘ilga bor merosini qoldirishini aytibdi. (*Rivoyat*)

388-mashq. Uch guruhga bo‘lining. Birinchi guruh rang-tus, ikkinchi guruh hajm-o‘lchov, uchinchi guruh maza-ta‘m sifatlariga misollar keltirsin.



1. Xususiyat bildiruvchi sifatlarga misol ayting.
2. Rang-tus sifatlari qaysilar?
3. Maza-ta‘mni bildiruvchi sifatlarga qaysilar kiradi?
4. Hajm-o‘lchovni bildiruvchi sifatlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

389-mashq. Uyga vazifa. Yaqin o‘rtog‘ingizga tavsif bering. Unda ishlatilgan sifatlarning ma‘no guruhlarini aniqlang.

XUSUSIYAT, HAJM-O‘LCHOV, MAKON-ZAMON SIFATLARI

Topshiriq. Berilgan sifatlarning qanday belgini bildirishini ayting.

Kamtar, egri, qadimgi, yozgi, ichki, keng, tor, quvnoq, chopag‘on.

BILIB OLING. Narsalarning turli xususiyat-hoлатlarini bildirgan sifatlarni *xususiyat sifatlari*, hajmi, vazni, o‘lchovi va shaklini bildirgan sifatlarni *hajm-o‘lchov sifatlari*, o‘rin va vaqtga nisbatan belgilarini bildirgan sifatlarni *makon-zamon sifatlari* deyiladi.

390-mashq. Berilgan sifatlarning qanday belgi ifodalashini va sifatlarning qaysi ma‘no guruhiga mansubligini aniqlang.

Uzun, qisqa, keng, baland, tungi, xursand, quvnoq, g‘amgin, sho‘x, kamtar, bulturgi, qishki, kechki, kuzgi.

391-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan sifatlardan mosini qo‘yib, ko‘chiring va ularga izoh bering.

Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug‘orayotgan edim, ... «Moskvich» kelib to‘xtadi. Mashina eshigi ochilib, ... gavdali yigit tushib keldi, taniy olmadim.

— Hormang, dehqonchilik zo‘r-ku! — dedi ... yigit do‘rillagan ovoz bilan.


Shunda hayratdan baqirib yubordim:

— Iya, Toymisan?

Ha, xuddi o‘sha Toyning o‘zi. Faqat shuncha bo‘y, bunaqa ... qo‘l-oyoqlarni qayoqdan oldi ekan?

— Poshsha oyimlarni ko‘rgani keldim! — dedi ... qomatiga uncha mos kelmaydigan alpozda muloyim jilmayib. (*O‘. Hoshimov*)

So‘zlar: *katta, notanish, bahaybat, yap-yangi, zabardast, uzun.*

 **392-mashq.** O‘qing. Sifatlarni aniqlang, ularni xususiyat, hajm-o‘lchov, makon-zamon sifatlariga ajrating.

1. Oftob o‘chyapti. Ko‘m-ko‘k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek lovullardi. (*Said Ahmad*) 2. Hovli tor, devorlari baland, xuddi kattakon hovuzga o‘xshar, buning ham to‘rtidan birini ayvon egallagan edi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Yozgi harakat — kuzgi barakat. (*Maqol*) 4. Hoji bobo har gapga bir maqol o‘qiydigan ezmaroq tabiatli kishi bo‘lsa ham, qo‘li anchagina ochiq, xususan, hisobga no‘noqroq odam edi. (*G‘afur G‘ulom*) 5. Usta qarigina, burni cho‘tirroq, juda so‘zamol, mahmadona kishi. (*Oybek*) 6. U juda dono qiz, Navoiy, Mashrab, Hofizlarni mayin, yoqimli ovozi bilan, chiroyli ohang berib juda ravon o‘qiydi. (*Oybek*) 7. Donishmand chol naq yuz qovun pishig‘ini ko‘rgan bo‘lsada, hamon hushyor va ziyrak, serfahm va zukko edi. (*Murod Xidir*)



1. Xususiyat sifatleri ishtirokida gaplar tuzing.
2. Hajm-o‘lchov sifatlariga misollar keltiring.
3. Makon-zamon sifatlarini izohlang.

393-mashq. Uyga vazifa. O‘z qishlog‘ingiz (mahallangiz)ni ta‘riflang. Unda xususiyat, hajm-o‘lchov, makon-zamon sifatlaridan foydalaning.

RANG-TUS, MAZA-TA'M VA HID BILDIRUVCHI SIFATLAR

Topshiriq. Qanday rang-tus, maza-ta'm va hid bildiruvchi so'zlarni bilasiz? Ularni otlar bilan bog'lab, birikmalar tuzing.

BILIB OLING. Narsalarning rang-tusini bildirgan sifatlar *rang-tus sifatlari*, maza-ta'mini bildirgan sifatlar *maza-ta'm sifatlari*, hidini bildirgan sifatlar *hid sifatlari* deyiladi.

394-mashq. Matni o'qing. Maza-ta'm va hid bildiruvchi sifatlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozing.

1. Qaymoq bozoriga kirib, u kosadan yalab ko'rib, «achchiq» deb, bu kosadan yalab ko'rib, «suyuq» deb yursam, bir burchakda Ubay o'tiribdi. (*G'afur G'ulom*) 2. Elmurod chaynaganini yutib, nonga tikilib qoldi. Juda shirin. Bu qanday non o'zi? (*Parida Tursun*) 3. Lobarxon oyoqlarida zo'rg'a tursa ham, nur ko'rganidanmi yo dimog'ini qitiqlayotgan yoqimli hiddanmi, har qalay, tinmay jilmayar edi. (*Mirzakalon Ismoilii*) 4. Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak. (*S. Mardiyev*) 5. Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar. (*Qodir Dehqon*)

395-mashq. Gaplarni ko'chiring. Rang-tus sifatlarining tagiga chizing.

1. Sap-sariq oltinday cho'girilar, ko'k beqasam to'n kiyishib yotgan ananaslarni yegani ko'zingiz qiymaydi. (*O'. Umarbekov*) 2. Mamat olachipor, yashil tepalikdan pastlikka tomon yayov kelmoqda. (*A. Qosimov*) 3. Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi. Suvning etagi ko'k bilan birlashib ketgan. (*G'afur G'ulom*) 4. Samoning bulutlar siyrak, zangorisimon sahnida ham to'lishmagan qandaydir beshakl oy xira, rangsiz yiltiradi. (*Oybek*) 5. Bahor keldi. Maktab sahnidagi o'riklarni oq, pushti gullar bilan bezadi. (*Parida Tursun*) 6. Yo'llarimda zangori ko'llar, oyna kabi tiniq va bejon. (*Usmon Nosir*)



1. Rang-tus sifatlariga misollar keltiring.
2. Maza-ta'm sifatleri qaysilar?
3. Hid bildiruvchi sifatlarga misollar ayting.

396-mashq. *Uyga vazifa.* *Oppoq, qora, tuzsiz, taxir, badbo'y* sifatleri ishtirokida gaplar tuzing.

SIFATLARNING OTLASHUVI

1-topshiriq. Ko'chiring. Sifatlarning gap tarkibida qanday so'roqlarga javob bo'layotganini aniqlang.

1. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan — dog'. (*Maqol*)
2. Ilg'orlarga mukofotlar topshirildi.

2-topshiriq. O'qing. Sifat bog'langan otlarni tushirib, gaplarni ko'chiring. Sifat vazifasida qanday o'zgarish bo'lganini ayting.


1. Sinfimizda a'lochi o'quvchilar soni tobora ortib bormoqda.
2. Keksa kishilar katta hayotiy tajribaga ega bo'ladilar.
3. Oramizda bilimdon o'quvchilar ko'p.
4. Dangasa odamning bahonasi ko'p.

BILIB OLING. Sifat bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qoladi. Bunday vaqtda uning ma'nosi ham sifatga yuklanadi. Natijada sifat otlashib, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'ladi va ot bajargan sintaktik vazifalarda keladi.

397-mashq. Otlashgan sifatleri aniqlang. Ularning gapdagi vazifalarini belgilang.

1. Yoshroqlari olovga yaqinroq, keksalari bo'lsa, olovdan uzoqroq o'tirishar edi. (*Ertakdan*)
2. Dono, aqllilar hech qachon yo'ldan adashmaydi. («*Odobnoma*»)
3. Endi senlar o'qib, oq-qorani taninglar, — deydi Xoliyor amaki. — Hozir dunyo ilimli odamlarniki. (*N. Tilabov*)
4. Bilimli biladi bilim hurmatin, Bilimsiz ne bilgay bilim qiymatin. (*Yusuf Xos Hojib*)
5. Yomon-u yax-

shini xulqidin anglag‘il, Yomonni yomon, yaxshini yaxshi bil.
(*Navoiy*)

 **398-mashq.** *Egri, to‘g‘ri, katta, kichik, oq, qora, dono, nodon* so‘zlari ishtirokida gap tuzish bo‘yicha musobaqa o‘tkazing. Sifatlar gapda otlashib kelsin.

N a m u n a: 1-guruh: *To‘g‘ri o‘zadi, egri to‘zadi.* 2-guruh: *To‘g‘rining gapi sariyog‘, egrining gapi to‘mtoq.*

399-mashq. Maqollardagi otlashgan sifatlarni aniqlang. O‘zingiz ham shunday maqollarga misollar ayting.

1. Yomonning bir qilig‘i ortiq. 2. Dono —durdan a‘lo.
3. Baxilning qo‘lida oy bo‘lsa, olamni yoritmas. 4. Kattaga katta bo‘l, kichikka — kichik. 5. Hunarli o‘lmas, hunarsiz kun ko‘rmas.
6. Achchiqni achchiq kesar.



1. Sifatlar qachon otlashadi?
2. Sifatlar otlashganda qaysi qo‘shimchalarni oladi?
3. Otlashgan sifatlarning gapdagi vazifasi haqida so‘zlang.

400-mashq. *Uyga vazifa.* Tarkibida otlashib kelgan sifatlar bo‘lgan hikmatli so‘z, maqol va matallardan namunalar yozing.

MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Sifatlarni topib, jadvalga joylashing.

Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftob tushirmaydigan qari tut barglari sarg‘aya boshlagan...

Shu tut tagida oppoq bir it supurgi ustida uxlab yotibdi. Kichkinagina belida belbog‘dek ikkita — biri qora, biri jigarrang chizig‘i bor. Xuddi kimdir ataylab bo‘yab qo‘yganga o‘xshab ko‘rinadi. Tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora. Bir ko‘zining tepasida to‘mtoq qoshi ham bor. (*Said Ahmad*)

Sodda sifat	Qo'shma sifat

2-topshiriq. Matnni o'qing, sifatlarni aniqlang. Bahorni tasvir-lab matn tuzing, ularda sifatlardan foydalaning.

Ko'k yuzida pag'a bulut — oq bulut,
Oq bulutdan sut yog'armi yoki qut?
Pag'a bulut — yaxshi ko'klam elchisi,
Havolarda yomg'ir isi, sel isi...

(*Mirtemir*)

3-topshiriq. Yozing, gapdagi sifatlarni topib, ularni izohlang.

1. Oftob balandroq ko'tarildi-yu, bulutlar tarqab, tog'larda ham havo ochilib ketdi. 2. Cho'qqilar avvalgidan ham oqroq va silliqroq ko'rinadi. 3. Oyko'l qishlog'ida na ko'l bor, na kattaroq ariq. 4. Oqlangan maktab binosi oydinga ko'kishroq ko'rinadi. 5. Kuy ta'sirida tog'lar avvalgidan azizroq va ulug'vorroq ko'rinib ketdi. (*P. Qodirov*)

4-topshiriq. Oddiy, qiyosiy, orttirma darajadagi sifatlarga misollar keltiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

5-topshiriq. *Kitob, quyosh, bog', suv, ona, do'st* so'zlariga eng ko'p sifat topish bo'yicha «Topqirlar» musobaqasini uyushtiring.

Na m u n a : kitob: o'qishli, qiziqarli, muqovali, zerikarli, qadimgi, ilmiy, tarixiy...

6-topshiriq. Uyga vazifa. Sifatlar ishtirokida «Osmonimiz ha-misha beg'ubor bo'lsin» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan sifatlarning ma'no guruhlarini aytib bering.

SON

1-topshiriq. Birdan o'ngacha bo'lgan sonlar ishtirokida birik-malar tuzing.

2-topshiriq. Sanoq bildiruvchi so'zlarning qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting.

BILIB OLING. Narsalarning son-sanog‘i va tartibini bildirib, «qancha?», «necha?», «nechanchi?» so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar son deyiladi.

401-mashq. Matnni o‘qing. Sonlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga ko‘chiring va qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlang.

Choy odamlarga juda qadimdan ma‘lum. Kishilar choyni dastlab dori o‘rnidagina iste‘mol qilishgan. Bundan besh ming yil muqaddam yozib qoldirilgan qo‘lyozmalardan birida: «Choy kishining ruhini ko‘taradi, yurakning ishini muloyimlashtiradi, hordiq chiqaradi, tanani tozalaydi va zehnni ravshanlashtiradi», — deyilgan.

Hozirgi vaqtda bir yilda dunyo bo‘yicha taxminan sakkiz yuz ming tonnadan bir million tonnagacha choy yetishtiriladi, shuning uchdan bir qismi Hindistonga to‘g‘ri keladi.

Rossiyaga dastlab Mongoliyadan 1638-yilda dori sifatida choy yuborilgan. 1833-yili Qrimda, 1846-yili Gruziyada tajriba uchun choy ekilgan... («Qiziqarli geografiya»dan)

402-mashq. Berilgan gaplardagi sonlarni aniqlang, ularning shakliga e‘tibor bering.

1. Ikki soatlar eshakda yurib, tog‘dan tog‘ga o‘tib andak toliqqan edim. (*I. G‘afurov*) 2. Yetimlik nimadir, bizlardan so‘ra, O‘ninchi yillarning sargardonligi... Isitma aralash qo‘rqinch tush kabi Xayol ko‘zqusidan o‘chmaydi sira. (*G‘afur G‘ulom*) 3. Globusda bo‘lgan har kichik nuqta, Millionlab qondoshga vatan, albatta. (*G‘afur G‘ulom*) 4. Beruniy Amerika qit‘asining borligini Kolumbdan 450 yil avval taxminlagan. (*Asqad Muxtor*)



1. Son deb nimaga aytiladi?
2. Sonlar qanday yoziladi?
3. 156, 1005, 174536 sonlarini harf bilan yozing va imlosini tushuntirib bering.

403-mashq. Uyga vazifa. O‘zingizning tarjimai holingizni yozing va unda ishlatilgan sonlarni izohlang.

SONLARNING MA'NO GURUHLARI

Topshiriq. Berilgan sonlarni ma'nosiga ko'ra miqdor sonlar va tartib sonlarga bo'ling.

Bir, o'nta, o'ndan bir, ikki yarim, o'ninchi, birinchi, beshtacha, ikkinchi, uchala.

BILIB OLING. Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarining miqdori yoki tartibini bildiradi. Shunga ko'ra sonlar ikki guruhga bo'linadi: 1) miqdor sonlar; 2) tartib sonlar.

Topshiriq. Berilgan sonlarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

O'n, besh, uchta, yuztacha, uchovi, ikkitadan, uchdan bir.

Sanoq son	Dona son	Chama son	Jamlovchi son	Taqsim son	Kasr son

BILIB OLING. Miqdor sonlar qanday miqdorni bildirishiga ko'ra *sanoq, dona, chama, taqsim, jamlovchi, kasr* sonlarga bo'linadi.

404-mashq. Gaplarda ishtirok etgan sonlarni taqqoslang. Ularning farqini tushuntiring.

1. Nihoyat, butunlay holdan toyib, ikkovining qimirlashga ham majoli qolmay, taxtaday qotib turaverishibdi. (*Ertakdan*)
 2. Qulupnayning mevasi naviga qarab, uchtdan saksontagacha bo'lishi ham mumkin. (*M. Nabiyev*)
 3. Besh-oltita tinish belgi kelib bugun, o'tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig'in. (*Sulton Jo'ra*)

405-mashq. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan sonlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.


1. Shaharda ... doktorxona bor (*Abdulla Qahhor*)
 2. Shu yaqinda o'tib ketayotgan ... ovchi ularni ko'rib, behad sevini-

shibdi va urishqoqni aravaga ortib ketishibdi. («Ikki bug‘u» ertagidan) 3. Biz Turkiston tizma tog‘ining etagida, shahardan ... chaqirim naridagi kichkina qishloqda, turar edik. (*Po‘lat Mo‘min*) 4. Bu yerlarga egalik huquqini qo‘lga kiritganimizning ... yili o‘tib bormoqda edi. (*Fenimor Kuper*) 5. Ruqsat bersangiz, oilamiz haqida ham ... og‘iz so‘zlab o‘tsam. (*X. To‘xtaboyev*) 6. ... eksang, ... o‘rasan. (*Maqol*)

Sonlar: *birni, o‘nni, yigirma besh, ikki-uch, ikkala, birinchi, bitta.*

406-mashq. Boshqotirma. Kataklarga tegishli sonlarni to‘g‘ri joylashtirsangiz, o‘rtadagi ustunchada to‘qqiz so‘zi hosil bo‘ladi.

1. Uchinchi o‘nlik
2. Birinchi o‘nlik
3. To‘rtinchi o‘nlik
4. To‘qqizinchi o‘nlik
5. O‘nlikning ikkinchi soni
6. Yuzlik son



1. Miqdor va tartib sonlarning o‘zaro farqini ayting. Miqdor sonlar qanday turlarga bo‘linadi?
2. *Beshtadan, bir yarim, oltovlon, ikkita* sonlarining ma’no turlarini ayting va ular ishtirokida gaplar tuzing.

407-mashq. Uyga vazifa. Avval miqdor sonlarni, keyin tartib sonlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga ko‘chiring.

1. Birinchi bor kelganimda Yetti yoshdaydim u choq. Boshqalarga ochgan kabi Ochding menga ham quchoq. O‘z bag‘ringda ulg‘aytirding, Hozir kirdim o‘n to‘rtga. (*Po‘lat Mo‘min*)
2. Birinchi badiiy asarim — «To‘rt maktub» hikoyasi edi. (*O‘. Hoshimov*)
3. Rosa o‘n olti yil «Toshkent oqshomi» gazetasida bo‘lim mudiri bo‘lib ishladim. (*O‘. Hoshimov*)
4. Ikki she‘r daftarning ikki betida, Bir yonda — aruziy, Bir yonda — barmoq. (*E. Vohidov*)

SANOQ SON

1-topshiriq. Birdan o'ngacha va o'n birdan to'qson to'qqizga qadar sanang. O'n birdan to'qson to'qqizga qadar bo'lgan sonlarning qanday hosil bo'lganini tushuntiring.

2-topshiriq. O'nlik va yuzlik sonlarni harflar bilan yozing. Yuzlik sonlarning yozilishini tushuntiring.

BILIB OLING. Son-sanoqni bildiruvchi sonlar *sanoq sonlar* deyiladi. Sanoq sonlar yozuvda, ko'pincha, arab raqami bilan yoziladi.

408-mashq. Sanoq sonlar ishtirok etgan gaplarni ko'chirib yozing.

1. Bolalar davrani ikki aylandi, qo'l berib ko'rishishdi. (*Tog'ay Murod*) 2. Oqibat ikkovi-da baravar yiqildi. (*Tog'ay Murod*). 3. Uning mo'ljali besh-olti kilometr yurib qaytish edi, biroq yangi mashina, to'g'ri va ravon asfalt yo'l havasini keltirdi-yu, rayon markaziga tushib chiqishga qaror berdi. (*Abdulla Qahhor*) 4. Ahmadjon chaqiriq qog'ozini yana bir marta o'qib chiqdi, keyin uni ikki buklab, ko'krak cho'ntagiga solib qo'ydi. (*Oydin*) 5. To'tiniso hovlini sotib, ikki yetimni o'z qishlog'i Rafqonga olib ketdi. (*Abdulla Qahhor*) 6. To'nimning etaklarini yig'ishtirib, Qashqamga bir-ikki qamchi bergan edim, jonivor shataloq otib ketdi. (*Abdulla Qodiriy*)

409-mashq. Sonlar qatnashgan topishmoqlarni bilasizmi? Ularni daftaringizga yozing.

410-mashq. Berilgan gaplardagi sanoq sonlarni toping.

1. Yetti o'lchab, bir kes. (*Maqol*) 2. Qishpolvon o'z vazifasin uch oy ichra o'tarkan, Xizmat qilish navbat bilan Bahoroyga o'tarkan. (*Po'lat Mo'min*) 3. Kuzatishimcha, odamlar gapirayotgan gapning, taxminan, yetmish-sakson foizi ortiqcha ekan. (*Asqad Muxtor*) 4. Ular yana besh qadam bosishgach, o'ra

labiga kelishdi. (*Tohir Malik*) 5. Bu sopol ko‘za-chi, so‘zimga ishon, Sodiq xizmat qildi ming yil odamga. (*Qodir Dehqon*)



1. Sanoq sonlar nimani bildiradi va ular qanday ifodalanadi?
2. Yuzlik sonlar qanday hosil qilinadi?

411-mashq. *Uyga vazifa.* «Ko‘chat ekib, bog‘ yarating» mavzusida matn tuzing. Matnda sanoq sonlardan foydalaning.

DONA SON, UNING YASALISHI

1-topshiriq. Quyidagi sonlarga *-ta* qo‘shimchasi, *dona*, *nafar*, *bosh*, *tup*, *bog‘* so‘zlarini qo‘shib, birikmalar tuzing.

Olti, besh, uch, o‘ttiz, ellik, yetmish.

BILIB OLING. Narsalarning miqdorini donalab ifodalaydigan sonlar *dona son* deyiladi. Ular *-ta* qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi.

Donalash ma‘nosi *-ta* qo‘shimchasidan tashqari *dona* so‘zi bilan ham ifodalanadi.

Narsalarning turini ta‘kidlash uchun *bosh* (hayvonlar), *nafar* (shaxslar), *tup* (o‘simliklar), *litr* (suyuqlik), *gramm* (og‘irlik) kabi so‘zlar ham ishlatiladi.

412-mashq. Gaplarni yozing. Sonlar qanday hosil qilinayotganini tushuntirib bering.

1. Kecha tog‘ang berib ketgan zog‘oradan ikkitasini olib qo‘yganman, birgalashib choy ichamiz. 2. Nafis chayqaladi bir tup na‘matak Yuksakda shamolning belanchagida, Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul, Viqor-la o‘shshaygan qoya labida. (*Oybek*) 3. Derazamning oldida bir tup O‘rik oppoq bo‘lib gulladi. (*Hamid Olimjon*) 4. Bir tup kessang, o‘n tup ek. (*Maqol*) 5. Jo‘jalardan ikkitasini kalxat oldi, qolgan ikki kam o‘ttiztasi o‘sib tovuq bo‘ldi. Sakkiztasini olib qolib, yigirmatasini

bozorga olib borib sotib, bitta ona-bola echki olib kelib, bularni ham boqa berdi. (*Ertakdan*)

413-mashq. Dona sonlarni qatnashdirib, gaplar yozing. Dona sonlarni hosil qiluvchi vositalarning tagiga chizing.

 **414-mashq.** Qavs ichidagi sonlarni kerakli shaklga solib, gaplarni ko'chiring.

1. So'ylasin Afrosiyob-u, So'ylasin O'rxun xati, Ko'hna tarix shodasida (bir) marjon, o'zbekim. (*E. Vohidov*) 2. Saidiy kelganda Murodxo'ja domla (to'rt) gina sigirni sog'ib eplamagan xotining palpiligidan koyib urishmoqda edi. (*Abdulla Qahhor*) 3. (Bir) kampir Ahmadjonni (ikki) sherigi bilan uyiga olib kirdi. (*Abdulla Qahhor*) 4. Meni qo'rqitayotgandir desam, (ikki)si chindan sudrab chiqib avtomobilga soldi. (*Abdulla Qahhor*) 5. Birinchi arava g'ildiraklariga bog'langan (uch) ot bor-u, qolgan otlardan darak yo'q. (*Mirmuhsin*)



1. Dona sonlarning yasalihi haqida gapiring.
2. *-ta* qo'shimchasi va *dona, tup, nafar, bosh* so'zlari yordamida hosil bo'lgan dona sonlar ishtirokida gaplar tuzing.

415-mashq. Uyga vazifa. Dona sonlarni qatnashdirib, «Bahorgi dala ishlari» mavzusida hikoya yozing. Dona sonlarning yasalihini tushuntirib bering.

CHAMA SON, UNING YASALISHI


Topshiriq. Berilgan sanoq sonlarga *-tacha -lab, -larcha* qo'shimchalarini qo'shing. Ma'noda qanday o'zgarish bo'lganini ayting.

Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, yuz, ming.

BILIB OLING. Narsaning miqdorini taxminlab, chamalab ko'rsatadigan sonlarga *chama son* deyiladi. Ular *-tacha, -lab, -larcha* kabi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi. Shuningdek, chama ma'nosi sonlarni juftlash yo'li bilan ham ifodalanadi: *ikki-uch, besh-olti, o'n-o'n besh.*

416-mashq. Gaplarda qatnashgan sonlarni aniqlang. Ulardan chama son shakllarini hosil qilib, o‘zi birikkan so‘z bilan ko‘chiring.

1. Bekatda o‘n odam avtobus kutib turishardi. 2. Barvasta, yoshi ellikka borib qolgan bo‘lsa ham, qomati sambitdek tik. (*X. To‘xtaboyev*) 3. Mashrab bilan Akmal esa o‘n besh-yigirma bolaga javobgar. (*O. Yoqubov*) 4. Ichkaridan yoshi yetmishlardan oshgan nuroniy bir chol chiqib kelibdi. (*N. Aminov*) 5. Shoikrom o‘n kuncha ilgari ishga ketayotib, birrov kirib ukasidan hol so‘ragan edi. (*O‘. Hoshimov*) 6. Yo‘q, uning oldida bundan besh-olti yil ilgari yarimta tana emas, katta qalb, katta hayot egasi go‘zal hayot qo‘shig‘ini kuylardi. (*O‘. Umarbekov*)

 **417-mashq.** Gaplardagi sonlarni guruhlariga ajratib, jadvalga joylashtiring.

1. Axir o‘n ikki yashar ukasini ko‘rmaysizmi, shu yoshidan uloq chopmoqchi. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Og‘zini yumganicha, ovozini ichiga yutib, bir-ikki kulib oldi u. (*X. To‘xtaboyev*) 3. Uch-to‘rt pud g‘alla ketsa ketar. Bir qop g‘alla deb, hammasidan ayrilib qolmaylik tag‘in! (*O. Yoqubov*) 4. Tarixingdir ming asrlar Ichra pinhon, o‘zbegim. Senga tengdosh Pomir-u Oqsoch Tiyonshon, o‘zbegim. (*E. Vohidov*) 5. Bayroq dastasida, stanokda, g‘ishtda ming-minglab qo‘llar taftini sezaman. (*Asqad Muxtor*)

Sanoq son	Dona son	Chama son

418-mashq. Birdan o‘ngacha bo‘lgan sanoq sonlardan chama sonlar hosil qiling va ular ishtirokida birikmalar tuzing.



1. Chama sonlarni hosil qiluvchi vositalar haqida gapirib bering.
2. Adabiyot kitobingizdan chama sonlar qatnashgan 6 ta gap topib yozing. Ularning yasalişini tushuntiring.

419-mashq. Uyga vazifa. «Ertaklar olamiga sayohat» mavzusida hikoya tuzing. Unda chama sonlardan foydalaning.

JAMLOVCHI SON, UNING YASALISHI

1-topshiriq. Berilgan sanoq sonlarga *-ala*, *-ov* qo‘shimchalarini qo‘shib ko‘chiring. Bu qo‘shimchalarni qaysi sonlarga qo‘shib bo‘lmasligini ayting. Sanoq sonlarga qo‘shilgan yuqoridagi qo‘shimchalarning qanday ma’no ifodalashini tushuntiring.

Bir, ikki, uch, besh, olti, sakkiz, o‘n.

2-topshiriq. Unli bilan tugagan *ikki*, *olti*, *yetti* sonlariga *-ala*, *-ov* qo‘shimchalari qo‘shilganda, asos qismda qanday o‘zgarish bo‘lganini aniqlang.

BILIB OLING. Narsalarning miqdorini jamlab ko‘rsatadigan sonlar *jamlovchi sonlar* deyiladi. Ular *-ov*, *-ala*, *-ovlon* kabi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi.

ESDA SAQLANG. *-ov*, *-ala* qo‘shimchalari faqat ikkidan o‘ngacha bo‘lgan sonlarga qo‘shilib, jamlik ma’nosini ifodalaydi. Bu qo‘shimchalar unli bilan tugagan sanoq sonlarga qo‘shilganda, asos qismdagi *i* unlisi tushib qoladi.

420-mashq. Avval sanoq sonli, keyin dona sonli, so‘ng chama va jamlovchi sonli gaplarni yozing.

1. Ikkovining orasida hech qanday sir yotmaydi. (*Ibrohim Rahim*) 2. Sizlar mana shu to‘qqizta xivichni birga qo‘shib sindirib ko‘ringlar-chi! (*Ertakdan*) 3. U yig‘lab, to‘rt tomonga yuguribdi. (*Ertakdan*) 3. Bunyod yetti kun kezdi. Yetti qora tun kezdi. Eng oxiri tun chog‘i Bir hid sezdi dimog‘i. (*Hamid Olimjon*) 4. Po‘lat qizga nisbatan bir yosh katta bo‘lsa ham bir-biriga yondosh bo‘lib, qadrdon qo‘shni edilar. (*Sh. Rashidov*) 5. Yuragi shuvullab, cheklanib o‘tarkan, uch-to‘rt yashar qizchaga ko‘zi tushdi. (*Oybek*) 6. Durroj ham Sherning so‘zini ma’qul ko‘rdi va shu o‘rmonda ikkovi do‘stona yashay boshladi. (*Navoiy*) 7. To‘rtko‘z bo‘lsa bizdan o‘n qadamcha ilgariroqda chopib borar, goh bizga yaqin kelib, atrofimizda o‘ynoqlar edi. (*G‘ayratiy*)

421-mashq. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan sonlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. ... tepalik orqasiga o‘tib qarasak, bir chuqurga tushib qolgan To‘rtko‘z badanidan qon oqib ingrab yotibdi. (*G‘ayratiy*)
2. Umidjon jon holatda ... qo‘li bilan boshini ushlab: «Yo‘q, kerak emas, podshoh bo‘lmayman», deya qichqirib yubordi. (*N. Aminov*)
3. Har ... mehmon: «Biz, farosatsizlarni kechiring, otaxon», deya mezbonning oyog‘iga yiqilishdi. (*N. Aminov*).
4. Hotamjon ... oyog‘ini qimirlatolmay yotardi. (*O‘. Umarbekov*)
5. ... dalaning poynagiga qarab yurdilar. (*G‘afur G‘ulom*)

Sonlar: *Ikkalamiz, uchala, ikkala, uchovlari, bir, bitta.*

422-mashq. Birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlarga *-ov, -ala* qo‘shimchalarini qo‘shib, jamlovchi sonlarni hosil qiling. Ularni qatnashtirib gaplar tuzing va yozing.



1. Jamlovchi sonlar qanday yasaladi? Ular nima uchun shunday nomlanadi?
2. Jamlovchi son yasovchi qo‘shimchalar qaysi son asoslariga qo‘shilganda, ular tarkibida o‘zgarish yuz beradi?

423-mashq. Uyga vazifa. «Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar, To‘rtovlon tugal bo‘lsa, unmaganni undirar» maqoli asosida hikoya tuzing. Unda sonlardan foydalaning.

TAQSIM SON, UNING YASALISHI

1-topshiriq. Berilgan sanoq sonlarga *-tadan* qo‘shimchasini qo‘shing. Ma‘noda qanday o‘zgarish bo‘lganini ayting.

Bir, ikki, o‘n, yuz, ming.

BILIB OLING. Narsalarning miqdorini taqsimlab ko‘rsatadigan sonlarga *taqsim son* deyiladi. Ular *-tadan* qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi.

424-mashq. Gaplarni o‘qing. Taqsim sonlarni topib, yasalişini tushuntiring.

1. Azim har yelkasiga to‘rttadan odam sig‘adigan yigit bo‘libdi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Laylak har yili uchtdan bola ochar ekan. (*Ertakdan*) 3. U bu yilgi bahorda har yuz ona qo‘ydan bir yuz yigirma bittadan qorako‘l qo‘zisi oldi. (*G‘afur G‘ulom*) 4. Eshakning ustiga ikkitadan bo‘lib mindik. (*X. To‘xtaboyev*) 5. Ular ikkitadan bo‘lib saf tortishdi.

425-mashq. Arab raqamlarida berilgan sonlarni harflar bilan yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

7—8 tadan, 15 ovi, 2 tasi, 25 tadan, 50 tadan, 3 tachasidan, 9 tadan, 1 tadan, 7 tadan.

426-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Taqsim sonlarning tagiga chizib, hosil bo‘lishini tushuntiring.

1. Men ikkoviga bittadan ezilgan shaftoli beraman. (*Oybek*) 2. Qurolsiz, navkarsiz mulla Fazliddin Ahmad Tanbalday yuz-ikki yuztdan qurolli yigitlari bor beklarga qanday bas keladi?! (*P. Qodirov*) 3. Har birining oldiga bir siqimdan mayiz, ikkitadan non, bir choynakdan choy qo‘yib chiqdim. (*M. Abdullayev*) 4. Pakana buvi tuxum olib hammamizga ikkitadan ulashib chiqdi. (*X. To‘xtaboyev*) 5. Odamlar bitta-ikkitadan bo‘lib maydonga to‘plana boshlashdi. (*A. Abdumalikov*)



1. Taqsim sonlar qanday hosil qilinadi?
2. Ular gapda qanday gap bo‘lagi vazifasini bajaradi?
3. Taqsim sonlar ishtirokida gaplar tuzing.

427-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o‘qing, sonlarni ajratib oling va ularni taqsim sonlarga aylantirib gaplar tuzing.

1. Bulbulning maqomlari, kuylari to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz emish... (*Oybek*) 2. Hamma yerim o‘ttiz yetti gektar. (*G‘afur G‘ulom*) 3. Bitta qovun kamida o‘n so‘m turadi. (*X. To‘xtaboyev*) 4. Go‘yo quyoshning botishini birinchi marta ko‘rayotgandek,

koʻzlarida hayrat aks etdi. (*N. Arslonov*) 5. Poyezddan tushgan uch-toʻrt yoʻlovchi tarqalib, bekatda Yigitalining yolgʻiz oʻzi qoldi. (*Tohir Malik*)

KASR SONLAR. ULARNING YASALISHI VA IMLOSI

Topshiriq. Oddiy va oʻnli kasrlarni avval arab raqamlari bilan, soʻngra harflar bilan yozing.

BILIB OLING. Butun miqdorning qismini ifodalovchi sonlar *kasr son* deyiladi. Butun miqdorni bildiruvchi qism koʻpincha chiqish kelishigida keladi: *oʻndan bir, uchdan ikki*.

ESDA TUTING. $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{8}$ ifodalari *ikkidan bir, toʻrtidan bir, sakkizdan bir* tarzida, shuningdek, *yarim, chorak, nimchorak* tarzida oʻqiladi.

428-mashq. Berilgan raqamlarni harflar bilan yozing. Oʻqilishiga eʼtibor bering. Kasr sonlarni ajratib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

$$1; 10; 7; 14; \frac{8}{10}, \frac{2}{5}, \frac{1}{2}$$

429-mashq. Berilgan gaplardagi kasr sonlarni aniqlang.

1. Bolalar eshklarga yem berib, oʻzlari ham oz-ozdan non yeb olishguncha yarim soatcha vaqt oʻtdi. (*O. Yoqubov*)
2. Oʻzbekiston Respublikasi maydonining qariyb beshdan toʻrt qismi tekislik, oz qismi togʻ, adir va togʻoldidan iborat. («Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi»dan)
3. Yoʻlning kengligi 10,5 metrni tashkil qiladi.
4. Rejaning uchdan ikki qismi bajarildi.

430-mashq. Quyidagi sonlar yana qanday ifodalanadi. Ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

Chorak, yarim, nimchorak, beshdan bir, uchdan ikki.

431-mashq. Kasr sonli gaplarni daftaringizga ko'chiring. Kasr sonlarning qanday ifodalanishini ayting.

1. Navro'z juda qadimiy bayramlardan, ya'ni salkam 3000 yillik tarixga ega. («*Gulxan*»dan) 2. Tanlariga sal qon yugurgan bolalar qoplarni ortib, ikki yuz qadam yurar-yurmas, uchinchi kechuvga duch kelishdi. (*O. Yoqubov*) 3. U bu xabarni eshitib, yarim kechasi otda yo'lga tushibdi. (*O'. Umarbekov*) 4. Ularning to'rtidan uch qismi o'z ahamiyatini yo'qotdi. (*U. Normatov*) 5. Birinchi kuni gazlamaning to'rtidan bir qismi, ikkinchi kuni qolgan gazlamaning beshdan bir qismi sotildi. («*Matematika*» darsligidan)



1. Kasr sonlar nimani ifodalaydi?
2. Kasr sonlarni ifodalovchi so'zlarni ayting.

432-mashq. *Uyga vazifa.* «Bozorda» mavzusida kasr sonlarni qatnashtirib, hikoya tuzing.



HISOB SO'ZLARI

Topshiriq. Berilgan birikmalarda sanoq son bilan ot o'rtasida qo'llanilgan so'zlarning qanday vazifa bajarayotganini aniqlang.

Bir hovuch suv, ikki qop un, bir xalta turshak, uch etak paxta, o'n chelak suv, bir savat non, besh chelak olma, o'n litr benzin, yuz gramm shakar, o'n metr atlas.

BILIB OLING. Sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi soʻz oʻrtasida qoʻllanilib, bu narsaning oʻlchovini bildiradigan soʻzlar *hisob soʻzlari* sanaladi.

433-mashq. Quyidagi gaplardagi hisob soʻzlarini aniqlang.

1. Ikki hafta davomida erta tongdan qorongʻi tushguncha loy tashishdi. («*Turfa rang tabiat*») 2. Nokman, serhosilman, har dona mevam 200—250 grammga boradi. (*I. Toʻxtasinov*) 3. Shu orada mezbon ikki hovuch arpa solingan togʻorachani keltirib «Eshak»ning oldiga va bir bogʻ beda keltirib, «Hoʻkiz»ning oldiga qoʻyibdi. (*N. Aminov*) 4. Umri xola bir qoʻli bilan uniqqan chit koʻylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar koʻrinib turar edi. (*Oʻ. Hoshimov*) 5. Qoʻlimda bir metr keladigan irgʻay tayoq (*P. Qodirov*) 6. Koʻrsatkich barmogʻi bilan tirnoq yuzasi burchagidagi nuqtani 3—4 daqiqa mobaynida bosib turing, shunda tish ogʻrigʻi taqqa toʻxtaydi. («*Dardingizni olay*» kitobidan)

434-mashq. *Tovoq, koʻza, etak, lahza, tomchi, hovuch* hisob soʻzlaridan mosini nuqtalar oʻrniga qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Mehnat-u mashaqqat bilan bir ... oltin yigʻanman («*Maʼrifat dargʻalari*» kitobidan) 2. Bir ... oʻzimni yoʻqotib qoʻydim (*P. Qodirov*) 3. Bundan kuniga burunga 3—4 ... tomizib tursangiz bormi, darddan butkul forigʻ boʻlasiz. («*Saodat*» jurnalidan) 4. U darrov hushini yigʻib oldi. Qoʻlini yuvdi-da, bir ... suv ichdi. (*O. Husanov*) 5. Qol, sen uchun ikki ... paxta terib beraman, — dedi (*Sh. Xolmirzayev*) 6. Ikki ... palov hash-pash deguncha yoʻq boʻldi. (*Sh. Xolmirzayev*)



1. Qanday soʻzlar hisob soʻzlari deyiladi?
2. Hisob soʻzlari necha turga boʻlinadi?
3. Masofa, vaqt va sath oʻlchovini bildiruvchi soʻzlar qaysilar? Ular yordamida birikmalar hosil qiling.

435-mashq. *Uyga vazifa.* Hisob soʻzlari ishtirokida «Sirli tabiat» mavzusida kichik hikoya tuzing.

TARTIB SONLAR

Topshiriq. Quyidagi sanoq sonlarga *-(i)nchi* qo‘shimchasini qo‘shing. Qanday ma’no ifodalanishini ayting. Qaysi holatda *-nchi*, *-inchi* qo‘shilishini tushuntiring.

Bir, ikki, uch, olti, yetti, o‘n.

BILIB OLING. Narsalarning ketma-ketlik tartibini bildiradigan sonlar *tartib sonlar* deyiladi. U *-(i)nchi* qo‘shimchasi yordamida yasaladi.

ESDA SAQLANG. Tartib sonlar arab raqami bilan yozilganda, *-(i)nchi* qo‘shimchasi o‘rnida arab raqamidan so‘ng chiziqcha yoziladi: *9-sinf, 30-dekabr*. Tartib sonlar rim raqamlari bilan ifodalanganda, chiziqcha qo‘yilmaydi.

 **436-mashq.** Sonlarni toping. Ma’no turini va imlosini tushuntiring.

1. Shoikrom uni har kuni maktabdan o‘zi olib ketar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab turar edi. (*O‘. Hoshimov*) 2. Beshinchi, oltinchi kechuvga borganda dara ancha torayib qoldi. (*O. Yoqubov*) 3. Qani, bolam, yur! Nariroqda yana bittasini yoqib qo‘yaylik. (*O. Yoqubov*) 4. Shu bog‘dagi qurigan olmalarni qo‘porib tashlab, o‘rniga 4 tup yong‘oq ekyapman, — deb javob beribdi. (*«El desa Navoiyni» kitobidan*) 5. Cho‘ponlar har kuni tunda bittadan qo‘y g‘oyib bo‘layotganini sezib qo‘lishdi. (*Ertakdan*)

437-mashq. *Oltinchi sinf, birinchi o‘qituvchim, ikkinchi qavat, uchinchi parta, beshinchi dars* birikmalarini qatnashtirib matn tuzing. Unga sarlavha qo‘ying.

438-mashq. Matnni ko‘chiring, undagi sonlarning tagiga chizing va turini aniqlang.

Girdibod qayerlarnidir yalab, qayerlardadir qum tepaliklari uyib ketibdi. Ikkinchi arava to‘nkarilib, uchinchi aravani

ancha nariga surib borib, g'ildiraklarining yarmigacha qumga ko'mib qo'yibdi. Uning ustida na xashak va na yuklar bor. Birinchi arava g'ildiraklariga bog'langan uch ot bor-u, qolgan otlardan darak yo'q. Yuz qadamcha narida qumga botib yotgan uchinchi aravaning o'ng tomonida saman yo'rg'a orqa tomonidan qumga botib, chiqa olmay unnardi. Aravaga qo'shib bo'lmaydigan begona ikki otdan tamoman darak yo'q. Olis qum tepaliklari ustida xashak qoldiqlari sochilib yotardi. Qiyshayib yotgan uchinchi aravada faqat dekcha-yu, belkurag-u ketmonlar qolibdi. (*Mir-muhsin*)



1. Asosga qachon *-inchi*, qachon *-nchi* qo'shimchasi qo'shiladi?
2. Tartib sonlar nimani anglatadi?
3. «Odobnoma»dan tartib sonlar ishtirok etgan to'rtta gap yozing. Qanday qo'shimcha yordamida yasalganini tushuntiring.

439-mashq. *Uyga vazifa.* Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida hikoya yozing. Unda sonlardan foydalaning.

MUSTAHKAMLASH

1-topshiriq. Matni o'qing. Sonlarni topib, gapdagi vazifasini aniqlang.

Bobur qo'shini Dehlidan ellik chaqirimcha shimoldagi Panipat shahriga kelib to'xtadi. Dehli sultoni Ibrohim Lo'di yuz mingga yaqin askar va bir yarim ming harbiy fil bilan Agra tomonidan yaqinlashib kelmoqda edi. Ibrohim Lo'di shu fillari va askarlari bilan bultur Dehli bo'sag'asida Olamxon, Dilovarxon va boshqa dushmanlarining qirq ming kishilik qo'shinini tormor keltirgan edi. Boburning qo'shini esa o'n ikki mingdan oshmasdi. (*P. Qodirov*)

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tegishli sonlar bilan almashiring va ularga izoh bering.

1. **Chorak** soat o'tmasdan hukmnomani eshittirdilar. (*Cho'lpon*) 2. U **yarim** metr joyga otilib borib o'tirib qoldi. (*Said Ahmad*) 3. Musayev soatiga qaradi: **o'n bir yarim**. Boyagina to'qqizdan sal oshgan edi. Dunyoda eng uzun narsa – o'y-xayol. U o'y surib ikki soatning ikki daqiqadek tez o'tib ketganini sezmay qolibdi. (*Hamid Gulom*) 4. Muhammadqodir Abdul-layev **nimchorak** finalda amerikalik bokschi bilan ringga chiqib, uni qiynchilik bilan mag'lubiyatga uchratdi. (*Matbuotdan*)

3-topshiriq. Ikki guruhga bo'ling. Birinchi guruh aytgan son ishtirokida ikkinchi guruh gap tuzsin, songa izoh bersin. O'yin galmagal davom etadi.

4-topshiriq. Uyga vazifa. *Ikkitadan, beshovi, minglab, to'qqizinchi, o'n beshta* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing. Sonlarga izoh bering.

5-topshiriq. Gaplarni o'qing. Sonlarga qavs ichida berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring. Sonning ma'no turlarini aniqlang.

1. Bitta-yarim... (*-tadan, -ta, -tacha*) so'qmoqdan boshqa yo'li yo'q. (*B.Ahmedov*) 2. Ikki... (*-ovi, -tacha, -alasi*) jim qolib o'yg'a botdilar. (*Cho'lpon*) 3. Uch yuz... (*-inchi, -ta, -tacha*) navkarni qal'ada qo'riqchilik qilish uchun qoldirdi. (*P. Qodirov*) 4. Qumri ikki... (*-dan, -inchi, -nchi*) chopiqdan so'ng ishga chiqmay qo'ydi. (*G'afur Gulom*) 5. Hindistonda ming... (*-tacha, -lab, -larcha*)-millionlab gektar yerga paxta ekilar ekan. Paxta maydonining ko'pligi jihatidan u dunyoda uch... (*-ta, -tadan, -inchi*) o'rinda turadi. (*Abdulla Qahhor*)

6-topshiriq. Quyidagi sonlarni jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Mingtacha, ellik, beshtadan, yuzlab, qirqta, yigirma, besh, uchdan bir, beshdan ikki, o'ttiztacha, to'qqiztadan, beshovi, uchalasi, o'ntadan, sakkiz, yettita, yetmishta, to'qqiz, minglab, minglarcha, o'n sakkiz, yarim.

Sanoq son	Dona son	Chama son	Jamlovchi son	Taqsim son	Kasr son

7-topshiriq. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan sonlardan mosini qo'yib ko'chiring. Sonlarning gapdagi vazifasini tushuntiring.

1. Uning oldidagi ... nok va behi daraxtlari hozir oppoq bo'lib gullab turibdi. (*P. Qodirov*) 2. Rasul samolyot derazasidan kaftdek ko'rinib turgan bu dashtni ... marta ko'rayotgani yo'q. (*O. Yoqubov*) 3. Odam hayotda iz qoldirib ...ga kirsam, yoshlikdagi kayfiyat, g'ayrat turaverar ekan. (*Abdulla Qahhor*) 4. Bir mahal qovun poliziga kelib qolibmiz. Abdullajon ... qirqmani uzib chiqdi. (*O'. Umarbekov*)

So'zlar: *besh-oltita, oltmish, birinchi.*

8-topshiriq. Sonlar bilan birgalikda ishlatilgan hisob so'zlarini toping va ularga izoh bering.

1. Faqat bir-ikki tilim handalak yedi-yu, uch-to'rt piyola choy ichdi. (*P. Qodirov*) 2. Uch-to'rt qadam narida yotgan aravani endi ko'rdi. (*O'. Hoshimov*) 3. Hali o'ngga, hali so'lga burilib, ikki soat, uch soat yo'l yurdik. (*Abdulla Qahhor*) 4. Olti sotix maydonda 2500 tup pomidor bo'ladi. (*O'. Hoshimov*) 5. Abdulla qovunchiga o'sha va'da qilingan 50 gektar yer berildi. (*O'. Umarbekov*)

9-topshiriq. Uyga vazifa. «Biz ham kichkina tadbirkormiz» mavzusida matn tuzing. Matnda ishlatilgan sonlarni izohlang.

RAVISH

1-topshiriq. Berilgan so'z birikmalaridagi belgi ifodalaydigan so'zlarni narsaning yoki harakat-holatning belgisini bildirishiga ko'ra farqlang.

Tonggi shabada, sekin yurmoq, quvonchli xabar, tez o'qimoq, a'lo kayfiyat, atayin gapirmoq.

BILIB OLING. Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, oʻrni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va «qanday?», «qachon?», «qayer (-ga, -da, -dan)?», «qancha?» singari soʻroqlarga javob boʻluvchi soʻzlar *ravish* deyiladi.

440-mashq. Matndagi ravishlarni ajrating. Ularni oʻzi bogʻlangan soʻzlar bilan birga koʻchiring.

Boʻri ovni qoʻlga kiritish ilinjida bor kuchi bilan quvar, yetib olishga tirishardi. Kiyiklar esa jon talvasasida sahroning ich-ichiga kirib borishardi.

Boʻri taʼqibi borgan sari kuchaydi. Kiyikcha toliqa boshladi. Shu sababli ancha ortda qoldi. Ota-onasi unga qaramay qochishardi. Kiyikcha ota-onasidan bir umr ajralib qolayotgandek his qildi oʻzini. Nega bunday qilishyapti? Nahotki, rahmlari kelmasa, qoldirib ketishga koʻngillari dosh bersa? Holiga achinishmasa? Hay, biroz sekinroq yursalaring-chi? Butunlay toliqib qolayozdim-ku? Oyijon, otajon! Nahotki, menga qaramay ketib qolsalaring? Picha sabr qiling, yetib olay! Tashlab ketmanglar! (S. Ravshanov)

441-mashq. Gaplarni yozing. Ravishlarning tagiga chizing. Qanday maʼno anglatayotganini tushuntiring.

1. Shu vaqt nima uchundir hamma birdan sharaqlab kulib yubordi. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Ertaga oʻrtoqlarimga toza maqtanadigan boʻldim-da. (*Gʻafur Gʻulom*) 3. Tinib-tinchimas bu chol umr boʻyi oʻz loyihalarini, chizmalarini Maʼsuma bekaga gapirib keldi, aslida u uning loyiha-yu chizmalariga aslo tushunmasdi. (*Mirmuhsin*) 4. Vladimir janoblari Namoz Pirimqul oʻgʻli ishini qabul qilib olganiga bir hafta boʻlgan boʻlsa ham uni darrov tergovga chaqirmadi. (*X. Toʻxtaboyev*)



1. Qanday soʻzlar ravish turkumiga mansub boʻladi?
2. Ravishlar sifatlardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Ravishlar ishtirokida gaplar tuzing.

442-mashq. *Uyga vazifa.* Adabiyot kitobingizdan ravishlar qatnashgan 10 ta gap yozing. Ravishlarning maʼnosini izohlang va qanday soʻroqqa javob boʻlayotganini ayting.

RAVISHLARNING YASALISHI. TUB VA YASAMA RAVISHLAR

1-topshiriq. Berilgan ravishlarni tarkibiy qismlarga ajrating.

Ertalab, yillab, do'stlarcha, qahramonona, fidokorona, taxminan, majburan.

2-topshiriq. Yuqoridagi yasovchi qo'shimchalar tagiga chizing va bu qo'shimchalar qo'shilgan asos qismning qaysi so'z turkumiga mansubligini ayting.

3-topshiriq. Berilgan ravishlarni tub va yasama ravishlar nomi ostida ikki guruhga ajrating.

Hamisha, doim, ataylab, galma-gal, oldin-ketin, birin-sirin, ustma-ust, do'stona, sekin-sekin, oz-oz, yoppasiga, noilojlikdan.

BILIB OLING. Ravishlar tub va yasama ravishlarga bo'linadi. Yasama ravishlar qo'shimchalar qo'shish, asos qismni juft va takror qo'llash yoki ikki asosni birlashtirish yo'li bilan hosil qilinadi.

Tuzilishiga ko'ra ravishlarning sodda, qo'shma, juft va takroriy turlari farqlanadi.

443-mashq. Gaplardagi ravishlarni toping va ularning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.

1. Bu voqea xuddi kechagina bo'lgandek, ammo darrov uch yil o'tibdi. (*M. Normatov*) 2. Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. (*Hamid Olimjon*) 3. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib yo'rtib ketishibdi. («*El desa Navoiyni*») 4. Keyin sal hushimni yig'ib qaragam, oyoqlarim go'yo o'zidan o'zi yurib ketyapti. (*P. Qodirov*) 5. Choyni naridan beri ichib, otxonaga yugurdim. (*Abdulla Qodiriy*) 6. Ulardan biri akamning qayerdaligini so'ragan edi, men ertalab uloqqa ketganligini aytdim. (*Abdulla Qodiriy*) 7. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan. (*O'. Hoshimov*)

444-mashq. Tub va yasama ravishlarni qatnashtirib, gaplar tuzing. Ravishlarning tagiga chizing va yasalishini tushuntiring.

445-mashq. *Mardlarcha, noiloj, qishin-yozin, asta-asta, majburan, jo‘rttaga* ravishlari ishtirokida gaplar tuzing.



1. Qanday ravishlar tub ravishlar deyiladi?
2. Yasama ravishlar qanday yasaladi?
3. Juft va takroriy ravishlarga misollar keltiring.

446- mashq. *Uyga vazifa.* «Lola saylida» mavzusida hikoya yozing. Unda ravishlardan foydalaning.

RAVISH YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

1-topshiriq. Berilgan ravishlarni tarkibiy qismlarga ajrating.

Eskicha, yangicha, o‘zicha, yillab, qahramonona, qatorasiga, erkakchasiga, saharlab, vijdonan, bolalarcha.

2-topshiriq. Yuqoridagi yasovchi qo‘shimchalarning tagiga chizing va bu qo‘shimchalar qo‘shilgan asos qismning qaysi so‘z turkumlariga mansubligini ayting.

3-topshiriq. *-cha, -lab, -larcha, -ona, -an, -chasiga* qo‘shimchalari yordamida yasalgan ravishlar qatorini tuzing.

BILIB OLING. *-cha, -lab, -larcha, -ona, -an, -chasiga* qo‘shimchalari ot, sifatga qo‘shilib ravish yasaydi.

447-mashq. Berilgan so‘zlarni hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin yoki mumkin emasligini ayting.

Tubdan, to‘satdan, qo‘qqisdan, rostdan, birdan, kechalari, avvallari, so‘ngra, kechasi, jo‘rttaga.

ESDA SAQLANG. Bu kabi ravishlarda *-dan, -ga, -da* kelishik, *-(s)i* egalik qo‘shimchalari asos qism bilan mustahkam birikib, hozirgi kunda ajralmas holga kelgan.

◆ **448-mashq.** Ko'chiring. Ravishlarning tagiga chizing.

1. ... Garchi bu hol ularni oqlashga tirnoqcha asos bo'lmasa ham, ko'nglimga tasalli, o'z-o'zini aldash deysizmi — shularning biri edi. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Oldinda, hurmatli o'rtoqlar, meni shon-u shuhrat kutardi. (*X. To'xtaboyev*) 3. Borib an-hordan endi suv ichaman deb engashganimni bilaman, changal-zor bilinar-bilinmas shitirlagandek bo'ldi. (*X. To'xtaboyev*) 4. In-son, millat, xalq biron narsaga erishmagan bo'lsa, yo o'zi go'l, yo o'zi tanbal, yo majburan uyquda, bexabarlikda tutilgan! (*Omon Matjon*) 5. Terak bilan yong'oq yonma-yon o'sibdi. («*G'uncha*»dan)

449-mashq. Gaplarni o'qing, ravishlarni topib, izohlang.

1. Barno ertalab tursa, yonida mushugi yo'q. (*L. Mahmudov*) 2. Bu gaplarni eshitib turgan mushuk birdan kelib Zay-nabning tizzasiga boshini qo'ydi. (*Shuhrat*) 3. Men xuddi shu savolni kutib turgandek, darhol javob bera qoldim. (*N. Safarov*) 4. Xo'roz arang qochib qutulibdi. (*M. Murodov*) 5. Otamizning o'lganiga ancha yil o'tib ketdi. (*G'afur G'ulom*)

450-mashq. Uyga vazifa. «Men sinovlarga qanday tayyorlanaman?» mavzusida matn tuzing. Unda ravishlardan foydalaning.

RAVISHLARNING MA'NO TURLARI

Topshiriq. Berilgan so'zlarni holat, payt, o'rin, miqdor-daraja ravishlariga ajratishga harakat qiling.

Astoydil, birin-ketin, bafurja, qalban, ertalab, saharlab, ataylab, atayin, qat'iyon, qishin-yozin, qisman, bexosdan, ichkari, tashqari, olg'a, ko'p, oz.

BILIB OLING. Ravishlar ma'nosiga ko'ra holat, payt, o'rin, miqdor-daraja, maqsad-sabab ravishlariga bo'linadi.

ESDA TUTING. *Ataylab, atayin, noiloj, noilojlik-dan, jo'rttaga, qasddan* kabi ravishlar maqsad-sabab ravishlari hisoblanib, ularning miqdori u qadar ko'p emas.

451-mashq. *Yangicha, yillab, qo‘qqisdan, rostdan, avvallari, so‘ngra* ravishlarini qatnashtirib gaplar tuzing.

452-mashq. Ravishlarni aniqlab, ularning qaysi turga mansubligini ayting.

1. Men har kuni bir necha marotaba o‘zimni o‘zim tergayman, maslahatlarim yetarlicha samimiymikin? Do‘stlarimga yetarlicha sadoqatlimanmi? (*Konfutsiy*) 2. Ho‘kiz kechqurun qorni ochib, charchab kelsa, uning oldiga bir bog‘ quruq poyani tashlab qo‘yar ekan. («*Susambil*») 3. — Xafa bo‘lma, o‘g‘lim, — dedi Davronov asta boshini ko‘tarib. (*Parda Tursun*) 4. Ertalab tursa, ko‘cha eshik lang ochiq, yong‘oqqa bog‘loqlik sigir yo‘q. (*O‘. Hoshimov*) 5. Bayramga taraddud hozirdanoq qizib ketdi. (*O‘. Hoshimov*)

453-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ravishlarning tagiga chizing va qanday ma‘no anglatayotganini ayting.

1. Shunda bechora sayyor iltimos qilmish darrov, Vasiyatimni ayta, agar bo‘lsa bemalol. (*Shukrullo*) 2. U bexosdan kelib, yigitni belidan oldi-da, chirpirak qilib uloqtirib yubordi, yigit ancha yergacha gandraklab borib tizzalab qoldi. (*Mirkarim Osim*) 3. Elchi hozir o‘z podshohining topshirig‘ini bajarish uchun butun ayyorligini ishga solar, tilyog‘lamalik qilib, To‘marisni maqtab, ko‘klarga ko‘tarar edi. (*Mirkarim Osim*) 4. O‘g‘illari suyunib, safar tayyorgarligini ko‘rishib, erta saharda otlanib yo‘lga tushibdilar. (*Ertakdan*) 5. Ba‘zan Hasanni ham birga olib ketadi. (*O. Husanov*)



1. Ravishlar ma‘nosiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
2. Qanday qo‘shimchalar ravish yasovchi qo‘shimchalar hisoblanadi?
3. *Tubdan, to‘satdan, rostdan* kabi ravishlarni tarkibiy qismlarga ajratish mumkinmi?
4. Ravishlarning sifat va otlardan farqini ayting.

454-mashq. *Uyga vazifa.* Ravishlarni qatnashtirib «Yurtimiz posbonlari» mavzusida hikoya tuzing. Ravishlarning tagiga chizib, turini ayting.

HOLAT RAVISHLARI

Topshiriq. Berilgan ravishlardan «*qanday?*», «*qay holda?*», «*qay tarzda?*» soʻroqlariga javob boʻluvchi ravishlarni ajrating. Bu soʻzlarni gap ichida keltiring.

Hozir, xomligicha, birdan, yaqqol, yangicha, yayov, oʻrtacha, qardoshlarcha.

BILIB OLING. Harakat-holatning qanday holda bajarilganligini bildirgan va «*qanday?*», «*qay holda?*», «*qay tarzda?*» soʻroqlariga javob boʻluvchi ravishlarga *holat ravishlari* deyiladi.

ESDA SAQLANG. Holat ravishlariga *jim, yayov, chindan, qoʻqqisdan, toʻsatdan, piyoda, tasodifan, astoy-dil, eskicha, qatorasiga, birma-bir, yakkama-yakka, yonma-yon, bafurja, arang, zoʻrgʻa, mardlarcha* singari soʻzlar kiradi.


455-mashq. Ravishlarni ajrating. Ularning yasalishiga eʼtibor bering va turini ayting.

1. Shu payt uydan — yotogʻimizdan bolalar ham birin-ketin koʻzlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Oʻrtancha botir qoʻrqmadi, jim turdi. (*Ertakdan*) 3. Uzoqdan, kun botish tomondan gʻira-shira uchqun koʻrinib qoldi. (*Ertakdan*) 4. Bular piyoda asta-sekin oʻrdaga bordilar. (*Ertakdan*) 5. Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan soʻng uning tarhini yaxshilab qogʻozga chizajagini aytdi. (*Mir-muhsin*)

456-mashq. Nuqtalar oʻrniga qavs ichidagi ravishlardan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Tinglar edim betinim, Uzun tunlar yotib ... (ataylab, jim, mardlarcha) (*Hamid Olimjon*) 2. Ikki oshna kechki salqin bilan ... (piyoda, ataylab, yaqqol) yoʻlga tushishdi. (*Oʻ. Umarbekov*)

3. ... (Birdan, majburan, arang) xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Jo‘raboyev ham ... (zo‘rg‘a, yayov, jim)gina o‘tirib, hammaga razm solardi. (*Sh. Rashidov*)

 **457-mashq.** *Eskicha, yangicha, yonma-yon, astoydil, bafurja* ravishlarini qatnashtirib matn tuzing. Ularning qanday ma‘no anglatayotganini tushuntiring.

458-mashq. Quyidagi so‘zlardan aynan bir qo‘shimcha vositasida holat ravishlarini yasang.

Xayol, mantiq, tasodif, taxmin, javob, qalb, rasm, aql.



1. Qanday ravishlar holat ravishlari deyiladi?
2. Holat ravishlarining yasalishini tushuntiring.
3. Holat ravishlari ishtirokida birikmalar tuzing. Ularga so‘roq berib, ma‘nosini tushuntiring.

459-mashq. *Uyga vazifa.* Adabiyot darsligidagi o‘zingizga yoqqan hikoyani o‘qing. Undagi holat ravishlarini ko‘chirib yozing.

PAYT RAVISHLARI

Topshiriq. Gaplarni o‘qing. Ravishlarni topib, qaysi so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlang.

1. Ajdodlar yodi hamisha qalbimizda yashaydi. 2. Erta-indin ta‘til boshlanadi.

BILIB OLING. Harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini bildirib, «qachon?» so‘rog‘iga javob bo‘luvchi ravishlar payt ravishlari sanaladi.


ESDA SAQLANG. Payt ravishlariga *endi, hozircha, so‘ngra, hanuz, hamisha, doimo, hamon, dastlab, erta-indin, qishin-yozin, kecha-kunduz* kabi ravishlar kiradi.

460-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Payt ravishlarining tagiga chizing va ularga izoh bering.

1. Keyin u yoqqa o‘tamiz, — deb o‘ng tarafdagi oynavand uyga ishora qildi. 2. Jiydazordan hozirgina keldim. 3. Ertaga chigit ekishni boshlaymiz. 4. Uni buguncha tinch qo‘y. 5. Yolg‘on gapga ishonmang, erta-yu kech daladaman. 6. Yarim kechadan keyin Salmon otaning uyqusi butunlay qochdi. 7. Erta-indin rejani to‘ldirgani haqidagi xushxabarni topshirmoqchi. (*Yo‘ldosh Sulaymon*)

461-mashq. Gaplarni o‘qing, payt ravishlarini topib, ularning ishlatilish o‘rinlariga diqqat qiling.

1. Ular yerni kavlab kirolmabdilar, lekin bir zumda allaqancha yerni o‘yib yuboribdilar. 2. Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho‘kiz uni to‘xtovsiz chaqirib kelyapti. 3. Ertaga uzum, qovun pishadi, bularni qo‘yib yubor. 4. Dehqon jo‘xorini quritibdi, to‘qmoqlab, donini ajratib olibdi. Keyin bozorga olib boribdi. 5. Kun kech bo‘ldi. Ertaga erta bilan yo‘lga chiqamiz. (*Ertakdan*)

 **462-mashq.** Berilgan so‘zlar orasidan payt ravishlarini toping, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Asta-sekin, jim, endi, orqada, hozircha, yangicha, so‘ngra, bittalab, dastlab, qishin-yozin, uzun-uzun, eson-omon, erta-indin.



1. *Avvallari, ilgari, ertalab, keyin, so‘ngra* so‘zlarini qatnashtirib gaplar tuzing. Ular qanday so‘roqqa javob bo‘lishini ayting.
2. Payt ravishlari nimani bildiradi?

463-mashq. Uyga vazifa. Payt ravishlari qatnashgan maqol, topishmoq, tez aytishlar, xandalardan bilasizmi? Ularni daftaringizga yozing. Payt ravishlarining tagiga chizing.

O‘RIN RAVISHLARI

Topshiriq. Berilgan so‘zlardan «qayerga?», «qayerda?» kabi so‘roqlarga javob bo‘luvchi so‘zlarni ajrating.

Avval, so‘ng, oldin, keyin, olg‘a, ichkarida, tashqarida, uzoqdan, yuqorida, quyiga.

BILIB OLING. Harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik o‘rnini bildirgan va «qayer (-ga, -da, -dan)?» so‘rog‘iga javob bo‘luvchi ravishlar *o‘rin ravishlari* hisoblanadi.

O‘rin ravishlariga *olg‘a, ichkarida, tashqarida* singari so‘zlar kiradi.

464-mashq. Gaplarni ko‘chiring, o‘rin ravishlarining tagiga chizib, izohlang.

1. Tashqariga chiqib G‘ofurjon boydan ketishga izn so‘radi.
 2. Sherqo‘ziga ko‘zi oldidan nari ketishi uchun ruxsat bermay qo‘ydi.
 3. Salmon ota gapni uzoqdan boshladi.
 4. Oldinda Shirin-buloq qishlog‘i butun bo‘y-basti bilan yastanib yotardi. (*Yo‘ldosh Sulaymon*)
 5. Komandir boshliq jangchilar olg‘a tashlanib bostirib boraverardilar. (*Sh. Sa‘dulla*)

465-mashq. Gaplarni o‘qing, o‘rin ravishlarini aniqlab, ularga izoh bering.

1. Bizga yaqinlashmadi, lekin nariroqda turib ish o‘rgatib, bularga baqirib turdi.
 2. — Ichkariga kiring, bir piyola choy iching, — dedi uy egasi.
 3. Oldiga dasturxon yozibdi, kechqurun palov qilib olib chiqibdi.
 4. Bir chaqirim ichkariga kirib borganimizdan keyin tepada teshik ko‘rindi.
 5. Oldimdan bir uy chiqib qoldi, jon holatda unga o‘zimni urdim.
 6. Uzoqdan bir ayol kela boshlabdi. Cholning yoniga kelib salom beribdi.

466-mashq. «Bizning mahalla» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan o‘rin ravishlariga izoh bering.



1. O‘rin ravishlariga gap ichida misollar keltiring.
2. Qanday ravishlar o‘rin ravishlari deyiladi?

467-mashq. Uyga vazifa. Ravishlarni topib, tagiga chizing.

1. Uzoqdan kelgan mehmonlar chaqirilib, katta ziyofat berilibdi. 2. G‘uvullab uchayotgan bo‘ron ichida yigitlar naridan beri xashag-u bedalarni arava tagiga olib kirib, g‘ildiraklarga namat yopishdi. (*Mirmuhsin*) 3. Hozir mol-jon o‘rtada, inim, Buxoroga yetib olaylik, u yog‘i bir gap bo‘lar. (*Mirmuhsin*) 4. — Avval oyog‘imdan kishanlarni olib qo‘yishlariga buyruq bering, — istehzoli kulib qo‘ydi Namoz. (*X. To‘xtaboyev*)

MIQDOR-DARAJA RAVISHLARI

Topshiriq. Berilgan so‘zlar ichidan *qancha?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarni ajrating.

Sal, picha, erta, indin, kecha, kunduz, tez, g‘oyat, xiyol, ko‘p, oz.

BILIB OLING. Harakat va holatning bajarilishidagi miqdor-darajani bildiradigan va «*qancha?*» so‘rog‘iga javob bo‘ladigan ravishlar *miqdor-daraja ravishlari* deyiladi: *sal, picha, xiyol, oz, ko‘p, kam, ancha* kabi.

468-mashq. Gaplarni o‘qing. Miqdor-daraja ravishlarini aniqlang.

1. Yaxshiligingiz sira-sira yerda qolmaydi. 2. Qaddini rostlab, eshikni uzoq taqillatdi. 3. Bo‘ying sal cho‘zilsin, bironta duradgor usta topilsa, shogirdlikka topshirardim. 4. U aravani Nuriddin minganini ko‘rib, xiyla yengil tortdi. 5. Ko‘p o‘tmay hamma ichkariga taklif etildi. 6. Kunduzi o‘ralashib yurganlardan bu yerda qittay ham qolmagan. (*Yo‘ldosh Sulaymon*)

469-mashq. Gaplarni ko‘chiring, miqdor-daraja ravishlarining tagiga chizib, izohlang.

1. Sarvigulni podsho hammadan ko‘proq sevar ekan. 2. Mehmondorchilik tugagach, u uzundan uzun duo qilib o‘rnidan turibdi. 3. Ko‘p yaxshi o‘ylabsiz, ammo saltanatingiz uzoqqa bormasa kerak. 4. Ikkita tuxum topib olibdi. Suyunib cho‘ntagiga solib, biroz yuribdi. 5. Dehqon: «Hay, mayli, ustki qismi oz bo‘lsa ham bizga qola qolsin», — dedi. 6. Chol va kampir behad sevinishibdi. (*Ertakdan*)

470-mashq. «Hasharda» mavzusida matn tuzing. Unda miqdor-daraja ravishlaridan foydalaning.



1. Miqdor-daraja ravishlari qanday so‘roqqa javob bo‘ladi?
2. Ular qanday ma‘noni anglatadi?

471-mashq. Uyga vazifa. «San‘at muzeyida» mavzusida matn tuzing. Miqdor-daraja ravishlarining tagiga chizing.

TAKRORLASH

FE'L BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH



1. Fe'l deb nimaga aytiladi?
2. *Jonlanmoq* fe'lining nisbat shakllarini toping va ular o'rtasidagi farqlarni tushuntiring.
3. Harakat nomiga misollar keltiring.
4. Sifatdoshning sifatga va fe'lga xos xususiyatlarini belgilang.
5. Ravishdosh yasovchi qo'shimchalar qaysilar? Ular ishtirokida ravishdoshlar hosil qiling.
6. *-la, -lan, -i, -sira, -(a)y* qo'shimchalari yordamida fe'llar yasang.
7. Fe'llarga misollar aytib, uch zamonda tuslang.
8. Fe'l mayli deb nimaga aytiladi?
9. Sodda, qo'shma, juft fe'llarga misollar ayting.

472-mashq. Matnni o'qing. Fe'llarni aniqlab, ularni izohlang.

Rubob chalish, ashula aytishga qattiq havas qo'ygan kunlarim edi. Velosipedda ketayotgandim. G'ira-shira payt. Teraklar shovullaydi. Itlar huradi.

Bexos izimda bir sharpa sezdim. Qarasam, nuroniy chol, salom berdim. Qariya ketma-ket meni savolga tutardi: «Nechanchi sinfda o'qiysan?», «Necha baho olasan?», «O'qishdan boshqayam hunaring bormi?»

- Rubob chalib, ashula aytaman.
- Katta bo'lsang ashulachi bo'lmoqchimisani?
- Ichimda qiziq gaplarim bor. Ko'p, juda ko'p odamlar yig'ilsa, shu gaplarimni aytsam...
- Niyatingga yet, bolam. (*Sh. Boshbekov*)

473-mashq. Gaplarni ko'chiring. Fe'llarning nisbat, mayl, zamon shakllarini aniqlang.

So'zlar hayoti murakkab, ularga sehr yashiringan. So'zlar ham o'z xalqi bilan birga umr kechiradi, xalq quvonsa, quvonadi, kuyinsa, kuyinadi.

Kishilar o'zgalarni o'ylab buloqlarning bekilgan ko'zlarini ochadilar, avlodlari uchun daraxtlar ekadilar. Bundan keyingi avlod buloq suvidan, daraxt mevalaridan bahramand bo'ladi.

Ota-bobolarimiz qoldirgan soʻzlar ana shu buloqlar va daraxtlardir.

Soʻzlar biz uchun asrlar sadosi, uzoq oʻtmish bilan hamnafaslik hissini uygʻotuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo koʻprikdir. (*B. Toʻychiboyev*)

474-mashq. Gapnlarni oʻqing. Feʼllarning vazifa shakllarini aniqlab, ularni izohlang.

Tuproq — insonning tugʻilib oʻsgan joyi, tuproq — Vatan. Tuproq necha yuz yillardan buyon ne-ne ulugʻ farzandlarini quchoqʻiga bosib kelayotgan mushfiq zamin. Shuning uchun biz uni eʼzozlab «ona tuproq» deymiz. U olis ajdodlarga onalik qilgan. U ota-bobolarimizning onasi boʻlgan. U bizning ham onamiz va, albatta, kelajak avlodning ham onasi boʻlajak.

Demak, hamma narsa ona tuproqni qadrlashdan boshlanadi. Bunday kishini el tushunadi, dunyo taniydi. Oʻz tarixini ona yurtidan — ona tuproqdan qidirgan insongina haqiqiy inson boʻla oladi. (*A. Nabiyev*)

475-mashq. Uyga vazifa. «Mening taʼildagi rejalarim» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan feʼllarni izohlang.

OT BOʻYICHA OʻTILGANLARNI TAKRORLASH



1. Otlarning lugʻaviy shakllariga misollar keltiring.
2. Sodda va yasama otlar ishtirokida gaplar tuzing.
3. *-xon, -jon, -oy, -loq, -choq* qoʻshimchalarini otlarga qoʻshing va maʼnoda boʻlayotgan oʻzgarishni tushuntiring.
4. Shaxs otlariga misollar keltiring.
5. Oʻrin-joy otlariga misollar ayting.
6. Siz yashayotgan yerdagi korxon, tashkilot, suv havzalari va inshootlari nomlarini anglatuvchi otlarga misollar ayting.
7. Narsa otlari deb nimaga aytiladi?
8. Oʻrin-joy va faoliyat-jarayon otlariga misollar keltiring.
9. Atoqli va turdosh otlarning yozilishi haqida gapiring.
10. Aniq va mavhum otlar ishtirokida gaplar tuzing.

476-mashq. Matnni oʻqing. Otlarga izoh bering.

Onani eʼzozlash — bizning millatimiz, xalqimiz uchun oliy qadriyat darajasiga koʻtarilgan fazilat. Onalarni qancha ulugʻlasak,

hayotimizning chirog‘i, umrimizning guli deb e‘zozlasak, biz oilamizni, Vatanimizni e‘zozlagan bo‘lamiz. Mashhur shoirimiz Abdulla Oripov aytganlaridek: — Bu yorug‘ olamda Vatan bit-tadir, Bittadir dunyoda ona degan nom. (*D. Ro‘ziyeva*)

477-mashq. Savollarga javoblar yozing. Javoblaringizdagi otlar-ning ma‘no turlarini aniqlang.

1. Mirkarim Osimning qanday tarixiy hikoyalari bor? 2. «To‘-maris» afsonasida Amudaryo qanday nom bilan tilga olingan? 3. Hozirgi O‘zbekiston hududi qadimda qanday nomlar bilan yuritilgan?

478-mashq. Otlarni toping, ularni tavsiflang.

O‘zbekchilik! Qanday sodda, qanday qalbgga yaqin, qanday samimiy, qanday jafokash bu so‘z! Tong qorong‘usida turib ko‘cha supurayotgan kelinchakning supurgisi shu so‘zni qo‘shiq qilib aytayotganday, paxtazordan paxta to‘la qop orqalab chiqayot-gan yigitning qoraygan, ajinli yuzlaridan oqib lablariga tushgan terda «o‘zbekchilik» degan so‘zning ta‘mi bor. (*E. Vohidov*)

479-mashq. Uyga vazifa. «Hovlimizda gullar ochildi» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan otlarni izohlang.

SIFAT, SON, RAVISH BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH



1. Sifat yasovchi qo‘shimchalar qaysilar?
2. Qo‘shma, juft sifatlar va ularning ishlatilishi haqida gapiring.
3. Asliy va nisbiy sifatlarga misollar ayting.
4. Sifat darajalari haqida so‘zlang.
5. Sifatlarning otlashuvi, gapdagi vazifalari haqida nima bi-lasiz?
6. Sonlarning ma‘no guruhlari haqida gapirib bering.
7. Sonlarning gapdagi vazifasi to‘g‘risida so‘zlab bering.
8. Ravish deb nimaga aytiladi?
9. Ravish yasovchi qo‘shimchalar qaysilar?



480-mashq. Sifatlarni topib, ularga ta‘rif bering. Sifatlarning ma‘no guruhlarini belgilang.

Sarijo‘ga arig‘idan otini sug‘orib chiqayotgan bir kishiga ro‘para keldik. Uning oti ham, kiygan to‘ni ham, o‘zi ham qop-

qora edi. Xuddi cho‘yandan quyilganga o‘xshardi. Faqat boshidagi do‘ppisining kashtasigina oq edi, xolos. Men Adhamdan: «Bu kishi kim?» — deb so‘radim.

— Uni «cho‘l bo‘risi» deyishadi. Bu to‘qaylarda kechalari ham miltiqsiz bir o‘zi yuraveradi. Juda dovyurak odam. Uch marta bo‘ri bilan olishib, bo‘g‘ib o‘ldirgan. Qoraqishloqning etagidagi to‘qaydan yer ochgan. *(Said Ahmad)*

481-mashq. She’rni o‘qing. Sifatlarni aniqlang. Ularning tuzilishiga ko‘ra turini va gapdagi vazifasini belgilang.

Ko‘rinmas haqiqat kezib yuribdi,
Ne ish bo‘lsa barin sezib yuribdi.
Mard va sof odamning qalbiga kirib,
Nomard va qo‘rqoqdan bezib yuribdi. *(B. Hoshimov)*

482-mashq. Tez aytishlarni aytib, mashq qilib ko‘ring. Nutqingizni o‘stiring. Gaplar ichidagi sifatlarni topib, ularga izoh bering. Sifatlarning orttirma va qiyosiy darajalarini hosil qiling.

1. Norning nordon anori narida. 2. O‘tkir o‘tkir o‘roqda o‘t o‘rdi. 3. Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi. 4. To‘p-to‘p ko‘k koptok, har bir to‘pda ko‘k koptok. 5. Soqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.

483-mashq. Topshiriqlarning javoblarini toping. Ularda ishlatilgan sonlarning ma’no turlarini va gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Guli to‘rtta yarim oy, Boshginangdan olar joy. 2. O‘zi bitta, ko‘zi mingta. 3. Bir parcha patir, olamga tatir. 4. To‘rtdir uning oyog‘i, Temir mixli tuyog‘i. Manzilga yetishtirar, Tosh-dan qattiq tuyog‘i.

484-mashq. Matnni o‘qing. Sonlarning gapdagi vazifasini aniqlang.

Olimlar asrlar davomida o‘zgarmaydigan birliklar (etalonlar) tanlashni taklif qilganlar. Masalan, X. Gyuygens 1664-yilda bir sekundda bir marta tebranuvchi mayatnik uzunligini uzunlik birligi qilib olishni taklif qilgan. Kilogramm, metr 1870-yilda qabul qilingan. Metr etaloni 1799-yildan e‘tiboran ishlatila boshlangan. Bir metr uchun Yer meridiani chorak qismining o‘n milliondan bir bo‘lagi qabul qilingan. *(M. Turdiyev)*

485-mashq. Tez aytishlarni aytib, nutqingizni o‘stiring. Ularda ishlatilgan ravishlarni aniqlang va ma’no turini belgilang.

1. Hali Vali, Soli sholi o‘rdi. 2. Oydin oyisidan oldin bordi. 3. Erkin ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi. 4. Nor narvondan narida. 5. Oyimdan keyin keldim.

486-mashq. Boshqotirmaga yashiringan maqolni toping. Ravish ishtirok etgan yana shunday maqollarni bilasizmi? Ularga misollar ayting.

① ② ③ ④ ⑤ ⑥ ⑦ ⑧ ⑨ ⑩ ⑪ ⑫ ⑬ ⑭ ⑮ ⑯ ⑰

1, 2, 3 – O‘z so‘zining zid ma’nolisi

4, 5, 6 – Ilm olishga da’vat etuvchi fe’lning buyruq-istak shakli

7, 8, 9 – Sifatdosh yasovchi qo‘shimcha

10, 11, 12 – 1, 2, 3 tartibdagi so‘zning takrori

13, 14, 15 – «Bilmoq» fe’lning buyruq-istak maylidagi shakli

16, 17 – Sifatdosh yasovchi qo‘shimcha.

487-mashq. Uyga vazifa. Matnni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga izoh bering.

Zuhra qurib qolgan butalarni oralab **turnaga yaqin** bordi. Turna ham Zuhraning yaqin borishini kutgandek **bo‘ynini cho‘zib qarab turdi**. Uzun bo‘yli qush **sarg‘ish-ko‘kish** ko‘zlari bilan qizga xavotirlanib boqar, agar Zuhra yana ham yaqinroq borsa, uchib ketgudek holi bor edi. «**Juda chiroyli** qush ekan, – dedi Zuhra turnaga **tikilib**. — Bo‘yni, oyoqlari uzunchoq, patlari qora kulrang ekan». (O. Husanov)

ISH QOG‘OZLARI

1-topshiriq. O‘zingiz haqingizda hikoya matni tuzing. Unda tug‘ilgan sanangiz, tug‘ilgan joyingiz, ota-onangiz, maktabga borgan vaqtingiz, hozirgi holatingiz va boshqa shu kabi ma‘lumotlarni aks ettiring.

BILIB OLING. Kishilar o‘rtasidagi rasmiy munosabatlardan ish qog‘ozlari deyiladigan turli hujjatlar bilan tartibga solinadi. Tarjimai hol ana shunday xilma-xil ish qog‘ozlaridan biri bo‘lib, unda ma‘lum bir shaxs tomonidan o‘z shaxsiy hayoti va faoliyati bayon qilinadi.

ESDA SAQLANG. Tarjimayi hol birinchi shaxs tilidan yoziladi. Birovning hayoti va faoliyati bayon qilingan matn ham tarjimayi hol deb yuritiladi, bunday matnlar uchinchi shaxs tilidan yoziladi, ammo ular ish qog‘ozlari sirasiga kirmaydi.

488-mashq. Berilgan matnni o‘qing. O‘zingizning tarjimayi holi-
ngizni yozing.

TARJIMAYI HOL

Men, Abdullayeva Nafisa Rustam qizi, 2003-yilning 4-iyunida Xorazm viloyatining Xiva shahrida xizmatchi oilasida tug‘ildim.

Otam – Abdullayev Rustam «Barkamol avlod» sport-sog‘lomlashtirish markazida murabbiy bo‘lib ishlaydi.

Onam – Abdullayeva Hulkar 30-umumta‘lim maktabida matematika fanidan dars beradi.

Oilada 5 kishimiz. Singlim – Ra‘no 5-sinfda, ukam – Zafar 3-sinfda o‘qiydi.

2010-yili Xiva shahridagi 30-umumta‘lim maktabining 1-sinfiga o‘qishga qabul qilindim. Hozir ushbu maktabning 6-sinfida o‘qimoqdaman.

Ona tili va adabiyot, tarix fanlariga qiziqaman, suvda suzishni yaxshi ko‘raman. Maktabdagi jamoat ishlariga faol qatnashaman, sinfimiz devoriy gazetasining doimiy mualliflaridanman.

Yashash manzilim: Xiva shahri, Obod ko‘chasi, 11-uy.

(imzo)

N. Abdullayeva

2017-yil 15-noyabr

489-mashq. Namunadan foydalanib, o‘zingizning tarjimayi holi-
ngizni yozing.

Rauf Parfi 1943-yilning 27-sentyabrida Toshkent viloyati-
ning Yangiyo‘l tumanidagi Sho‘ralisoy qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi.

Otasi – Parfi Muhammadamin o‘qimishli kishi bo‘lib, sho‘rolar quvg‘ini davrida Farg‘onaning Vodil qishlog‘idan Sho‘ralisoyga kelib qolgan. Onasi – Sakinaxonim Isabek qizi ham mumtoz adabiyotni biladigan ayol bo‘lib, u ham asli farg‘onalik edi.

Rauf Parfi 1950-yilda Sho‘ralisoydagi maktabga o‘qishga boradi va u yerda 1956-yilgacha saboq oladi. So‘ng qo‘shni qishloqdagi maktabga o‘tib, bu yerda 1958-yilgacha tahsilni davom ettiradi. Sakkizinchi sinfni tugatgach, o‘qishni Yangiyo‘l shahridagi kechki maktabga o‘tkazib, mehnat faoliyatini boshlaydi... O‘rta ma‘lumot olgach, 1960-yilda Toshkent davlat universitetiga o‘qishga kiradi...

Ulkan o‘zbek shoiri Rauf Parfi 2005-yilning 28-martida yurak xastaligidan vafot etdi. («So‘nmas yulduzlar» kitobidan)

2-topshiriq. Biror iltimos yoki o‘tinchingizni yozma shaklda bayon qiling, undagi leksik va grammatik vositalarga e‘tibor bering.

BILIB OLING. Biror iltimos, so‘rov bilan muayyan rasmiy shaxs yoki idoraga qilingan yozma murojaat ariza deyiladi. *Ariza* so‘zining ma‘nosi “iltimos, murojaat, bosh urish” demakdir. Ariza ish qog‘ozlari orasida eng keng tarqalgan hujjatdir.

ESDA SAQLANG. Ariza matni o‘zining doimiy qolipiga ega. Undagi so‘nggi gapning kesimi odatda *so‘rayman, iltimos qilaman* kabi so‘zlardan iborat bo‘ladi.

490-mashq. Berilgan matnni o‘qing. Uning qanday qismlardan tarkib topganligiga e‘tibor bering.

Uchtepa tumanidagi 1-musiqa maktabining
direktori A.Qosimovga
shu tumandagi 19-umumta‘lim maktabining
6-sinf o‘quvchisi R.Azizovdan
Ariza

Menga maktabingizdagi rubob sinfi mashg‘ulotlariga qatnashishimga ruxsat berishingizni so‘rayman.

(imzo)

R. Azizov

2017-yil 30-avgust

491-mashq. Uyga vazifa. Kutubxonaga a‘zo bo‘lish, biror musobaqada ishtirok etish haqida tegishli shaxsga ariza yozing.

TESTLARDAN NAMUNALAR

1. Qaysi qatorda asosga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A. So'zning asosiy ma'nosini ifodalab, mustaqil qo'llana oladigan qism.
- B. Mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shilib, unga yangi ma'no yoki qo'shimcha ma'no yuklaydigan qism.
- C. So'zlarni bog'lashga xizmat qiladigan qism.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

2. Qaysi qatordagi gapda so'z yasovchi qo'shimchali so'z mavjud?

- A. *Hunar – zar, hunardan rizqing unar.*
- B. *Aql ko'pga yetkazadi, hunar ko'kka.*
- C. *O'qish yaxshi, uqish undan ham yaxshi.*
- D. *Bilimga eltuvchi yagona yo'l, bu – faoliyatdir. (B.Shou)*

3. -lar, -gan, -guncha, -b, -ib, -ta qo'shimchalari qanday qo'shimchalar sanaladi?

- A. So'z yasovchi qo'shimchalar.
- B. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar.
- C. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.
- D. Lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.

4. Qaysi qatorda holat fe'llari berilgan?

- A. *Pirillamoq, yasamoq, tasvirlamoq.*
- B. *Eshitilmoq, o'smoq, unmoq.*
- C. *Qotmoq, turmoq, uxlamoq.*
- D. *Ikkilanmoq, porlamoq, fikrlamoq.*

5. Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakliga qanday nisbat shakli deyiladi?

- A. Aniq nisbat shakli.
- B. Majhul nisbat shakli.
- C. Birgalik nisbati shakli.
- D. Orttirma nisbat shakli.

6. Fe'ning qaysi vazifa shakli otlar kabi egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini oladi?

- A. Harakat nomi.
- B. Sifatdosh shakli.
- C. Ravishdosh shakli.
- D. Fe'llarning vazifa shakllari egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini olmaydi.

7. Quyidagi gaplarda fe'ning qaysi vazifa shakli qo'llangan? Bilim o'qish va takrorlash mevasidir. Vatanni sevmoq iymondandir. Salom berish insoniylik belgisidir.

- A. Sof fe'l shakli.
- B. Sifatdosh shakli.
- C. Ravishdosh shakli.
- D. Harakat nomi shakli.

8. Hozirgi zamon sifatdoshlari qanday hosil qilinadi?

- A. Fe'l asoslariga *-yotgan (-ayotgan)* qo'shimchasini qo'shish asosida hosil bo'ladi.
- B. Fe'l asoslaridan *-a, -y* qo'shimchalari yordamida yasaladi.
- C. Fe'l asoslariga *-gan, -kan, -qan* qo'shimchalarini qo'shish yordamida yasaladi.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

9. Qaysi qatorda ko'makchi fe'lning ma'no turiga noto'g'ri ta'rif berilgan?

A. Ravishdoshning *-a (-y)* shakliga qo'shiluvchi *boshlamoq* ko'makchi fe'li harakatining boshlanishi, *olmoq* ko'makchi fe'li esa harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma'nosini ifodalaydi.

B. *Yotmoq, yurmoq* ko'makchi fe'llari ravishdoshning *-b (-ib)* shakliga qo'shib, harakatning davomli, *turmoq* esa ma'lum muddatgacha bajarilishini bildiradi.

C. *Yubormoq, tashlamoq, qo'ymoq* ko'makchi fe'llari ravishdoshning *-b (-ib)* shakliga qo'shib, harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi.

D. *Chiqmoq, tugatmoq* fe'llari ravishdoshning *-b, (-ib)* shakliga qo'shib, harakatning boshlanganini bildiradi.

10. Fe'l yasovchi qo'shimchalar berilgan qatorni toping.

- A. *-don, -paz, -kor, -dor, -illa, -a*
- B. *-la, -a, -sira, -xon, -ira, -i*

- C. *-i, -ay, -sa, -illa, -a, -lan*
- D. *-lan, -lash, -cha, -ona, -la, -oq*

11. Sodda yasama fe'llar berilgan qatorni toping.

- A. *Aldamoq, eslamoq, yo'llamoq*
- B. *Tezlamok, gapirmok, shodlanmok*
- C. *Ta'sirlanmok, bildirmok, qutlamok*
- D. *Qizarmok, oqlamok, suvsamok*

12. Fe'llarning munosabat shakllari qanday qo'shimchalar yordamida yasaladi?

- A. Zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchalari yordamida.
- B. Faqat shaxs-son qo'shimchalari yordamida.
- C. Fe'llarning vazifa shakllarini yasovchi qo'shimchalar yordamida.
- D. *-mok* qo'shimchasi yordamida.

13. Hozirgi zamon fe'llarini yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. *-di, -b, -gan (-kan, -qan)*
- B. *-yapti, -moqda, -(a)yotir, -(a)yotib*
- C. *-a, -y, -(a)r*
- D. *-a, -i, -sira, -ay, -ar*

14. Xabar maylidagi fe'l qo'llangan gapni toping.

- A. *To'qlikda ochlikni o'yla, boyiganda – muhtojlikni.*
- B. *Bu gapni eshitib Bahromning ko'zi charaqlab ochilib ketdi.*
- C. *Odam bo'laman desang, kamtarlikni odat qil.*
- D. *Ma'naviyat – millat nishoni.*

15. To'g'ri yozilgan qo'shma otlar qatorini toping.

- A. *Uch ariq, quyi chirchiq, Toshhovuz.*
- B. *karnay-surnay, qovun- tarvuz, erkak-ayol.*
- C. *tillaqosh, bilakuzuk, asalari*
- D. *Qashqadaryo, Katta qo'rg'on, qo'shko'pir*

16. O'rin-joy otlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. *-paz, -kor-, kash, -gar, -bon*
- C. *-k, -gi, -q, -qi, -gich*
- B. *-zor, -loq, -iston, -goq, -xona*
- D. *to'g'ri javob yo'q.*

17. Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarning miqdori yoki tartibini bildirishiga ko'ra qaysi guruhlariga bo'linadi?

- A. Dona sonlar, chama sonlar.
- B. Tartib sonlar, taqsim sonlar.
- C. Miqdor sonlar, tartib sonlar.
- D. Kasr sonlar, jamlovchi sonlar.

18. Chama sonlar qatorini toping.

- A. *Ikkidan bir, o'ntacha, minglab.*
- B. *O'ninchi, yuzlab, yigirma.*
- C. *O'ntacha, minglab, minglarcha.*
- D. *Uch, beshta, sakkizta.*

19. Holat ravishlari qatorini toping.

- A. *Ko'p, oz, to'la.*
- B. *Qo'qqisdan, qatorasiga, piyoda.*
- C. *Tez, uncha, sal.*
- D. *Ancha, mo'l, sekin.*

20. Yasama ravishlar qatorini toping.

- A. *Hozir, yayov, piyoda.*
- B. *Noiloj, mardlarcha, yillab, erkakchasiga.*
- C. *Astoydil, ertalab, aslo.*
- D. *Olg'a, atay, jo'rttaga.*

21. Qo'shma sifatlar qatorini toping.

- A. *Shirin, achchiq, qizil.*
- B. *Erksevar, hayotbaxsh.*
- C. *Baqaloq, erinchoq, maqtanchoq.*
- D. *Sermeva, baquvvat, beminnat.*

22. Sifatlarning ozaytirma daraja shakllari qatorini toping.

- A. *Mazali, go'zal, katta.*
- B. *Biroz kichik, hiyla katta, picha ho'l, ko'kimtir.*
- C. *Tor, juda qiziqarli, tengsiz.*
- D. *Serunum, qizg'in, g'oyat keng.*

23. Xususiyat bildiruvchi sifatlar qatorini toping.

- A. *Kamtar, hozirjavob, dono.*
- B. *Chiroyli, baland, benuqson.*
- C. *Yozgi, keng, quvnoq.*
- D. *Qadimiy, yozma, qishki.*

ASOSIY ATAMALAR LUG‘ATI

So‘z tarkibi — so‘zning ma’noli qismlari yig‘indisi

Tub so‘z — tarkibi asos va yasovchi qo‘shimchalarga bo‘linmaydigan so‘z

Yasama so‘z (sodda) — asosga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi orqali hosil bo‘lgan yangi so‘z

Asos — so‘zning asosiy ma’nosini ifodalovchi, mustaqil qo‘llanish imkoniyatiga ega bo‘lgan qismi

So‘z yasovchi qo‘shimcha — asosga qo‘shilib, yangi ma’no hosil qiluvchi qo‘shimcha

Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha — asosga qo‘shilib, qo‘shimcha ma’no hosil qiluvchi qo‘shimcha

Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha — bir so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘shimcha

Fe‘l — «*nima qilmoq?*», «*nima bo‘lmoq?*» so‘roqlariga javob bo‘lib, shaxs yoki narsalarning harakat, holatini ifodalagan so‘zlar turkumi

O‘timli fe‘l — tushum kelishigidagi so‘zlar bilan bog‘lana oladigan fe‘llar

O‘timsiz fe‘l — tushum kelishigidagi so‘zlar bilan bog‘lana olmaydigan fe‘llar

Nisbat — bajaruvchining harakat-holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe‘l shakllari

Fe‘lning vazifa shakllari — fe‘lning turli gap bo‘laklari vazifasida kelishi uchun xoslangan shakllari

Harakat nomi — fe‘lning otga xoslangan shakli

Sifatdosh — fe‘lning sifatga xoslangan shakli

Ravishdosh — fe‘lning ravishga xoslangan shakli

Qo‘shimcha — so‘zning asos qismisiz qo‘llanmaydigan, faqat asosga qo‘shilib, unga yangi yoki qo‘shimcha ma’no beradigan, shuningdek, so‘zlarni bog‘lash uchun xizmat qiladigan qism

Shakl yasovchi qo‘shimcha — asosga qo‘shilib, uning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklash yoki o‘zi qo‘shilayotgan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘shimcha

To'plam — o'rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig'indisi

Tasnif — to'plamni o'xshash va farqli belgilari asosida ichki guruhlariga bo'lish

So'z turkumlari — so'zlarning so'rog'i va qanday umumlashgan ma'no ifodalashiga ko'ra guruhlariga bo'linishi

Harakat fe'llari — shaxs va narsalarning jismoniy harakati natijasida ro'y bergan harakatni ifodalovchi fe'llar

Matn — mazmun va grammatik jihatdan muayyan mavzu ostida o'zaro birikib, bir-biri bilan bog'lanib kelgan gaplar tuzilmasi

Holat fe'llari — shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar

Ko'makchi fe'l — o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan, ravishdoshning **-(i)b, -a, -y** shakllariga qo'shilib, asosdan anglashilgan harakat-holatning bosqichlari va tarzini ifodalovchi fe'l

Yetakchi fe'l — ko'makchi fe'lni qabul qiluvchi ravishdosh shakli

Ot — «*kim?*», «*nima?*», «*qayer?*» so'roqlariga javob bo'lib, yakka shaxs, narsa, joy nomlarini yoki bir turdagi shaxs va narsalarni ifodalovchi so'zlar turkumi

Atoqli ot — bir shaxs, narsa yoki joyga atab qo'yilgan nomlar

Mavhum ot — sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan otlar

Fe'lning munosabat shakllari — fe'l asoslariga qo'shilib, gapda kesim vazifasida qo'llanishiga xoslovchi shakllar

Zamon shakllari — fe'l asosidan anglashilgan harakat-holatning uch zamondan biriga mansubligini bildiruvchi shakllar

Mayl shakllari — fe'l asosidan anglashilgan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari

Shaxs-son qo'shimchalari — fe'ldan anglashilgan harakat-holatning bajaruvchi shaxsini bildirib, fe'lni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan bog'lab keluvchi shakllar

Turdosh ot — bir turdagi narsalarning umumiy nomini bildiruvchi ot

Aniq ot — sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lgan narsa, shaxs, o'rin-joy nomlarini bildiruvchi ot

Morfologiya — soʻzlarning grammatik maʼnolari va grammatik shakllarini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi

Egalik shakli — shaxs, narsa, hodisaning uch shaxsdan biriga tegishlilikini bildiruvchi shakl

Kelishik shakli — ot va otlashgan soʻzlarning boshqa soʻzlar bilan sintaktik munosabatini koʻrsatuvchi shakl

Son — narsalarning son-sanogʻi va tartibini bildirib, «qancha?», «necha?», «nechanchi?» soʻroqlariga javob boʻluvchi soʻzlar turkumi

Hisob soʻzlari — sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi soʻz oʻrtasida qoʻllanilib, bu narsalarning oʻlchovini bildiradigan soʻzlar

Sifat — otga bogʻlanib, uning belgisini bildiradigan, «qanday?» va «qanaqa?» soʻroqlariga javob boʻluvchi soʻzlar turkumi

Daraja — belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishini bildiruvchi shakl

Ravish — harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, oʻrni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va «qanday?», «qachon?», «qancha?», «qayer (-ga, -da, -dan)?» singari soʻroqlarga javob boʻluvchi soʻzlar turkumi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. — Тошкент. Ўқитувчи, 1980.
5. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.

M U N D A R I J A

O'zbekistonda davlat tili va boshqa tillarning rivoji 3

5-SINFDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Unli tovushlar	5
Undosh tovushlar	6
O'zbek alifbosi va imlo qoidalari	7
Bo'g'in va urg'u	8
Leksikologiya va lug'atshunoslik	9

MATN

Matn va mavzu.	11
Matn turlari. Hikoya matni	13
Tasviriy matn	15
Muhokama matni	17

MORFOLOGIYA

Morfologiyaga kirish	20
So'z tarkibi	21
Asos va qo'shimchalar	23
Qo'shimchalar tasnifi	24
So'z yasovchi qo'shimchalar	25
Tub va yasama so'zlar	27
Shakl yasovchi qo'shimchalar va ularning tasnifi	28
So'z tarkibida tartib	30
Mustahkamlash	32

SO'Z TURKUMLARI

To'plam va tasnif	33
So'z turkumlari	35
Fe'l	37
Harakat va holat fe'llari	38
O'timli va o'timsiz fe'llar	40
Fe'l nisbatlari	41
Aniq nisbat	43
O'zlik nisbati	44
Majhul nisbat	45
Orttirma nisbat	47
Orttirma nisbat qo'shimchalarining ishlatilishi	48
Birgalik nisbati	50
Mustahkamlash	51
Fe'llarning vazifa shakllari	53

Harakat nomi.....	54
Harakat nomining yasalishi	55
Sifatdosh	57
Sifatdoshlarning zamon shakllari. O'tgan zamon sifatdoshi	58
Hozirgi va kelasi zamon sifatdoshlari	60
Sifatdoshning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari	62
Ravishdosh	63
Ravishdoshlarning ma'no turlari	64
Ravishdosh yasovchi qo'shimchalar talaffuzi va imlosi	66
Mustahkamlash	68
Ko'makchi fe'llar	69
Ko'makchi fe'ning ma'nolari	71
Fe'llarning yasalishi	74
Ayrim fe'l yasovchi qo'shimchalar imlosi.	76
Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sodda fe'llar	78
Qo'shma fe'llar.....	79
Juft fe'llar	81
Mustahkamlash	82
Fe'ning ma'noviy guruhleri	83
Fe'llarning munosabat shakllari	85
Fe'llarning zamon shakllari.....	86
O'tgan zamon shakllari	87
O'tgan zamon shakllarining yasalishi	89
O'tgan zamon shakllarida to'liqsiz fe'ning ishlatilishi	90
Hozirgi zamon shakllari	91
Hozirgi zamon shakllarining talaffuzi va imlosi	92
Kelasi zamon shakllari	93
Mayli shakllari	95
Xabar mayli	96
Buyruq-istak mayli.....	97
II shaxs buyruq-istak mayli qo'shimchalarining qo'llanishi va ma'nolari	99
Mustahkamlash	100
Shart mayli	101
Shaxs-son shakllari	103
Ot	104
Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sodda ot	106
Qo'shma otlar imlosi	107
Juft va takroriy otlar imlosi	108
Atoqli otlarning turlari va imlosi.....	110
Joy nomlari va ularning imlosi.....	111
Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari	113
Tarixiy sana va bayram nomlari	115
Suv havzalari va inshootlari nomlari.....	116
Turdosh otlar	118
Shaxs otlari	120

Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi	121
Narsa otlari	123
Narsa otlarini yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi	124
O‘rin-joy otlari	125
Faoliyat-jarayon otlari	126
Aniq va mavhum otlar	128
Mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi	129
Otlarning lug‘aviy shakllari. Son shakllari	130
Otlarning kichraytirish va erkalash shakllari	131
Mustahkamlash	132
Sifat	133
Sifatlarning yasalishi	134
Sifat yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi	136
Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sodda sifat	139
Qo‘shma sifat	140
Juft sifatlar va ularning imlosi	141
Takroriy sifatlar va ularning imlosi	142
Asliy va nisbiy sifatlar	144
Sifat darajalari	145
Sifatlarning oddiy daraja shakli	147
Sifatlarning orttirma daraja shakli	148
Sifatlarning qiyosiy daraja shakli	150
Sifatlarning ozaytirma shakli	151
Sifatlarning ma‘no guruhleri	152
Xususiyat, hajm-o‘lchov, makon-zamon sifatleri	154
Rang-tus, maza-ta‘m va hid sifatleri	156
Sifatlarning otlashuvi	157
Mustahkamlash	158
Son	159
Sonlarning ma‘no guruhleri	161
Sanoq son	163
Dona son, uning yasalishi	164
Chama son, uning yasalishi	165
Jamlovchi son, uning yasalishi	167
Taqsim son, uning yasalishi	168
Kasr sonlar. Ularning yasalishi va imlosi	170
Hisob so‘zlari	171
Tartib sonlar	173
Mustahkamlash	174
Ravish	176
Ravishlarning yasalishi. Tub va yasama ravishlar	178
Ravish yasovchi qo‘shimchalar	179
Ravishlarning ma‘no turlari	180
Holat ravishleri	182
Payt ravishleri	183
O‘rin ravishleri	185

Miqdor-daraja ravishlari	186
Fe'l bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	187
Ot bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	189
Sifat, son, ravish bo'yicha o'tilganlarni takrorlash	190
Ish qog'ozlari	192
Testlardan namunalar	195
Asosiy atamalar lug'ati	199

Ona tili: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 6-sinfi uchun/N. Mahmudov, **A. Nurmonov**, A. Sobirov, O-58 D. Nabiyeva.— T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017. — 208 b. I. Mahmudov N. va boshq.

ISBN 978-9943-4003-0-6

UOʻK 811.512.133(075)

KBK 81.2 Oʻzb-922

Taqrizchilar:

N. Ahmedova — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

M. Zohidova — Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 218-maktab oʻqituvchisi

Oʻquv nashri

Nizomiddin Mamadaliyevich Mahmudov, **Abdulhamid Nurmonov**,
Abdulhay Shukurovich Sobirov, Dilora Abdulhamidovna Nabiyeva

ONA TILI

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 6-sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan va toʻldirilgan toʻrtinchi nashri

Muharrir *Sh. Bozorova*
Badiiy muharrir *Sh. Xoʻjayev*
Tex. muharrir *U. Kim*
Musahhah *S. Xoʻjaahmedov*
Sahifalovchi *L. Abkerimova*

«Tasvir» nashriyot uyi. 100005, Toshkent, Elbek koʻchasi, 8.

Bosishga 2017-yil 00-____da ruxsat etildi. Bichimi 60×90¹/₁₆.
Ofset qogʻozi. «Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabogʻi 13,0. Nashr tabogʻi 12,69. 328256 nusxada chop etildi. Buyurtma № 17-.

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligining «Oʻzbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100011, Toshkent, Navoiy koʻchasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz www.iptd-uzbekistan.uz

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda, yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.